Kirish. Insoniyat o‘zi bosib o‘tgan yo‘lni o‘rganishga doimiy tarzda harakat qilib keladi. Ammo turli siyosiy, iqtisodiy va g‘oyaviy omillar ta‘sirida tarixni o‘rganishda xolislikdan chekinish holatlari ko‘p kuzatiladi. Xolislikka asoslanmagan, turli niyatlarni berkitishga xizmat qiluvchi tarixiy ma‘lumotlar esa, odamlar uchun zararli oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Albatta, obyektiv asosda olib borilgan izlanishlar kelgusi avlodlar uchun tajriba vazifasini o‘tashi bilan bir qatorda, vaqt o‘tishi bilan paydo bo‘lgan yangi tushunchalarni to‘g‘ri anglashda ko‘makchi bo‘ladi.

Zero, islom ta‘limoti Qur‘on hamda Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatiga asoslanadi. Sir emaski, ilk islom davri bo‘yicha tadqiqot va izlanishlar soni talaygina. Lekin, ular katta hajmdagi ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan bo‘lishiga qaramay, yondashuvlarning farqli ekani bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Chunonchi, musulmon mualliflariga oid asarlar bilan g‘ayri musulmon tadqiqotchilarning ilmiy ishlari o‘rtasida tafovut katta.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

E‘tiborli jihati musulmon sharqi mualliflari islom tarixini, xususan, Payg‘ambar (s.a.v.) yashab o‘tgan ilk davrni o‘rganishda naqliy dalillarni o‘zlariga asos bilib, o‘zlari jamlagan ma‘lumotlarni ayni naqliy matnlar asosida tartiblashgan.

Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti borasida mashhur “as-Siyrat an-nabaviya”

(*أيوب بن لة قريسا* – Nabaviy siyrat) nomli asar muallifi hisoblangan arab tarixchisi Ibn Hishom (vaf. 218/833) Madinada qaror topgan musulmonlar va makkaliklar o‘rtasida to‘qnashuv yuz bergan Badr kuni haqida yozishdan avval o‘zidan oldin siyrat bo‘yicha ma‘lumotlarni jamlagan Ibn Is‘hoqning (vaf. 151/768) ushbu to‘qnashuv haqida jamlagan ma‘lumotini keltiradi: “Menga Muhammad ibn Muslim Zuhri, Osim ibn Umar ibn Qatoda, Abdulloh ibn Abu Bakr, Yazid ibn Rummon, Urva ibn Zubayr va boshqa olimlardan va ular esa Ibn Abbosdan xabar qildi. Ularning har biri ma‘lum bir hadisni rivoyat qilgan. Ulardan hadislarni jamlab chiqib, Badr voqeasini unga ko‘ra naql etdim”, degan.

Bundan ma‘lum bo‘ladiki, o‘rta asr muallifi biror masalani yoritmoqchi bo‘lsa, dastavval, o‘zidan oldin bu mavzuda kelgan ma‘lumotlarni jamlab, ularni sinchiklab o‘rganib, keyin uni o‘z asariga kiritgan.

Xuddi shu shakl yana bir arab tarixchisi – Muhammad ibn Umar Voqidiy (vaf. 207/823) tomonidan ham qo‘llanilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Uhud kuni haqida yozar ekan, muallif quyidagi ma‘lumotni keltiradi: “Menga Muhammad ibn Abdulloh ibn Muslim, Muso ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Horis, Abdulloh ibn Ja‘f, ... Abdurrahmon ibn Abu Zinod Abu Ma‘sur va men ismlarini zikr qilmagan kishilardan rivoyat qildi. Bularning barchasi menga ushbu mavzu bilan bog‘liq hadislarning bir qismini aytishdi. Ularning ba‘zisi boshqa birisidan ko‘ra aniqroq edi. Men ularning barchasini bir joyga jamladim”.

Tahlil va natijalar

Demak, ilk islom tarixini, xususan siyratni o‘rganishda hadislarga tayanilgan. Bunda siyrat muallifi tomonidan mavzuga oid bir nechta hadislar sanadlarini bir qatorda keltirib, hadis matnlari esa o‘zaro mantiqan birlashtirish natijasida kelib chiqqan umumiy manzarani keltirishga asoslanadi. Bu o‘rinda shuni aniq ifodalash kerakki, albatta, siyrat mavzusiga kiritish uchun bir qancha hadisning sanadlarini tushirib, matnlarining esa birlashtirib yuborilishi anglashilmasligi lozim. Balki faqat birgina hadis ham siyratning mavzusi doirasida manba vazifasini bajara oladi. Zero quyidagi misollarda bu masala aniqroq namoyon bo‘ladi.

Ibn Hishom Uhud kuni haqidagi ma‘lumotlarni jamlar ekan, “Oli Imron” surasidagi: “Alloh yo‘lida o‘ldirilganlarni aslo o‘lik deb hisoblamang” oyatini sharhlar ekan, mazkur oyatga aloqador Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qilingan quyidagi hadisni keltiradi: “Payg‘ambar (s.a.v.): “Senga bir xushxabar aytaymi, ey Jobir?”, dedilar. Men esa: “Albatta, ey Allohning

nabiysi”, dedim. Shunda aytdilarki: “Otang Uhudda shahid bo‘lgan vaqtda, Alloh azza va jalla uni qayta tiriltirdi. So‘ng unga: “Ey Abdulloh ibn Amr sen uchun nima qilmog‘imni xush ko‘rasan”, dedi. U esa: “Ey Robbim, meni yana dunyo hayotiga qaytarmog‘ing, unda men tag‘in jang qilishimni va yana bir bor jon berishimni, istayman”, dedi .

Shu o‘rinda “siyrat” so‘zi borasida ayrim tafsilotlarga o‘rin berish zarur. Siyrat (قُرَيْشِيَّة) aslida, “arīsi” masdaridan olingan ism bo‘lib, tilda: sunnat, tutilgan yo‘l, vaziyat, ko‘rinish, holat kabi ma‘nolarni anglatadi . Lekin “siyrat” so‘zi Payg‘ambar (s.a.v.)ning hayot yo‘llari va nasl-nasabi haqidagi ma‘lumotlar to‘plami sifatida qo‘llangan. Islom tarixchisi Ibn Shihob Zuhriy (vaf. 124/742)dan quyidagicha rivoyat qilinadi: “Holid ibn Abdulloh Qasriy (vaf. 126/743) menga: “Nasablar haqida bir kitob yozib bergin dedi. Men ham Muzor (رضم) qabilasining nasablari haqida yozishni boshlagan edim, ammo uni yakuniga yetkazmasimdan: “Siz buni yozishni to‘xtating, Alloh o‘zi ularni urug‘ini quritsin. Siz menga siyrat bo‘yicha yozib bering”, dedi . Bundan ma‘lum bo‘ladiki, Makkaning voliyi bo‘lgan Holid ibn Abdulloh Qasriyning siyratdan murodi Payg‘ambar (s.a.v.)ning nasl-nasabi bo‘lgan. Ammo, vaqt o‘tib, “siyrat” so‘zini tarixchilar tomonidan “Siyрати Husayniya”, “Siyрати Umar ibn Abdulaziz” shaklida, umumiy biografik asarlar uchun ham qo‘llanilganiga guvoh bo‘lish mumkin .

O‘rta asr arab tarixchilari Muhammad (s.a.v.) yashagan davrda sodir bo‘lgan hodisa va voqealarni hikoya uslubida xronologik tarzda bayon qilib berishgan. Ayniqsa, islom tarixini yoritishda tabaqalashtirish kabi yangicha uslubni qo‘llab kitob ta‘lif etgan tarixchi Ibn Sa‘ddan (vaf. 230/845) so‘ng Payg‘ambar (s.a.v.) hadislarini va o‘sha davrda yuz bergan voqealarning sanadlari va roviylarini ko‘rsatmay, vaziyatning o‘zini keltirish odat tusiga kirdi.

Islom tarixini, xususan, Makka davrini yoritishga qaratilgan izlanishlar, dastavval, Payg‘ambar (s.a.v.) hayot yo‘li, Qur‘on nozil bo‘lishi va uni odamlarga yetkazib, islomga chaqirish faoliyatiga doir ma‘lumotlarni o‘rganish va ularni jamlash ko‘rinishida amalga oshirilgan. Vaqt o‘tishi bilan tadqiqotchilarning asarlari garchi bir mavzu doirasida bo‘lishiga qaramasdan, ko‘zlangan maqsadga qarab mazmunan va shaklan o‘zgarib borgan. Natijada, “mag‘oziy” (مِزَاغِيَّة), “siyrat” (قُرَيْشِيَّة), “shamoil” (لِئَامِشِيَّة), “daloil” (لِئَالِدِيَّة) kabi yo‘nalish va uslubdagi asarlar vujudga kelgan.

Ilk islom tarixi bo‘yicha kitoblar ichida eng qadimgi yozma manbalar sirasiga mag‘oziy turkumidagi manbalar kirib, ularning avvalida Ibn Is‘hoqning (vaf. 151/768) “Kitabul mag‘oziy” (مِزَاغِيَّة - G‘azotlar kitobi) nomli asari turadi. Mag‘oziy so‘zi, aslida, “harbiy yurish”, “hujum qilmoq” kabi ma‘nolarni anglatuvchi “g‘-z-v” (وزغ) o‘zagidan yasalgan bo‘lib, istilohda, Payg‘ambar (s.a.v.) hayotlik davrlarida amalga oshirgan harbiy harakatlar xususida ma‘lumotlarni jamlagan asarga nisbatan qo‘llaniladi.

Mag‘oziy toifasidagi kitoblardan bo‘lak, payg‘ambar siyratini va shu orqali ilk islom davri tarixini ochib berishga bag‘ishlangan asarlar toifasiga “shamoil” kitoblarini ham qo‘shish mumkin. “Shamoili Muhammadiya” mavzusi ba‘zi tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, islom ilmlari ichida o‘ziga xos ilm sifatida ham qaraladi. Bu turdagi kitoblarga Payg‘ambar (s.a.v.)ning ibodatdagi holati hamda tashqi qiyofasi va uni vasf etuvchi hamda siyratga oid hadislar jamlangan .

Xulosa

Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti va shu bilan qatorda, ilk islom tarixini yorituvchi kitoblarning yana bir turi – bu “daloil” nomi ostida jamlangan asarlar. Ularda, asosan, risolatning rostligi va bu davrda yuz bergan mo‘jizalarni asoslashga e‘tibor qaratilgan. Daloilni islom ulamolari ikki qismga ajratishgan: ma‘naviy va hissiy. Ma‘naviy dalillarga Payg‘ambar (s.a.v.) axloqi, so‘zlari, qilgan ishlari kabilar kiritilgan. Hissiy dalillarga kelganda, aytish mumkinki, ular juda ham ko‘p bo‘lib, ulardan bir nechtasini sanab o‘tish mumkin. Xususan, o‘yning ikkiga bo‘linishi, barmoqlar orasidan suvning otilib chiqishi, oz taom bilan ko‘p odamning to‘yishi, daraxtlar, toshlar, hayvonlar bilan munosabat va boshqalar. Ammo bunday dalillarning avvalida shubhasiz Qur‘oni karim turadi. E‘tiborlisi, “Daloil an-nabaviya” (دَلِيلُ النَّبِيِّ), “A‘lam

an-nabaviya” (ةيوبنلا مالعأ), “Oyat an-nabaviya” (ةيوبنلا تايآ) nomi ostida jamlangan kitoblarda Muhammad (s.a.v.) Allohning elchisi ekaniga isbot bo‘luvchi dalil va mo‘jizalar haqidagi hadislar o‘rin olgan.

Fodalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

271 – ص. 1855 – ءكلك. يدق اولل يزاعمل اباتك. هللا دب ع وبا يدقاوبل رمع نب دمحم

ص. 1990. – ءارئل ءباحصل راا: رصم. – ءيوبنلا ءريسل. لكلمل دب ع, ماشه نبا 174

Giorgio Levi Della Vida, “Sîre”, İA., (Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı, 1966), 10: 699; Fayda // “Siyer ve Megâzi”, 37:319; Ayrıca bkz.; Ahmet Yaman, “Siyer” // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi, (Ankara: TDV Yayınları, 2009), 37: 316-319.

ءسارء: ءيوبنلا ءريسل رااصم. ينارهل ايايحي نب هللا فيض <http://www.shamela.ws> ءيوبنلا ءرسل رااصم ضعبل ءيدقن ءيليلحت

XIX ASRDA TURKISTON O'LKASIGA BUG' DVIGATELI TEGIRMONLAR KIRIB KELISHI TARIXI

Elova Dilnoza Davlatovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada arxiv hujjatlari materiallari orqali XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasiga bug' dvigateli tegirmon texnik vositasining kirib kelish tarixi va uni xalq xo'jaligiga ta'siri masalalari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Tayanch atamalar: Turkiston, yangi texnika, yer maydoni, tegirmon, silindr, bug' dvigateli, ot kuchi, narx-navo, stansiya, sug'orish, dehqonchilik, suv, mashinist, ta'mirlovchi, firma.

THE HISTORY OF THE INTRODUCTION OF STEAM ENGINE MILLS TO TURKESTAN IN THE 19TH CENTURY

Elova Dilnoza Davlatovna

Bukhara Davlat University Associate Professor, (PhD)

Summary: In this article, the history of the introduction of the steam engine mill technical tool to Turkestan in the late 19th - early 20th centuries and its impact on the national economy are analyzed on a scientific basis through the materials of archival documents.

Key words: Turkestan, new machinery, land area, mill, cylinder, steam engine, horse power, price, station, irrigation, farming, water, machinist, repairman, firm.

ИСТОРИЯ ПОЯВЛЕНИЯ ПАРОВЫХ МЕЛЬНИЦ В ТУРКЕСТАНЕ В XIX ВЕКЕ

Елова Дильноза Давлатовна

Бухарский давлат университет доценты, т.ф.ф.д.(PhD)

Аннотация: В данной статье на научной основе через материалы архивных документов анализируются история внедрения технического средства паровой мельницы в Туркестан в конце XIX - начале XX веков и его влияние на народное хозяйство.

Ключевые слова: Туркестан, новая техника, земельный участок, центробежный насос, цилиндр, паровая машина, мощность, цена, станция, орошение, сельское хозяйство, вода, машинист, ремонтник, фирма.

Kirish. Turkiston o'lkasida turli ot kuchiga ega bo'lgan bug' dvigateli asosida ishlaydigan tegirmonlar soni XIX asr 90-yillaridan boshlab tez ko'payib bordi. Shuningdek, jolgen (qadimgi ya'ni suv va ishchi hayvoni bilan harakat qiladigan tegirmonlar) larni qurish ham, eskirib tashlandiq bo'lib qolgan tegirmonlarni tiklashni so'rab imperiya ma'murlariga murojaat qilingan yuzlab xatlar arxiv hujjatlaridan o'rin olgan. Jumladan, mahalliy xalq vakillari ham bug' dvigateli kuchi bilan ishlaydigan tegirmonlar qurganligi muhimdir. 1896 yilning boshlarida Uchqo'rg'on mirobboshisi (Farg'ona viloyati) Avval volosti boshqaruvchisiga yozgan bildirishida: Uchqo'rg'on istiqomat qiluvchi Ibrohim Sardorov, Hojiboy Abdullaev, Mullaboy Daminov, Toshmuhammad Husanboev, Usmon Toirov, Muhammadrajab Dadaboev, Oxunjon Marmusaevlar zamonaviy tegirmon qurishga ruxsat so'raganliklarni bildiradi. [1,1-2b] Ushbu tegirmonlarni qurishdan asosiy maqsad, tevarak-atrofdagi dehqonlarni un bilan ta'minlash, ular uchun qulay, yaqin atrofda ulov (ot-arobasiz-diss) siz mushkulni yengil qilishga imkon tug'dirish ham bo'lgan. Shaxsiy va xususiy tegirmonlar soni shahar va qishloqlarda XX asr boshlaridan muttasil oshib borgan. Manbalardan birida: 1900 yilda Toshkentda tadbirkor Mirtursun Mirmuhamedovda 2 ta tolchen va 1 ta zamonaviy tegirmon bo'lgan. Uning tegirmoni va tolchenlaridan yaxshigina daromad kelgan – degan ma'lumot

keltirilgan. O'lkadagi anhor va ariqlar bo'yida eski tegirmonlar bilan zamonaviy o'nlab tegirmonlar qurilgan. 1898 yilda tadbirkor Mulla Iskandar Pardaboev Oqdaryo, Xo'jaqo'rg'on anhorlari bo'yida (Sirdaryo viloyati) tegirmonlar qurdi. Ayniqsa, Oqdaryodan chiqarilgan ariq va anhorlar bo'yida o'nlab tegirmonlar qurilgan. Imperiya markazidan Turkiston o'lkasiga ko'chirilgan aholi orasidan tadbirkor va ayrim o'ziga to'q dehqonlar ham zamonaviy texnika asosida ishlaydigan tegirmonlar qurishdi.

Ularning tegirmonlari o'lkadagi rus poelenie, selenie (qishloq), posyolkalarini un bilan ta'minlardi. Yevropa millati vakillariga tegishli tegirmonlarda mahalliy xalq vakillari ham kunbay, haftalik maosh to'lash sharti bilan ishlashgan. Kattaqo'rg'on uezdi (Samarqand viloyati) Fyodorov posyolkasida istiqomat qiluvchi o'ziga to'q rus dehqoni G.G.Levchenkoga Qorasuv daryosi bo'yida tegirmonlar qurishga ruxsat berilganligi, keyinchalik uning tegirmonlarida 15-20 ta mahalliy aholi orasidan chiqqan ishchilar ishlanganligini qayd etish mumkin.[2,13b] Farg'ona viloyatiga ko'chirilgan slavyan aholi vakillaridan A.Xosenkov va V.Fyodorovlarning ham tegirmonlari muntazam ishlab turgan. Arxiv hujjatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, eski tegirmonlarni tiklash, ularni yangi texnika asosida ta'mirlash hamda ishga tushirish bu davrda keng tus olgan. Shuningdek, ayrim qishloqlarda jamoa bo'lib, bug' dvigateli asosida ishlaydigan tegirmon qurish harakatlari ham bo'lgan. 1907 yil 20 oktabrda Kalixasa qishlog'i (Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on uezdi - diss)da yashovchi Muhammad Aliboy Abdujabborov eski tegirmonini yangidan tiklagan. Ushbu uezddagi tog'aybek qishlog'ining 13 nafar aholi vakillari Kattaqo'rg'on uezd boshlig'idan 1905 yil 21 sentabrda hamjihat bo'lib 2 ta tegirmon qurishga yozma murojaat qilinib ruxsat so'rashgan.

Ta'kidlash joizki, mirob, ariq oqsaqoli, volost boshlig'i, uchastka prestavlari bilan tegirmon egalari o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib turgan. Ushbu ziddiyatlarning asosiy sababi – suv manbalarining dehqonlar xo'jaligiga yetarlicha bormayotganligi, ularning soliqlari o'z vaqtida to'lamaganliklari, ayrim hollarda ruxsatsiz tegirmon qurishga va ta'mirlashga bo'lgan urinishlar edi. 1900-1912 yillarda o'nlab tegirmon egalari sudga tortilgani haqida bildirish, bayonnoma va maxsus xatlar mavjudligi yuqoridagi fikrni isbotlaydi. Tadqiqot davomida amin bo'lindiki, yangi va eski asosda ishlaydigan tegirmonlar qurish uchun har bir tegirmon egasi 1 rub. 25 kop. miqdorida ta'rif (boj) solig'i to'lardi.[4,14-16 b]

Kattaqo'rg'on shahridan Muhammad Abdujabborov tegirmon qurish uchun ta'rif,(boj) solig'ini to'lagani, unda barcha hujjatlar rasmiylashtirilgan holda mavjudligiga qaramay ruxsat olamayotganligidan shikoyat qilgan. Ikkinchi bir Kattaqo'rg'onlik o'zbek Shodibek Xidirboev uezd oshlig'iga 1907 yil 17 aprelda yozgan shtkoyatida, 36 yildan buyon tegirmoni borligi, eski tegirmon o'rniga yangi tegirmon qurganligi, u tegirmon o'rnatgan ariqdan K.Do'stqulov, A.Ahmadov, N.Abdurazzoqov, Abdulla Polvon Sodiq singarilar o'z yerlariga suv olmasada, unga qarshilik qilib kelayotganliklarini qayd etgan. Men tegirmon o'rnatgan ariqdan 116 tanop yer suv ichadi, ariq bo'yida paxta tozalash zavodi ham mavjud. Aslida ariqdan Mirzo Zarif, Mirzo Latif, Sharif Xo'ja oilalari, jami 21 xonadon suv ichadi. Biror bir komissiya tuzib men va menga qarshilik qilib turgan kishilar o'rtasidagi muammoni hal qilsangiz” – deb yozgandi Shodibek Xidirboev.

Aholi bilan tegirmon qurganlar o'rtasidagi ziddiyatlar ba'zan ochiq janjallarga aylanib, ayrim joylarda tegirmon egasining mahalla va qishloqdoshlari kurashi, tegirmonlarni buzib tashlashlargacha borib yetgan. Farg'ona viloyati Marg'ilon uezdi Bo'ston volost Qoshg'ar qishlog'ida yashovchi Madumar Mulla Norqulov uezd nachalnigiga yozgan shikoyatida (1896 yil 10 iyun - diss) qishloqdoshlari uning tegirmonini buzib tashlashganini, ushbu tegirmonni qozi 44 tilla baholanganligi va zararni qoplashda amaliy yordam so'ragan.[8,16 b]

Shuningdek, Marg'ilon uezdi Avval volostidan Miroyshabibi Safarova ham uezd boshlig'iga shikoyat qilib, uning yangidan qurgan (1901 yil - diss) tegirmonini 2 ta qishloqdoshi vayron qilib, 144 rubl zarar keltirganidanshikoyat qilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlar o'rganilar ekan, XIX asr so'nggi o'n yilligi XX asr boshlarida

Turkistonda yuzlab tegirmonlar mavjud bo'lib, bug' dvigateli bilan ishlaydigan tegirmonlar bilan barcha eski (tolchen) tegirmonlar ham ishlab turgan. Zamonaviy tegirmonlar aholining ehtiyojini to'la qondira olmasligi tufayli suv va ishchi hayvoni yordamida ishlaydigan tegirmonlarga ehtiyoj saqlangan edi. Bizningcha, yangi tegirmonlar o'rnatishning qimmatligi, bu uchun oddiy aholida yetarlicha mablag' mavjud emasligi ham o'z zamonasi uchun texnika sohasida olg'a qadam hisoblangan yangi tipdagi tegirmonlar keng tarqalishiga imkon bermagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ўзбекистон Миллий Архиви U-23-фонд, 1-рўйхат, 714-йиғма жилд, 5,6-варақлар, 6-варақнинг орқа томони.
2. ЎзМА, U-17-фонд, 1-рўйхат, 16318-йиғма жилд, 1-2 варақлар.
3. ЎзМА, U-22-фонд, 1-рўйхат, 1989-йиғма жилд, 7-8 варақлар.
4. ЎзМА, U-22-фонд, 1-рўйхат, 1498-йиғма жилд, 13-варақ.
5. ЎзМА, U-22-фонд, 1-рўйхат, 1989-йиғма жилд, 32,33,34,35,36,37,38,39,40-варақлар.
6. ЎзМА, U-22-фонд, 1-рўйхат, 1498-йиғма жилд, 24-варақ, 28-варақнинг орқа томони.
7. ЎзМА, U-23-фонд, 1-рўйхат, 714-йиғма жилд, 10-варақ.
8. ЎзМА, U-23-фонд, 1-рўйхат, 714-йиғма жилд, 16-варақ.
9. Davlatovna, Elova Dilnoza. «“Navro'z” bayrami bilan bog'liq an'analarning tarixiy manbalarda yoritilishi.» ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 3.4 (2023): 4-6.
10. Davlatovna, Elova Dilnoza. «Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-yillar): Elova Dilnoza Davlatovna, tffd (PhD), Buxoro davlat universiteti.» Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 2 (2023): 7-11.
11. Sh, Ahmadov O. «O'quvchilarda o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik asoslari.» Journal of science, research and teaching 2.8 (2023): 65-70.
12. Davlatovna, Elova Dilnoza. «buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-yillar).» pedagogs jurnali 1.1 (2023): 760-760.
13. Элова, Дилноза. «XIX аср охири-XX аср бошларида туркистон хўжалигига марказдан қочувчи насос техникасининг кириб келиши.» ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 2.11 (2022): 162-165.
14. Элова, Дилноза. «История Появления Автомобилей И Тракторов В Бухаре В Начале Хх Века.» Miasto Przyszłości 29 (2022): 357-358.
15. Элова, Дилноза Давлатовна. «Туркистон тараққийпарварларининг янги техникалар ва уларнинг ўлка бўйлаб тарқалишидаги роли.» Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning 2.1 (2024): 9-12.
16. Элова, Дилноза Давлатовна. «XIX АСР охири–XX аср бошларида туркистонга янги ҳарбий қурол–яроғларнинг кириб келиши тарихи (архив манбалари асосида): Элова Дилноза Давлатовна Бухоро давлат университети 1-курс таянч докторанти.» Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 6 (2021).
17. Дилноза, Элова. «История Появления Автомобилей И Тракторов В Бухаре В Начале Хх Века.» (2023).
18. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – Т. 10. – №. 12. – С. 1224-1227.
19. Elova, Dilnoza, and Olimjon Ahmadov. «Bukhara from the history of the events of the organization of the air fleet of modern new technology and the introduction of aircraft.» E3S Web of Conferences. Vol. 515. EDP Sciences, 2024.
20. Ahmadov O. Бухоро амирлигида янги усул мактаблари фаолияти. ютуқлари ва муаммолар //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
21. Ахмедов О. Ш. Образование в бухарском эмирате (на основе жизни и творчества правителей) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT SANOATI TARMOQLARINING RIVOJLANISHI

*Nilufar Esonova,
katta o‘qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi*

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasida yangi oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va mazkur jarayondagi imkoniyatlar, oziq-ovqat sanoati sohasi bo‘yicha horijiy mamlakatlar bilan aloqalar ilmiy manbalar asosida tarixiy tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Sanoat, oziq-ovqat sanoati, zavod, un sanoati, vino sanoati, yog‘ sanoati, yengil sanoat, sabzavot konserva sanoati, kadrlar siyosati .

РАЗВИТИЕ СЕТЕЙ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

*Нилуфар Эсонова,
старший преподаватель, Университет экономики и педагогики, Карши*

Аннотация. Исторически на основе научных источников анализируются возникновение и развитие новых пищевых производств в Республике Узбекистан и возможности в этом процессе, отношения с зарубежными странами в области пищевой промышленности.

Ключевые слова: Промышленность, пищевая промышленность, заводы, мукомольная промышленность, винодельческая промышленность, нефтяная промышленность, легкая промышленность, овощеконсервная промышленность, кадровая политика.

DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRY NETWORKS IN UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

*Nilufar Esonova,
senior lecturer, University of Economics and Pedagogy, Karshi*

Abstract. The emergence and development of new food industries in the Republic of Uzbekistan and opportunities in this process, relations with foreign countries in the field of food industry are analyzed historically based on scientific sources.

Key words: Industry, food industry, factory, flour industry, wine industry, oil industry, light industry, vegetable canning industry, personnel policy.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo‘lmagan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma‘no-mazmuni va xarakteri tubdan o‘zgardi. Jahon mamlakatlarida sanoatning jadal taraqqiy etishi, davlatlararo iqtisodiy munosabatlar sohasining chuqurlashishi, xalqaro miqyosida faoliyat ko‘rsatuvchi BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti faoliyati va soha tarixiga qiziqish ortib, u bilan bo‘lgan tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Jahonning turli ilmiy-tadqiqot markazlari, ixtisoslashgan ilmiy muassasa hamda oliy o‘quv yurtlarida sanoat sohasi tarixi va uning yangi tarmoqlari bo‘yicha keng ko‘lamdagi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo‘l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o‘zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib toptirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilmoqda [1, 24].

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Boz ustiga, bunday holatda inson manfaatlari yo'lida ham qishloq xo'jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanadi [2, 5].

Nega bashariyat farovonligi va kelajagiga xizmat qiluvchi mana shunday nufuzli tashkilot bu boradagi nuqtayi nazarlarni yangilash g'oyasini ilgari surmoqda? Sababi, bugungi kunda tabiatga befarq munosabat, unga antropogen ta'sirning kuchayib borishi, isrofgarchilik, ilg'or va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi oziq-ovqat balansi bo'yicha farqning o'sayotgani, iqlim o'zgarishlari qator salbiy omillarni keltirib chiqaryapti. Noz-ne'matlarimiz, chuchuk suv, ummonlar, o'rmonlar, biologik xilma-xillik keskin sur'atlarda kamayib bormoqda, yer unumdorligi pasayib, tuproq degradatsiyaga uchrayotir.

Oqibatda, BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga yetadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat yemaslik natijasida kelib chiqayotir. Hozirgi kunda har yili 3,1 nafar bola aynan shu sabab hayotdan ko'z yummoqda [3, 104].

Qolaversa, sayyoramizdagi har to'rt bolaning bir nafari o'z yoshiga nisbatan o'smay qolgani aniqlangan. Maktab yoshidagi 66 mln. o'g'il-qiz darslarga beixtiyor och keladi. Shulardan 23 mln.i Afrikada istiqomat qiladi. Masalaning yana bir tomoni. Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugun kurrai zamin aholisining 40 foizi aynan shu soha orqali tirikchilik qiladi. Bu qashshoq qishloqlardagi oilalar uchun daromad keltiruvchi va bandlikni ta'minlovchi asosiy manbadir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda asosan lalmi bo'lgan besh million kichik fermer xo'jaliklari oziq-ovqatning 80 foizini yetkazib beradi. Shunday ekan, mazkur jabhaga investitsiya kiritish aholi qatlamlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qatorida mahalliy va tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish bo'yicha mamlakat imkoniyatlarini oshiradi. Yaqinda BMT tomonidan sohada yana bir tashabbusga qo'l urildi[4, 45].

Ya'ni oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligiga qarshi kurashish bo'yicha global kampaniya e'lon qilindi. Bu ham aynan oziq-ovqat xavfsizligiga xizmat qiladi. Ushbu tuzilmaning Atrof-muhit bo'yicha tashkiloti(YUNEP) ma'lumotiga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 1,3 mlrd. tonna oziq-ovqat mahsulotlari tashlab yuborilar ekan.(Bunga qaysidir ma'noda o'zimiz ham to'ylarimizdagi isrofgarchiliklar orqali "hissa" qo'shmoqdamiz. Bejizga bunday tadbirlarni ixchamlashtirish bo'yicha ishlar olib borilmayapti). Ne'matlarning bunday isrof qilinishidek mantiqsiz holatga barham berish uchun birinchi navbatda ularni saqlash sharoitlarini o'zgartirish taklif etilyapti.

“Qotgan non? Bir yog'i chirigan olma? Mog'or bosgan pishloq? Bunday mahsulotlar bilan nima qilish kerak? Ko'pchilik ularni tashlab yuboradi. Dunyodagi oziq-ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi chiqindi idishlarida yotadi. Jahon iqtisodiyoti bundan har yili qariyb trillion dollar zarar ko'ryapti”, - deb yozadi BMT [5, 12].

Tashkilot statistikasiga ko'ra, dunyoda har yili qariyb to'rt mlrd. tonna oziq-ovqat ishlab chiqariladi, agar ulardan oqilona foydalanilib, taqsimlansa, bu aslida sayyora ahlining barchasiga yetgan bo'lardi. Yuqoridagi kabi omillar tufayli dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko'tarilib boryapti. Oxirgi o'n yilda kuzatilgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi esa mazkur muammoning keskin tus olishiga sabab bo'ldi. Uning asoratlari hamon sezilyapti. Zero, oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini shu kabi asosiy mahsulotlar bilan o'zini o'zi, mustaqil ta'minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o'ta bog'liqlikdan xalos bo'lganligini anglatadi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash

siyosati qachon samara beradi? Qachonki, mahsulot ishlab chiqarish va import qilish darajalari oqilona uyg'unlashtirilsa, bu borada aholi uchun kafolatlangan imkoniyatlar yaratilsa, xalqaro pragmatik hamkorlik aloqalarni rivojlantirilsa, davriy ravishda yangilanib turadigan oziq-ovqat zaxirasini yaratishga ham qaratilgan bo'lsa.

Shunday ekan, oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash garovi hisoblanadi. Yurtimizda bu muammo hamon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshyapti, aholi cono o'sishi asnosida jon boshiga icte'mol ko'paymoqda. Binobarin, so'nggi uch yilda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirishga bo'lgan yondashuv mutlaqo o'zgardi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirildi.

Ma'lumki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Unda 3,6 million kishi, ya'ni iqtisodiyotda band bo'lganlarning 27 foizi ishlaydi. YAIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo'lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi [6, 2].

Hozirgi vaqtda 180 dan ortiq turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinayotgani diqqatga sazovor albatta. Yana bir e'tiborli jihati, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yilib, u keng quloch yozyapti. Ular bilan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining 62 foizi paxta-to'qimachilikda, 8 foizi chorvachilikda va 7,5 foizi meva-sabzavotchilikda qamrab olingani buning tasdig'idir. Shular qatorida sohani yanada rivojlantirish, fermerlar daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish borasida foydalanilmayotgan bir qator imkoniyatlar mavjud. Davlat rahbarining 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va ayni paytda ishlab chiqilayotgan O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020—2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi shu nuqtai-nazardan dolzarbdir [7, 4].

Aslida oziq-ovqat xavfsizligi juda keng tushuncha bo'lib, u, eng avvalo, aholi ehtiyojini fiziologik me'yorlarga mos ravishda iste'mol tovarlari bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq keyingi paytda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi aholi soni va ehtiyojlarining ortishidan orqada qolayotgani, ayniqsa, qishloq xo'jaligi hamda qayta ishlash sanoati rivoji uchun yetarli sharoit mavjud bo'lmagan mamlakatlarda muammo tobora chuqurlashib borayotgani tashvishlanarlidir. Shunday murakkab bir paytda O'zbekistonimizda aholining muhim kundalik iste'mol tovarlariga bo'lgan talabi to'liq qondirilibgina qolmay, katta miqdorda eksport qilinayotgani tahsinga loyiq. Gap shundaki, yurtimizda jon boshiga qariyb 300 kilogramm sabzavot, 75 kilogramm kartoshka va 44 kilogramm uzum to'g'ri kelmoqda. Bu optimal, ya'ni maqbul deb hisoblanadigan iste'mol me'yoridan uch barobar ko'pdir. Qolaversa, 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar dunyoning 80 ta davlatiga eksport qilinayotgani kimni quvontirmaydi deysiz?!

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bosh direktori Joze Gratsianu da Silva 2014 yilning 5-6 iyun kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan "O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzuidagi xalqaro -konferensiyada so'zlagan nutqida mamlakatimizda mazkur jabhada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarga alohida to'xtalib, jumladan, shunday degan edi: "2000 yillarning boshlaridan bugungi kungacha O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida ulkan taraqqiyotga erishdi. 2000 yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va hosildorlik muttasil oshirib kelinayotgani bunday hayratlanarli yutuqlarning bosh omilidir" [8, 4].

Shu bilan birga, O'zbekiston sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining seleksioner olimlari tomonidan har xil muddatda pishadigan hosildor, yuqori sifatli hamda kasalliklarga chidamli sabzavot ekinlarining 41, polizning 5 ta, kartoshkaning 6

ta yangi navi yaratildi[9, 65].

Keyingi yillarda dunyo bo'yicha iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik omillar seleksionerlar oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Ilmiy asoslangan, taj-ribada sinalgan, suv tanqisligi va qurg'oqchil sharoitga moslashuvchan, turli -zararkunandayu kasalliklarga chidamli, yuqori hosilli navlarni ko'paytirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shu ma'noda, o'tgan yili akademik M. Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan "Invitro" laboratoriyasi ishga tushirilgach, viruslardan xoli bo'lgan meva va uzum ko'chatlarini yetishtirish imkoniyati yuzaga keldi. Umuman olganda, urug'chilik tizimini rivojlantirish, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash bo'yicha ilg'or texnologiyalar joriy etilishi hisobiga oxirgi 5 yilda qayta ishlangan mahsulotlar hajmi qariyb 5 marotaba oshdi. Ma'lumki, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlovchi asosiy tarmoqlardan yana biri chorvachilikdir[10, 53].

Chunki ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 42,2 foizi mazkur soha hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu jabhada erkin bozor mexanizmlari shakllantirilgani, ko'plab imtiyozlar taqdim etilayotgani natijasida chorva mollari soni hamda go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi muttasil ravishda ortib borayapti. 2015 yil yakunlariga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar soni 1991 yildagiga nisbatan 2,4 barobarga, jumladan, sigirlar soni 2 barobar, parrandalar soni 1,8 marta ko'paygani shunday deyishimizga to'la asos bo'la oladi [11, 102].

Zotan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur" [12, 4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent.: O'zbekiston, 2018. – 508 b.
6. Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish-eng muhim vazifamizdir" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvida so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil 21 avgust.
7. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi. review.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www. lex.uz.
9. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
10. O'zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. Mas'ul muharrir: A.Sabirov, S.Po'latova. – Toshkent, 2014.
11. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
12. O'zbekistonning eng yangi tarixidan ocherklar: Metodologiya, tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari. Mas'ul muharrir: A.Sabirov. – T. 2014.:

GASTRONOMIK TURIZM - BUXORO PAZANDACHILIK MEROSINI SAQLAB QOLISH OMILI

*Qurbonova Manzila Boqiyevna,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Buxoro davlat universiteti*

Annotatsiya: Xalqning moddiy madaniyatini ko'rsatuvchi muhim elementlaridan biri taomlar, tanovvul madaniyati, kulinariya jihozlari, taom tayyorlash texnologiyasi har bir sayyohni qiziqtirib keladi. Maqolada sayyohlikning asosiy yo'nalishlaridan biri gastronomik (mehmondo'stlik, tanovvul) turizmning maqsadi, mohiyati, Buxoro vohasida ushbu turni rivojlantirish yo'llari va imkoniyatlari, voxada azaldan shakllangan xalq oshpazligi, pazandachilikning shakllari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: etnografik turizm, ovqatlanish etiketi, milliy taomlari oshxonasi, taomlar degustatsiyasi, xalq oshpazligi, palov, oshi sofi, "Sumalak bazmi", halvoyitar, obi-navvot.

ГАСТРОНОМИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ-ФАКТОР СОХРАНЕНИЯ КУЛИНАРНОГО НАСЛЕДИЯ БУХАРЫ

*Курбанова Манзила Бакиевна,
кандидат исторических наук, доцент
Бухарского государственного университета*

Аннотация: Одним из важных элементов материальной культуры народа является еда, кулинарная культура, кулинарный инвентарь, технология приготовления пищи, которая представляет интерес для каждого туриста. В статье анализируются цель и сущность гастрономического (гостиничного, гастрономического) туризма, одного из основных направлений туризма, пути и возможности развития этого вида туризма в Бухарском оазисе, народная кухня, сформировавшаяся с древних времен, виды и формы приготовления пищи.

Ключевые слова: этнографический туризм, пищевой этикет, кухня национальных блюд, дегустация блюд, народная кулинария, плов, оши софи, "сумалак пати", халвоитар, оби-наввот.

GASTRONOMIC TOURISM IS A FACTOR IN PRESERVING THE CULINARY HERITAGE OF BUKHARA

*Kurbanova Manzila Bakievna,
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor*

Abstract: One of the important elements of the people's material culture is food, culinary culture, culinary equipment, cooking technology, which is of interest to every tourist. This article analyzes the purpose and essence of gastronomic (hospitality, dining) tourism, one of the main directions of tourism, the ways and possibilities of developing this type of tourism in the Bukhara oasis, the types and forms of cooking that have been formed since ancient times.

Keywords: ethnographic tourism, food etiquette, cuisine of national dishes, food tasting, national cooking, pilaf, oshi sofi, "Sumalak party", halvoyitar, obi-navvot.

KIRISH. Turizm qadim zamonlardan boshlab sayyoramiz xalqlari o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Odamlar yangi o'lkalarni kashf etish, dunyoni ko'rish va bilish, savdo-sotiqni rivojlantirish, madaniy va diplomatik aloqalarni o'rnatish maqsadida sayohatga chiqqanlar. Savdo karvonlari yo'llari kesishgan, madaniyatlar va

sivilizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashgani uchun Markaziy Osiyo mintaqasi bu jarayonda muhim o'rin tutgan.

Bugungi kunda Buxoroning jahon miqyosidagi turistik markazga munosib, ya'ni arzigulik shahar ekanligini tan olish lozim. Voha va uning xalqi o'zining noyob madaniyati, boy tarixiy merosi, qadimiy va o'rta asrlarga oid yodgorliklari bilan dunyo ahlini hayratga solib kelgan.

Milliy turizmning muhim yo'nalishi sifatida etnografik turizmni shakllantirish davr talabidir. Sayyohlar uchun etnografik turizm nafaqat qiziqarli, balki ular uchun o'ziga xos sayohat sohasi ekanligi tabiiy. Chunki har bir sayyoh faqat biznes, oddiy tomosha, do'st yoki qarindosh-urug'ni ko'rishgina emas, balki uning uchun begona mamlakat aholisi turmush tarzi bilan yaqindan tanishishni, xususan milliy urf-odatlar haqidagi ma'lumotlarni bilishni istaydi. Xususan, etnografik turizmning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan gastronomik turizm bu borada muhim rol o'ynaydi.

ASOSIY QISM. Gastronomik turizm - mahalliy oshxona, milliy taomlar va kulinariya master-klasslari orqali muayyan bir hudud yoki mamlakat bilan tanishish uchun amalga oshiriladigan maqsadli sayohatdir [1, 187].

Gastronomik turizmning asosiy maqsadi nima? U yoki bu mamlakat, unda yashovchi xalqlarni milliy taomlari, yeguliklari orqali o'rganish, yaqindan bilib olishdir. Ushbu sayohat jarayonida turist, ya'ni sayyoh mamlakatda yaratilgan moddiy madaniyatining muhim qismi oziq-ovqat, ya'ni milliy taomlari, ovqatlanish etiketi, madaniyati yordamida xalqni o'rganadi.

Gastronomik turizmni rivojlantirish omillari:

1. Buxoro moddiy madaniyatining muhim qismi bo'lgan oziq-ovqat va yeguliklar mazkur etnografik regionda azaldan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va asrlar davomida ustozshogird an'anasi asosida avloddan avlodga o'tib kelayotganligi;

2. Buxoro milliy taomlari inson salomatligiga foydali jihatlari dunyo tan olgan tib ilmi donishmadlari tomonidan o'rganilganligi. (Ibn Sino va uning ustozlari)

3. Buxoroning o'ziga xos qadimdan milliy taomlari oshxonasi yaratilganligi

4. Xalq yaratgan oshxona va uning asbob-anjomlari sayyohlar uchun tomosha obyektini vazifasini o'tashi;

Mazkur gastronomik sayohat jarayonida asosan, nimalarga e'tibor qaratiladi:

uzoq davr mobaynida kashf etilgan milliy taomlar degustatsiyasi va ularni iste'mol qilishga;

Taomlarni tayyorlashda yaratilgan milliy oshxona texnologiyasi va o'ziga xos voha madaniyatiga;

Milliy taomlar bilan bog'liq an'ana, urf-odat va marosimlarni o'rganishga;

Buxorolik yirik olim, adabiyotshunos, geograf, shoir Qori Rahmatulloh Vozehning fors – tojik tilida yozilgan “Koni lazzat va xoni ne'mat” (Lazzatlar koni va ne'matlar dasturxon) nomli asarida Buxoroda 228 xil taom, 18 xil non, 169 turdagi shirinlik va holvalar tayyorlanishi haqida ma'lumot bergan [2, 53-58].

Sayohatchilarga xalqimizning qadriyati hisoblangan milliy taomlar bilan bog'liq marosimlar tomoshasini tashkil etish o'zining ijobiy samara beradi. Misol uchun, dasturxonning ko'rki va barakasi hisoblangan non va non mahsulotlari tomoshasini uyushtirish.

Ma'lumki, Buxoro vohasida yashovchi xalqlarning an'ana sifatida hayotiga singib qolgan non va kulchalar bilan bog'liq urf-odat va marosimlari talaygina. Vohada mayda non, ya'ni zuvalasi kichik yasalgan non - “kulcha”ning sutli, yog'li, qaymoqli, jizzali qilib tayyorlangan xillari yaratilgan. Buxoroliklar kulcha xillari ko'pligidan ularni kundalik va marosimiy kulchalarga ajratishgan.

Buxoroliklarning eng sevimli taomi bu palovdir. Palov xususida xalqimiz orasida juda ko'p naqllar va rivoyatlar to'qilgan. Mashoyixlar dalolaticha, palov shunday taomki, uni tayyorlash kashf etilgandan buyon necha marta palov pishirilgan bo'lsa, hech qachon avvalgisiga o'xshamagan. Buning boisi masaliq, ob-havo, suv, olov, o'choq, ziravor, taomga solinadigan

tuz miqdori yoki damlash jihatlarida bo‘ladigan o‘ziga xos o‘t murakkab kayfiyatga bog‘liqdir. Oshpaz mahorati esa yanada ahamiyatli bo‘lgan. Xalq oshpazligida palovning yuzdan ortiq xili bo‘lgan. Qori Rahmatillo Vozeh o‘z asarida palovning 109 xili haqida so‘z yuritadi. Vohada palovlarning quyidagi xillari tayyorlangan: oshi qobuliy – qobuliy palov, oshi sofi – sof palov, oshi baxsh – to‘g‘rama palov, sovchi palov (sitara palov), oshi tokiy – tok palov, bundan tashqari oshi xossagiy va boshqa shunga o‘xshash qadimiy palovlar ham bo‘lgan.

Palovlarning qadimiy klassik turlaridan biri oshi sofidir. Bu turdagi palov Buxoro vohasidagi ma‘raka va marosimlarning ko‘rki sifatida muttasil damlanib, oshpazlik tajribasi boyib borgan. Taomni tayyorlash uchun ma‘raka egalari maxsus oshpaz chaqirtirganlar. Oshpazga faqat erkaklar yordamlashgan. Palov mis qozonda tayyorlangan, chunki mis qozon og‘zi tor, ichi keng bo‘lgani uchun masalliq yaxshi yetilgan va qozon tagi olmagan. Shu bilan birga mis qozonning hamma xajmdagi xillari mavjud bo‘lib, bu ham ishni osonlashtiradi. Mis qozon toza joyda old tomoni qibлага qaratilgan maxsus qazilgan yer o‘choqqa o‘rnatilgan.

Oshi sofi (sofi oshi) parhez sanalgan, chunki birinchidan juda xushta‘m, ikkinchidan guruch suvda qaynatilganda juda yetiladi. Shuning uchun ham sifati buzilmaydi. Qancha to‘yib tanovvul qilinsa ham kishi vujudida zo‘rlik, og‘irlik qilmaydi, ya‘ni qorinni shishirmaydi yoki qizdirib qon bosimini oshirmaydi. Shu sababli yoshu qarilar uchun beg‘ubor taom hisoblangan. Bu palovni voha o‘zbeklari “sovuqlik”, tojiklari esa “xunuki” deb atagan. Voha markazida taomni suzishdan oldin dasturxonga albatta qandchoy tortilgan. Qandchoy o‘zbeklarda “issiqlik” tojiklarda “garmi” deb qabul qilingan. Chunki uning tarkibi qorachoy, novvot, za‘far, dolchin qo‘shilmasidan iborat bo‘lgan. Qandchoydan keyin tanovvul qilingan “oshi sof” kishini jismini mo‘tadillashtirgan [3, 102-103]. 2020-yilda YUNESKO Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga O‘zbekiston tomonidan tavsiya etilgan 7 ta nomzodnoma kiritilgan. Shashmaqom, Navro‘z, Katta ashula, Askiya, “Xorazm raqsi – Lazgi” qatorida palov madaniyati va an‘analari ham kiritilgani asriy, milliy taomimizga bo‘lgan e‘tirof ifodasidir.

Buxoroliklar ma‘naviy madaniyati, o‘tmishi va buguni sahifalaridan sayyohlarni bahramand qilish uchun har bir fasl bilan bog‘liq urf-odat va marosimlarni o‘zida mujassam etgan sayl va tomoshalar talaygina. Sayyohlarni qiziqtiradigan yana bir marosimiy taom namoyishi bu Navro‘z taqvimiy marosimini boshlab beradigan “Cumalak sayli” tomoshasidir. Sumalak ko‘klam mo‘jizasi, Navro‘zning shoh taomi, taomning yaratilishi haqida xalq orasida ko‘pgina afsonalar tarqalgan. Taomning mavsumiyliigi, ya‘ni aniq muddat yanvardan aprel oyigacha davrida pishirilishi odatga aylangan [5, 29]. “Sumalak sayli” yoki “Sumalak bazmi”, ya‘ni sumalak tayyorlash va sumalakxo‘rlikka bag‘ishlangan marosimdir. Sumalakni asosan ayollar tayyorlab, uni pishirish jarayonida suhbatda bo‘lishgan, hikoyalar va laparlar aytishgan, o‘yinkulgi avjiga chiqqan. Taom tayyor bo‘lgach, esa uni pishirishda qatnashganlar va mahalla ahli sumalakxo‘rlik qilish uchun “Sumalak sayli”ga taklif etilganlar.

Gastronomik turizmning yana bir diqqatga sazovor jihati bu bevosita vohaning qadimiy shirinlik va ichimliklarini tanovul qilishdir. Ma‘lumki, Buxoro vohasida turli-tuman shirinliklar ishlab chiqarish qadimdan odatga aylangan. XIX asrning qirqinchi yillarida N.Xannikov o‘z xotiralarida Buxoro bozorida sotiladigan shirinliklar haqida qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirgan [7, 121-124, 129, 134, 137.]. O.A.Suxarevanning qayd etishicha “biror boshqa joyda Buxorodagidek shirinliklar tayyorlash taraqqiy etmagan. Bu yerda xilma-xil va xususan, qimmatbaxo xushxo‘r shirinliklar xillariga talab katta bo‘lgan” [6, 122].

Vohada qadimdan juda xilma-xil holvolar: halvoi lavz, halvoi sobuniy, halvoi akkoli, halvoi ko‘fta, hiloli, obinavot, halvoi pashmak, halvoi kunjuti yoki halvoi gardish, halvoyitar ishlab chiqarilgan. Birgina qandolatning danakligi, no‘xatligi, yong‘oqligi, bodomligi tayyorlangan.

Holvalarning shohi obi-navvot faqat Buxoro shahrida tayyorlanganligi uchun O‘rta Osiyoning boshqa viloyatlarida “Obinaboti Buxoro” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Vohada uning “Obinaboti qandin” va “obinaboti taranjabin” degan xillari bo‘lgan. Holvagar hunarmandlar

o'z mahsulotlarini tayyorlash uchun turli xildagi shakar, qand va shinnilardan foydalanganlar. Shakarning taranjabin, shakar lavlagi, shakarqamish singari xillari bo'lgan. Qandlar kalla qand, sarqand deb nomlanib, ko'rinishi to'ntarilgan kosa hajmiga o'xshab ketgan. Shinnilar ham uzum, tut, qovun va boshqa mevalardan tayyorlanib, xususan, shibirg'oni uzumidan tayyorlangan suyuq (toj.obaki), quyuq (toj.yaxaki) shinnilar turli holvalarga ishlatilgan [4, 134].

Voha axolisining kundalik iste'molidagi shirinliklar orasida parvardalar alohida o'rin tutadi. Ularning dorivorli parvarda, "sebcha parvarda" (shakli olmaga o'xshashligi uchun) akkoli (ikki tomoni uchli shaklda) parvarda va hokazo turlari bo'lgan. Parvardalar tarkibiga, albatta, dolchin, za'far va garmdori qo'shilgan. U xuddi yarim oy, ya'ni hilol shaklida yasalgan. Holvapazlar sarqand va kallaqandlarni eritib, parvarda pishirganlar. Vohada turli mevalardan qiyom, shinni, sharbatlar ham tayyorlangan.

Vohada turli o'rik navlaridan quritilgan "g'o'lin yoki turshakdan" tayyorlangan o'rik sharbati "g'o'lingob" ichimligi ham buxoroliklar iste'molida keng o'rin olgan. Qish davomida kishi tanasida yig'ilgan g'uborlarni haydash uchun g'o'lingob iste'mol qilingan. Shu boisdan bahor kirishi bilan deyarli hamma xonadonlarda bir oy davomida g'o'lingob ichilgan. Bu ichimlikni tayyorlash uchun turshak – ya'ni quritilgan o'rik (toj.g'o'lin) - sovuq suvda chayilib, qaynatilgan suvga kun davomida ivitib qo'yilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarni tadqiq qilish jarayonida vohada umrguzaronlik qilib kelayotgan buxoroliklarning xo'jalik mashg'ulotlari, urf-odatlarini, marosimlarining o'ziga xos xususiyatlari, etnomilliy madaniyati, pazandachilik tarixi haqida sayyohlar keng tasavvurga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki Buxoro viloyatida ham turizm sohasini rivojlantirishda alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, sohani taraqqiy ettirish uchun vohamizda barcha imkoniyatlar mavjud. Faqat bu imkoniyatlardan unumli va o'z o'rnida foydalana olish, ularni yanada boyitish va Buxoroning turistik salohiyatini dunyo ahliga ko'rsata olishimiz lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xalqaro turizmning muhim yo'nalishlaridan biri-gastronomik turizm Buxoro viloyati iqtisodiyoti serdaromad sohasiga aylanishi uchun sayyohlarning mavsumiy va maqsadli sayohatlarini tashkil etish lozim. Natijada shahrimizga tashrif buyurgan sayyohlar buxoroliklarning nomoddiy ma'naviy merosi hisoblangan marosimiy milliy taomlari, ularning tayyorlanish texnologiyasi, tanovul qilish etiketi, ular bilan bog'liq urf-odatlarini jonli tarzda yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, bu tur yo'nalishlar sayyohlarga ma'naviy zavq berishi bilan biga, madaniyatimizning noyob qirralaridan ularni xabardor qiladi. Mazkur yangi sayohat yo'nalishini yo'lga qo'yish viloyatimizga sayyohlar oqimini ko'payishga olib kelishi, shubhasiz.

Olib borilgan tadqiqot natijasida Buxoro vohasida gastronomik turizmni rivojlantirish uchun quyidagi etnografik takliflar ilgari suriladi:

Sayyohlarni Buxoro vohasining milliy taomlari bilan yaqindan tanishtirish uchun maxsus etnografik dasturlar tuzish;

Ushbu dasturlardan o'rin olgan marosimlarimiz: sumalak sayli, darveshona, o'n uch badal, beshik to'yi, kaltachapo'shon, muchal to'yi, lachak to'yi, bel bog'lash marosimlarining tomoshasini Buxoro shahri tarixiy-etnografik markazida jonli tarzda tashkil etish;

Yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlar uchun yuqorida qayd etilgan marosimlarga bag'ishlangan mavzuiy qo'llanmalar, fotosuratlar, bukletlar tayyorlab, xorijiy tillarga chop etishni yo'lga qo'yish;

Vohaning nonvoylari, oshpaz, halisapaz, kabobpazlari, holvagarlari bilan sayyohlarning muloqotlarini uyushtirish va pazandachilikka oid mahorat darslarini tashkil etish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гастрономия сўзи пазандалик санъати, шинавандалик маъносини англатади /

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. – Москва: “Рус тили”, 1981.

2.Неъматзода Т. “Кони лаззат ва хони неъмат”и Возеҳ / Мажмуаи илми XXVI. Серияи фанҳои филологии нашри 2. – Сталинобод, 1959.

3.Қурбонова М. Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларининг анъавий таомлари (XIX аср охири - XX аср боши). Тарих фанлари номзоди дисс...–Тошкент, 1994.

4.Қурбонова М. Б. Воҳа моддий маданиятида ширинлик ва ичимликлар ўрни / Древнее Наследие Бухары (сборник научно-познавательных статей). – Бухара: Дурдона, 2016.

5.Қурбонова М.Б. Сумалак таоми: жамоавий мулоқот ва маросимийлик рамзи // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2022. – № 11. – Б.29.

6.Сухарева О.А. Позднфеодальный город Бухара конца XIX нач. XX в. Ремесленная промышленность. – Ташкент, 1962.

7.Ханников Н. Описание Бухарского ханства. -СПб, 1843. – С.121-124, 129,134,137.

NODIR DEVONBEGI – SAMARQAND HOKIMI SIFATIDA

Rahmonova Parvina

Samarqand davlat Uneversiteti tayanch doktoranti

Anonatsiya. Ushbu maqolada Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o'z o'rniga ega bo'lgan amaldor – Nodir devonbегining Samarqanddagi hokimlik faoliyatida olib borgan obodonchilik ishlari va ashtarxoniy hukmdor Imomqulixon davrida uning davlat siyosiy hayotidagi roli haqida so'z yuritilgan bo'lib, voqealar dalilllar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: devonbegi, tug'ro, Oboq xonim, Haydar Mirzo, Sulton Mirzo.

НАДИР ДЕВАНБЕГИ - КАК ГУБЕРНАТОР САМАРКАНДА

Рахмонова Парвина

Докторант Самаркандского государственного университета Аннотация.

В данной статье говорится о благоустройстве Надира Девонбеги, чиновника, завоевавшего свое место во времена правления династии Аштарханидов, в губернаторстве Самарканда и его роли в политической жизни государства в период правления аштарханидского правителя Имама Кулихана. и события раскрываются на основе доказательств.

Ключевые слова: девонбеги, тугро, госпожа Обок, Хайдар Мирзо, Султан Мирзо.

NADIR DEVANBEGI - AS THE GOVERNOR OF SAMARKAND

Rahmonova Parvina

Doctoral student of Samarkand State University

Abstract. This article talks about the development works of Nadir Devonbegi, an official who gained his place during the rule of the Ashtarkhanid dynasty, in the governorship of Samarkand and his role in the political life of the state during the reign of the Ashtarkhanid ruler Imam Qulikhan, and the events are revealed on the basis of evidence.

Key words: devanbegi, tugro, Mrs. Aboq, Haydar Mirza, Sultan Mirza.

Nodir devonbegi 1568 yil Buxoro xonligida tavvallud topgan bo'lib, "Bahr ul asror" asarining "Imomqulixon hukmronligi davrida xizmat qilgan amaldorlar va mansabdor shaxslar haqida" bobida keltirilishicha, Nodir devonbегining otasi Buxoro xonligida yuqori mansabdagi davlat amaldorlaridan bo'lib, Sulton mirzo nomi bilan tanilgan. Sulton Mirzo Haydar Mirzoning farzandi, orlot urug'ining martabali shaxslardan hisoblanib, oilasi azaldan hukmdorlarga qarindosh bo'lgan. Imomqulixonning onasi Oboq xonim Haydar Mirzoning farzandi bo'lgan. Demak, Oboq xonim va Sulton Mirzo aka-singil ekanliklarini inobatga olsak, Nodir devonbegi va Imomqulixon Haydar Mirzoning nabiralari ekanligiga ishora qilinmoqda. "Samariya" asarida uni Imomqulixonning tog'asi deb keltiriladi. Asar muallifi bu o'rinda yanglishgan bo'lishi mumkin. Chunki, Nodir devonbегining otasi ham tog'ay unvoni bilan mashhur bo'lgan. Imomqulixon ham hurmat yuzasidan tog'asining o'g'lining ismiga (Tog'oyi - *توغ‌وئي*) qo'shimchasini qo'shgan bo'lishi mumkin. Bu haqida "Imomqulinoma" asarida ham ismiga Tog'oyi qo'shimchasini qo'shib, hukmdorga qarindoshligi extirof etilgan. Abdusattor Jumanazar, Nadr devonbegi ismiga qo'shilgan "tog'oyi" atamasini urug' nomi deb keltirib o'tadi. Ammo Nodir devonbegi tog'oyining obro'yi bu sulolada baland bo'lgan. Uning ikkita qizi bo'lib, kattasi Jo'ybor shayxlaridan bo'lgan Xoja Abdurahim Xojaning o'g'li Xoja Solihga, ikkinchisi esa Nadr Muhammadxonning o'g'li Xusrav Sultonga turmushga chiqqan. Ko'rinib turibdiki, u XVII asrda davlat hokimiyatida yuqori mavqega ega bo'lgan Jo'ybor shayxlari va podshohlik xonadoni bilan nikoh rishtalarini bog'lash orqali o'z hokimiyatini

mustahkamlagan. Uning bir qizining ismi “Shovdonnoma” asarida keltirib o‘tilgan: Nodir devonbegi tog‘ayning qizi Og‘ajon Begimga tegishli vaqf hujjati(hijriy 1071/1660 yil) da unga tegishli yer “Talivarzin” shaklida keltirilgan. “Nusxayi zeboyi jahongir” asarida keltirilishicha, Nodir devonbegi 1624 yilda o‘g‘il farzand ko‘rgan. Keyinchalik, Nodir devonbегining o‘g‘li – Muhammad Hakim Nadr Muhammadxon va o‘g‘li -Abdulaziz o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash vaqtida Abdulaziz tomonda bo‘lgani keltirilib, Abdulazizni taxtga chiqarish uchun podshohga fitna uyushtirayotgan Farhodbiy va uning hamrohlariga Oqsu hududiga yetib borishganda ot va kerakli ehtiyojlarini bergani aytib o‘tiladi.

Yoshi ulug‘ va obro‘li hokim, hukmdor farmonlarini bajaruvchi, podshoh vaziri, pokdoman shaxs Nadr devonbegi Tog‘oyi Imomqulixonning otalig‘i bo‘lgan. Mutribiy uni “amiri kabir” ya’ni ulug‘ amir deb tilga oladi. “Bahr ul asror” asarida keltirilishicha, u nafaqat ashtarxoniylarga balkim, shayboniylarga ham xizmat qilgan Ammo bu ma’lumot boshqa manbalarda uchramaydi . Keyinchalik Imomqulixon Buxoro taxtini egallagach (1611), uni devonbegi lavozimiga tayinlaydi.

“Tarixi Muqimxoniy” asarida keltirilishicha, Buxoroning Hinduvon mahallasida bir ko‘shkning ichiga oltin, javohir va xazinalar saqlanib, bu boylik shu mahallada istiqomat qiladigan hindlarga tegishli edi. Har kuni kechasi Nodir devonbegi, Abulqosim qurchi va mirshabboshi Buxoroning ko‘chalarini tinchligi va osoyishtaligini tekshirish maqsadida aylanganlar. Bir kuni Hinduvon mahallasida bu xazinalarni ikki o‘g‘ri olib qochadi. Buni guzar aholisi ko‘rib qolib,ularni tutishga harakat qiladi. Ammo o‘g‘rilar qochib qutiladi. Shunda Hinduvon mahallasi aholisi Imomqulixonga voqeani arz qilib, murojat qilishadi. Hukmdor Nadr devonbegi, Abulqosim qurchi va mirshabboshini so‘roq qilinadi. Chunki, Imomqulixon hukmronligi davrida devonbegi, qurchi va mirshabboshi, ba’zi vaqtlarda podshohning o‘zi ham ko‘cha va guzarlarni kechasi tekshirib, aholining tinchligi va hol-ahvolidan xabar olardilar. Mansabdor shaxslarni podshoh tergov qilgach, shunday buyruq berdi: Kim agar Hinduvon mahallasidagi o‘g‘rilikni haqiqatdan ham qilgan bo‘lsa, agar kelib bo‘yniga olsa, ularni kechirishini aytib, Buxoro ko‘chalariga jar soldiradi. Haqiqiy o‘g‘ri bir oshiq yigit bo‘lib, podshohning ushbu farmonidan keyin aybini tan olib, saroyga keladi. Podshoh uning aybini bo‘yniga olganini va haqiqatdan ham muhtoj bo‘lgani uchun bu ishni qilganini inobatga olib, uni bir mullaga shogird berib, ma’lum bir lavozimga tayinlaydi. Bu voqeadan Imomqulixon o‘z hukmronligida hech bir amaldorni qarindoshlligi nuqtayi nazaridan ayamaganligi, fuqarolarga nisbatan adolatlilik va devonbegi lavozimining vazifasi - davlat kirim-chiqim vazifalaridan tashqari, kechasi aholi osoyishtaligi uchun mas’ul bo‘lganini bilib olish mumkin. “Matlab ut tolibin” asarida keltirilishicha, Buxoroda Otaquli ismli bir shaxsning g‘ulomi o‘z xo‘jayining uyidan qochgan vaqtida, uni Nadr devonbегining odamlari Samarqandning Saripulidan topib, xo‘jayiniga topshirishgan. Bundan tashqari, Nadr devonbegi ba’zi amaldorlarning gunohini podshohdan shafqat so‘rab, avf ettirgan .Buxoroda amaldori – Nazarbiy nayman Imomqulixonning qaynotasi Abulay Sultonni o‘ldirgani sababli uni qatl ettirmoqchi bo‘lgan bir paytda, Nodir devonbegi oraga tushib, Nazarbiy naymaning hayotini saqlab qolgan.

Devonbegi lavozimidagi shaxs ashtarxoniylar davlatida kirim-chiqim ishlaridan tashqari hukmdor topshiriq berganda, sarkardalik vazifasini ham bajargan. Bunga misol sifatida Imomqulinxonning “Nadr tog‘oyining qish faslida Tursun Muhammadga qarshi yurish qilib, uni mag‘lub etishi” bobida Nadr devonbегining bu yurishga sarkardalik qilib, u bilan birga Shukurbiy va Davlat hamroh bo‘lgani, biri kenagas va boshqasi saroy urug‘idanligi keltirilgan.Bundan tashqari, Rahimbek, Qutluq otaliq, Aminbiy, Sevinchbiy, Arab, qushchi Abulbiy, Nazar qilich, Muhammad Murod, Xojao‘zbek, Boqiyuz, Shohmuhammad kabi shaxslarning bu jangda mardonavor kurashgani va bu jangda Imomqulixon qo‘shini soni 300 ming bo‘lgani keltirilgan. “Nusxayi zeboyi jahongir” asarida Mutribiy 1620 yillarda Samarqand hokimi Nadr devonbegi bo‘lganligi haqida yozgan.Mutribiy, o‘sha davr olmilari haqida yozar ekan, Qozi Mahjuri haqida, uning Qozi Mirzobekning shogirdi va uning tarbiyasini

olganligini keltirib o'tadi. Ammo ustozining qatl etilishidan so'ng, o'sha paytdagi Samarqand hokimi Nadr devonbegi huzurida panohtopganini qayd etadi. Bu voqeadan so'ng, 1033/1624 yil Nadr devonbegi o'g'il farzandli bo'ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Nodir devonbegi XVII asrning 20 yillarida Samarqand hokimi bo'lgan. Bu manbaning 1630 yilda Samarqandda yozilganini inobatga olib, XVIII asrda yozilgan "Silsila as salotin" asarida 1632-1633 yillarda Samarqand hokimi bo'lgan degan ma'lumotning ishonchligiga shubha qilsa bo'ladi.

Uning Samarqand hokimligi davrida bunyonkorlik va ta'mirlash ishlarini ham olib borgan. Samarqand aholisining barcha tabaqasi (erkak va ayollar deyilgan) navruz va hayit vaqtlari haftada to'rt kun Go'ri Amir ziyoratgohiga borib, u yerda sayr qilar edilar. Bu holat Samarqand hokimi - Ablullaxon II ukasi - Ibodullaxon davrigacha davom etdi. Ammo, Hoji biy otaliq do'rmon (u Abdullaxon II farmoni bilan 993/1586 dan 1004/1596 yilgacha Samarqand hokimi bo'lgan va Samarqand hokimligida hovuz qurdirgan). shunday buyruq berdi: "Go'ri Amir dahmasiga aholi dam olish yoki sayr qilish uchun kelmasin va daxmadagi shoh va aziz kishilar qabriga ehtirom bilan munosabatda bo'lsin". Biroq, Ashtarxoniy Imomqulixon Movorounahr hukmronligi davrida Samarqand amiri bo'lgan Nodir devonbegi shunday buyruq berdi: "Go'ri amir ziyoratgohiga aholi seshanba kunlari kelishi mumkin faqat sharti shuki, muqaddas daxmaning tepasiga sayr qilmasinlar. Kimki, bu farmonga xilof ish tutsa, o'sha yerning o'zidan uloqtirilsinlar". Bu holatning oldini olish uchun Toq yasaladi va uning tepasiga oq koshinli nasx xati bilan uning binokori – Abdulaziz Muhammad bin Mahmud Isfaxoniy deb yozilgan.

Nodir devonbegi xonning tug'ronavisi hisoblanib, tug'roga Nizomiddin Nadr mirzo tog'oyi so'zimiz deb yozgan. Demak, bu sulola boshqaruvi davrida tug'ro nafaqat podshohlarda balkim, yuqori mansabdor shaxslarning ba'zida ham mavjudligini ko'rish mumkin.

U nafaqat mamlakatda siyosiy faoliyat bilan shug'ullangan, balki, Buxoro va Samarqandda olib borgan obodonchilik ishlari ma'lum va mashhurdir. Nodir Muhammad devonbegi madrasasi. Tashqi Sherdor (Sherdori berun) deb ham mashhur bo'lgan. Ushbu madrasa xoja nosiri ul millat vad din hazrat xoja Ubaydulloh Ahror fayz osorli mazorining shimolidadir. Madrasani 1630 yilda soldirdi.

Silsilat as salotin'da aytilishicha, Nadr Muhammadning Buxoro taxtiga o'tirishidan oldin Samarqandga o'zidan oldingi hukmdorlari kabi ko'ktoshga o'tirish uchun borayotgan chog'ida, ular Samarqand yaqinidagi – Qoqliq degan joyga kelganda, Samarqand amaldorlari - Nadr Tog'oyi va Nazarbiy, Bek o'g'li biy kenagas va Boqi biy yuz va boshqa amaldorlar taxtga o'tirishga hozirlanayotgan podshohni kutib olish uchun peshvoz chiqadilar. "1051 -1642 yil shabon oyida avval Hoja Ahrori Valining qabrini ziyorat qilib, keyin Nadr Muhammadxon Samarqandga arkka borib, taxtga o'tiradi. Nodir devonbegi Imomqulixon bilan va elikta o'ziga yaqin kishilarni olib, Iroq tomondan haj safariga ketdi.

Xulosa qilib aytganda, Nadr devonbegining siyosiy faoliyati ikkita sulola – shayboniylar va ashtarxoniy davrida bo'lib, ashtarxoniy Imomqulixon davrida Samarqand hokimi bo'ldi. U yarim asrcha Imomqulixon xizmatida bo'lib, mamlakatning moliya, kirim-chiqim ishlari bilan mashg'ul bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Маҳмуд ибн Вали. Бахр ул асрор, Бодлеан фотонухаси, 125а-б-126а-б.

Сухайл. ЎЗФАШИ. №89 Имомқулинома, 142а ;

Самария/ Абу Тоҳирхожа. Бухоро тарихи/ Наршахий. Шажарайи Хоразмшохий/ Баёний. Фарғона тарихи / Ибрат./ Тарихий эссе/ Таҳрир ҳайъати: Б.Аҳмедов ва бошқ./ – Т., Камалак, 1991. Б.28.

Мирзо Меърӯжиддин. Шовдорнома. Тойлоқ зиёратгоҳлари тарихи. – Тошкент: Олтин мерос пресс, 2020. – Б. 129.

Мутрибий, Нусхайи зебойи Жаҳонгир, 21.

Хожа Мир Муҳаммад Салим. Силсилат ас салотин. Инв.169.Бодлеан кутубхонаси.

Тарихи саййид роқим, СамДУ қўлёзмаси №,1187724 Б.219а

https://uz.wikipedia.org/wiki/Nodir_devonbegi

Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. -:Т. Академик нашр. 2017.Б.236.

“ТУРКИСТОН ВИЛОЯТИНИНГ ГАЗЕТИ” САҲИФАЛАРИДА ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ БИЛАН МУНОСАБАТИ

Мирзаев Далержон Ганижон ўгли,
таянч докторант, Фанлар академияси Тарих институти

Аннотация: Ушбу мақолада Бухоро амирлигининг XIX аср охири – XX аср бошларидаги Россия империясига қарамлик даврида Туркистон генерал-губернаторлиги билан сиёсий ва бошқарув соҳасидаги алоқалари “Туркистон вилоятининг газети” материаллари асосида таҳлил қилинган. Бу жараёнларда амирликнинг генерал-губернатор билан элчилик алоқалари ва Хива юришидаги ҳамкорлик, 1873 йилги янги тузилган шартнома ва унинг мазмуни, амирлик божхона тизимининг тугатилиши жараёни, Бухорода Россия империясининг сиёсий агентлигининг ташкил топиши, амирларнинг Петербург ва Кримга саёҳатлари ҳамда император томонидан инъомлар ва моддий кўмак каби масалалар кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: Бухоро амирлиги, Россия империяси, мустамлакачилик, 1873 йилги шартнома, Россия империясининг сиёсий агентлиги, Амир Музаффар, Амир Абдулаҳад, Амир Олимхон, Николай II, фон Кауфман, элчилик, орденлар, амирларнинг саёҳатлари.

ОТНОШЕНИЯ ГЕНЕРАЛЬНО-ГУБЕРНАТОРА ТУРКЕСТАНА С БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ НА СТРАНИЦАХ ГАЗЕТЫ “ТУРКИСТОН ВИЛОЯТИНИНГ ГАЗЕТИ”

Мирзаев Далержон Ганижон ўгли,
докторант Института истории Академии наук

Аннотация: В данной статье на основе материалов “Туркистон вилоятининг газети”. В этих процессах рассматриваются такие вопросы: дипломатические отношения эмирата с генерал-губернатором и сотрудничество в Хивинском походе, вновь заключенный договор 1873 года и его содержание, процесс ликвидации таможенной системы эмирата, учреждение политического агентства Русской империи в Бухаре, поездки эмиров в Петербург и Крым, вопросы подарков и материальной поддержки со стороны императора.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Российская империя, колониализм, договор 1873 года, политическое агентство Российской империи, Амир Музаффар, Амир Абдулаҳад, Амир Олим-хан, Николай II, фон Кауфман, посольство, приказы, путешествия эмиров.

THE RELATIONSHIP OF THE GOVERNOR GENERAL OF TURKESTAN WITH THE BUKHARA EMIRATE IN THE PAGES OF THE “TURKISTON VILOYATINING GAZETI”

Mirzayev Dalerjon Ganijon ugli,
basic doctoral student, Institute of History, Academy of Sciences
ORCID ID: 0000-0003-3919-2217

Abstract: This article is based on the materials of the “Turkiston Viloyatining Gazeti”. These processes examine the following issues: diplomatic relations of the emirate with the governor-general and cooperation in the Khiva campaign, the newly concluded treaty of 1873 and its content, the process of liquidation of the customs system of the emirate, the establishment of the political agency of the Russian Empire in Bukhara, the trips of the emirs to St. Petersburg and the Crimea, the issues of gifts and material support from the emperor.

Key words: Emirate of Bukhara, Russian Empire, colonialism, treaty of 1873, political agency of the Russian Empire, Amir Muzaffar, Amir Abdulahad, Amir Olim Khan, Nicholas II, von Kaufman, embassy, orders, the travels of the emirs.

Кириш. Россия империясининг Туркистон минтақасига боқинчилик юришида Қўқон хонлигидан кейинги ҳаракатлари Бухоро амирлигига қаратилди. Бухоро амирлигига уюштирилган босқин 1866 – 1868 йиллар оралиғида амалга оширилди. Бунинг натижасида амирлик ҳукумати мағлубиятга учраб, ўз ҳудудининг катта қисмидан айрилди. Амирликнинг Жиззахдан тортиб Каттақўрғонга қадар бўлган ҳудудлари империянинг тасарруфига ўтди. Икки давлат ўртасида тузилган 1868 йилги шартномадан сўнг Бухоро Россия империясининг протекторатига айланди. Рус босқини амирликнинг эски мавқеидан айрилишига, ҳудудини қисқаришига, иқтисодий-сиёсий жиҳатдан чекланишига олиб келди. Энди унинг қўлидаги Жиззах, Ўратепа, Самарқанд каби иқтисодий фойда келтирувчи йирик шаҳарлар қўлдан кетди. Амирлик тасарруфида қолган ҳудуд билан 1920 йилга қадар тобе мамлакат сифатида бўлса-да ўз давлатчилигини сақлаган ҳолда тарих саҳнасида яшади. Бу даврда амирлик ҳукуматини Амир Музаффар (1860 – 1885), Амир Абдулахад (1885 – 1910) ва Амир Олимхон (1910 – 1920)лар манғитлар сулоласининг давомчилари бўлиб ҳокимият теппасида турдилар.

Натижалар. Россия империянинг Бухоро амирлигига босқини ва ундан кейинги жараёнлар кўплаб рус шарқшунослари, миссионерлар, миллий тарихчилар асарларида, архив ҳужжатларида ўз аксини топган. Бу манбалар қаторига ўз даврида нашр этилган матбуот ва ундаги мақола ва хабарларни ҳам киритиш мумкин. Рус империясининг Бухорога босқинидан кейинги жараёнлар “Туркистон вилоятининг газети” саҳифаларида ҳам ёритиб борилган. Газета саҳифаларидаги маълумотларга кўра дастлабки вақтларда рус ҳукуматининг амирлик билан алоқалари бирмунча мураккаб ҳолда амалга оширилган.

Газета мухбирининг ёзган хулосасига кўра Бухоро амири билан келишиш Қўқон хони билан келишишдан қийинроқ кечган. Улар икки маротаба амирликка мактуб юбориб Россия савдогарларининг Бухоро ичида эркин савдо билан шуғулланишларини, яъни бухоролик савдогарларга берилган имтиёزلарни рус савдогарларига ҳам берилишини хоҳлаганлар. Бу истак амалга ошмагач, 1866 йили ҳарбий юриш амалга оширилиб, 1868 йилга қадар давом этди. Газета саҳифаларида Бухоро амирлиги ва империя ҳукумати ўртасида тузилган шартнома ҳақида ёритилар экан, амирликни “ақли кирди” дея тариф бериб ўтилади. Рус ҳукуматининг газетаси бўлгани учун ундаги маълумотлар ҳам империя нуқтаи назаридан акс этганлигини назардан қочирмаслик даркор. Чунки газетада берилган мақолаларда амирликни ҳатти-ҳаракатига салбий баҳо берилган бўлса империянинг тутган йўли юқори баҳоланиб, айрим ишлари макталади. Масалан, Бухоро амирлигига 1868 йили Қаршини, 1870 йили эса Шаҳрисабзни қайтариб берганликлари “фахр” билан ёзилган [25]. Айнан шу воқеалардан кейин Бухоро амири империя қудратига ишонгани қайд этилган. Ниҳоят 1868 йил 18 июнда “савдо шартномасига” [Газетада Бухоро билан имзоланган шартнома “савдо шартномаси” деб берилган. Аслида эса мазкур шартнома орқали мустақил Бухоро амирлиги Россия империясига қарам давлатга айлантирилган.] муҳрлар босилган.

“Туркистон вилоятининг газети” даги амирликка оид илк мақола Китоб ва Шаҳрисабз бекликларини бўйсундирилганлиги ҳақидаги бўлиб, шартнома имзоланиб “дўстлик” алоқалари ўрнатилгандан сўнг Шаҳрисабз ва Китобнинг амир Музаффарга бўйсунмасдан мустақилликка интилгани, Бобобек [Бобобек – Шаҳрисабз беги. У маёр унвони ҳамда учинчи даражадаги “Анна” ордени билан тақдирланган. Унга давлат ғазнасида йилига 2000 сўм нафақа тайинланган. Улар империя ҳукумати хизматида ўтганларидан сўнг Қўқон хонлигига қарши юришда ҳам қатнашганлар. Кейинроқ эса Петербургга бориб император билан ҳам учрашганлар] ва Жўрабекнинг [Жўрабек – Китоб ҳокими 1868

йилда русларга қарши курашган бўлса кейинчалик империя хизматига ўтган. У полковник унвонига ҳамда иккинчи даражадаги “Станислаф” орденига сазовор бўлган. Унга давлат ғазнасидан йилига 3500 сўм нафақа тайинланган. Шундай бўлсада уларнинг тақдири аянчли тус олиб ўлдирилган] Самарқандни эгаллаганлари, Россиянинг ёрдами эвазига амир Музаффар ўз тахтини сақлаб қолди дея маълумот берилади. Шаҳрисабз ва Китоб бекларининг кейинги ҳаракатлари генерал-губернаторлик ҳудудида ўғрилиқ ва қароқчилик қилганликлари, уларга қарши генерал-губернатор Самарқанддан аскар жўнатиши натижасида кўплаб мусулмонлар ўлдирилган. Газетада ушбу мусулмонларнинг ўлимига Жўрабек ва Бобобекни айбдор қилиб кўрсатилган. Воқеалар давомини газетада ёритилар экан Китоб ва Шаҳрисабзни амир Музаффарга топширилганлиги, Жўрабек ва Бобобек эса Қўқонга қочгани, Қўқонда Худоёрхон уларни тутиб Хўжандга кейин Тошкентга юборганлиги ҳақидаги маълумотлар билан акс эттирилган [90]. Газета маълумоти рус шарқшуноси Д.Н. Логофетнинг асрадаги воқеалар билан бир хил бўлиб, асарда Бобобек ва Жўрабекнинг кейинги тақдирларига ҳам тўхталиб ўтилган [1, 32]. Газетанинг кейинги сонларида ҳам ушбу масала давом эттирилган бўлиб, Самарқанддаги аскарларнинг бошлиғи генерал Абрамовнинг Китоб ва Шаҳрисабзни бўйсундиргани учун 15 октябрда император томонидан “Георгий” нишони билан тақдирлангани қайд этилади [10].

Ушбу газетанинг дастлабки сонларида Бухоро амирлиги билан боғлиқ эътибор қаратилган яна бир жиҳат икки мамлакат ўртасидаги элчилик алоқалари масаласидир. Элчилик ташрифларида Бухоро элчилари ҳақидаги хабарлар газетага кўпроқ ўрин эгаллаган.

Тобе мамлакатга айлантирилган амирликнинг дастлабки элчилари Туркистон генерал-губернаторлигига 1870 йилнинг ноябр ойида юборилган. Носир тўқсоба бошчилигидаги элчилар ушбу санада совға саломлар билан Тошкент шаҳрига келган [9]. Кейинги элчилик 1871 йилда амалга оширилган. Бу сафар Шаҳрисабз ҳокими Тўхтамиш додхоҳнинг ўғли Султон Муродбек мирохур мактуб ва совғалар билан Тошкентга келган [12]. 1871 йилда Китоб шаҳрининг ҳокими Муҳаммад Олим додхоҳнинг укаси Абдуллоҳбек қоровулбеги [18], шу йилнинг апрел ойида Мирзо Ҳисомиддин мирохур бошлиқ элчилар генерал-губернатор ҳузурига юборилган [11]. Шу йилнинг март ойида генерал-губернаторликдан Бухорога Истербий бошчилигида элчилар юборилган. Шундан сўнг икки давлат ўртасидаги элчилик алоқалари ортган [14]. Газетанинг кейинги сонлари билан танишиш жараёнида бу элчиликларнинг ортиб бориш сабаблари аён бўлиб боради.

Туркистон генерал-губернатори фон Кауфман 1871 йилнинг апрел ва май ойларида Зарафшон музофотига сафарга чиқади [15]. Генерал-губернатор 18 апрел куни Тошкентдан йўлга чиқиб, Чинозга борган. Унга 700 отлиқ аскар қўшилади ва Сирдарёдан ўтиб чўл орқали Жиззахга борган. У Жиззахда дам олиб сўнг Ключевой деб аталган кўрғонни ва аскарларни кўриш учун борган. Мазкур кўрғон император фармони билан Жиззах шаҳри ёнидаги Илонўтди сувини ёнида қад ростлаган эди [21]. Сўнг Самарқандга бориб, шаҳар яқинидаги Тошкўпир мавзейида руслар томонидан қурилган кўрғонда Зарафшон музофоти бошлиғи генерал Абрамов ҳамда Афғонистон шахзодаси Абдурахмонхон [Абдурахмонхон (1844 – 1901) — Афғонистон амири Дўстмуҳаммадхоннинг фарзанди. Уни ёшлигидан фойдалиб тахтдан четлаштиришга ҳаракатлар бўлган. Натижада Шералихон Афғонистон тахтига ўтирган. Инглиз ҳукуматининг қўллаши натижасида Шералихон ўз ҳукмронлигини мустаҳкамлаган эди. Шундай бўлса ҳам Шералихонга қарши Афзалхон ва Азимхонлар тахт учун кураш олиб борганлар. Орада бўлган бир неча тўқнашувларда Афзалхонни мағлуб бўлади ва Афзалхонда ўз ўғлини ҳузурига юборишини сўрайди. Шу воқеадан сўнг Абдурахмонхон Бухорога қочиб кетишга мажбур бўлган. Сўнгги етти йил давомида Бухорода яшаган. Бу орада Шералихон Афзалхонни

ҳибсга олади. Афзалхонни яқин одамлари Абдурахмонхонни қўллаб Шаралихонга қарши юришга ундайди Қобул яқинидаги тўқнашувдан сўнг Шаралихон Қандахонга чекинади. Бу орада Абдурахмон яна Бухорога қайтиб келиб аскар йиғиб Қобулга боради ва Қобул аҳолиси уни қўллайди, сўнгра Балх шаҳри ҳам қўлга олинади. Абдурахмонхон Қобулга қайтиб келганида Муҳаммад Рофеъ деган қобуллик баланд мартабали саркарда Шералихонни ўғли билан келиша олмай ундан узоклашиб Абдурахмонга қўшилишга қарор қилади, бундан ташқари Шарифон ва Уюзхон ҳам Абдурахмоннинг ҳимояси остига қўшилади. Қаранг: Туркистон генерал губернатори Тошканд шаҳридан Зарафшон музофотига сафар қилғонларини кифити хусусида] билан кўришади. Афғон шахзодаси Абдурахмоннинг Бухорога келишидан мақсад тахт учун курашларда фон Кауфмандан ёрдам олиш нияти бўлган бўлиши мумкин. Фон Кауфманданнинг 1871 йил март ойидаги Бухорога элчи юборишининг сабаби газетада ёритилмаган. Аммо дипломатик муносабатларда ҳужжатларда акс этмаган келишувларни кейинги воқеалардан англаш мумкин бўладики, генерал-губернаторликнинг элчи юборишидан мақсади мана шу сафар давомида рўй бериши мумкин бўлган турли салбий ҳодисаларни олдини олиш бўлган бўлиши мумкин. Чунки босқиндан кейин бунгача бўлган даврда империя ҳукумати томонидан амирликка элчи юборилмаган эди. Амирлик худудида эса рус босқинчиларига қарши мустақил курашлар рўй бериб турган эди.

Фон Кауфманнинг Зарафшон музофотига сафаридан кейин элчилик мунсабатлари давом этган. Бухоро амирлиги элчиси Мирзо Ҳисомиддин мирохур 1871 йилнинг июни-июл ойларида Тошкентда бўлади [23]. Кейинги элчиликда амир ўғли Саид Абдуфаттоҳ тўра кассаллигига шифо излаб губернатордан шифокор сўраган. Бунга жавобан генерал-губернатор Садуфский исмли шифокорни юборган. Лекин шахзодани асраб қола олмайди [13]. Уструвий тўра бошчилигидаги Туркистон генерал-губернатори элчиси шу йилда Бухоро сафар қилади [93]. У асосан Қарши ва Китоб шаҳрларида бўлиб у ердаги ҳокимлар ва амалдорлар билан яқин алоқаларни ўрнатишга ҳаракат қилган. Лекин мазкур саёҳатдан асл мақсад айтилмаган. Балки бу ҳудудларни Бухоро амирига қарши қўйиш орқали генерал-губернаторлик худудига айлантириш мақсад қилингандир. Уструвий Бухоро томонга кетган вақтида Бухородан ҳам Тошкентга Эшон Хўжа Ўроқ билан Мирзо Восеълар бошчилигида эчи келиб амирнинг хатини генерал-губернаторга топширадилар [16]. Бухоро амиринг ўғли вафоти муносабатли билан генерал-губернатор мазкур элчиларга қўшиб Курама уйездининг ҳокими полковник Колзакофни юборган [24]. Сентябрь ойида ўша элчи Эшон Хўжа Ўроқ яна бир мартаба Тошкентга келиб кетган [20]. Газетанинг кейинги сонидида Уструвий саёҳатининг давоми берилган бўлиб, Унда Қаршида амир билан уч мартаба суҳбатлашгани, амирнинг Россия билан дўстлик алоқаларини кучайтиришга ихлоси баландлиги ҳақида ёзиб ўтган. Уструвий Қаршида амирнинг уч ўғли билан танишганини ёзиб, Бирининг исми Саид Мўмин Қаршининг ҳокими бўлиб 18 ёшда эканлиги у билан суҳбатлашиб: “Саид Мўминни жуда хушёр йиғит ўз юрти ва халқ уни кўп яхши кўрар эди” – деб ёзади. Қолга икки ўғлини бири 13, иккинчиси 14 ёшда эканлиги ҳақида маълумот беради. Уструвий Қаршидан чиққач Бухоро шаҳри Қоракўлда бўлган. Ҳавонинг иссиқлиги сабабли Қоракўлдан қайтган. У генерал-губернатор топшириғини (юклатилган вазифа газетада кўрсатилмаган) бажариб Гиждувон ва Хатирчи орқали Мирзо Ҳисомиддин мирохур ҳамроҳлигида 17 июнда Тошкентга қайтган [24].

Бухоро амирининг элчиси Мирзо Ҳисомиддин мирохур 1871 йилнинг октябрида Тошкент шаҳрига келиб, ноябр ойида қайтиб кетади [17]. Бундан ташқари Кармана вилоятининг ҳокими Бухоро амирининг ўғли Абдулахадхон ҳам ўз элчиси Абдулкарим тўқсобани генерал-губернатор хузурига юборган [19]. 1871 йилнинг охириги ташрифини эса Мирзо Ҳисомиддин мирохур амалга ошириб 24 декабрда Тошкент шаҳрига етиб келган [22]. Матбуотда ушбу элчиликларнинг маъсади ёки амалга оширган ишлари

хусусида маълумот берилмайди.

1872 йилдаги элчилик алоқалари анчагина кам бўлиб, атиги икки марта амалга оширилган. Унга Мирзо Ҳисомиддин мирохур раҳбар бўлиб элчилик ташрифи апрел [26] ва июн [27] ойларида амалга оширилган.

Туркистон генерал-губернаторлигининг Хива хонлиги юриши боис кейинги йилларда элчиликлар камайган. Аммо газета маълумотларидан билиш мумкинки амир генерал-губернаторликни Хивага юришини қўллаб қувватлаган. Амир Музаффарнинг 1871 йил 15 майда Кауфманга юборган мактубида: “Сенинг дўстинг бизга дўст душманинг бизга душман” деб ёзган мактубидан буни тушиниш мумкин [7, 29]. Мазкур юриш давомида Бухоро амири генерал-губернаторга бир неча бор ўз одамларини юбориб турган лекин буни элчилик сифатида баҳолаб бўлмайди.

Туркистон генерал-губернаторлигининг Хива юриши 1873 йилдан бошланади. Генерал адъютант фон Кауфман 11 март куни Тошкентдан йўлга чиқади. 20 март куни Темирқовоқ деган ерга етиб келганида амир Музаффар Остонақул тўқсобани совға-саломлар билан Кауфманни кутиб олиш учун юборган. Амир томонидан юборилган чодирда генерал-губернатор кутиб олинади ва амирнинг “чиндилдан” берган совғаларини дўстликларини мустаҳкамлаш ўрнида қабул қилишини сўраган. Остонақул тўқсобадан ташқари Нурота вилоятининг ҳокими Абдужалилбий ҳам келиб генерал-губернатор билан учрашган. Кейинчалик Бухоро амири Мирзо Ҳисомиддин мирохурни генерал-губернаторни олдига юбориб то Хивагача бирга боришга буюради [29].

Хивага юриш жараёнидаги воқеалар матбуотда тасвирланар экан, амирлик унда генерал-губернаторга ҳарбий ҳаракатларда қўллаб-қувватлагани акс этган. Хусусан, Нурота ҳокими Абдужалилбий амирнинг фармони билан ўзи билан империя қўшини учун 68 тева (туя) аскар етказиб берган. Бунинг учун ҳар бир тевага ўн сўлкавий яъни 50 танга олган ва бундан ташқари ҳар бир туя кираси учун ойига 10 сулкавойдан олиши буюрилган. Туя олиб юрувчилар учун ҳам кунига овқатидан ташқари 3 мари яъни 15 тийин берилиши буюрилди. Абдужалилбий 1873 йилнинг 26 мартада Нуротага қайтиб кетган [30].

Яна бир газета маълумотида Фон Кауфман 1873 йил 11-апрел куни Холота мавзесига етганда Бухородан Яхшибек худайчи Ғиждувон ва Вардонзе амлоқдорлари билан генерал-губернаторбилан учрашиш учун борганлар. Амирнинг саломини ва дўстликни мустаҳкамлаш таклифини айтиб, амирнинг Хивага юришда Томли ва Мингбулоқ билан эмас Қароқота ҳамда Холота орқали ҳаракат қилиш энг қулай йўл эканлиги ҳақидаги маслаҳатини етказган. Бу жараёнда Бухоро ҳукумати рус қўшинларини озиқ-овқат ва е-хашаклар билан таъминлаб турган [7, 29]. Хусусан, амир генерал-губернатор қўшинлари учун 400 ботмон [Бухоронинг бир ботмони 10 путга тўғри келади] ун, 30 ботмон гуруч, 50 ботмон арпани Қароқотага юборган [28].

Хивага бўйсундирилганидан сўнг Бухоро ва генерал-губернаторлик ўртасида элчилик алоқалари давом этган. 1873 йилнинг октябр ойида Ҳисомиддин мирохур [32], сўнг Абдулқодирбий бошчилигидаги элчилар фон Кауфман Петербургдалигига қарамай Тошкентга юборилган. 1974 йилда эса Абдулқодирбий бошчилигидаги элчил Петербург шаҳрига юборилган [31]. Улар император билан кўришиб [33], шу йилнинг май ойида Бухорога қайтганлар [35].

Хивага қарши юриши ва бу жараёнда амирликнинг генерал-губернаторга кўрсатган ёрдамлари натижасида икки давлат ўртасидаги алоқалар янада мустаҳкамлашган. Хаттоки бу алоқалар икки давлат ўртасида тузилган шартнома банларини ўзгаришига ҳам таъсир кўрсатган. Мазкур шартнома 1873 йилнинг 28-сентябрида (баъзи асарларда 18 [8, 239], 23 [5, 6] ва 24-сентябр [7, 32]) Шаҳрисабзда имзоланган [37].

Шартномада Хивага тегишли Амударёнинг ўнг тарафидаги ерлар Бухоро амирлигига берилади. Шунини ҳам айтиб ўтиш керакки бу борада амир ҳукумати Хива хонлиги билан

кўшимча шартнома имзолаши шарт эмас деб белгиланган. Россия савдо карвонларининг Бухоро амирлиги худудига эркин киришига ҳамда Россия кемаларига Бухоро кемаларидек ҳуқуқлар берилади. Ушбу савдо кемалари учун Амударёнинг ҳар икки тарафидаги ерда бандаргоҳ ва омборхоналар қуриш учун ҳуқуқ берилади. Шунингдек, мазкур бандаргоҳ ва омборхоналарнинг хавфсизлигини таъминлаш Бухоро ҳукуматига топширилган. Рус савдогалар учун солиқ 2,5 % этиб белгиланган ҳамда Бухоро орқали бошқа мамлакатларга ўтиш ҳуқуқи берилади. Рус савдогарлари савдо марказлари қуриши учун ер олишлари мумкин бўлиб, Бухоро савдогарларига ҳам бундай ҳуқуқ берилади. Фақат Бухоро савдогарлари бу имтиёздан Туркистон худудидагина фойдалана олар эдилар. Россиянинг бошқа худудларига эса рухсат берилмайган. Шартномада рус фуқаролари Бухорога келиб савдо ва бошқа юмушлар билан шуғулланишига ҳам рухсат берилган. Агарда рус фуқаролари савдо учун амирликка келса Бухоро ҳукумати ўша кишиларга кредит ажратишлари керак бўлган. Уларнинг хавфсизлиги учун Бухоро амирлиги масъул этилб белгиланган. Бухоро фуқароларига эас бундай ҳуқуқ фақат Туркистон худудидагина амал қилган. Бухоро амирлигига рухсатсиз ёки қочқинда бўлган рус фуқароси келса, уни тутиб Шартномага кўра Бухоро амири ўз худудида куллар савдосига чек қойиши шарт этиб белгиланади [37].

Келтирилган маълумотлардан айтиш мумкинки, ушбу шартнома ҳам Бухоро амирлиги учун нотенг бўлиб, генерал-губернаторлик ўзининг фойдасини кўзлаб шартномани тузган. Амирлик худудидаги рус аҳолиси ва савдогарлари кенгроқ имтиёзга ва ҳуқуқларга эга бўлган. “Туркистон вилоятининг газети”да ушбу шартноманинг қул ва чўриларни озод қилиш тўғрисидаги бандига асосий урғу берилади [34]. Бу орқали халққа губернаторликнинг оқил ва одил ҳукумат эканлигини, аҳоли фойдасини ўйлаб қарорлар қабул қилишини кўрсатишга ҳаракат қилинган. Аслида эса амирликни сиёсий ҳуқуқларини янада чеклашдан иборат эди.

1874 йил давомида Бухоро амирлиги томонидан бир неча маротаба элчиликлар ташкиллаштирилаган. Ушбу йилда Абдулқодирбий бошчилигидаги амир элчилари Петербургга ҳам юборилган [36]. 1875 йилда эса Тошқентга Бухоро элчилари уч маротаба [40], 1876 йили Хисомиддин тўқсоба, Мирзохўжа Ўроқларлар элчи бўлиб Тошқентга борган бўлсалар [43], генерал-губернатор Шитинин ва Николаев ҳамда таржимон Жонишевни бошчилигидаги ўз вакиллари Бухорога юборган [42].

Туркистон генерал-губернатори фон Кауфман 1876 йилнинг август ойида Зарафшон музофоти ва Самарқанд шаҳрига сафар қилади [41]. Матбуотда ушбу сафар ҳақида ёритилар экан Самарқанд шаҳрига оид маълумотлар келтириб ўйилади. Жуладан, “Туркистон вилоятининг газети”да Самарқанд шаҳри Тошқентдан 273 чақирим узоқликда бўлиб тахминан 4400 оила истиқомат қилган. 1872 йилда Самарқандда Мадрасайи Хоним ёнига янги мадраса бино қилинган бўлиб, унда 113 та болага рус тилида дарс ўтилган. Улардан 90 нафари яхудий болалари бўлган. Бу мадрасада бир яхудий домла ҳамда бир мусулмон домла талабаларга таълим берганлиги ҳақидаги маълумотлар берилади. Шунингдек, шаҳар кўчалари ҳақида тўхтали, авваллари кўчалар тор ва чанглигидан юриш ноқулай бўлган деб ёзилади. Империя тасарруфига ўтгандан кейин эса ободончилиги кучайгани таъкидланган [91]. Аслида эса Самарқанд бутун шарқнинг энг нуфузли шаҳри ҳисобланиб босиб олинганидан сўнг ўша нуфузини йўқота бошлаган.

Фон Кауфман Зарафшон музофотига сафари чоғида Бухоро амирлигининг бир қатор беклари ва шаҳар ҳокимлари билан учрашган. Хусусан, Шаҳрисабз ҳокими Олимбек додхў, Китоб шаҳри ҳокими Абдулжалилбий, Зиёидин шаҳрини ҳокими Остонақулбий, Кармана шаҳрининг ҳокими амирнинг ўғли Абдулаҳадбек Ражаб мирохир ҳамда Бобонасир эшикоғаси шулар жумласидан. 1877 йили Бухородан Эшонхўжа Ўроқ [45], августда Раҳматулло мирохур [48] ва Насриддин қоровулбеги [51], сентябрда Яхшибек

[47], декабрда яна Раҳматулло мирохур [46] Тошкентга элчи бўлиб келганлар Ўз навбатида губернаторлик элчилари шу йилнинг апрел ойида полковник Терекковский, полковник Моюф ҳамда таржимон Қолжанов [52], июлда полковник Ишпитасберг, генерал губернаторнинг адъютанти маёр Калисников [50], октябрда эса Вамберхларни [49] Бухорога келган.

Икки ўртадаги элчилик алоқалари, бирор-бир муҳим воқеалар муносабати билан ҳам амалга оширилган. Хусусан, Россия ва Туркия ўртасида 1877 – 1878 йиллари бўлиб ўтган уруш муносабати билан Бухоро амири бир неча маротаба ўз элчиларини Тошкентга юборган. Масалан, Раҳматулло мирохур бошчилигидаги элчилар амирнинг дўстлик мактубини олиб келган. Унда Бухоро амири фон Кауфманни турклар билан тузилган сулҳ муносабати билан табриклаган [54]. Шу жараёнда Бухоро амири Музаффархон 1878 йилнинг ноябр ойида Туркистон генерал-губернаторига 30.000 рубл пул ҳам уюборган. Бу маблағнинг 20.000 рубли бемор ва ярадор бўлган одамлар учун бўлса, қолган 10.000 рубли яхши ишлар учун берилган. Мазкур маблағнинг 20.000 рубли Петербургга юборилган. Қолган қисми (10.000 рубли) Тошкент шаҳридаги етим болалар турадиган уйни кенгайтириш учун сарфланган [53]. Бу болалар уйи шаҳарнинг янги қисмида бўлиб асосан европаликлар манфаатларига қаратилган.

Амирлик ҳукуматининг Раҳматулло мирохур бошчилигида элчилари 1879 йил давомида бир неча маротаба Тошкентга келган. Масалан, шу йилнинг март ойида Тошкентга Бухоро амирининг мактубини олиб келган [55]. Бу каби яқин алоқалар натижасида империя ҳукумати амир Музаффархонни “Станислав” номидаги биринчи даражадаги орден билан тақдирлаган. Бундан ташқари император Бухоро кўшбегисини ёқут билан ишланган олтин қилич ҳадия қилади [56]. Умуман олганда Раҳматилло мирохур бошчилигидаги элчилик 1880 – 1882 йилларда ҳам амалга оширилади [57]. Империя ҳукумати бу каби қутловлари минтақадаги таъсир доирасини таъминлаш, халқни қаршилигини йўқотиш ҳамда ўз мақсадларини амалга оширишга қаратилган дейиш мумкин.

Амир Музаффар даврида Россия империясининг Бухородаги таъсири ортиб борган. Амир ҳам ўз навбатида тахтини мустаҳкамлаш учун империя билан алоқаларини яхшилашга ҳаракат қилган. Александр 3 нинг тахатга ўтириш муносабати билан шаҳзода Саид Абдулаҳадхонни 1883 йилда Москва шаҳрига юбориши ҳам ана шу тадбирлардан бўлган [61]. Газетада келтирилган маълумотга кўра, ушбу элчилик орқали амир Музаффар бу орқали Бухоро тахти вориси сифатида императордан Саид Абдулаҳадхонни мақуллашини сўраганлиги кўрсатилган [3, 121]. Ўз навбатида император Александр икки маросимда қатнашган Бухоро ва Хива элчилари Оломхожи Юнусга катта олтин медал, Бухоро элчиси Бобобекга ҳамда Хива фуқаролари Воиз Бобо ва Ҳаким боболарга катта кумуш медал мукофотини берган [60]. Бу билан янги ҳукумдор ушбу ўлкалардаги таъсир доирасини ўрнатишга қаратган.

“Туркистон вилоятининг газети”да Бухорога оид хабарлар Хива Хонлигига қараганда кўпроқ нашр этилган. Газета мухбирлари бу ҳудуддаги ҳар бир янгиликдан хабардор бўлган. Бу хусусида ёритиб борилган. Газетанинг 1885 йил 42-сонида амир Музаффарнинг ўлими ҳақида мақола нашр этилган [Саид Музаффархон манғит уруғидан бўлиб ҳижрий 1242 сафар ойининг 5-санасида пайшамба куни туғилган. Ҳижрий 1303 йил сафар ойининг 1-санаси пайшамба куни оламдан ўтган. Амир Саид Насруллоҳдан сўнг тахтга ўтирган. Амир Музаффархон 61 йил умр кўрган бўлиб шундан 27 йили ҳукмронликда ўтган. Туркистон вилоятининг газети. 1885-йил 9-ноябр 42-сон 3-бет].

Амир Музаффардан кейин тахтга 1885 йилнинг 4 ноябрида ўғли Амир Абдулаҳадхон ўтирган [62]. Унинг ҳукмронлик даврида хонликда мис, темир, олтин қазиб чиқариш, телефон линиялари ва темир йўллар қурилиши, савдо фаол ривожлантирилди. Жаҳон бозорида Бухоро коракўл хом ашёсини сотишда 3-ўринни эгаллаган [6, 178].

Абдулаҳадхоннинг тахтга ўтириши муносабати билан янги амирни муборакбод этиш учун Самарқанд шахридан Бухорога Зарафшон музофотининг бошлиғи генерал-маёр Ефимович бошчилигидаги элчилар боради [63]. Ҳатто амирни тахтга ўтказиш ҳам руслар иштирокисиз бўлмаган. Бу даврда амирликда русларнинг таъсири ҳақида Аҳмад Дониш шундай деган эди: “Рус амалдорларининг давлат ишларига аралашуви, ўз манфаатларини ҳимоя қилиши кучайди ва ҳеч кимда уларга қарши чиқиш учун журъат йўқ, эди” [4, 124].

Амир Абдулаҳадхон ҳам ўз навбатида император билан яхши алоқаларни сақлаб қолиш учун элчиси Остонақулбийни Тошкент орқали Петербургга жўнатади, Туркистон генерал-губернатори эса унга қўшиб штабс капитан Асфандиёровни юборган [67]. Мазкур элчини юбориш учун алоҳида машварат ҳам ўтказилган [4, 125]. Остонақулбий Петербургга борганида император Александр 3 билан кўришади ва у Бухоро амирини олмос билан безатилган биринчи даражали “Анна” деб номланган орден нишон, Остонақул девонбегини эса олмос билан безатилган иккинчи даражадаги “Станислаф” ордени билан тақдирлайди [66]. Юқоридаги орден Россия императори Александр 3 га Бухоро юлдузи орденини тақдирлаш эвазига келган эди. Мукофотни Бухорога генерал-маёр, княз Витгенштейн бошчилигидаги махсус элчилар олиб келишган [6, 174].

Бухоронинг янги амири Саид Абдулаҳадхон 1893 йилда илк марораба Москва ва Петербург шаҳарларига борган. У билан бирга ўғли Олимхон ҳам Санкт-Петербургга боради. Амир Абдулаҳадхоннинг ўз ўғлини бу ерга олиб келишдан асосий мақсади ёш Амирни Николайев кадет корпусига ўқишга киритиш эди [6, 180]. Бундан ташқари Бухоронинг бўлғуси амирини императорга кўрсатиш деган эҳтимол ҳам бор. Петербургда император амирни “Александр Невский” номидаги орден билан тақдирлайди [71]. Кейин Москва шахрида келиб чит ва мовуқ ишлаб чиқариладиган фабрикага бориб эгаси Прохоров билан учрашади [69]. 1893 йилнинг 22-февралида Чоржўй орқали Бухорога қайтиб келган [70].

Бухоро амирлиги ҳудудида мировой судлар ташкил қилинганидан сўнг аста секинлик билан бу соҳадаги ишлар империя ҳукуматининг қўлига ўтиши ва кучайтирилишига қаратилган қарорлар қабул қилина бошлаган. Масалан, Бухоро амирлиги ҳудудидаги империя банклари ҳамда миллий аҳоли вакиллари ўртасидаги муносабатни тартибга солиш ҳақида қарор қабул қилинган. Мазкур қарорга кўра юқоридагидек низолар юзага келган вақтда бундай ишларни фақат Бухородаги мировой судьялар ва Самарқанддаги вилоят судлари Туркистонни бошқариш тўғрисидаги низом ҳамда империя ҳукуматининг бошқа қонун ва қарорлари билан амалга оширила бошланган [95]. Бу эса амалда Бухоро амирлиги қонунларига бўйсунмасдан истаганларича савдо ва молия билан шуғулланишни англаатар эди.

Шунга ўхшаш яна бир фармойиш император томонидан берилган бўлиб, унга кўра 1896 йил 1 январдан Бухородаги мировой судьяга ёрдам учун икки ноиблик лавозими жорий қилинган. Уларнинг вазифаси эса қуйидагилардан иборат:

хоҳ империя фуқароси бўлсин, хоҳ бошқа мамлакатлар фуқаролари бўлсин империя қонунларига қарши қаратилган ҳар қандай терговни олиб бориш белгиланган. Агар империя мулклари ва даромадларига қарши жиноятлар аниқланган бўлса уларга қарши тергов қилиш ваколати ҳам берилган. Мазкур ҳолатда жиноятни амалга оширганлар Бухоро фуқароси ёки бошқа мамлакатдан бўлган насроний бўлмаганлар бўлса, мировой судьялар ўз терговларини яқунлаб Бухородаги империя сиёсий агентига топширишлари керак эди.

янги тайинланган икки ноиблар яна бир вазифалари Бухоро ҳудудидаги судьялар томонидан қилинган жиноятларни тафтиш ва таҳқиқ қилади фақат бунда барча ишлар Бухородаги мировой судьянинг розилиги билан қилинган.

Мазкур икки ноибга йилига 5000 рубл ажратилган бўлиб, бу пулларни тўлаш

Туркистон вилоятининг земский собор маҳкамасига юклатилган [94].

Империя ҳукумати Бухорода ўз таъсирини кучайтириш ва ўз тили ва маданиятини ёйиш учун бир неча ишларни амалга оширган бўлиб, булардан бири рус тилида дарс берадиган мактабларни очилиши эди. Газетадаги маълумотга кўра бу мактабнинг очилишига императорнинг ўзи Бухоро амирига илтимос қилган ва амир буни рад эта олмаган. Туркистон генерал-губернатори Барон Верёвский Тошкент шаҳридаги ўқитувчилар семинариясини битирган бир ўқитувчини Бухородаги мактабда дарс бериш учун юборган. Бундан ташқари генерал-губернатор мактаб нозирига буюришича яна бошқа рус тилидан дарс берадиган муаллимларни юборишини сўраган [88]. Бухородаги рус тилида ўқитиладиган мактабларнинг фаолиятини Бухородаги сиёсий агентлик ҳам назорат қилиб турган. Бухоро амири император шарафига миллий халқ вакилларининг фарзандларига рус тили, арифметика ва географиядан дарс берадиган мактабни очган. Бухородаги сиёсий агентликнинг берган маълумотида бу мактабда 13 нафар мусулмон ҳамда 17 нафар яҳудий болалари таълим олиб, уларга Тошкентдаги ўқитувчилар семинарияси битирувчиси Алиаскар Калинин дарс берган [72].

Империя ҳукумати ўз чегаралари ҳамда божхоналар фаолиятини яхшилаш мақсадида 1894 йил 6-июнда давлат кенгаши қарор чиқарган. Қарорнинг асосий мазмуни Туркистонда янги божхоналарни ташкил этиш бўлиб, хусусан, мазкур қарорга кўра Бухорода 1894 йил 15-ноябрда Калиф шаҳрида, 1-декабрда Карки шаҳрида, Чўчқа гузаргоҳда, Паттакесар ва Айвоч мавзеларида янги божхоналар очилган [73]. 1898 йилда эса Туркистоннинг янги генерал-губернатори Духовский Каспий вилоятини Туркистон генерал-губернаторлигига қўшилганлигини бу эса император билан Бухоро амири ўртасида ҳеч қандай муаммо туғдирмаслигини айтган [75]. Бундан ташқари 25 йил давомида фаолият олиб борган Бухоро ва Афғонистон чегараси ҳам империя божхона назоратига олинди [1, 32]. Шу тариқа Бухоро амирлиги ўз божхона тизимидан маҳрум бўлиб, божхона доирасидаги барча ишлар империя ҳукумати назоратига ўтиб кетади. Бу билан Бухоро амирлиги бир йилда амирлик хазинасига келиб тушадиган тахминан икки миллион рубл миқдордаги тушумдан маҳрум бўлди [6, 194].

“Туркистон вилоятининг газети” да Бухоро амирлиги учун тайинланган Россия империясининг сиёсий агенти ҳақида ҳам маълумотлар учрайди. Газетада ёзилишича генерал-губернатор Розенбах Петербургга борганида императорга Бухорода сиёсий агентлик очишни таклиф қилган. Император ҳам сиёсий жиҳатдан ўз мақсадларига мос келганлиги учун савдо ва дўстликни мустаҳкамлаш баҳонасида бу таклифга рози бўлган [64]. Лекин бунга қадар ҳам сиёсий агентлик очилиши учун ҳаракатлар бўлган. Туркистон генерал-губернатори 1885 йил июн ойида Россия ҳарбий вазири номига хат йўллаб, унда 1873 йилги шартнома шартларини ҳаётга татбиқ, этиш мақсадида, Тошкентда Бухоро Амирлиги учун элчихона очишга бино бериш, унинг ўрнига Амир бегараз манфаат асосида Амирлик пойтахтида Россия дипломатик агенти фаолияти учун бино ажратишга келишилганлигини инobatга олган холда уни амалга оширилишига рухсат беришни сўрайди. Мана шу тариқа ўзаро ёзишмалар ва ҳаракатлар натижасида Бухоро Амирлигида 1886 йил Александр 3 нинг фармони билан Рус агентлиги очилишига эришилди [6, 188]. Бу ном Россия империяси наздида вассалдан юқори лекин мустақил ҳукмдордан паст эканлигини кўрсатган [8, 401].

Империя ҳукумати Бухородаги ушбу тузилмага катта эътибор билан қараган. Сиёсий агентнинг ҳуқуқи ва вазифалари тўғрисида низомнинг кейинчалик шахсан подшоҳ, Николай II томонидан 1903 йил 5-майда имзоланишининг ўзи Бухорода ташкил этилган сиёсий агентликнинг чор Россияси сиёсий ҳаётида қай тарздаги аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади [6, 189].

Сиёсий агентга: Помирдаги Шуғнон, Рушон, Вахон уездлари устидан назорат

ўрнатиш; Афғонистон чегарасини назорат қилиш; амирликнинг рус аҳоли пунктларида газета ва театр томошаларини цензура қилиш; Бухородаги насронийларга ҳомийлик қилиш; Зарафшон дарёси сувини тақсимлаш; амирликдаги рус ва бухоролик фуқаролар устидан судьялик қилиш каби ваколатлар берилган [7, 46]. Умуман олганда Бухородаги рус тадбиркорлари ва фуқароларининг манфаатларини ҳимоя қилиш учун кенг ваколатлар берилган.

Сиёсий агентлик ташкил қилинганидан сўнг Туркистон генерал-губернаторининг 1886 йил 25-феврал 16-рақамли фармойиши билан ўз девонхонасида хорижий масалалар билан шуғулланувчи камер-юнкер, надворний советник Чориков Россия империясининг Бухородаги сиёсий агентликни бошлиғи этиб тайинланади [92].

Газетада янги тайинланган сиёсий агентни Бухорода кутиб олиниши ҳам алоҳида тасвирланган. Чориков Бухорога иззат икром билан кириб келган. Бухоро ҳукумати унинг яхши кутиб олиниши учун катта сай-ҳаракат қилган. Ҳаттоки, Бухоро амири ўзи юрадиган рус аравасини сиёсий агентни кутиб олиш учун Каттакўрғон шаҳрига юборган. Қисқача қилиб айтганда сиёсий агентни кутиб олиш учун Бухоро амиридан бошқа ҳамма чиққан дейишимиз мумкин. Дастлабги пайтларда сиёсий агент Бухоро шаҳрида туриб фаолият олиб борган бўлса кейинроқ темир йўл қурилганидан сўнг темир йўл бекатига яқин жойга яъни Когонга кўчиб ўтган [65]. Бухоро амири сиёсий агент учун Бухоро шаҳридаги яхши бинолардан бири бўшатилиб берилиб амир хазинаси ҳисобидан янги бино қулғунига қадар Бухорода фаолият кўрсатган [3, 126].

1890 йилда Россия империясининг Бухородаги сиёсий агенти алмашди. Бу сафар лавозимга Лессар тайинланади. У 1890 йил 30-июнда Бухоро шаҳрига кириб келиб ўз вазифасини бажара бошлайди [68].

Бухородаги сиёсий агентликни яна бир вазифаларидан бири, Бухоро амирининг империя ҳукуматига қилган инъомларни олиш ва марказий ҳукуматга етказиш эди. Масалан, 1898 йилда Бухоро амири сиёсий агентга 1800 сўм миқдорда пул берган. Ундан 200 сўми Андижонда содир бўлган халқ ҳаракатидан сўнг яраланган ва вафот этган рус аскарлари ва уларнинг оилалари учун бўлса, 600 сўми Бухорода ўлдирилган Татаринов номли қоровулнинг хотини ва ёш болаларига берилган [76].

1895 йилда Лессар Петербург шаҳрига чақирилганидан сўнг, унинг ўрнига коллажийский советник Игнатев тайинланган. Игнатев бу вазифада 7 йил ишлаган ва бетоблиги сабабли 1902 йилда вафот этган [74]. Империя ҳукумати бу сафар мазкур лавозимга Яков Яковлейевич Лутшни тайинлаган [77]. 1913 йилда Лутш ўрнига тайинланган Сомовни ўрнига Алесей Константинович Беляйев тайинланди [85]. Умуман олганда сиёсий агентнинг фаолияти газетада батафсил ёритилмаган. Баъзи масалалар бўйича тўлиқ бўлмаган маълумотлар бор.

Жаҳон сиёсий майдонида Россия Япония билан узоқ шарқда уруш бошлаган. Шу муносабати билан Россиядаги иқтисодий жараён ва ижтимоий ҳолатда чуқур ўзгаришлар юз беради. Иқтисодий жиҳатдан танг аҳволда қолган империя ўз аскарлари учун таъминотни етарлича амалга ошира олмайди шунинг учун ўз қўл остидаги мустамлакалардан пул ундира бошлайдилар. Лекин газетада бу маълумотларни мустамлака давлат ҳукмдорларининг ўз ихтиёрлари билан амалга ошираётганлиги ёзилади. Масалан, Бухоро амири дастлаб Япония билан урушда рус аскарларига ёрдам учун 1904 йил 4-февралда 1 лак сўм миқдорда пул юборган бўлса, амирнинг валеаҳди Саид Миролим тўра 10.000 сўм ҳадия берган [79]. Бундан ташқари рус армияси флотини яхшилаш учун ҳам 1 миллион сўм миқдорда ҳадия юборган [80]. Бу маълумотни Россия давлат ҳарбий тарих архиви маълумоти асосида ёзилган Р. Холиқованинг “Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида” асари ҳам тасдиқлайди [6, 179]. Газетада ёзилишича Бухородан ташқари империя таркибига кирувчи бошқа худудлардан ҳам ўз ихтиёрлари билан пул йиғилаётгани ҳақида ҳам маълумот бор. Аслида иқтисодий жиҳатдан қийналаётган,

ишлаб чиқариш ва саноат ҳали ривожланмаган ҳудудларни ўз ихтиёрлари билан ёрдам берганлиги ҳақиқатдан йироқ. Бу империя ҳукуматининг тазиқи остида ҳар бир ҳудуд бундай ҳадияларни қилганлиги эҳтимолдан ҳоли эмас.

Исторический экскурс в развитие риторики. Развитие риторики имеет длительную историю, начиная с античных времен, где она была тесно связана с философией, логикой, и педагогикой: философские аспекты риторики позволили осознать взаимосвязь нравственных и мировоззренческих проблем и свойствами речи, логические категории, такие как убеждение, рассуждение, доказательство и аргументация представляют собой сущность риторических моделей, а в контексте педагогики развивались и модифицировались способы обучения риторическому искусству или мастерству [1,3,4, 5].

Известно, что риторика как наука возникла в Древней Греции и Риме, где она была важной частью образовательной системы и публичной речи [1, 5]. Первоначально риторика была искусством убеждения и использовалась для выступлений в судах и на политических аренах [1,3, 5]. Известные риторы, такие как Аристотель, Цицерон и Квинтилиан, внесли значительный вклад в развитие риторического искусства. Труды Аристотеля, особенно его «Риторика» [2], заложили основы для понимания и анализа риторических приемов, для изучения различных стилей и методов убеждения, что способствовало развитию ораторского искусства, т.е. ярко, ясно и убедительно выражать свои мысли [1, 2, 3, 8].

В Средние века риторика сохраняла свое значение в образовательных программах и больше соотносилась с грамматикой и диалектикой [5, 8]. В эпоху Возрождения в виду особого интереса к классическим текстам и античным традициям были разработаны новые методы преподавания риторики, которые включали анализ и имитацию классических образцов речи [1,5].

В общем плане, исследование риторики носит междисциплинарный характер, сама риторика речи никогда не находилась в статике, она продолжала и продолжает развиваться, адаптируясь к изменениям в обществе и культуре. Так, в настоящее время риторика расширила свои границы, включив в себя не только традиционные методы устного красноречия, но и затронула письменные и цифровые формы коммуникации. Поэтому риторические приемы или модели до сих пор актуальны для исследования в лингвистическом, академическом и профессиональном планах. Так, в ходе филологической и педагогической подготовки специалистов необходимо ознакомить студентами с риторическими моделями для осуществления профессионального общения, а для других специалистов владение эффективными риторическими моделями способствует продвижению рекламы своих товаров, презентации докладов, участию в дебатах и т.д.

Особенности риторики учителя английского языка

Выяснено, что понятие «риторика» многомерное: 1) оно непосредственно связано с искусством ораторской речи, где человек демонстрирует красноречие и оперирует различными стратегиями убеждения и воздействия на слушателей; 2) оно ассоциируется с культурой речи, а также разнообразием и эффективностью риторических моделей

в общении [4, 8, 9]. Однако, нас интересует вопрос, в чем же сущность риторики касательно учителя английского языка.

В ходе анализа зарубежной методической литературы выявлено, что в научный оборот введен термин «учитель-ритор», который, базируясь на педагогическую теорию, может использовать разнообразные речевые средства для достижения цели или результата в ходе своей педагогической деятельности [10, с.13]. Согласно исследованию Л.Е. Бартлетт (Bartlett), в аспекте “pedagogical performance” – параметр педагогической компетенции, где предполагается оценка не только уровня владения методической компетенцией, но и умение использования (performance – демонстрация) разнообразных риторических моделей в зависимости от аудитории, контекста и цели [10, с.13]. Уверены, что в данном случае речь идет об использовании следующего репертуара стратегий: вовлечение, поддержание активности, объяснение материала и практика для овладения им, управление и контроль с учетом языкового уровня учащихся и их когнитивных способностей в освоении языка. Помимо этого, Г.Т.Махкамова к педагогической риторике речи относит стратегии убеждения и воздействия на учащихся, «чужую речь» (информацию из текстов-источников, цитаты, афоризмы и пословицы) для обучающих, развивающих и воспитательных целях [6, с.24-25]. Однако, в ходе педагогического общения также немаловажную роль играет интонация и скорость речи, невербальные средства (жесты, мимика, улыбка, зрительный контакт и т.п.) в создании благоприятной учебной среды, эмоционального настроя и установления доверительных отношений с учениками.

Отсюда вытекает, что одной из важных функций учителя в педагогическом общении выступает риторическая под ракурсом коммуникативных стратегий и культуры речи. Недаром, риторическая культура учителя как совокупность норм, правил, традиций и ценностей речевого общения обозначена в качестве одного из компонентов педагогической компетенции [4, с.30].

Нет сомнения, что педагогическая риторика имеет многоуровневый и многофункциональный характер, включающая как вербальные, так и невербальные средства, а также коммуникативные стратегии в совокупности, способствующие восприятию и пониманию материала, а также активному и свободному производству английской речи (fluency).

Основные принципы отбора и обучения педагогической риторике

Методика обучения педагогической риторике должна учитывать психологические, педагогические, лингвистические и социокультурные аспекты, а также базироваться на междисциплинарном подходе, поскольку для создания эффективной методики обучения педагогической риторике необходимо учитывать логико-диалектическую природу риторики, лексико-семантические, стилистические и прагмалингвистические особенности организации риторических моделей общения. Как было уже отмечено, когнитивный процесс освоения риторики базируется на логических методах познания и формулирования мысли. Риторика и стилистика имеют множество общих черт, однако различия в подходах к изучению выразительных средств языка позволяют их рассматривать под разными ракурсами. Стилистика фокусируется на лингвистической природе средств, в то время как риторика – на их воздействии на чувства и эмоции. Безусловно, только во взаимосвязи указанных особенностей, мы можем исследовать речевые произведения и их жанровые характеристики, что помогает понять специфику использования языка в разных регистрах речи. В виду этого, отбор риторических моделей педагогической речи под ракурсом установления содержания обучения педагогической риторике должен исходить из прагматики (разновидностей речевых актов и языковых средств их выражения) и жанрово-стилевого подхода [См. 6].

Профессор Г.Т.Махкамова определяет следующие принципы отбора материала для обучения педагогическому дискурсу: профессиональной пригодности; релевантности; учет концептосферы и концептов обучения; жанрово-стилевой репертуар педагогической речи; наличие инструкций обучающего плана; учет стратегического характера интеракциональных связей и социальных ролей; учет нравственно-ценностной составляющей; аутентичность языка в ситуациях педагогического общения [6, с.85, 89-90]. Считаем, что данные принципы должны быть учтены в ходе отбора риторических моделей будущего учителя иностранного языка.

В отношении самой методики организации обучения педагогическому дискурсу Г.Т.Махкамовой обоснованы принципы: неразрывности перцептивно-ного, когнитивного, регулятивного (плановмерно конструированного), мотивационно-побудительного и эмоционально-оценочного аспектов, выводимости смысла, критичности, уровневый и интерактивности [6, с.85-91]. Следовательно, вопросы методической категории «принципы» в отечественной лингводидактике в контексте педагогического образования уже выработаны. Тем не менее, принимая во внимание особенности педагогической риторики, а также идею о том, что сама методика обучения педагогической риторике должна способствовать улучшению качества профессиональной речи и, соответственно, результативности педагогического взаимодействия, то к основным принципам обучения педагогической риторике можно отнести:

1. Аутентичность вербальных и невербальных средств в педагогической риторике. В обучении педагогической риторике на английском языке следует задействовать те вербальные и невербальные средства, которые используют носители языка, а также желательно представить аутентичный материал для освоения риторических моделей англоязычного общества. При этом, необходимо объяснить структурно-семантические особенности вербальных и невербальных средств, используемых англоязычным народом адекватно ситуативному и культурному контексту. Например, фокус на семантическую нагрузку и степень вежливости позволит студентам осознать аутентичность использования языка и невербальных средств, а также моделей речевого поведения.

2. Учет коммуникативной направленности и функциональности. Принцип коммуникативной направленности широко освещался во многих работах методического характера [7, 11, 14, 15]. Поэтому здесь лишь отметим, что обучение педагогической риторике осуществляется посредством общения в функционально значимых ситуациях педагогического взаимодействия. В данном принципе усиливается ситуативно-функциональная сторона педагогической риторики [См. жанры педагогического дискурса, а также принцип интерактивности: 6, с. 70-74, 91]. Думается, что к ним можно отнести не только общение с обучающимися в ходе трансляции знаний, но и обильная интерактивная практика – разговор по телефону с родителями, обсуждение развлечений студентов внеурочное время и их планов на будущее и т.п.

Уверены, что в первую очередь, мы должны научить студентов производить и понимать различные виды текстов в форме повествования, описания, рассуждения, беседы, интервью, доклада, а также успешно оперировать коммуникативными стратегиями в достижении поставленной коммуникативной цели. Принцип функциональности базируется на тезисе о том, что речевое действие «вовлекает в те события или же в то, что студенты смогут сделать посредством языка, например, введение в курс дела, дать объяснение или описать планы» [14, с.10]. Следовательно, в рамках коммуникативной направленности мы обучаем речевым действиям и, естественным образом, риторическим моделям, необходимым для реализации функций коммуникативного, образовательного, развивающего и воспитательного характера.

3. Учет межкультурного аспекта педагогического общения, что даст возможность посредством изучения норм и правил общения в англоязычном обществе, а также

сравнительно-сопоставительного анализа осознать универсальные элементы и национально-специфические различия в риторических моделях речевого поведения учителей в англоязычной и узбекской лингвокультурах. Учителя должны быть подготовлены к работе с учениками из разных культурных фонов, понимать и уважать их культурные ценности и особенности. В общем плане, этот принцип предполагает изучение риторики, принятой в различных культурах, и адаптацию учебных материалов к национальному контексту Узбекистана. Не всегда риторические модели англоязычного народа соответствуют нормам узбекского народа [6, с. 62-65].

4. Учет аффективного аспекта педагогического взаимодействия. Эффективное общение требует не только знания языковых и риторических приемов, но и других, например, в термине «отношение» [См. 12]. Учителя должны владеть эмпатией по отношению культурных различий, пробелов в языке и не всегда хорошего поведения учеников, а также уметь распознавать и учитывать эмоциональные состояния своих учеников, что способствует созданию более благоприятной и продуктивной учебной среды. Данный принцип соотносится с языковым эго, которое формируется в виде нового мышления, а также с уверенностью в своих силах как эмоциональный настрой в овладении языком [13, с. 75].

5. Широкое привлечение информационно-коммуникационных или цифровых технологий в обучении педагогической риторике, что позволит наглядно увидеть и услышать аутентичные риторические модели общения носителями языка (например видео материалы), а также даст возможность практического применения риторических навыков и умений посредством организации виртуальных классов и интерактивных платформ для межкультурного общения.

6. Постоянный контроль и оценка эффективности использования риторических моделей. Важно вести постоянное наблюдение за качеством использования различных риторических моделей адекватно заданному контексту. Необходимо организовывать обратную связь (feedback) посредством различных вопросов и аналитических заданий. Известно, что контроль выполняет обучающую, диагностирующую, корректирующую и мотивационную функции. Поэтому качество обучения педагогической риторике зависит не только способов обучения, но и способах контроля и мониторинга за качеством овладения моделями педагогической риторики.

Заключение

Таким образом, педагогическая риторика является одним из ключевых компонентов профессиональной подготовки учителей иностранного языка. Междисциплинарный и многоуровневый характер педагогической риторики, с одной стороны, представляет трудность в ее овладении, но, с другой стороны, позволяет обогатить учебный процесс, делая его более эффективным и адаптированным к профессии педагога. Развитие самой методики обучения риторике способствует улучшению качества образования и подготовке высококвалифицированных специалистов, способных успешно общаться как с носителями, так и с неносителями языка.

В рамках данной статьи не все стороны этой сложной проблемы были освещены, например, трудности в обучении педагогической риторике, которые требуют дальнейшего научного и практического осмысления. В зарубежной литературе ведутся серьезные прагматингвистические и эмпирические исследования «живой речи» современных учителей (т.е. педагогической риторики), поэтому это востребованное и перспективное направление в компаративной лингвистике, межкультурной прагматике и лингводидактике.

Литература:

1. Антология мировой риторики. / Под ред. А.К. Михальченко. – М.: Гардарики,

2003.

2. Аристотель. Риторика / пер. с древнегреч. А. В. Петровского. – М.: Эксмо, 2007.
3. Гаспаров М. Л. Литературные тексты Древней Греции и Рима. – М.: Ладомир, 1999.
4. Ерохина Е.Л. Риторическая культура учителя как универсальная педагогическая компетенция.// Казанский педагогический журнал. №3,2021. – С,29-34. DOI: 10.51379/KPJ.2021.147.3.004
5. Лосев А. Ф. История античной эстетики. – М.: Искусство, 1969.
6. Махкамова Г.Т. Педагогический дискурс иноязычного образования: Проблемы и решения. – Ташкент: Fanvatexnologiya, 2019.
7. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. –М.: Просвещение, 1985.
8. Соловьева Н. А. Педагогическая риторика. – М.: Академия, 2001.
9. Яковлева Е. В. Основы педагогической риторики. – СПб.: Питер, 2004.
10. Bartlett L.E. Pedagogy in Action: Teaching and Writing as Rhetorical Performance. 2014. Dissertations, Theses, and Student Research. Nebraska, 2014. 134 с.
11. Brumfit Ch.T. Communicative Methodology in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. –176 p.
12. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. – Clevedon, England: Multilingual Matters, 1997.
13. Jalolov J.J., Makhkamova G.T. & Ashurov Sh.S. English language teaching methodology. – Tashkent: Fan vatexnologiya, 2015.
14. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge University Press, 2006.
15. Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. – Oxford: Oxford University Press, 2008. –168 p.

YAPON MUMTOZ ADABIYOTIDA SUV VA U BILAN BOG‘LIQ TUSHUNCHALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Haydarova Umida

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Yapon mumtoz adabiyotining eng nodir namunasi hisoblanmish “Genji ertaklari” asarida suv va u bilan bog‘liq tushunchalar ko‘plab o‘rinlarda qo‘llangan bo‘lib, ular qo‘llanish chastotasi va ifodalab kelayotgan ma‘nosiga ko‘ra turlicha ekan tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar. “Genji ertaklari”, “suv”, sema

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ВОДЫ И СВЯЗАННЫХ С НЕЙ КОНЦЕПЦИЙ В ЯПОНСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Хайдарова Умида

преподаватель Ферганского государственного университета

Абстракт. В произведении «Сказания о Гэндзи», считающемся редчайшим образцом японской классической литературы, во многих местах использована вода и родственные ей понятия.

Ключевые слова. «Сказки о Гэндзи», «вода», сэма

LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF WATER AND RELATED CONCEPTS IN JAPANESE CLASSICAL LITERATURE

Haydarova Umida

teacher of Fergana State University

Abstract. In the work «Tales of Genji», which is considered the rarest example of Japanese classical literature, water and related concepts are used in many places. drawn.

Keywords. «Tales of Genji», «water», sema

Kirish. “Genji ertaklari” xalqaro miqyosda e’tirof etilgan va jahon adabiyotining ko‘plab murojaat etiladigan tadqiqot mavzularidan biri hisoblangan, tarixiy birinchi va ayol kishi tomonidan yozilgan romandir. Bugungi kunda “Genji ertaklari” ingliz kanyonida mavjud Shekspir asarlarining barchasiga teng bo‘lgan joyi egallab, yapon ommaviy madaniyatida, animatsion ishlarda va bosma multfilm rassomlari uchun cheksin ilhom manbai sanaladi. Ming yil muqaddam qirollik oilasi va uning qirolchalari, kanizaklari va ularga xizmat ko‘rsatuvchi ayollardan iborat auditoriya haqida ma’lumot beruvchi ushbu asar zamon va mankonga qaramasdan o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgan emas. Ushbu asar yapon tarixi, madaniyati va dini uchun aniq bir oynadir va ushbu asar nikoh, ayollarning roli, muloqot usullari va estetika kabi turli mavzularda madaniyatlararo taqqoslash uchun kuchli tadqiqot materiali vazifasini bajaradi[1].

Ushbu asar yapon va jahon olimlari tomonidan ko‘plab o‘rganilgan. Xususan, Tanaka Takaaki “Genji ertaklari”dan amalga oshirilgan iqtiboslar, parchalar va ularning xitoy va yapon adabiyotida amalga oshirilishiga oid[2], Kin Kentei asarda uchraydigan arvoqlar bilan bog‘liq 53ta o‘rinni tanlab tahlilga tortadi va “shayton”, “do‘zax” kabi nomlarni ham ular bilan qiyoslab tadqiq qiladi[3], John T.Carpenter Heiyan davrida ayollar uchun kana kalligrafiya san‘at[4], Melissa McCormick shahzoda Genjining rasmlari xususiyati[5], Kyoko Kinoshita asarda rivojlanayotgan ikonagrafiya[6] kabi sohalarda tadqiqot olib boranlar.

Yanping Wan “The language of love in tale of Genji” nomli ilmiy ishida Genji ertaklari

asarida uchraydigan, vaka janrida yozilgan 795ta qisqa she'rlar orqali ifodalangan Genjining sevgisi haqida so'z yuritib, boshqa asarlarda ko'zga tashlanmaydigan rangli metaforalar yordamida sevgi tushunchasi yoritilgani tahlil qilinadi. Oq va qora ranglardan iborat sevgidan farqli o'laroq Genjining sevgisi Fujitsibo uchun "yashil sevgi"(yomg'ir, daraxt va tovus vositasida), Ugao uchun "qora"(burgut, tun, orzu va o'lim vositasida), Akashi uchun "zarg'aldoq"(sigir, meva, oqshom vositasida), Murasaki uchun "jigarrang"(ot, piramida va tog' vositasida), Tamakazura uchun "qizil" (she'r, quyosh, olov va yurak vositasida ifodalangan) sevgi sifatida vakalar orqali berilgan va turli vositalar orqali ushbu mavhum tuyg'ular aniq obyektlar yordamida yoritib berilgan[7].

Xie Xinran esa Genji ertaklarida "ideal ayol" mavzusi va uning asarda berilgan standartlari hamda yapon mifologiyasining asarga ko'rsatgan ta'siriga oid ilmiy ish olib borib, yapon mifologiyasida uchraydigan tabiat bilan bog'liq asotirlar, shamol, gul, qor va oy sahnalari buning yorqin dalili ekanini aytib o'tadi[10].


泊因,莫 ning ilmiy ishida Genji ertaklarida uchragan "yomg'ir" so'zi e'lon sifatidami yoki ma'lumot berish shaklida qo'llanganiga doir ilmiy ishni amalga oshirgan. Asarning ko'plab o'rinlarida ishtirok etgan "yomg'ir" so'zi tahlilga tortilgan va "yomg'ir" ishtirok etgan matn asosida, muallif ushbu peyzaj orqali keyingi qism nima haqida bo'lishiga ishora qilyaptimi yoki ma'lumot o'rnida keltirilyaptimi tendensiyasi asosida ilmiy tahlil olib brogan[11].

Asosiy qism.

Asarga nafaqat yapon olimlari orasida, balki jahon adabiyotshunoslik, tilshunoslik maktablarida ham asosiy tadqiq obyekti sifatida ko'plab murojaat qilingan bo'lib, ushbu maqolada yapon adabiyoti, din va madaniyatida suvga bo'lgan munosabatni aniqlash maqsadida "Genji ertaklari" asari tanlab olindi. Asarning T.Abe, K.Akiyama tomonidan 1994-yilda amalga oshirilgan tabdil va asl nusxasidan foydalanildi. Asar 469 betdan iborat.

Asarda qo'llangan suv va u bilan bog'liq tushunchalar, xususan, "suv", "okean", "dengiz", "daryo", "ko'z yosh", "vino", "quduq", "buloq", "shabnam" so'zlarining qo'llanilish ko'lami quyidagi raqamlarni tashkil etdi: "suv"-147; "dengiz"-78; "yomg'ir"- 14; "ko'z yosh" – 15; "daryo" -78, shabnam- o'rinda qo'llangani aniqlandi[12].

Diagramma 3.



Tahlil va natijalar

Yaponiya suv bilan o'ralgan mayda orollardan iborat yagona davlat hisoblanib, ushbu millat madaniyati va adabiyotida suvga bo'lgan yuqori munosabatni kuzatish mumkin. Eng qadimgi adabiy manba sifatida aytiladigan "Kojiki" asarida "misogi" aql va tananing suv yordamida poklanishiga doir Shinto dinining an'anaviy marosimi haqida keltirib o'tilgan. "Genji ertaklari" asarida ham "suv" bilan bog'liq so'zlar ayrim o'rinlarda geografik hodisa, ayrim o'rinlarda diniy, madaniy belgiga ega element sifatida qo'llanilgan. Masalan, a) geografik hodisa va nom tarkibida:

大川水のゆほびかに思ふものゆうえ波の立つらん。

Ōkawa mizu no yuhobika ni omofu mono yū e nami no tatsu ran.

Okawa suvini ko'rib o'yladim, ko'tarilayotgan to'lqinlar nimadandir xabar bermoqdamikan.

Osaka shahrida joylashgan bu daryo sakura mavsumida juda ham mashhur bo'lib, dunyoning turli nuqtalarida ushbu joyga tashrif buyurishadi va qadimdan ushbu daryo kattalik va suvining to'lib oqishi bilan ko'plab asarlarda uchraydi.

普通の山の姿とか水の流れとか、自分たちが日常見ている美しい家や何かの図を写生的に面白く戻せて描き、我々の近くにあるあまり高くない山を描く

Futsū no yama no sugata toka, mizu no nagare toka, jibun-tachi ga nichijō mite iru utsukushīka ya nanika no zu o shasei-teki ni omoshiroku namida zete kaki, wareware no chikaku ni aru amari takakunai yama o kaku.

Oddiy tog' va oqar suvlar, go'zal uylar hamda har kuni ko'rish mumkin bo'lgan go'zallikni ko'z yoshlar bilan chizamiz va yaqinimizdagi unchalik baland bo'lmagan tog'larni.

Ma'lumki, geografik jihatdan Yaponiya 70% tog'lardan iborat va suv bilan o'ralgan mamlakatdir. Shu bois ham oqar suv va tog'lar ularning kunlik hayot tarzida kuzatish mumkin bo'lgan tabiat hodisasidir.

庭に通した水の流れなどが地方官級の家としては凝ってできた自宅である。

Niwa ni tōshita mizu no nagare nado ga chihō-kan-kyū no ie to shite wa kotte dekita jitakudearu.

Bu bog'dan oqib o'tayotgan suv va puxta qurilgan uydir.

b) Inson ruhiy hissiyotlarini ifodalash vositasi:

たる物は、心にまかせてひときは目おどろかして、実には似ざらめどさてありぬべし。世の常の山のたたづまひ、水の流れ、目に近き人の家居ありまげにと見えなつかし

Taru mono wa, kokoro ni makasete hi toki wa me odoroka shite, jitsuni wa ni zara medo, sate arinubeshi. Yonotsune no yama nota Tadzu mahi, mizu no nagare, -me ni chikaki hito no kakyo ari-sama, -ge ni to mie, natsukashiku.

Qo'yilgan narsalarni qalbga bo'ysundirib, ko'zni hayratda qoldirish mumkin, lekin haqiqatda o'xshashi yo'q. Tik turgan tog'lar, oqayotgan suvlar va odamlarning uylarini ko'z oldingga keltirib, sog'inch tuyaman.

Bu o'rinda qo'llangan suv so'zi dunyoning o'zgaruvchanligi va vaqt o'tishi hamda hissiy go'zallik, qulaylik tuyg'usini berib, shoirning qalbini junbushga keltiruvchi tabiatning muhim hayotiy unsuri sifatida tasvirlangan[13].

「きとてこの女の家はた避きぬ道なりければ、荒れたる崩れより池の水かげ見えて、月だに宿る住み処を過ぎむもさすがにておりはべりぬかし。

Ki' tote, kono on'na no ie hata bi Kinu michi nari kereba, aretaru kuzure yori ike no mizukage miete, tsuki dani yadoru sumi sho o sugi mumo sasuga nite ori haberi nukashi.

Ki deb nomlanib, bu ayolning uyi tomon yurayotib, qulab borayotgan hissiyot orqali ko'lining suv soyasi ko'rinib, oyingning niqobi va sababsiz o'tib ketadi.

Hovuz yuzasida aks etgan, kimsasiz hududdan ko'rinadigan oy nurining soyasi chuqur va sirli muhit yaratib, shoir ayol uyi, oy, suv aksini barobar qo'llab, yolg'izlik va sog'inch hissini yaratishga urinadi.

はかばかしはさのたまふともかかる道に率て出でたてまつるべきかはと思ふにいと心あわたしければ、川の水に手を洗ひて、清水の観音を念じたてまつりても、すべなく思ふ。

Hakabakashiku wa, -sa no tama futo mo kakaru michi ni ritsute shutsu de tatematsurubeki ka wa to omofu ni, ito kokoro Awa tata shikereba, kawa no mizu ni te o arai hite, Shimizu no kan'non o nenji tatematsurite mo, sube naku omofu.

Agar shoshayotgan bo'lsangiz, Sanotamafuni kesib o'tuvchi yo'lga chiqib, bayram o'tkazish kerak deb o'ylashingiz mumkin, lekin agar shoshilangiz, daryo suvida qo'lingizni yuvib, toza suvda Kannon uchun duo qilishingiz mumkin. Men o'zimni nochor his qilyapman.

“Daryo suvida qo'l yuvish” iborasi ushbu o'rinda ruhiy tozalanish va poklanish ma'nosini

ifodalab keladi. Kanonga ibodat qilish uchun suv bilan poklanish deyish ham mumkin. Shimizudagi Kanonga ibodat yapon e'tiqodida ruhiy tinchlik va himoya istalganda amalga oshirilib, qiyin vaziyatlarda xudolar va Buddadan ilohiy himoya so'raladi. "Genji ertaklari" asarida qo'llangan "suv" so'zi bundan tashqari bir qator ma'nolarni ham ifodalab kelgan bo'lib, "poklik", "yolg'izlik" va "o'tkinchilik" ma'nolarda ko'p qo'llangani hamda juft so'z tarkibida ham uchragani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arntzen S. The heart of history: the tale of Genji. – Japan: Winter, 2005. -B. 169.
2. Takaaki T. "Genjimonogatarini okeru inyouni kenkyuu". – Japan: <https://ci.nii.ac.jp/naid/500000173684>.
3. Kentei K. "Genjimonogatarini okeru mononoke" . – Japan: Bunkakagakukenkyuuryo, 1999. – B. 123.
4. Carpenter J. Kana calligraphy and the tale of Genji. – London: Yale university press, 2019. B.27.
5. McCormick M. Beyond narrative illustration: what Genji paintings do. – London: Yale university press. B.43.
6. Kinoshita K. Evolving iconographies of the tale of Genji. – London: Yale university press. B. 57.
7. Wang Y. The language of love in tale of Genji.- Japan: Nagoya university, 2019. B.3.
8. Xeiran X. interpretation of the two dimensions of the tale of Genji. – China: Atlantis Press, 2021. – B.968.
9. 泊因, 莫. Genjimonogatarino ame: yokoku to shirase no shikake. – Japan: Hosei university press, 2021. – B.38-52.
10. <http://www.genji.co.jp/kensaku.htm> misollar ushbu saytdan olindi.
11. 鈴木温子. 源氏物語における涼しき水の流れ. 日本2009. B. 21
- 12.

“BOBUR” SHE’RIDA LIRIK FOJELIK VA TARIXIY VOQELIK TALQINI

Karimova Yulduz

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotasiya: Ushbu maqolada Xurshid Davronning Bobur she’ri lirik fojelik va tarixiy voqelik talqini muammosi doirasida o’rganilgan.

Maqolada ayriliq, hijron, vatangadolik ostonasida turgan Bobur Mirzoning g’amzada qiyofasi, ruhiy holati, hayotining eng muhim tahlikali, qaltis vaziyatlarini butun murakkabligi, tarangligi bilan his etgan Xurshid Davron, lirik qahramonning moddiylashtirilgan ruhiyati, insoniy iztiroblari his-tuyg’ularining ramzlarga ko‘chgan ifodasi orqali ona yurt bag‘ridan uzilib ketayotgan Bobur Mirzoning insoniy fojeasini lirik fonelik darajasida talqin eta olgani ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: She’riyat, ramz, lirik fojelik, lirik qahramon, dramatik holat, emotsional jarayon, natural tasvir, poetik ifoda, mikrodialog, tragik hissiyot, temuriylar madaniyati, “baldayi mahfuza”, ramziy manzara, sintezlashgan obraz.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИРИЧЕСКОЙ ТРАГЕДИИ И ИСТОРИЧЕСКОЙ РЕАЛЬНОСТИ В ПОЭМЕ БАБУРА

Каримова Юлдуз

доцент Джизакского государственного педагогического университета, кандидат филологических наук.

Аннотация: В данной статье поэма Бабура Хуршида Даврона исследуется в рамках проблемы лирической трагедии и интерпретации исторической действительности.

В статье Хуршид Даврон, ощутивший самую главную опасность своей жизни, самую главную опасность своей жизни, тяжелые ситуации Бабура Мирзы, находившегося на пороге разлуки, эмиграции и патриотизма, материализованную психику лирический герой, переживания человеческого страдания показаны в символах. Выявлено, что человеческая трагедия Бабура Мирзы, оторвавшегося от родины, была интерпретирована на лирико-фонетическом уровне через выражение чган.

Ключевые слова. Поэзия, символ, лирическая трагедия, лирический герой, драматическая ситуация, эмоциональный процесс, природный образ, поэтическое выражение, микроdialog, трагическая эмоция, тимуридская культура, «балдаи махфуза», символический пейзаж, синтезированный образ.

INTERPRETATION OF LYRICAL TRAGEDY AND HISTORICAL REALITY IN BABUR’S POEM

Karimova Yulduz is

an associate professor of Jizzakh State Pedagogical University, candidate of philological sciences

Abstract: In this article, Babur’s poem by Khurshid Davron is studied within the framework of the problem of lyrical tragedy and interpretation of historical reality.

In the article, Khurshid Davron, who felt the most important danger of his life, the most important danger of his life, the difficult situations of Babur Mirza, who was on the threshold of separation, emigration, and patriotism, the materialized psyche of the lyrical hero, and the feelings of human suffering, are shown in symbols. It is revealed that the human tragedy of Babur Mirza, who is separated from his motherland, was interpreted at the lyric phonetic level through the expression of chgan.

Keywords. Poetry, symbol, lyrical tragedy, lyrical hero, dramatic situation, emotional

process, natural image, poetic expression, microdialogue, tragic emotion, Timurid culture, «baldayi mahfuz» , symbolic landscape, synthesized image.

“Hozirgi o‘zbek she‘riyati ko‘ngilga quloqdan tashqari yo‘llar bilan ta‘sir qilish bosqichiga kirdi. Shoirlar o‘qirman ruhiyatiga uning qulog‘i orqali emas, yuragi orqali kirib borishga urinmoqdalar” , – deydi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev.

O‘qirman ruhiyatiga yurak orqali kirib boruvchi she‘r fazilatini esa olim: “... eshituvchilarga orom beradigan unsurlar bo‘lishi shart qilib qo‘yadigan qolipdagi shakliy talablar... misralar so‘ngidagi qofiyaning musiqiyiligini ta‘minlashdan ko‘ra, ruhiyatni moddiylashtirishga urinish xususiyat yetakchi” , – deya izohlaydi.

Xurshid Davronning Bobur Mirzoga bag‘ishlangan “Otlar yelar shiddatidan terlab...” deb boshlanuvchi she‘ri lirik qahramonning moddiylashtirilgan ruhiyati, insoniy iztiroblari, his-tuyg‘ularining ramzlariga ko‘chgan ifodasi orqali ona yurt bag‘ridan uzilib ketyotgan Bobur Mirzoning insoniy fojiasini lirik fojeli darajasiga olib chiqib talqin eta olgani bilan e‘tirofga loyiq.

Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiyaning birinchi safari (1992-yilning 19-mayidan 15-iyuliga qadar davom etgan) ishtirokchisi Xayriddin Sultonning “Boburiynoma”sida xorijdagi Bobur qadamjolari bo‘ylab kezingan musofirchilikning mashaqqatlarini ona yurt, yaqinlar sog‘inchida iztirob chekkan muallifning shunday xotiralari keltirilgan: “Odamning o‘z-o‘zidan dili xufton bo‘laversa, ko‘ksining bir chetida noma‘lum bir og‘riq jizillab tursa, bilginki, bu ona Vatan sog‘inchi bilan hasratda umrguzaronlik qilayotir.

Mana shunday ma‘yus lahzalarda Bobur Mirzoning dard-u dilini, so‘ngsiz iztiroblarini yanada yaqqol anglash mumkin.

“Zahiriddin, qayga borursan?..”

Xurshidning (Xurshid Davronning biz tahliliga tortayotgan “Bobur” she‘ri nazarda tutilyapti – Y.K.) shu satri necha kundirki xayolimdan ketmaydi.

“Zahiriddin, qayga borursan?..”

Davomi... yanglishmasam, mana bunday edi:

“Hamma yerdan ko‘rinib turar, Samarqandning minoralari”.

Yo‘q, davomi emas, she‘rning oxirgi misralari xolos” .

Nuktadon, hassos adib Xayriddin Sulton she‘rning aynan shu satrlarini bejiz eslamaydi. Chunki she‘rdagi lirik fojeliqning yuzaga qalqib chiqishida, she‘rxon tarafidan his etilishida aynan shu satr, satr mohiyatidagi ramziylikning o‘rni beqiyos.

She‘rdagi lirik fojeliqni yuzaga keltirgan, lirik qahramon Bobur Mirzoga tegishli hijron, yurtdan ayro tushish, taqdir hukmi oldidagi nochorlik, ilojsizlik kabi hissiyotlar hayotiy, ijtimoiy asosga ega.

Bobokaloni Amir Temur asos solgan davlatni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning sharafini yuksaklarga ko‘tarish, qudratli, mustahkam davlat barpo etishdek yuksak orzularni diliga tuggan o‘n to‘qqiz yoshli Bobur Mirzo o‘zi navqiron yovqur bo‘lsa-da, chirib, umri tugab borayotgan sulola vakili, ko‘p ish ko‘rgan, purtajriba Shayboniyxon yoshi o‘tib, umrining kuzak fasliga qadam qo‘ygan bo‘lsa-da, siyosat maydoniga dadil kirib kelgan, ayni kuchga to‘lgan dinastiya vakili. Ana shunday vaziyatda tarix va taqdir hukmining qat‘iyligini vengriyalik sharqshunos olim Vamberi shunday izohlaydi: “U (Bobur Mirzo – Y.K.) o‘zining o‘tkir nazari bilan Movarounnahrda Temur avlodi hokimiyatining inqirozi vaqti yaqinlashganini birinchi bo‘lib kashf etdi. Buni to‘xtatish uchun ilk bor qarshilik ko‘rsatdi. Lekin Temur sulolasining botayotgan yulduzini 19 yoshlik Bobur qo‘li bilan hech yerda va xususan, Movarounnahrda to‘xtatishga imkoni yo‘q edi” .

Shubhasiz, Xurshid Davron “Bobur” she‘rida yuqoridagi qaltis ijtimoiy vaziyat iskanjasidan qutulishni, najotni Vatandan bosh olib ketishda deb bilgan Bobur Mirzoning dramatik holatining ifodasida uning o‘z so‘zlariga, uning intilish, ehtiyojlari, amalga oshmagan orzulari, armonga

aylangan ulug‘ istaklari natijasida tug‘ilgan ruhiy iztiroblar, ichki kechinmalariga suyanadi: “... viloyat yo‘q, viloyat umidvorlig‘i yo‘q, navkar aksar tarqadi... Oxir mundoq sargardonliqdin va bu nav‘ bexonumonliqdin jong‘a yettim. Dedimki, mundoq dushvorliq bila tirilguncha bosh olib yetsam yaxshi. Bu nav‘ xorliq va zorliq bila el bilguncha oyog‘im yetguncha ketsam yaxshi” . (1502-1503-yillar voqealari bayoni)

Ruhshunoslikka oid adabiyotlarda shaxsning hissiyoti va emotsional jarayon haqida gap ketganda: “Ko‘p hollarda emotsional kechinmalarimiz mazmuniga bizning intilishlarimiz ham kiradi. Intilishlar esa hamisha ehtiyojni ifodalaydi. Lekin hissiyotlar ehtiyojlar sababli paydo bo‘lishi tufayli, intilishlar bilan hissiyotlar bir-biriga qo‘shilib ketib bitta tuyg‘u, kechinma hoida namoyon bo‘ladi. Bunday hollarda hissiyotlar, odatda, intilishlarni tug‘diradi yoki mavjud intilishlarini kuchaytiradi. Hissiyotlarning faollik darajasi odamlardagi kuchlanish holatida yoki ulardagi hamma kuchlar g‘ayratga kirgan holatda namoyon bo‘ladi”, – deyiladi. Shaxsning mazkur ruhiy-tabiiy holatini poetiklashtirgan, uni badiiyat ko‘zgisida akslantirgan Xurshid Davron sakkiz band she‘rda bir romanga jo bo‘lishi mumkin bo‘lgan, yurtdan butunlay bosh olib chiqib ketayotgan Bobur Mirzo fojiasini, uning kechinmalarini, ehtiroslarini ramzlar bag‘rida ochadi:

Otlar yelar shiddatdan terlab,
Yangrar xatar to‘la taqalar.
Hurkib ko‘kka sapchir patirlab,
Tun uyqusi – qora qarg‘alar .

Birinchi o‘qishdayoq o‘quvchining ko‘z o‘ngida jonli manzara gavdalanadi. She‘rxon ong-u shuuriga matnda bo‘y ko‘rsatib turgan xronotop – asarda badiiy idrok etilayotgan zamon va makon haqidagi tasavvur paydo bo‘ladi: tun va yo‘l tasviri. Shuni unutmaslik kerakki, bir qarashda manzaradek ko‘ringan (aslida, manzara ekanligi ham bor gap), ammo shoir tomonidan marjondek tizilgan ramzlar shodasida insoniy taqdir namoyon. Unda Bobur Mirzo – lirik qahramon hayotining o‘ziga xos fragmentlari ko‘zga tashlanadi.

Tinimsiz yelayotgan, imkon boricha tun bag‘rini yorib chiqishga harakat qilayotgan ot qorong‘ilik, zulmatni ortda qoldirayotgandek tasavvur uyg‘otadi, ammo ramzda esa tun (zamon ko‘rsatkichi) Bobur Mirzo tushib qolgan ijtimoiy vaziyat, shu vaziyat tug‘dirgan umidsizlik, imkonsizlik, tushkunlikka ishora. Maqsad aslida shu tundan uzoqlashish, yelib borayotgan ot Bobur Mirzo fitratidagi “Qudrat, hayotiy kuch, oliyjanoblik... ehtiroslar, intilishlar... ramzi” .

“Otlar yelar shiddatdan terlab”, terga botish bu – lirik qahramonning o‘z-o‘zini taftish qilishi, o‘y-kechinmalari, ehtiroslar, kelajak, mas‘uliyatli tashvishlar, ziddiyatli xayollar bag‘ridagi tasviri. Taqalardan taralayotgan tovush – bong, ogohlik da‘vati. Ona zamin bag‘riga urilayotgan taqalar zarbidan faryod ko‘tarib, Bobur Mirzodek o‘g‘lidan ayrilayotganidan bong uradi go‘yo. Ayni paytda taqalarning xatarga to‘laligi Bobur Mirzoning yelkasiga tushadigan musofirchilik, ayriliq, mavhum kelajak mas‘uliyatiga ishora hamdir.

Yorug‘likka, yuksak maqsadlar sari intilganlar yo‘lida g‘ov, turli to‘siqlarning uchrashi tabiiy. Shoir ularni qora qarg‘alar deb ataydi.

Tun so‘zi mohiyatidagi qorong‘ilik “qarg‘a”ning epiteti qora so‘zi bilan birlashib tasvirdagi salbiy bo‘yoqdorlikni oshirgan. Ayni paytda ularning hurkakligi nur oldida zulmatning chekinishiga ishora.

Otlar yelar, tillarang xazon
Suvoriylar uzra sochilar.
Elas-elas yangraydi azon
Tog‘lar uzra osmon ochilar. Bobur Mirzo o‘zining mashhur g‘azallarining birida:
“Latofat gulshanida gul kabi sabz-u xurram qol,
Men archi dahr bog‘idon xazon yaprog‘idek bordim” , –
deydi.

“Xazon yaprog‘idek bordim” – Bobur Mirzo o‘z yozug‘ining poetik tasvirini shunday ko‘radi. Xurshid Davron bu iqroni ramzga aylantirar ekan, unga tillarang epitetini qo‘shadi. Tillarang ramziy detalning tashqi ko‘rinishiga biroz yorug‘lik, nur bag‘ishlagandek (Kobul va Hindistonda Bobur Mirzo erishajak zafariyatlarga ishora), ammo mohiyat baribir eskicha – xazon ayriliq, hijron belgisi. U tillarang sochqilarga aylanib, “Suvoriylar uzra sochilar” tasvirida matn mohiyatini anglab yetishda ochqich vazifasini o‘taydi. Bandning uchinchi misrasi “Elas-elas yangraydi azon”. Agar she‘r shoirning mafkuraviy zug‘umlar ham ancha sobit 80-yillar ijodi mahsuli ekanligi hisobga olsak, uning kichik lirik she‘rda bir umr Haq rizosiga erishishga harakat qilgan Bobur Mirzoning ma‘naviy-ruhiy qiyofasini nozik ko‘rsatib o‘ta olganini e‘tirof etish zarur. Azon bandalariga Ollohning ulug‘ligini, yakka-yu yagonaligini, najot faqat unda, unga bo‘lgan ishonch va e‘tiqodda ekanligini eslatuvchi nido.

Xurshid Davron qo‘llagan azon ramzi – Bobur Mirzoning umrlik hikmati, e‘tiqodi va e‘tirofi:

“Hech nima Tengrining xostidin o‘zga bo‘lmas” ga mos va xos kelgan. Bu o‘rinda “elas-elas” juft so‘zi polifunksional vazifada: u azonning eshitalish darajasini ko‘rsatish bilan birga uning (eshitilar-eshitilmas, juda past) ancha olis uzoqlarda aytilayotganini ham bildiriyapti. Demak, Bobur Mirzo uchun najot endi yurtdan olisda, Vatandan uzoqlarda.

Ikkinchi bandda satrlar silsilasida she‘rning birinchi bandida o‘quvchi ongiga o‘rnashib qolgan qorong‘ilik chekinadi. Ayniqsa, “elas-elas yangraydi azon” tasviridan keyin “Tog‘lar uzra osmon ochilar” manzarasi (tong tog‘lar boshidan oqara boshlaydi) o‘quvchining qalbiga ham, she‘r bag‘riga ham yorug‘lik, iliqlik olib kiradi. Aynan shu misradagi ramzlar qatida boshqa ma‘no ham mustaqil holda mavjud. Tog‘ ramzi matonat, sabot, yuksalish, qat‘iyatlilik ma‘nosida Bobur Mirzoga nisbat berilgan holda bu “tog‘(lar) uzra osmon ochil”ishida Bobur Mirzoning tanlanganlardan ekanligiga (Alloh podshohligini O‘zi xohlagan kishiga beradi. Alloh (karami) keng va bilimdondir”) podshohlik qismatiga ishora bor.

Otlar yelar, yelar ko‘pirib,

Uyg‘otganча mudroq yo‘llarni.

Go‘yo to‘g‘on bandin o‘pirib

Toshqin quvib kelar ularni.

Ikkinchi band sokinlashgan ohang, uchinchi bandda “Otlar yelar, yelar ko‘pirib” tasvirigaingan shitob, tezlik, jadallik ma‘nolari bilan keskinlik kasb etib, ayriliq, hijron onlari muqarrar ekanligini eslatadi. Ayni paytda bu tasvir, ramz she‘rda aks etgan makon, zamon chegarasidan chiqib, Boburshohning bir umrlik mamlakatdorlik tamoyilining: “Jahongire tavaqquf bar nayobad, Jahon onro buvad ko‘beh shitobad, Hama chizi zi ro‘y kadxudom – Sukun miyobad illo podshohiy” (ma‘nosi: Jahongirlik to‘xtab turmaydi, kim yaxshi tirishsa, jahon o‘shaniki bo‘ladi, hayotda har bir narsaning to‘xtashi mumkin, ammo podshohlik to‘xtamaydi) mazmun-mohiyatini o‘zida ochiqlab berganini e‘tirof etmoq zarur.

Ko‘pincha adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda bunday muxtasar talqinni tomchida quyoshning aks etishiga o‘xshatishadi. Shu ma‘noda “yelayotgan ot” ramzi orqali buyuk tarixiy shaxs, lirik qahramon – Bobur Mirzoning umr mazmunini ko‘lamli badiiy idrok eta olgani, tafakkur va talqinda ta‘sirchan obraz yarata olgani shoirning yetuk poetik mahoratidan darak beradi.

Faoliyatsizlik, harakatsizlik Bobur Mirzo – lirik qahramon tabiatiga mutlaqo yot. Xurshid Davron “saltanat dag‘dag‘asi”, “mulkgirlik domyasi” qonida, ehtiroslarida gupirib turgan Bobur Mirzo kabilar dunyoga dunyoni uyg‘otmoq uchun kelganlarini “yelayotgan ot” poyi zarbida “uyg‘onayotgan yo‘llar” tafsilida chiroyli, ishonchli badiiy ifoda eta olgan. “Ne xush bo‘lg‘ayki, bir kun uyqulik baxtimni uyg‘otsam”, – deydi Bobur Mirzo o‘zining bir g‘azalida.

“Hissiyotning turli-tumanligi, so‘z san‘atining cheksiz imkoniyati hamda badiiy asarning tinimsiz tovlanishi lirik fojeli rang-barangligini tayin etadi”, – deydi adabiyotshunos olim Suvon Meli.

Dastlabki bandlarda lirik qahramon shaxsiyatiga xos yoniq ehtiros, shijoat, kuchni tinimsiz yelayotgan ot ramzida kashf qilgan bo‘lsak, to‘rtinchi bandda she’rga shunga teng yana bir kuch – toshqin ramzi kirib keladi.

Toshqin ham ramz. U lirik qahramon – Bobur Mirzo ruhiyatidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar buhronining moddiylashgan tasviri, hissiyot belgisi. Aslida bu toshqin Bobur Mirzo botinida, o‘zligida. U lirik qahramonning jism-u jonini o‘rtayotgan ziddiyatli o‘ylar, og‘riqqa ishora. Bu ramz ortidagi kuch har gal toshqin misol harakatga kelganda o‘z sohibini azobli savollar, armon-iztiroblar girdobida chirparak qiladi go‘yo. Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov: “...juftlik hodisalar o‘zaro zid holatda dialogiklik kasb etgani holda, yakka holatida ham ichki dialogik struktura va mazmunga ega. Jamiyatda (yoki badiiy asar dunyosida) o‘zining muqarrar antipodiga ega odam neytral holatda ham o‘zining botiniy antipodi bilan yashaydi. Bu hodisa badiiy asarda ichki dialog (mikrodialog) tarzida kuzatiladi”, – deydi.

Mana shu ma’nodan lirik qahramonning botiniy antipodi bilan muloqoti ritorik so‘roq o‘laroq uning emotsiyasini bor bo‘yi bilan ko‘rsatishga, uni qiynayotgan hissiyotlar, kechinmalarning ifodasini so‘roq shaklida tasdiqlashga xizmat qiladi. She’rning keyingi bandlarida Xurshid Davron uni mikrodialog tarzida tasvir etadi:

Mirzo Bobur, qayga borursan,
Bobong taxtin, yurtningni tashlab?!
Qora taqdir seni qul kabi
Qayonlarga ketmoqda boshlab?!
Mirzo Bobur, bu qanday savdo,
Qora hijrat sari yuz tutmoq?
Yuragingni etar-ku ado –
Tirik turib Vatandan ketmoq?!
Mirzo Bobur, ortga bir qara,
Ortga bir boq, toki sen omon –
Axir, keyin tushlaringda ham
Bu tuproqni ko‘rmog‘ing gumon!

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, so‘roqda iqror, e’tirofda tasdiq mavjud. She’rda har uchala bandning boshi “Mirzo Bobur” ritorik murojaati bilan boshlanadi. Satrma-satr lirik qahramon qalbida ulkanlashib borayotgan musofirchilik g‘ussasi, hijron, ayriliq g‘amingning poetik tasviridagi dinamika lirik fojeliqni yuzaga keltiradi. Ammo bu fojeliq tragik pyesadagi kabi voqea-hodisa, qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki shoir tanlagan so‘zning ma’no-mohiyatidan o‘quvchi qalbiga yuqadigan, uning ham ko‘zidan, ham ko‘nglidan joy oladigan badiiylik hosilasi – she’rning ruhida namoyon bo‘ladi. She’rda aks etgan lirik qahramon drammatizmi:

Mavrusiy toj-u taxtdan voz kechmoq, qora taqdirga qul bo‘lmoq, qora hijratga yuz tutmoq, tiriklay Vatandan judo bo‘lmoq, hatto tushlarida ham Vatanga qayta olmaslik – Bobur Mirzo chekidagi ulkan fojeliq. Fojeliqning fojeiyligi shundaki, Bobur Mirzo yuqoridagi vaziyatdan qochib, barchasiga qo‘l siltagan holda o‘ziga qulay yo‘lni tanlay olmaydi, tanlay olmaslikni uning o‘zi:

Dema Boburga: “Netarsan, bosh olib ketmak ne?”
Tengrining xosti mundoq esa men netgaymen? –
deya izohlaydi.

Mehr qo‘yib umr bo‘yi intilgan bobomeros Samarqand, kindik qoni tomgan Andijonni qo‘ldan chiqarib, Toshkent atrofining kent-qishloqlarini sarosar kezib yurganida Vatanida bo‘la turib, o‘zini vatansiz his qilgan Bobur Mirzo: “Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi hech”, – deya ruboiy bitgan edi.

Xurshid Davron butunlay Movarounnahrni tark etib ketayotgan Bobur Mirzoning o‘z orzulari, imkoniyatlari, ulkan rejalariga Vatan topishi mumkinligini, ammo o‘zi bir umr bewatan

bo'lib qolayotgan holatini teran poetik nigoh bilan kuzatadi:

Ot pishqirar, to'xtar chavandoz

Uzangiga tirar oyog'in

Va bo'g'ziga to'plar beovoz

Vujudiga to'lgan ingrog'in.

“Badiiy asarda g'amni tug'diruvchi voqea-hodisalar yoki g'amgin holatlar tasvirlanadi. G'amning o'zi emas. G'am voqelik emas, voqelikning hosilasi”.

Ayriliq, hijron, vatangadolik ostonasida turgan Bobur Mirzoning g'amzada ruhiy holati, hayotining eng muhim, tahlikali, qaltis vaziyatlarni butun murakkabligi, tarangligi bilan his etgan Xurshid Davron talqinda chinakam tragik muhit va shu muhit mahsuli fojeiy qahramon holatining nozik, ta'sirchan ifodasini yarata oldi.

“... bo'g'ziga to'plar beovoz Vujudiga to'lgan ingrog'in”. Bobur Mirzoga nisbat berilgan ingroq ingrash, u chekayotgan hadsiz azobning eng yuqori darajasi. Vatan ostonasida so'nggi bor turib, uning qirg'oqlariga oxirgi marta nigohini tashlayotgan Bobur Mirzo yuragida o'sha damda, ehtimol, yo'lbars o'kirigi yangragandir. Ammo bu o'kirik qahramon vujudida, uning mardona tiynatida dardga og'riqli azobga do'nadi, qurib qolgan bo'g'zida to'planib, ingroqqa aylanadi.

O'z ichki “men”i bilan ayovsiz jang qilayotgan qahramonning psixologik, fiziologik holatining ishonchli badiiy idrok etilishi she'r ruhiyatidagi tragik pafosning yetakchiligini belgilagan. Lirik qahramonning yetmish ikki tomirida qonni emas, tengsiz alamlar, iztiroblar oqimini aylantirayotgan yurak, hijron dardining isitmasida qaqroq lablar, ovozsiz faryod, aslida butun dunyo ogoh bo'lgan – Bu shoirning qalam kuchini ko'rsatadigan, insoniy kechinmalarning ta'sirchan ifodalari.

Adabiyotshunoslik ilmida: “Motamsaro mazmunli she'r albatta lirik fojelikka misoldir, deyish xato. Agar she'r o'quvchini og'ir, motamsaro ko'yga solsa-yu yengillik, huzur baxsh etmasa, bu turmushdagi dardning natural ifodasi bo'lib, lirik fojelikka aloqasi yo'q. Hayotiy dard-alam yuksak poetik ifodalangan taqdiridagina ushbu fenomen yaraladi”, – deyiladi.

Xurshid Davron o'zining “Bobur” she'rida ana shu fenomenni muvaffaqiyatli kashf etgan.

Alam bilan yuragi urar

Shivirlaydi qaqroq lablari

“Hamma yerdan ko'rinib turar,

Samarqandning minoralari”.

She'r shu band bilan yakunlanadi.

Yuqorida aytganimizdek, Bobur Mirzo qarorini o'zgartira olmaydi, ortga yo'l yo'q. Hayotiy haqiqat va undan o'sib chiqib she'rda akslangan badiiy haqiqatga ko'ra ham buning iloji yo'q.

Jahongirlik – qismat, ayriliq, hijron – yozug'. Uni o'zgartirish qahramonning qo'lida emas. Shunda – imkonsizlikda iloj, umidsizlikda ilinj kashf etiladi. Lirik qahramon tilidan aytilgan “Hamma yerdan ko'rinib turar Samarqandning minoralari” – bu misralar yuqorida keltirilgan mikrodialogda aks etgan el-u yurtdan ayro tushish, bewatanlik tasviridagi fojelikni biroz yumshatsa-da, butunlay yo'qqa chiqara olmaydi. Faqat kuchsiz, g'ira-shira taskin qalbingizga kirib kelgandek bo'ladi. Bu holatda biz Xurshid Davron tomonidan Bobur Mirzo hayotidagi real eng dramatik, fojeiy vaziyatlarga lirika qonuniyatlariga bo'ysundirilgan holda lirik fojelikka aylantirilganini, shunday holatda “Bobur” she'rida lirik fojelik bo'y ko'rsatganiga guvoh bo'lamiz.

Inson hissiyotlarining tinimsiz tovlanishi, ularning asarlar bag'ridagi talqini haqida adabiyotshunos Ibrohim G'afurov: “...harakat va hayot yaratuvchi bir kuchga – tragizm hissiyotiga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Shoirning shodligi doim mung bilan, mung esa doim shodumonlik bilan qo'shib ketadi... g'ussa va g'ussaviylik hamda shodlik va shodumonlik har qachon bir-birlarini yetaklab yuradilar, bir-birlarini tarbiyalaydilar, shodlik g'ussalarning murabbiysidir va g'ussalar baxtiyorliklarga murabbiydir. Qanchalar g'alati

eshitiladi bu soʻzlar: lekin qanchalar olam qonuniyati bor ularda? Qancha-qanchalab odamlar qalblarining tarixi bor ularda!” – deydi.

Xurshid Davronning “Bobur” sheʼri Bobur Mirzo qalb tarixining badiiyat bagʻridagi aksi. “Samarqandning minoralari” esa shoirning tengsiz badiiy kashfiyoti. U shoir tafakkurida sintezlashgan yaxlit Vatan timsoli, ayni paytda aytish mumkinki, u kontekstda oʻquvchining didi, badiiy zavqiga qarab oʻzining bir koʻp maʼnolarini namoyon eta oladigan rangin timsol.

Bu ramzda Bobur Mirzoning “Temurbekning va Ulugʻbek mirzoning imorati va bogʻoti Samarqand mahallotida koʻptur” maʼlumotining havasmandligi, salobati, “Samarqand xayoli boshqa tushubtur” lutfining latofati va nazokati, “Latofat gulshanida gul kabi sen sabz-u xurram qol” tilagining samimiyati, harorati bor.

Samarqand minoralarining porloq yodini zulfiqor qilich kabi bir umr yuragiga qadab yashagan Bobur Mirzo (“Minorla emas bu falakka qasam, Qasoskor bobolar ketmishdir sanchib”) qadami yetgan joyga umumjahon eʼtirofiga sazovor boʻlgan temuriy madaniyatini va shu madaniyatning oʻchogʻi boʻlgan “baldayi mahfuza” – Samarqandning chiroyini, fayz-u tarovatini, shukuhini olib kirdi.

Taqdirning, qismatning buyuk missiyasini Vatandan yiroqda oʻtagan Bobur Mirzo otabobolarining eng yaxshi anʼanalariga vorisilik nuqtayi nazaridan ham Vatanniki, kindik qoni tomgan yurtning dilbar oʻgʻloni boʻlib qoldi. Bobur Mirzo dahosi, Bobur Mirzo fenomeni ahamiyati jihatidan Samarqand minoralari bir safda turadi. Zero, “Minoralar mustahkamlik, bardoshlilik gʻoyasini ifodalaydi. Uning asosiy maʼnosi esa dunyoning ramziy manzarasida maʼnaviy, samoviy, ilohiylikka yaqin holat yuqoriligi bilan bogʻlanadi... minora yer bilan osmon oʻrtasidagi aloqa vazifasini bajaradi, deyshadi”.

Bobur Mirzoning maʼnaviy-ruhiy olamiga tegishli samoviy, ilohiylikka yaqin holatni har kim aql-u idroki, fahm-farosati, aynan shu sohaga tegishli bilimi, ilmiga tayanib oʻzi kashf etar, ammo Bobur Mirzo va u kabi buyuk tarixiy shaxslarimiz oʻtmish bilan bugunni bogʻlab turuvchi oltin koʻprik ekanliklari aynan haqiqatdir. Samarqandning muazzam va muzayyan minoralari kabi ular hamma vaqt, ham yerdan koʻrinib turadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

Arminiy, Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: Info Capital Books, 2024. – 464 b.

Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – 336+32 b.

Gʻafurov Ibrohim. Asarlar. Adabiyot dunyosi: sakkiz jildlik. Toʻrtinchi jild. Oʻttiz yil izhori. – T.: Yangi asr avlodi, 2022. – 528 b.

Ivanov P., Zufarova I. Umumiy psixologiya. – T.: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013. – 478 b.

Joʻraqulov Uzoq. Nazariy poetika masalalari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 356 b.

Meli Suvon. Soʻz-u soʻz. “Adabiyot falsafasi”ga chizgilar. – T.: Sharq, 2020. – 528 b.

Mingboyeva Dilrabo. Timsollar tilsimi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 179 b.

Ochilov E. Bobur hikmatlari. Manba: Zahiriddin Muhammad Bobur: risola. – T.: Oʻzbekiston, 2012. – 136 b.

Oripov Abdulla. www.ziyouz.com kutubxonasi

Qurʼoni karim: maʼnolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur; tahrir hayʼati: Usmonxon Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, M.Ibrohimov va boshq.; Masʼul muharri: M.Ahmadjonov. – T.: Toshkent islom universiteti, 2009. – 624 b.

Sulton Xayriddin. Boburiynoma: Maʼrifiy roman. – T.: Sharq, 1997. – 416 b.

Xoliyorov Mengliboy. Badiiy portret // Oʻzbek tili va adabiyoti. № 3. 1991. – T.: Oʻzbekiston SSJ FA, Fan.

Xurshid Davron. Samarqand xayoli. – T.: Kamalak, 1991. – 320 b.

Yoʻldoshev Qozoqboy. Soʻz yolqini. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 504 b.

Zahiruddin Muhammad Bobur. Kulliyot. 1-jild. Devon. – T.: Zilol buloq, 2021. – 600 b.

Zahiruddin Muhammad Bobur. Kulliyot. 1-jild. Devon. – T.: Zilol buloq, 2021. – 600 b.

THE USAGE OF METAPHOR IN BUSINESS DISCOURSE

Khurramova Shokhista Oybekovna
Exact and Social Science University Foreign language and literature
2nd course Master

Mamatova Feruza Makhhammadovna
PhD, associate professor
National University of Uzbekistan

Abstract. Metaphors have long been recognized as a powerful linguistic tool, not only in literary and everyday language but also in specialized fields such as business. This article explores the role of metaphors in business discourse, emphasizing their significance in shaping perceptions, structuring arguments, and influencing decision-making processes. By examining different types of metaphors used in business contexts, including conceptual, structural, and organizational metaphors, the article highlights how these figurative expressions enhance communication, foster innovation, and influence organizational culture.

Keywords: metaphor, business discourse, conceptual metaphor, organizational culture, communication, innovation

BIZNES NUTQIDA METAFORADAN ISHLATISH

Xurramova Shoxista Oybekovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Mamatova Feruza Maxammadovna
O'zbekiston Milliy universiteti PhD, dotsent

Abstrakt. Metafora uzoq vaqtdan beri nafaqat adabiy va kundalik tilda, balki biznes kabi maxsus sohalarda ham kuchli lingvistik vosita sifatida tan olingan. Ushbu maqola metaforalarning biznes nutqidagi rolini o'rganadi, ularning in'ikoslarni shakllantirish, argumentlarni tuzish va qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sir qilishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Biznes kontekstlarida ishlatiladigan turli xil metaforalarni, jumladan, kontseptual, tarkibiy va tashkiliy metaforalarni o'rganib chiqib, maqola ushbu majoziy iboralar qanday qilib muloqotni kuchaytirishi, innovatsiyalarni rag'batlantirishi va tashkilot madaniyatiga ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: metafora, biznes nutqi, kontseptual metafora, tashkiliy madaniyat, aloqa, innovatsiya

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТАФОРЫ В ДЕЛОВОМ ДИСКУРСЕ

Хуррамова Шохиста Ойбековна
Университет точных и социальных наук
Иностранный язык и литература 2 курс Магистратура

Маматова Феруза Махаммадовна
PhD, доцент Национальный университет Узбекистана

Аннотация. Метафоры давно признаны мощным лингвистическим инструментом не только в литературном и повседневном языке, но и в специализированных областях, таких как бизнес. В этой статье исследуется роль метафор в деловом дискурсе, подчеркивается их значение в формировании восприятия, структурировании аргументов и влиянии на процессы принятия решений. Рассматривая различные типы метафор, используемых в деловых контекстах, включая концептуальные, структурные и организационные метафоры, в статье подчеркивается, как эти образные выражения улучшают коммуникацию, способствуют инновациям и влияют на организационную культуру.

Ключевые слова: метафора, деловой дискурс, концептуальная метафора, организационная культура, коммуникация, инновации

Introduction. In the realm of business communication, precision and clarity are often considered paramount. Yet, despite its emphasis on factual and technical language, business discourse is deeply embedded with figurative expressions, particularly metaphors. Metaphors, far from being mere decorative language, serve as essential cognitive tools that influence how business professionals conceptualize complex ideas, frame discussions, and engage in decision-making.

The use of metaphor in business is not only about linguistic convenience; it is a powerful means of transforming abstract concepts into tangible experiences. When a market is described as a «battlefield» or a company as a «well-oiled machine,» these metaphors provide concrete mental frameworks for understanding competitive environments, organizational efficiency, or operational challenges. Such expressions shape perceptions and guide strategic thinking in profound ways, often simplifying complex phenomena into familiar terms that resonate with both internal and external stakeholders.

This article seeks to explore the critical role metaphors play in business discourse, highlighting their impact on various domains such as strategic planning, leadership, innovation, and organizational culture. By examining how metaphors function in business communication, this study underscores their importance not only in shaping the narrative of the business world but also in influencing actions and outcomes. Through a closer analysis of metaphorical language, we aim to understand how businesses harness the power of metaphor to foster innovation, drive growth, and build cohesive corporate identities.

As businesses operate in increasingly complex and global environments, the role of metaphor in simplifying and structuring communication is more crucial than ever. Understanding how metaphorical thinking permeates business discourse provides valuable insights into the cognitive and rhetorical strategies that support effective leadership and decision-making.

Metaphor, as defined by Lakoff and Johnson (1980), is a conceptual process whereby one domain of experience is understood in terms of another. The Conceptual Metaphor Theory (CMT) suggests that metaphors are not just linguistic expressions but reflect deeper cognitive processes. In business discourse, this means that abstract business concepts are often conceptualized in terms of more concrete, familiar experiences.

Conceptual metaphors are common in business language, such as “the market is a battlefield” or “the organization is a machine”. These expressions provide frameworks for thinking about business situations in terms of conflict, competition, efficiency, or performance.

Metaphors in business discourse are instrumental in simplifying complex concepts and guiding strategic thinking. These metaphors shape how individuals and organizations understand abstract ideas, convey meaning, and frame their approaches to problems. Various types of metaphors are commonly used in business, each serving a unique function in the communication process. In this section, we will explore the primary types of metaphors used in business discourse: structural metaphors, orientational metaphors, and organizational metaphors.

Structural metaphors involve mapping one conceptual domain onto another, allowing people to understand and engage with abstract business ideas in terms of more familiar, concrete experiences. This type of metaphor structures how people perceive business activities and strategies.

For example, phrases such as “cutting costs”, “breaking into the market”, or “building a brand” frame business processes as physical activities. The metaphor of «cutting costs» suggests an action of trimming unnecessary elements, akin to pruning a tree, which implies efficiency and optimization. «Breaking into the market» evokes the image of entering a restricted space, often implying competition and aggression.

Structural metaphors are particularly important in areas such as marketing, management, and corporate strategy, where abstract concepts like customer relationships or market dynamics need to be easily comprehensible. For instance, viewing competition through the metaphor of a “race” or a “battle” shapes the language of rivalry and victory, influencing how business strategies are crafted and communicated.

Oriental metaphors, based on spatial orientation (up, down, in, out), are prevalent in business discourse. These metaphors reflect a natural human tendency to associate direction with value, where upward movement is positive and downward movement is negative.

In business, expressions such as “rising profits”, “falling stock prices”, “climbing the corporate

ladder”, or “sinking market share” use vertical directionality to express success or failure. These metaphors create a cognitive link between spatial orientation and business outcomes. For instance, “growth” is often depicted as moving upward, symbolizing progress, while “decline” or “recession” are depicted as downward movements, symbolizing deterioration.

Oriental metaphors also influence how companies communicate goals and objectives. Terms like “moving forward” in business strategy signify progress, direction, and momentum. Conversely, “setbacks” or “stumbling blocks” imply a temporary halt or challenge in achieving goals. By aligning business success with upward and forward motion, orientational metaphors motivate individuals and organizations to strive for improvement and advancement.

Organizational metaphors describe businesses and companies as specific entities or systems, conveying how they function, interact, and evolve. These metaphors are crucial in defining organizational identity, culture, and roles within a company.

One of the most common organizational metaphors is “the organization is a machine”. This metaphor emphasizes efficiency, precision, and productivity, portraying the company as a well-functioning apparatus where each part (employee or department) has a specific role in ensuring the smooth running of the entire system. This view promotes values such as standardization and process optimization.

Alternatively, metaphors like “the organization is a family” or “the company is a community” focus on interpersonal relationships, trust, and collaboration within a business. These metaphors emphasize a supportive and inclusive corporate culture, where employees are valued members working toward a shared goal. The family metaphor suggests loyalty, unity, and emotional engagement, often used by businesses that prioritize strong internal relationships[2].

Another powerful organizational metaphor is “the organization is a ship”, commonly used to describe leadership and decision-making. The company, represented as a vessel navigating through uncertain waters, relies on its leadership (the captain and crew) to steer it toward success. This metaphor evokes ideas of direction, teamwork, and adaptability in changing business environments.

Metaphors are more than just linguistic tools for simplifying complex concepts—they are powerful drivers of innovation in business. By enabling individuals and organizations to conceptualize problems and opportunities in new ways, metaphors foster creativity, break conventional thought patterns, and provide fresh perspectives on business challenges. In this section, we will explore how metaphors stimulate innovation, encourage creative thinking, and facilitate strategic breakthroughs in various business contexts.

Metaphors allow individuals to frame familiar situations or problems in new and unexpected ways, encouraging innovative solutions. By comparing an unfamiliar or abstract idea to something more concrete, metaphors help business professionals reconceptualize the situation, leading to novel approaches and ideas. For instance, framing a stagnant market as “fertile ground” instead of a “dead end” can shift the mindset from one of limitation to one of possibility and growth.

This cognitive flexibility is essential for innovation, as it enables businesses to move beyond the status quo. When a business process is described as “building a bridge” between departments, it implies collaboration and connection, promoting the idea that departments can innovate together to achieve a common goal. Similarly, describing a new project as a “journey” encourages a focus on long-term growth, risk-taking, and exploration[1].

Metaphors are particularly valuable in business for problem-solving and strategic thinking. By framing a problem in metaphorical terms, business professionals can approach it from different angles, often leading to breakthroughs. For example, viewing a business challenge as a “puzzle” suggests that it can be solved by assembling different pieces of information, while seeing it as a “mountain to climb” implies a steady, step-by-step approach that builds momentum toward a solution.

In strategic thinking, metaphors such as “navigating uncharted waters” or “charting a new course” encourage organizations to embrace uncertainty and adaptability. These metaphors help businesses move forward with a sense of direction even when the path ahead is not entirely clear. By conceptualizing innovation as a form of exploration, businesses are more likely to experiment with new ideas and venture into unknown markets or technologies[4].

Entrepreneurship, by its very nature, involves risk, creativity, and the pursuit of new opportunities. Metaphors play a crucial role in shaping entrepreneurial innovation, offering mental models that guide

vision and decision-making. For example, describing an entrepreneurial venture as “planting seeds” invokes the idea of long-term investment, growth, and patience. It suggests that the entrepreneur must nurture their idea and wait for it to flourish, emphasizing perseverance and steady progress.

Another common metaphor in entrepreneurship is “building a foundation”, which suggests that initial efforts are crucial for future success. This metaphor encourages entrepreneurs to think of their early actions as laying the groundwork for long-term sustainability. Similarly, describing a startup as a “rocket ship” evokes speed, ambition, and the idea of exponential growth, often motivating entrepreneurs to aim high and move quickly in scaling their ventures[1].

Metaphors also play a central role in driving innovation within organizations. Leaders who use metaphorical language to describe their vision for the company can inspire teams to think creatively and pursue innovation. For instance, when a leader refers to their company as a “ship” navigating through a storm, it frames the challenges the organization is facing as temporary obstacles that can be overcome with strategic direction and teamwork. This metaphor can foster resilience and motivate employees to innovate in the face of adversity.

Furthermore, metaphors such as “thinking outside the box” or “breaking the mold” encourage individuals to challenge conventional thinking and explore unconventional solutions. These metaphors imply that true innovation requires stepping away from established norms and experimenting with new approaches. As a result, organizations that embrace metaphorical thinking are more likely to cultivate a culture of innovation, where creative ideas are valued, and risk-taking is supported[2].

In marketing and branding, metaphors are often used to create a distinctive identity and communicate a brand’s value proposition in a memorable way. Metaphors can transform how customers perceive a product or service, making it more relatable and engaging. For example, Apple famously used the metaphor of a “digital hub” to describe the Mac as the central point for managing music, photos, and videos. This metaphor helped consumers conceptualize the Mac not just as a computer but as a creative tool, fueling innovation in the tech industry.

Similarly, companies often use metaphors in advertising to evoke emotions and create deeper connections with their audience. Metaphors such as “taste the rainbow” (Skittles) or “reach for the stars” (various aspirational brands) invite consumers to associate the product with a broader, more imaginative experience. By appealing to metaphorical thinking, brands can differentiate themselves and position their offerings as innovative and desirable[3].

Effective leaders use metaphors to inspire, motivate, and communicate their vision. The metaphorical framing of leadership roles can shape how leaders interact with their teams and drive organizational goals. For example, metaphors like “leading the charge” or “guiding light” depict the leader as an active, directive figure, while metaphors like “a coach” or “a mentor” suggest a more supportive and nurturing role.

Moreover, organizational culture is heavily influenced by the metaphors used within the company. Describing a company as “a family” fosters a culture of inclusiveness and loyalty, while “a well-oiled machine” emphasizes efficiency and precision. These metaphors shape the employee experience and impact motivation, collaboration, and overall performance.

Metaphors directly influence how business decisions are framed and executed. The metaphor “business is war” implies a competitive, zero-sum approach to strategy, where competitors are enemies, and success depends on defeating them. Alternatively, the metaphor “business is a game” suggests an environment of rules, strategies, and tactics, where success is determined by skill, planning, and sometimes luck.

By selecting different metaphors to describe the same situation, decision-makers can influence the direction and tone of business strategies. A “battlefield” metaphor might lead to aggressive market positioning, while a “game” metaphor could encourage risk-taking and strategic maneuvering.

Conclusion

Metaphors play a vital role in business discourse, far beyond their traditional function as linguistic embellishments. They serve as cognitive tools that shape how individuals and organizations understand complex concepts, frame challenges, and navigate strategies. By mapping abstract ideas onto familiar experiences, metaphors provide clarity and structure, enabling business professionals to communicate more effectively and make informed decisions.

In business, metaphors are not only used for simplifying communication but also for driving innovation and creative thinking. From structural metaphors that guide strategic planning to orientational metaphors that frame success and failure, and organizational metaphors that shape corporate culture, the metaphorical language offers powerful frameworks for understanding the dynamic nature of business environments. Leaders, entrepreneurs, and marketers frequently leverage metaphors to inspire teams, differentiate brands, and foster an atmosphere conducive to innovation and growth.

Moreover, metaphors enhance problem-solving and strategic thinking by offering new perspectives and reframing challenges in novel ways. They encourage businesses to move beyond conventional approaches and embrace innovative solutions. As a result, metaphors not only enrich business communication but also act as catalysts for change, helping organizations adapt to the complexities of modern markets and technologies.

In conclusion, understanding and harnessing the power of metaphor in business discourse is crucial for enhancing communication, fostering creativity, and driving innovation. Businesses that embrace metaphorical thinking are better equipped to inspire teams, connect with customers, and achieve long-term success in today's rapidly evolving business landscape.

References

Kheovichai, Baramée. «Metaphor in business English.» Humanities, Arts and Social Sciences Studies (Former name silpakorn university journal of social sciences, humanities, and arts) (2015): 93-130.

Koller, V. (2006). Of critical importance: Using electronic text corpora to study metaphor in business media discourse. *Trends in Linguistics Studies and Monographs*, 171, 237.

Kovacs, E. (2006). Conceptual metaphors in popular business discourse. *Publicationes Universitatis Miskolcensis: Sectio Philosophica*, 11(3), 69-80.

Skorcynska, Hanna. «Metaphor in scientific business journals and business periodicals: an example of the scientific discourse popularisation.» *Ibérica, Revista de la Asociación Europea de Lenguas para Fines Específicos* 3 (2001): 43-60.

MULOQOTDA O‘ZARO MUVOFIQLIK
Mamajonov Muhammad Yusubjonovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: Til tadqiqi har jihatdan to‘kis bo‘lishi uchun tilshunoslik doirasidagina ish ko‘rishning kamligi bugun shu fan mutaxassislarining hech biriga sir emas. Shu bois zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda boshqa fanlar yutuqlaridan ham keng foydalanilmoqda. Ana shunday urinishlarning samarasi sifatida kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, pragmalolingvistika kabi sohalar rivoj topmoqda va bu sohalar tilga, an’anaviy strukturalizmdan farqli ravishda, doimiy harakatdagi, o‘shir-o‘zgarishdagi hodisa sifatida yondashayotgani bilan ahamiyat kasb etmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar: muloqot jarayoni, idrok, kommunikativ jarayon, sixologik jarayonlar, shaxsning tajribasi, muloqotning perseptiv tomoni, appersepsiya.

ВЗАИМНАЯ СОВМЕСТИМОСТЬ В ОБЩЕНИИ

Мамажанов Мухаммаджан Юсубжанович,
Доцент ФерГУ, доктор философских наук по
филологическим наукам (PhD)

Аннотация: Ни для кого из специалистов данной дисциплины не является секретом, что в области лингвистики еще мало работы, чтобы исследование языка было полноценным во всех аспектах. Поэтому в современных лингвистических исследованиях широко используются достижения других дисциплин. В результате таких усилий развиваются такие области, как когнитивная лингвистика, лингвистика, этнолингвистика, психоллингвистика, этнопсихоллингвистика и прагмаллингвистика, и эти области приобретают все большее значение, поскольку они рассматривают язык как явление, находящееся в постоянном движении, росте и изменении, в отличие от традиционного структурализма.

Ключевые слова и фразы: процесс общения, восприятие, коммуникативный процесс, психологические процессы, личный опыт, перцептивная сторона общения, апперцепция.

MUTUAL COMPATIBILITY IN COMMUNICATION

Mamajonov Muhammadjon Yusubjonovich,
Associate Professor at FerSU, Doctor of philosophy in
philology (PhD)

Abstract: It is not a secret to any of the specialists of this discipline that there is little work to be done in the field of linguistics in order for language research to be complete in all aspects. Therefore, the achievements of other disciplines are widely used in modern linguistic research. As a result of such efforts, fields such as cognitive linguistics, linguistics, ethnolinguistics, psycholinguistics, ethnopsycholinguistics, and pragmalinguistics are developing, and these fields are gaining importance because they approach language as a phenomenon in constant movement, growth and change, unlike traditional structuralism.


Key words and phrases: communication process, perception, communicative process, psychological processes, personal experience, perceptive side of communication, apperception.

Kirish. Psixolingvistika tildan foydalanishga asoslangan psixologik jarayonlarni tasvirlashga qaratilgan. O‘qish, yozish, nutq tayyorlash va uni tinglash ham universal qobiliyat bo‘lmagani holda, tildan foydalanishning eng tabiiy va asosiy shakli dialogdir: har bir til

foydalanuvchisi, yosh bolalar va savodi bo'lmagan kattalar ham suhbat qura oladilar. Shuning uchun psixolingvistikaning asosiy maqsadi tabiiy dialog paytida qo'llaniladigan asosiy mexanizmlar haqida ma'lumot berish bo'lishi kerak[1:169].

D.Levisning fikricha, dialog hamkorlik o'yinidir, bunda agar suhbatdoshlar dialogda bir-birlarini tushunsalar, "yutadilar", agar ishtirokchilarning biri yoki ikkisi ham tushunmay qolsa, "yutqazadilar"[2]. Demak, muloqotda hamkorlik, o'zaro tushunish, suhbatdoshning fikrini ilg'ay olish muhim ahamiyatga ega.

S.Garrod va M.Pickeringlarning ta'kidlashlaricha, suhbatdoshlar muloqotda bir-birlariga moslashadilar: bunda suhbatdoshlar tovushlar va so'zlardan tortib sintaktik qurilish va ma'no ifodalarigacha bo'lgan o'xshash tasvirlardan foydalanishni boshlaydilar. Masalan, suhbatdosh tez va baland ovozda gapirganda ikkinchi suhbatdosh ham ko'pincha shunday javob beradi; bir suhbatdosh ma'lum bir sintaktik qurilmadan ko'p foydalansa, ikkinchisi ham bu qurilmadan foydalanishi mumkin. Olimlarning fikricha, bu moslashish jarayoni nutqni hosil qilishning barcha darajalarida, mazmun tanlashni boshqaradigan semantik tasvirlardan tortib artikulyatsiya bilan bog'liq bo'lgan fonetik tasvirlargacha sodir bo'ladi hamda bu jarayon suhbatni yanada silliq davom ettirishga yordam beradi. Ularning izlanishlari natijalariga ko'ra, dialogda suhbatdoshlar bir-birlariga moslashadilar. Bunday moslashish, muvofiqlik tilning turli sathlarida ham kuzatilishi mumkin. Olimlar muvaffaqiyatli muloqotda o'zaro moslashishning quyidagi sxemasini taklif qilganlar:



Ushbu chizmaga ko'ra, suhbatdoshlar bir-birlariga moslashishlari uchun, avvalo, vaziyat modeli mos kelishi kerak, ya'ni bir vaziyatga, holatga mos suhbat qurilishi zarur. Muvofiq vaziyat bo'lmasa, muloqot ham shakllanmaydi. Har qanday turdagi suhbat qurish uchun, avvalo, suhbatlashish uchun vaziyat, mavzu bo'lishi lozim. Muvofiq vaziyatsiz, mos mavzusiz muloqot qurish imkonsiz, suhbatdoshlar "nimadir umumiy" haqida muloqotga kirishishlari talab etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Vaziyatga mos xabar yuborilgach, suhbatdoshlar ongida semantik reprezentatsiya yuz beradi, bunda adresant yuborgan xabarni adresat yuboruvchi jo‘natgandek tushunishi, idrok qilishi muhim sanaladi. Yetkazilgan fikr adresat ongida noto‘g‘ri, nomuvofiq reprezentatsiya qilinishi suhbatning uzilishi, muloqotning samarasiz holda to‘xtab qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda psixologik jarayon – idrok ishtirok etadi.

Muloqotda faqatgina semantik reprezentatsiyaning muvofiq kelishi eng ahamiyat sanalsada, suhbatdoshlar sintaktik, leksik, fonologik va fonetik sathlar nuqtayi nazaridan ham o‘zaro moslashadilar. Muloqot paytida suhbatdoshga moslashgan holda o‘xshash sintaktik qurilmalar, bir xil leksik birliklar tanlanishi dialogda suhbatning oson tushunilishi, o‘zaro muvofiqlikni ta‘minlaydi.

Shu o‘rinda fonetik-fonologik moslashishni ham ta‘kidlash zarur. Fonetik moslashish ma‘lum tovushlar talaffuzida suhbatdoshga muvofiq muloqotni anglatadi. Bunday holat o‘zbek muloqotida ko‘p hollarda shevalarga xos moslashishda va kichik yoshdagi bolalar bilan suhbatda tovushlarni moslashda namoyon bo‘ladi.

Nima yeding?

Chikalat.

Voy, chikalat yedingmi san? [3:34]

Kichik yoshdagi bolalarga ularga mos gapirish bolalarning kattalar tomonidan tushunilayotganini, bolalar o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalab berayotganlarini bildirish uchun ham amalga oshiriladi.

Dialogik muloqotda suhbatdoshning ovoz toni, tempiga moslashish ham ahamiyatlidir. Aytaylik, suhbatdosh shoshayotgan bo‘lsa, u tez-tez gapirib, muddaosini bayon etishga harakat qiladi. Yoxud suhbatdosh jahl qilib, ovoz tonini balandlatib gapirsa, ikkinchi suhbatdosh ham shunga yarasha ovozini balandlatib javob berishi tabiiy sanaladi. Shu sababdan ham dialogik muloqotda moslashish muhimdir.

... – Ilki jarohatlangan emish-a! – dedi. – Ertaga asfalasofilinga ketadigan haromi, bugun ilkingni o‘ylab nima qilasan?

Eshik ortidagi mahbusning nafrat bilan:

– Jallodlar! – degani eshitildi.

Xirilloq soqchi o‘rnidan sapchib turib do‘q qildi:

– Jim yot, o‘laksa! Hozir kirib, bir jarohatingni o‘nga yetkazamen! [3:158]

Jahl qilgan suhbatdoshga jahl bilan, nafrat bilan javob qaytarish, ovon toniga moslashish tabiiy dialogning muhim jihatlaridandir. Yuqoidagi dialogik muloqotda soqchi va mahbus suhbatida bir-birlariga munosabat salbiy bo‘lgani holda, ikki suhbatdosh o‘zaro baqirib, ohangni moslashtirgan holda muloqot qilishi ham aynan muvofiqlikning psixologik asoslari bilan bog‘liq. Baland ovoz, yuqori ton inson ruhiyatiga ta‘sir qiladi, buning natijasida ana shu muomalaga yarasha reaksiya yuzaga chiqadi. Bu reaksiya nafaqat qo‘llanilayotgan lisoniy birliklar va sintaktik qurilmalar, balki tilning intonatsion xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. M.Pikering va S.Garrodlar dialogik muloqotda o‘zaro muvofiqlikni tadqiq qilishda morfologik moslashishga e‘tibor qaratmaganlar. Bunda mualliflarning ingliz tili muloqotini o‘rganganlarini e‘tiborga olish zarur. O‘zbek tili agglyutinativ til ekanligi sababli uning morfologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘zbek tilida muloqot amalga oshirilganda morfologik moslashish ham vujudga kelishini ta‘kidlab o‘tish zarur. O‘zbek muloqotida vaziyatga, shevalarga moslashgan holda qo‘shimchalarda muvofiqlik ham yuzaga keladi.

Ayrim hollarda muloqot faqat bir til doirasidagina yuz bermaydi, suhbatdosh adresatga mos ravishda tilni o‘zgartirishi, suhbatdoshiga tanish tildan foydalanishi ham mumkin. Suhbatdosh adresant yuborayotgan xabarni tushunish, unga mos javob qaytarish uchun ham muvofiq tildan foydalanishi talab etiladi.

Kimdir yelkamga turtdi. O‘girilib qaragam, hozirgina simyog‘ochga suyanib “Sashenka”

deb yig'layotgan xotin. Labining bo'yog'i surkalib ketgan, og'zi qiyshayib qolganga o'xshardi. – Aksakal... – U bobomni ham nari surdi.

Robiya rus xotinni ko'rgach, uning o'zbek tilini bilmasligini fahmlagach, bilganicha rus tilida gapirib, suhbatdoshga o'z fikrini tushuntirmoqchi bo'ldi:

– Mama ploxa, – dedim bilganimcha o'rischa gapirib. – Mama umer budit. – Nichego! – Xotin ma'yus jilmaydi. – Ya vrach, pomogu. Prinesi pit[4:30].

Agar ushbu holatda Robiya rus tilida muloqotga kirishmaganida, onasining ahvolini tushuntirib bermaganda, rus ayolning vrach ekanidan ham bexabar qolgan bo'lishi mumkin edi. Demak, ayrim hollarda suhbatdosh so'zlashadigan tilga ham moslashish talab etiladi.

Agar muloqotda yuqoridagi moslashishlar bo'lmasa, dialogda nomuvofiqliklar yuzaga kelishi, bu esa muloqotning uzilib qolishiga yoxud muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Muloqotda muvofiqlikka intilish bir necha ekstralingvistik sabablar orqali yuzaga kelishi mumkin: muloqotning samarali kechishiga erishish; muloqotning uzilishlarsiz, ravon kechishini ta'minlash; vaziyatga mos muloqotga erishish; suhbatdoshga o'z fikrini osonroq bildirishga erishish; suhbatdosh bilan mavqe jihatdan tenglashishga erishish va boshqalar.

Shu o'rinda suhbatdoshga mavqe jihatdan teng kelishga intilish bo'yicha izoh berib o'tish zarur. Bunda ayrim hollarda sof adabiy tilda so'zlayotgan suhbatdoshga shunday javob qaytarish maqsadida shevalardan foydalanmay, adabiy tilni qo'llab suhbatlashish nazarda tutilishi ham mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda Toshkentga kelgan viloyatliklarning Toshkent shevasidan foydalangan holda suhbatlashishga intilishlari ham mavqe jihatdan tenglashishga intilish sifatida baholanishi mumkin.

Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanida yozuvchi, jurnalist Nazar Yaxshiboyev va rais o'rtasida qiziqarli suhbat keltirilgan. Soddagina, qishloqdan davolanishga kelgan rais Yaxshiboyevni ko'radi-yu, televizorda ko'rgan, maqolalarini o'qigan yozuvchi shu ekanini tanib, yozuvchiga mos ravishda adabiy tilda, badiiy ifoda va konstruksiyalardan foydalanib, gapira boshlaydi:

Uzr, domlajon... Bezovta qildim... Suratingizni ko'rib yurardik, lekin darrov taniyolmabman. Mana, diydoringiz nasib etdi.

Qayerlardan so'raymiz?

Uzoqdan, domlajon, janub tomonlardan. Ammo-lekin, bahavo joylar. Sizdek ulug' odamni ko'rmoq orzuimiz edi, mana, orzuimizga yetdik [5:93].

Yaxshiboyev bunday kitobiy so'zlarni, jummalarni eshitib, ichida g'ijinadi. Oddiy to'pori insonning bunday jimjimador lisoniy birliklardan foydalanishi notabiiy eshitiladi. Aslida esa rais aynan Yaxshiboyevga moslashish uchun shunday qurilmalardan foydalanadi. Suhbatdosh sifatida bunday holat Yaxshiboyevga yoqmasa-da, suhbatni buzmaslik uchun indamaydi. Raisning aynan o'zi uchun bunday tildan foydalanayotganini ham yaxshi anglaydi:

Yaxshiboyev ichida g'ijindi. Namuncha kulturniy bo'lmasa, deb o'yladi, o'zi bilmagan so'zlarni aytadi-ya!.. Darvoqe, bu so'zlarni biladi, lekin aytadigan mavridu joy topmagan, endi aytsa bo'laveradi, meni ko'rdi, menga aytsa bo'ladi [5:93].

Rais ongida kechadigan psixik jarayonlar yordamida u mashhur yozuvchi bilan suhbatga tayyorlanishda bu insonga tenglashish, mos gapirish, oldida uyalib qolmaslik uchun shunday muloqot qilishni afzal biladi. Ziyoli insonlar doim kitobiy tilda so'zlashadilar, bu inson bilan men ham shunday muloqot qilishim kerak, degan qarash, yozuvchilarni o'z shaxsiy qarashlariga ko'ra idrok qilish natijasida aynan shu turdagi nutq yuzaga keladi. Bunda suhbatdoshga moslashishda nafaqat idrok, balki ruhiy-hissiy jihatdan hayajonlanish, o'zini suhbatdosh oldida qanday tutishni bilmaslik, ikkilanish kabi jarayonlar ham ko'zga tashlanadi. Notabiiy ravishda kitobiy so'zlardan foydalanish esa rais nutqida nomuvofiq birikmalar, jumalar ham irod etilishiga olib keladi: ikkita olijanob molxona qurdik. Olijanob sifati molxona joy oti bilan o'zaro mos kelmaydi. Lekin rais molxona uchun mos baladparvoz, kitobiy sifat

topolmay, olijanob soʻzidan foydalanadi. Yozuvchi Yaxshiboyev esa raisning nutqidagi bunday xatoliklarni tahlil qiladi:

... Sogʻliqni oʻylab, bu taraflarga tashrif buyurdik.

Ol-a, dedi Yaxshiboyev ichida, sen oʻzing kimsanki, tashrif buyursang. Yoʻq buniyam aybsitib boʻlmaydi, televizor-pelevizorga chiqadidan xotin shoirlardan oʻrgangan chiqar [5:94].

Muloqot davom etar ekan, suhbatdoshlar oʻzaro biroz yaqinlashgach, rais oddiy tilda soʻzlasha boshlaydi: Rais dardini gapirgani sari joʻnlashib, tuppa-tuzuk odamga aylandi-qoldi [5:95].

Badiiy uslubdan soʻzlashuv uslubiga koʻchgan rais asta-sekin shevaga xos birliklardan ham foydalana boshlaydi: odamlarni bir pasda yigʻnaymiz, paxta teraydigan moshin va boshqalar.

Xulosa. Shunday qilib, suhbatdoshlar yaqinlashganlari sari, raisda hayajon yoʻqolib, Yaxshiboyev bilan moslashishda badiiy uslubga xos soʻzlardan foydalanmay, soʻzlashuv uslubidan, hatto shevadan ham foydalanishni boshlaydi. Demak, muloqotda moslashishda suhbatdoshni oʻz tasavvuriga koʻra idrok qilish, ijtimoiy masofa, mavqe, ruhiy-hissiy bosim ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, muloqot jarayonida suhbatdoshlar oʻzaro bir-birlariga moslashishga intiladilar. Bu moslashish esa semantik reprezentatsiya, idrok, hissiyot, ruhiy bosim kabi psixik jarayonlar bilan bogʻliq holda fonetik, intonatsion, leksik, morfologik, sintaktik qurilmalarni tanlash va nutqda qoʻllashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

Pickering M., Garrod S. Toward a mechanistic psychology of dialogue//Behavioral and brain sciences. 2004.№27. - p169.

Lewis, D. K. (1969) Convention: A philosophical study. Basil Blackwell/Harvard University Press. - New York, 2009. - p.34

Qodirov . Yulduzli tunlar. - Toshkent, 2014. - 45 b.

Oʻ.Hoshimov, “Ikki eshik orasi” - Toshkent, 2019. - 36 b.

Murod Muhammad Doʻst, “Lolazor”- Toshkent, 2017. - 18 b.

EVFEMIZMLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ruziyeva Nafisa Zarifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ingliz tilshunosligi kafedrasida, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Jahon tilshunosligida til imkoniyatlaridan amaliy foydalanish, uning nutqda qo'llanilishi va ma'no-vazifa xususiyatlari, lisoniy hodisalarning inson tafakkuri bilan bog'liqligi, shaxslararo kommunikatsiyada nutq madaniyati masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, til hodisalarining shakllanish omillari, etimologiyasi, ma'naviy guruhlari, vazifasi, milliy-ma'naviy hamda mental xususiyatlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqdaki, mazkur yo'nalishning asosiy obyekti madaniyat va til aloqadorligi, o'zaro ta'sirini tizimli ravishda yaxlit o'rganish, o'z navbatida, madaniy nutqning yetakchi elementi hisoblangan va axloqiy, madaniy jihatdan ishlatilishi noqulay yoki qo'pol bo'lgan so'zlar o'rnida qo'llanadigan evfemizmlarni qardosh bo'lmagan ikki til – ingliz va o'zbek tillarida chog'ishtirma tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi. Mazkur maqola aynan shu masalarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: evfemizm, ma'naviyatga oid so'zlar, pardalash, yumshatish, tabu so'zlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ЭВФЕМИЗМОВ

Рузиева Нафиса Зарифовна
Доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Кафедра Английского языкознания
Бухарский государственный университет

Аннотация: В мировой лингвистике особое внимание уделяется практическому использованию возможностей языка, использованию его в речи и его семантическим и функциональным характеристикам, связи языковых явлений с мышлением человека, вопросам культуры речи в межличностном общении. В частности, проводятся обширные исследования факторов формирования, этимологии, духовных групп, функций, национально-духовных и ментальных особенностей языковых явлений, так что основным объектом этого направления является связь и взаимодействие системной целостной культуры и языка. обучение, в свою очередь, считается ведущим элементом культурного дискурса, а эвфемизмы используются вместо слов, морально, культурно неудобных или грубых в употреблении, в двух несвязанных языках - английском и вызвали необходимость гибридных исследований в узбекских языках. Данная статья посвящена этим вопросам.

Ключевые слова: эвфемизмы, духовные слова, вуалирование, смягчение, табуированные слова.

THEORETICAL BASIS FOR THE STUDY OF EUPHEMISM

Ruzieva Nafisa Zarifovna
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Department of English Linguistics
Bukhara State University

Abstract: In world linguistics, special attention is paid to the practical use of language capabilities, its use in speech and its semantic and functional characteristics, the connection of linguistic phenomena with human thinking, and issues of speech culture in interpersonal communication. In particular, extensive research is being conducted on the formation factors, etymology, spiritual groups, functions, national-spiritual and mental characteristics of language phenomena, so that the main object of this direction is the connection and interaction of culture

and language. systematic holistic learning, in turn, is considered a leading element of cultural discourse and euphemisms used in place of words that are morally, culturally inconvenient, or rude to use in two unrelated languages - English and caused the need for hybrid research in Uzbek languages. This article is dedicated to these issues.

Key words: euphemism, spiritual words, veiling, softening, taboo words.

Jamiyat va insonlar o'rtasidagi muloqotning asrlar davomida o'zgarib borishi insonlarning o'zaro muloqot qilish usullari va yo'llarini o'zgarishiga, nutqni go'zallashtirish, yumshatish shu bilan birga uni nutqiy etiket talablariga moslashtirish hodisalariga zarurat sezilib boraveradi. Shu o'rinda insoniyat muloqot vaqtida aytilishi qo'pol bo'lgan so'zlarning o'rnida estetik jihatdan muloyimlashgan birliklarni ishlatish tushunchasi paydo bo'ldi. Tilshunoslikda bu birliklar evfemizmlar deb ataladi.

Evfemiya fenomeni antik davrdan mashhur bo'lgan. Miloddan avvalgi VI asrlarda Sitseron, Aristotel, Kvintilian kabi Rim va Yunon olimlari evfemizm tushunchasiga e'tibor qaratganlar [2, 256; 4, 53; 8]. Evfemizm atamasi Demokrit, Gippiy, Aflotun asarlarida ham qayd etilgan [7, 169].

Yillar o'tishi natijasida insonlarning muomala ehtiyoji, notiqlik san'atiga talab va zarurat tug'ilgani bois evfemizmlar o'z evolyutsion tarixiga ega hodisa sifatida tadqiq etiladi. Mahalliy va xorijiy tilshunoslikda evfemizmlarning o'rganilish tarixini tilshunoslik hali fan sifatida shakllanmagan va evfemizm atamasi paydo bo'lmagan davrdan boshlab o'rganilgan. Mulohaza yuritilsa, evfemizmlarning qo'llanilishi noqulaylik tug'diruvchi, o'rinsiz, qo'pol so'zni yumshatish yoki uning o'rnini bosuvchi birlik orqali ifoda etish muloqot madaniyatining zaruratiga aylanganini idrok etish mumkin. Bu jarayon notiqlik maktablarining gullagan davriga to'g'ri keladi. Aniqrog'i, semantik doirada tuzilgan so'z va iboralarni yumshatish va bezash haqidagi fikr hamda g'oyalarni qadimgi yunon faylasufi Aristotelning eramizdan avvalgi 300-yillardagi "Ritorika" asarida uchratish mumkin [2, 256]. Aristoteldan ikki asr keyin yashagan rimlik faylasuf Sitsironning notiqlik san'ati jahonga mashhur bo'lganligi ayon. Uning notiqlik san'atidan keltirgan misollarida ta'sir qiluvchi so'zlarni tanlash bo'yicha maslahatlar, shu jumladan, qo'pollikni bartaraf etuvchi yoki yo'qotuvchi evfemizmlardan oqilona foydalanganligi ma'lum.

Demak, nutqni go'zallashtirish va uni yumshoq, tinglovchi uchun yoqimli (yoki neytral) bo'lishini ta'minlash masalalariga eramizdan oldingi asrlardan buyon jiddiy e'tibor qaratilgan.

Evfemizmlarning qo'llanilishi, asosan, ekstralingvistik va lingvistik muammolarning mavjudligi sabab paydo bo'ladi. Chunki o'z mohiyatiga ko'ra evfemizmlar ijtimoiy madaniyatning bir ko'rinishi hisoblanadi. Yevropa madaniyatida evfemiya terminining bir qancha talqini mavjud. Jumladan, falsafiy termin sifatida evfemizm – Demokritning fikriga ko'ra ko'ngil xotirjamligi, quvnoqlik va haqiqiy baxt ma'nolarini anglatadi. Bundan tashqari, ushbu terminning boshqa fonematik shakli ham mavjud bo'lib, u evtyumiya – har bir inson intilishi zarur bo'lgan «ko'ngil xotirjamligi» degan ma'noga ega [3].

Shuni ta'kidlash joizki, evfemizm tushunchasi nafaqat tilshunoslikda, balki huquqshunoslik sohasida ham uchraydi. Vizantiyada bu atama xalqning davlat siyosatiga oid qo'zg'olonlarga muqobil ravishda davlat boshqaruv tizimiga muloyimlik bilan qonuniy rasmiy iltimos yoki taklifni anglatgan. Bu esa insonlarning konstitutsion huquqlaridan oqilona foydalanishni nazarda tutgan [3].

Tilshunoslikda esa evfemizm termini qadimgi davr estetikasi qonunlariga borib taqaladi. Ushbu qonunlarga ko'ra evfemizmlar quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Evfemizmlar avvalo, qalb xotirjamligi belgisi sifatida, undan so'ng esa nutq ko'rki sanaladi;
2. Evfemizmlar qo'pol hatti-harakatlar va qo'pol nutq o'rnida qo'llaniladi;

3. Evfemizmlar insonning ma'naviy va madaniy jihatdan o'sish ramzidir [6,85-89]. O'rta asrlarga kelib evfemizmlarni quyidagi uchta guruhga bo'lib tahlil qilish boshlandi:

- 1) xurofot va tabu tufayli bir so'zni ikkinchisiga almashtiruvchi so'zlar;
- 2) kamtarlik belgisi ostida ifodalanuvchi so'zlar;
- 3) etiket qoidalariga zid kelgan birliklar o'rnida qo'llaniluvchi so'zlar.

Birinchi guruhga tegishli evfemizmlar, asosan, biror shaxsga yoki holatga nisbatan yovuzlik, g'arazgo'ylik, dilni og'ritadigan holatlarni keltirib chiqaruvchi so'zlar o'rnida qo'llanilgan. Masalan, ingliz tilida die so'zi o'rnida pass away, join the majority; o'zbek tilida o'lmoq fe'li o'rnida tuproq quchmoq iborasining ishlatilishi yoki tug'moq fe'li o'rnida yengil bo'lmoq shaklining berilishi shular jumlasidandir.

Og'izdan tushmaydi bugun ismingiz,

Dovruqli otingiz uchar damodam.

Faqat... tuproq quchsa bir kun jismingiz,

Birga ko'mmaymizmi otingizni ham? (Iqbol Mirzo)

Ikkinchi guruhdagi evfemizmlar odob-axloq va madaniyatga zid bo'lgan so'zlar o'rnida qo'llanilgan. Bunday so'zlar sirasiga, asosan, jinsiy mayl yoki og'ir kasallikka oid bo'lgan birliklarni kiritish o'rinli. Jamiyat belgilagan axloq normalariga zid evfemizmlar, asosan, shaxslararo muloqotda hurmat va nafosat ramzini izhor etish uchun qo'llanilgan: qovushmoq, bir tanaga aylanmoq va h.

Qovushmoq shu bois oson kechmagan

Vujudlar birlashgan oydin kechada. (Dilmurod Sayyid)

Uchinchi guruhdagi etiket qoidalariga zid kelgan birliklar o'rnida ishlatiluvchi evfemizmlar, asosan, XI asrlarda paydo bo'lgan, ularning qo'llanilish sohasi, asosan, she'riyat (trubadurlar) olamida namoyon bo'ladi. Evfemizmlarning XII-XV asrlarda ingliz tilida, XIV asrda Fransiyada madaniyatning shakllanish jarayonida paydo bo'lishi va uning tilga ta'sir etish holatini kuzatish mumkin. Ingliz tili tarixini tadqiq etgan olim R. Byorchfild (Robert Burchfield) [11, 512] J.Choser (Geoffrey Chaucer) asarlarida evfemik vositalarning intim munosabatlarni aks ettirish uchun qo'llanganligini ta'kidlaydi. V.Shekspir ijodida esa evfemizmlar nisbatan kam qo'llanilgan bo'lib, adib, asosan, o'z ishlarida nozik holat va voqealarni his-hayajonli birliklar orqali ifoda etishni afzal ko'rgan. Ammo bu holat ingliz ijodkori uchun uzoqqa cho'zilmaydi. XVI asrda nutq etikasi, madaniyatning insonga ta'siri ostida insonlarning avratlari, unga bog'liq barcha narsalarning nomlarini "pardalash"ga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Shundan so'ng V.Shekspir ham o'z ijodida evfemizmlardan to'laqonli foydalana boshlaydi. Nutqqa madaniy etikani singdirish kurashi XVIII asrga qadar davom etadi. Ingliz yozuvchisi S.Richardson (Samuel Richardson) o'zining "Pamella" asarida evfemizmlardan mohirona foydalanganligini ko'rish mumkin. Masalan, "O preserve me, Heaven! from being his, in his own wicked Sense of the Adjuration!" (не позволяйте мне, о небеса пренадлежать ему) gapi tahlil qilinsa, ushbu gapda mahorat bilan evfemistik gap tuzilgan, ya'ni Pamelaning yaratgandan boshlig'i qo'lida badnom bo'lishdan saqlashini so'rayotgani aks ettirilgan.

Shu asosda, tilshunoslik nuqtai nazaridan, evfemizmlar XIX asr oxiridan boshlab tadqiqotga jalb qilingan. XIX asrning oxirida nemis olimi G. Paul ularni semantik o'zgarishlarning ma'lum sxemasi sifatida tanishtirdi. XX asrning birinchi yarmida qadimgi jamiyatda evfemizmi o'rgangan A.Meye asarlari olimlarning e'tiborini tortdi [5, 166]. U qadimgi tillardagi evfemizmlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganar ekan, bu jarayonlarni "so'z semantikasidagi o'zgarishlarning namoyon bo'lishi" sifatida belgilaydi.

Evfemizm terminining ilk bor lug'atga kiritilishi XVII asr o'rtalariga to'g'ri keladi. 1656 yilda Tomas Blauntning "Glossografiya" lug'ati nashrdan chiqdi. Unda evfemizm tushunchasi quyidagicha izohlangan: a good or favorable interpretation of a bad word" [10, 677]. Bunda yuqoridagi izohni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa "qo'pol so'zning yaxshi yoki yumshoq talqini" ma'nosini beradi.

Hozirgi kunda evfemizm tushunchasining izohli lugʻatlarda juda koʻp talqinlari mavjud. Biz ularning ayrimlari bilan tanishib chiqishni lozim topdik.

The Concise Oxford Dictionary of Current English (Hozirgi ingliz tilining qisqacha Oksford lugʻati)da evfemizmlarga shunday taʼrif berilgan: “a mild or vague expression substituted for one thought to be too harsh or direct” (masalan, die oʻrniga pass away), yaʼni “qoʻpol yoki toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalangan fikrning yumshoq va mujmal ifodasi” [9, 403].

Webster’s Revised Unabridged Dictionary (Webster toʻliq lugʻati) evfemizmlarni “A figure in which a harsh or indelicate word or expression is softened; a way of describing an offensive thing by an inoffensive expression; a mild name for something disagreeable” (qoʻpol yoki andishasiz soʻz oʻrnida qoʻllanuvchi birlik; qoʻpol narsaning beozor ifodasi; nomaqbul narsaning yumshoq koʻrinishi) deb, taʼriflaydi [13].

XIX asrda madaniy hayot tarzining rivojlanishi natijasida jamiyatda ayol va erkaklar oʻrtasidagi tafovutlarning paydo boʻlishi, yaʼni erkaklarning ishlab chiqarish sohasida ishlashi, ayollarning esa oʻzlarini oilaga, farzand parvarishiga va turmush oʻrtoqlariga baxsh etishlarini taqozo etdi. Bu esa oʻz navbatida jamiyatda axloq-obod va nutq madaniyatining rivojiga olib keldi. Shu davrda nafaqat inson aʼzolari, balki hayvon va hasharot, kasallik va narsa-hodisalar nomini evfemalashtirish ham avj oladi. Chunki jahon urushi davrida odam savdosi, yetimlik, fohishabozlik avj olgan sari evfemik birliklar va argotizmlar ham koʻpayib bordi. Ularning maʼnaviy xususiyatlari zamon va makonda, insoniyat hatti-harakati va holati bilan bogʻliq tarzda tomir yoyib bordi.

Gʻarbda, xususan, Britaniya va Amerika tilshunosligida evfemizm hodisasi koʻproq amaliy tadqiqotlarda oʻz ifodasini topgan. Amerikalik mashhur tilshunos Ch.Keyni birinchilardan boʻlib evfemizmlarning ikki tilli lugʻatini (ingliz va ispan tillari asosida) yaratdi. U “bilvosita nomlash” atamasi orqali evfemizmning boshqa til hodisalariga munosabatini ochib berdi.

XIX asrda Britaniya va Amerika lugʻat boyligining aksariyat qismi texnika va kasbga oid atamalarga, sleng, jargonizm va vulgariizmlarga tegishli ekanligini inobatga olinib, bunday soʻzlar katta auditoriya tomonidan “hazm” qilinmasligini anglagan evfemizmlar tadqiqiga jiddiy kirishilganligi maʼlum.

Zamonaviy tilshunoslikning hozirgi bosqichida evfemizmlar nafaqat leksikografiya nuqtai nazaridan, balki lingvopragmatika sohasida ham chuqur oʻrganilib, bu yoʻnalishda tadqiqotlar olib borilmoqda.

REFERENCE:

- Аристотель. Риторика. Античные риторика. – М.: Гослитиздат, 1978. – 256с.;
- Аристотель. Риторика/ Переводчик: Платонова М. – М.: Эксмо-Пресс, 2019.–256 с.
- История философии. [Список терминов: [сайт]. URL: <http://humanities.edu.ru/db/msg/1377>].
- Квинтилиан М.Ф. Обучение ораторов, Книга 1-10, переведенный и отредактированный Рассл Д.А. Университет Гарвард, Кембридж, Лондон, 2001. – 57с.
- Мейе А. Основные особенности германской группы языков, 2003. –166с.
- Миронина А.Ю. Эвфемизм как явление языка и культуры. Лингвистика. 2010. – С. 85-89.
- Хакимова М.М. Лексико-семантический анализ эвфемизмов в таджикском и английском языках. Дисс.... на соис. учен. степени канд.фил. наук. – Худжанд. 2018. – 169с.
- Цицерон М.Т. О наилучшем роде ораторов (De optimo genere oratorum). Избранные речи. Ревель: Типография «Ревельских известий», 1895. (URL: <http://ancientrome.ru/antlitr/t.htm?a=1285148370> (дата обращения: 07.08.2022))
- Allen R.E. The Concise Oxford Dictionary of Current English, 1990. – 403 p.
- Blount T. Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words Of Whatsoever

Language, Now Used In Our Refined English Tongue. L.: Tbo, Newcomb, 1656. – P.677.

Burchfield, R. Eschholz P., Rosa A., Clark V. Language awareness: Readings for college writers – Boston. 2000. – 512 p.

Kany Ch. E. American-Spanish Euphemisms. Berkeley – Los Angeles: University of California Press, 1960. – 178 p.

Webster's Revised Unabridged Dictionary, [сайт]. URL: [http://dictionary reference com/searchq=euphemism](http://dictionary.reference.com/search?q=euphemism)

Zarifovna, Ruziyeva Nafisa. «A Bit of Honeyed Talk: Exploring Euphemisms for Spouses.» Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 3, no. 1 (2024): 443-445

Ruziyeva, N. (2022). Euphemisms as a means of manipulation in the language of the news media. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 10(10).

ЦЕЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРАНСФОРМИРОВАННЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РОССИЙСКИХ И УЗБЕКИСТАНСКИХ СМИ

*Расулова Камола Юнусжонова
Преподаватель, СамГУ им.Ш.Рашидова*

Аннотация: В статье говорится о фразеологизмах, которые подверглись трансформации в газетных заголовках и с какой целью они трансформировались. Приведены примеры из российских и узбекистанских СМИ.

Ключевые слова: фразеологизм, трансформация, средства массовой информации, газета, научный подход, творческая обработка фразеологизма

THE PURPOSE OF USING TRANSFORMED PHRASEOLOGICAL UNITS IN RUSSIAN AND UZBEKISTAN MEDIA

*Rasulova Kamola Yunusjonovna
Lecturer of Samarkand State University named after Sh.Rashidov*

Abstract: The article discusses phraseological units that have undergone transformation in newspaper headlines and the purpose for which they were transformed. Examples from Russian and Uzbek media are given.

Keywords: phraseological unit, transformation, mass media, newspaper, scientific approach, creative processing of phraseological unit

ROSSIYA VA O'ZBEKISTON OAVDA O'ZGARTILGAN FRAZEOLOGIK BIRIKLARDAN FOYDALANISH MAQSADI

*Rasulova Kamola Yunusjonovna
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada gazeta sarlavhalarida transformatsiyaga uchragan frazeologik birliklar va ular qanday maqsadda o'zgartirilganligi haqida so'z boradi. Rossiya va O'zbekiston ommaviy axborot vositalaridan misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, transformatsiya, ommaviy axborot vositalari, gazeta, ilmiy yondashuv, frazeologik birliklarni ijodiy qayta ishlash.

Введения. Трансформация фразеологизма - не отдельно существующее языковое явление, оно мыслится, по мнению исследователей А. Начисчионе, Т.Н. Федуленковой, Р.А. Воронина [12; 126], как «адаптированная для конкретного дискурса форма фразеологизма», «одна из форм функционирования фразеологического фонда в речи» [12; 126], она приводит не к полному распаду фразеологизма, а к изменению ее значения и/или стилистической окраски. Фразеологическая единица «обладает набором свойств, делающих возможными изменения в структуре и семантике этих единиц без разрушения» [7; 123]. Поэтому представляется целесообразным объяснить, что представляет собой понятие фразеологизма и как оно трактуется в мировой лингвистике.

Литературный обзор. В мировой лингвистике считается, что наиболее значимый вклад в науку о фразеологии внесли именно русские ученые, о чем пишет, например, А.П. Коуи [10; 15]. Наиболее активно изучение фразеологии в России развивается в 40-х - 60-х годах XX века (см. труды В.Л. Архангельского, В.В. Виноградова, В.П. Жукова, А.В. Кунина, А.Г. Назаряна, Р.Н. Попов, Л.И. Ройзензона, А.И. Смирницкого, И.И. Чернышевой, Н.М. Шанского).

С нашей точки зрения, на развитие фразеологии огромное влияние оказала научная деятельность В.В. Виноградова, который создал классификацию фразеологизмов по степеням идиоматичности, выделив их основные типы: фразеологические сращения (бить баклуши (бездельничать), очертя голову (безрассудно), неровен час (авдруг)), фразеологические единства («закинуть удочку», «тянуть ляжку», «зарыть талант в землю») и фразеологические сочетания

(«закадычный друг», «щекотливый вопрос», «повесить нос»), - отметив при этом, что данные типы не имеют между собой четких границ, скорее, границы между ними можно считать размытыми и условными [4; 142]. Основными признаками сращения является неделимость, абсолютная независимость семантики всего фразеологизма от лексического значения каждого его элемента, условность, немотивированность. Единства менее произвольны, но значение единства «никогда не равняется сумме значений элементов» [4; 143]. Сочетания появляются в результате реализации несвободных, связанных значений слов. Н.М. Шанский добавляет к этой классификации еще один элемент - фразеологические выражения («всерьёз и надолго», «оптом и в розницу», «на данном этапе»), которые отличаются от свободных словосочетаний своей воспроизводимостью [14; 25]. Имеется в виду, что фразеологизмы не производятся при каждом речевом акте, а воспроизводятся бесконечное множество раз. Важнейшим свойством фразеологизмов является их воспроизводимость, т.е. способность данной единицы к многократному употреблению для называния одного и того же факта в разных ситуациях [1]. Важный признак фразеологии – метафоричность, образность.

В текстах современных СМИ группа фразеологизмов представлена наиболее ярко. Например: Россия рубит окно в Европу в четыре топора (статья о четырех футбольных командах, стартующих в плей-офф Лиги Европы) «Комсомольская правда» № 7-т, 17-24. 02.2016; «Министрам выдали ношу» (статья о новых назначениях в правительстве РФ. Депутаты утвердили «гражданских» членов нового правительства) «Коммерсантъ» 15 мая 2024 года № 82 (7773); Море продуктов. Первый рыбный рынок Москвы радуется изобилием (Мэр Москвы Сергей Собянин и министр сельского хозяйства РФ Дмитрий Патрушев открыли в Косино-Ухтомском первый в столице большой рыбный рынок) АиФ 06.12.2023.

Трансформация фразеологизма - явление, которому уделяется большое внимание в работах многих лингвистов, среди которых назовем А.М. Мелеровича, Д.О. Добровольского, В.В. Бойченко, Т.С. Гусейнову, Е.В. Тюменцеву, Л.Г. Ефанову. Изначально не было единства в наименовании данного понятия. Так, И.М. Абрамович называл трансформированные идиомы «индивидуальными авторскими преобразованиями» [1; 1], В.Н. Вакуров - фразеологическими каламбурами [3; 41], В.Г. Бондаренко писал о варьировании устойчивых фраз [2; 16], Н.Г. Гольцова - об окказиональности фразеологизмов [5; 82], И.В. Третьякова - об окказиональном преобразовании фразеологизмов [6; 472]. Решивший проблему вариативной номинации термин трансформации фразеологизма был предложен Т.С. Гусейновой и М.С. Харлицким и уже закрепился в лингвистической традиции, он обозначает авторское окказиональное преобразование устойчивой языковой структуры. Это «импровизированное изменение [фразеологизма] в экспрессивно-стилистических целях» [6; 7]. Из данного определения, которого мы будем придерживаться в работе, следует, что обязательным элементом трансформированного фразеологизма является его экспрессия.

Обсуждение. Газета – это глас народа, и то, что у народа на устах это выражают газеты, журналы, а особенно частные издательства, которым госцензура не указ. Естественно частники придерживаются каких-то рамок приличия, но порой именно желтая пресса говорит правду в лицо, которую может быть государственные издательства не всегда сообщают.

Трансформация фразеологизмов в СМИ наиболее часто применяется авторами для конструирования газетных заголовков, названия видеорубрик и названий телерепортажей. Творческая обработка фразеологизмов придает им новую экспрессивную окраску, усиливает их выразительность, создает высокую образность. Преобразуя фразеологизм, журналист повышает эффект сознательного воздействия на эмоции и чувства читателей. Изменения формального состава фразеологизма является свидетельством экспрессивности языка современной прессы: Дамоклов мяч (АиФ №46 от 15 ноября 2017); Не Байкалом единым. В Иркутской области много уникальных мест (АиФ №48 от 29 ноября 2017); Кататься не саночки возить! (КП, 16.01.2012); «Абу-Даби мастера боится». В ноябре 2017 года был задан вопрос, кто принес России победу в чемпионате WorldSkills? (АиФ №44 от 1 ноября 2017), Никто не забудь. «АиФ» № 18. 01/05/2024 т. В Музее Победы прошёл митинг, посвященный Дню Победы (ср. Никто не забудь, ничто не забыто). 26.04.2024 14:10 Участники почтили память героев Великой Отечественной войны и поблагодарили бойцов специальной военной операции.

Структурная трансформация фразеологизмов выделяет несколько типов модификаций. В данной статье рассмотрены следующие типы трансформаций:

Расширение состава фразеологизма в результате употребления уточняющих слов: «На всякий страховой случай» (Коммерсантъ, 01.03.12) (ср. На всякий случай), «Вопреки давлению. Россияне за рубежом проголосовали за Путина» (18.03.2024 АиФ №12), «Открыли ворота в ад». В ноябре 2023 года армия России не дала ВСУ расширить плацдарм у Днепра (18.12.2023 АиФ №12) (ср. ворота в ад). В статье «Семеро ещё одного ждут!» (Аргументы и факты, 29.01.13) (ср. Семеро одного не ждут) автор поднимает важную социальную проблему – как многодетным семьям получить пособия и участки земли, какие «подвохи» ждут многодетных родителей при получении господомощи. Ольга Бузова: «Я – белая ворона с меткой из гудрона (АиФ от 11 ноября 2017). В статье Ольга Бузова рассказывает о своем детстве, как много у нее было завистников, которые не воспринимали такой какая она есть (ср. белая ворона).

Сокращение состава фразеологизма в результате пропуска компонентов: Никто не забыт. АиФ № 18. 01/05/2024 т. В Музее Победы прошёл митинг, посвященный Дню Победы (ср. Никто не забыт, ничто не забыто). АиФ 26.04.2024. Участники почтили память героев Великой Отечественной войны и поблагодарили бойцов специальной военной операции.

Замена компонентов фразеологизма словами со свободным значением: «Всё гениальное сложно» (Коммерсантъ, 11. 05. 12) (ср. Всё гениальное просто), «Генерал отпущения» (Московский комсомолец, 04. 05. 12). «Тише руководишь — дольше будешь»

Токсичность непосредственного руководителя вошла в топ-3 причин, из-за которых россияне готовы поменять работу, следует из совместного опроса UTEAM и Talantix. Кадровые агентства также подтверждают, что при выборе руководителя на вакантное место в компании многие работодатели стали заранее интересоваться его стилем руководства, чтобы избежать будущих проблем с его подчиненными. АиФ №70, Апрель 2024 (Ср. тише едешь – дальше будешь). Гонка импортосокращений Коммерсантъ 8 мая 2024 № 80 (7770) (Unicredit сворачивает бизнес в РФ быстрее Raiffeisen) (Ср. Гонка вооружений); Увидеть Пхеньян и обомлеть (Статья о том, какую Северную Корею показывают российским туристам) Коммерсантъ № 80 (7770). 11.05.2024, (ср. «Увидеть Париж и умереть» - фраза русского писателя Ильи Григорьевича Эренбурга); Море продуктов. Первый рыбный рынок Москвы радуется глазу изобилием (Мэр Москвы Сергей Собянин и министр сельского хозяйства РФ Дмитрий Патрушев открыли в Косино-Ухтомском первый в столице большой рыбный рынок. Здесь можно приобрести сотни видов рыбы и морепродуктов) АиФ ; 49 06.12.2023 (Ср. Море молока! Пожелание доярке получить как можно больше молока.).

Изменение состава фразеологизмов, вызванное обновлением грамматических форм (в т.ч. предложно-падежных форм существительных): «Язык Киев доведёт» (Коммерсантъ, 06. 06. 12)

(ср. Язык до Киева доведёт). «Лес рубит – пули летят» (Московский комсомолец, 04. 05. 12) (ср. Лес рубят – щепки летят). В заголовке форма единственного числа глагола употреблена на месте множественного числа глагола фразеологической единицы. Также заменен компонент во второй части пословицы; Встретимся на «облаках» (статья о том, к чему приведут фантазии о виртуальных детях). АиФ №49 07.12.2023 (Ср. Витать в облаках. Предаваться несбыточным мечтам.) К 2075 году каждый пятый ребёнок на Земле будет виртуальным. Цифровые дети будут выглядеть, звучать, действовать и даже «чувствовать» себя как настоящие. Чтобы «родить», нужно будет просто оформить подписку. Сообщают Аргументы и факты. В заголовке статьи взят главный компонент «облаках» и полностью изменена структура фразеологизма.

И дольше века длится угль (Временные правила перевозок на Восточном полигоне постепенно становятся постоянными) Коммерсантъ № 93П Май 2023г. («Буранный полустанок или и дольше века длится день» - роман Ч.Айтматова). Несмотря на то, что заменено последнее слово в названии значение крылатого выражения не поменяло свой общий смысл.

Результат. Итак, структурная трансформация фразеологизмов не только выполняет функцию экспрессивного средства в языке СМИ, но и функцию ярко выраженной социальной оценки. Собранный материал показал, что заголовок лишь тогда станет «удачной находкой», когда его фразеологическая образность совпадёт с идеей текста.

В узбекских газетах также встречаются трансформированные фразеологизмы, правда, исключительно в русскоязычных изданиях.

Например, при семантической трансформации состав фразеологизма остается неизменным: в него либо вносятся новые оттенки смысла, либо возникает игра слов в результате совмещения прямых и переносных значений, и тогда достигается определенный экспрессивный эффект: «А вы наострили лыжи?» («Правда Востока» № 29, 14 январь 2012, с.4) — заголовок о подготовке к зимнему спортивному сезону. Течение истории вдруг завертелось безобразным и диким омутом — конечно, не без помощи золотого дождя иностранных кредитов. («Правда Востока» № 31, 14 январь 2014, с.4) Золотой дождь. Большие денежные суммы. — выражение возникло из древнегреческого мифа о Зевсе. Пленившись красотой Данаи, дочери аргосского царя Акрисия, Зевс проник к ней в виде золотого дождя и оплодотворил её [3].

Нередко для выражения иронии по поводу происходящего или достижения комического эффекта автор использует фразеологизм (создает фразеологический каламбур), подбирая контекст таким образом, что компоненты фразеологизма воспринимаются в буквальном значении. Например: «сервисные или «медвежьи» услуги» («Правда Востока» № 49, 12 март 2014, с.3) — здесь речь идёт об услугах, причиняющих лишь одни неприятности.

При синтаксической трансформации утвердительная конструкция может быть заменена отрицательной и наоборот: Тысяча не мелочей; Овчинка стоит выделки. Видоизменения могут касаться категории числа, например: Армией призванные, мужчины и женщина; категорией наклонения: людей посмотрели себя показали; категорией времени: и город есть и сад цветет; категорией падежа: одна, но пламенная страсть, театр бросает перчатку, народная мудрость — уроку подспорье, красна изба и углами, повествовательное предложение может быть заменено вопросительным с лексическими сдвигами или без них: «Куда падает яблоко от яблони?» («Молодежь Узбекистана» № 27, 11 июль 2013, с.4). Кроме того, при синтаксической трансформации может происходить замена видов синтаксической связи: «в тесноте и в обиде» («Правда Востока» № 64, 3 апрель 2014, с.4), «читаем и на ус наматываем» («Молодежь Узбекистана», № 4, 31 январь 2013, с.1). «Как развязать язык?» (обзор летних языковых школ для детей) («Молодежь Узбекистана», № 27, 11 июль 2013, с.3). Преобразование фразеологизма «язык развязывается».

Заключение. Сила — в просвещении. («Правда Востока» № 66, 5 апрель 2014, с.1). Автор статьи переделывает высказывание нашего великого предка Амира Темура — «Сила в справедливости». Автор делает акцент на одну из приоритетных направлений политики нашего государства — системе образования. «Не хочу учиться, а хочу учить» («Молодежь Узбекистана», № 27, 11 июль 2013, с.3). О том, как заработать студенту репетиторством. Человек человеку брат. («Молодежь Узбекистана», № 18, 16 май 2013, с.6). Переделка латинского выражения «Ното homini lupus est» — «Человек человеку волк». Спорту все возрасты покорны. («Правда Востока» № 20, 30 январь 2015, с.8). Переделка пушкинского высказывания «Любви все возрасты покорны». В статье речь идет о внимании, уделяемому спорту в нашей стране. «Нарушителей посчитают по осени» («Молодежь Узбекистана», № 4, 29 январь 2015, с.8). Преобразования фразеологического выражения цыплят по осени считают.

Фразеологизмы в газетах используются для создания и выражения дополнительной образности и экспрессивности. При знакомой форме фразеологизм получает новый смысл, что служит средством привлечения внимания.

Список использованной литературы:

Абрамович И.М. Об индивидуально-авторских преобразованиях фразеологизмов и отношении к ним фразеологического словаря // Проблемы фразеологии. 1964. С. 213.

Бондаренко В.Г. Варьирование устойчивых фраз в русской речи. Тула, 1995.

Вакуров В.Н. Фразеологический каламбур в современной публицистике // Русская речь. 1994. №6. С. 40-47.

Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. М., 1977.

Гольцов В.В. Фразеологизмы как средство выразительности на страницах газет // Русский язык в школе. 1992. №5/6. С. 33-37.

Гусейнова Т.С. Трансформация фразеологических единиц как способ реализации газетной экспрессии. Махачкала, 1997.

Ефанова Л.Г. Фразеологические трансформации в речи и художественном тексте // Текст и языковая личность: материалы V Всероссийской научной конференции с международным участием (26-27 октября 2007 г.) / Под ред. Н.С. Болотновой. - Томск: Издательство ЦНТИ, 2007. С. 123-127.

Махмудов, У. Р. О трансформации фразеологизмов в текстах узбекских газет / У. Р. Махмудов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 5 (109). — С. 807-810. — URL: <https://moluch.ru/archive/109/24920/> (дата обращения: 01.06.2024).

Мелерович А.М., Мокиенко В.М. Фразеологизмы в русской речи. М., 1997.

Окказиональное преобразование фразеологических единиц как лингвистическое явление
Коуи А.П. Cowie A.P. Phraseology: theory, analysis, and applications — изд. Clarendon press Oxford - 1998.— 258 страниц.

Телия В.Н. Русская фразеология. М., 1996.

Федуленкова Т.Н., Воронин Р.А. Окказиональное преобразование фразеологических единиц как лингвистическое явление (о вкладе А.С. Нечистоне в разработку проблемы) // Вестник СВФУ, 2012, том 9, № 3.- стр. 126-130

Харлицкий М.С. Употребление фразеологизмов в газетной речи. М., 1976.

Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. М., 1985.

Публицистические материалы.

«Аргументы и Факты» (газета, г.Москва).

«Московский комсомолец» (газета, г.Москва).

«Коммерсантъ» (газета, г.Москва).

«Правда Востока» (газета, г.Ташкент)

«Млодежь Узбекистана» (газета, г.Ташкент)

O'ZBEK DOSTONCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (Xorazm baxshilar repertuari va ijrochilik mahorati)

Sabirova Nasiba Ergashevna

Xorazm viloyati Pedagoglarni yangi Metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), prof.v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazmda doston ijrosida soz, musiqaga asosiy e'tibor qaratilishi, har bir nag'ma-kuy maxsus nomlangan bo'lganligidan kuylarni esda saqlash baxshi zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklashi, baxshilar repertuari va ijrochilik mahorati haqida so'z boradi. Bundan tashqari baxshida o'z kasbiga e'tiqod, kuch-g'ayrat bo'lishi shart ekanligi, xorazmlik Suyav baxshi Muhammad Rahimxon Soniy-Feruz dargohida "Ero'g'li" dostonini 21 kecha muntazam kuylagani, hatto poyariqlik Amin baxshi "Alpomish" dostonini uch oy mobaynida kuylagani va bunday real ma'lumotlar hozirda afsonaday bo'lib tuyulishi, baxshi mahorati ko'p narsaga bog'liq ekanligi, eng avvalo an'anadan boshlanishi lozimligi xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, doston kuylash an'anasi asrlar bo'yi avloddan avlodga o'tib kelganligi, iqtidorli baxshilar uni muntazam takomillashtirib kelishgani, ammo ijrochining shaxsiy mahorati faqat an'ana doirasidagina ro'yobga chiqishi maqolada misollar asosida keltirib o'tilgan. Dostonchilikning sir-asrorini puxta bilmagan ijrochi o'z mahoratini namoyon qila olmasligi, bu sir-asror asosan, doston kompozitsiyasida namoyon bo'lishi, folklorshunoslikda bu hodisani epik qolip deb yuritilishi yuzasidan qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Annotation. This article discusses the emphasis on words and music in the performance of epics in Khorezm, the fact that each melody has a special name, so the memorization of melodies puts more responsibility on the baxshi, the repertoire of baxshis and performance skills. Besides, Bakhshi must have faith and energy in his profession. Suyav Bakhshi from Khorezm Muhammad Rahimkhan sang the epic «Erogli» for 21 nights at Soniy-Feruz. It has been suggested that the skill of the bakhsh depends on many things, starting with tradition. The article also cites examples of the fact that the tradition of singing epics has been passed down from generation to generation for centuries, and talented bakhshis have constantly improved it, but the personal skills of the performer are realized only within the tradition. Interesting information is given about the inability of the performer, who did not know the secrets of epic poetry, to demonstrate his skills, the fact that this mystery is mainly reflected in the composition of the epic, and in folklore this phenomenon is called an epic pattern.

Kalit so'zlar: baxshichilik, baxshichilik repertuari, ijrochilik mahorati, baxshichilik maktabi, doston ijrosi, soz, musiqa, dostonchilik, doston kuylash an'analari.

Key words: baxshichilik, baxshichilik repertoire, performance skills, baxshichilik school, epic performance, soz, music, dostonchilik, epic singing traditions.

Doston xalqimiz bisotidagi buyuk obidadir. Uning asrlar osha saqlanib, ajdoddan-ajdodga o'tib kelishida ko'plab baxshilar shajarasining hissasi bor. Shu boisdan ham "... keng mundarijali, chuqur mazmunli, xilma-xil obrazlarga, rang –barang badiiy vositalarga, arxaik va barhayot lug'atga, tadqiqotchilar hali payqab ololmagan grammatik xususiyatlarga juda boy xalq dostonlarining asrlar osha saqlanib kelishida zo'r qobiliyat egasi bo'lgan xalq shoirlarining xizmati g'oyat katta va tahsinga sazovordir"[1], deb yozganida talantli folklorshunos Hodi Zarif mutlaqo haqdir. Darhaqiqat doston o'z ijrochisi bilan tirikdir. Baxshi yoki xalifa, qolaversa qissaxon matndagi tafilotga jon bag'ishlaydi. Biroq, bu ijrochilar orasida baxshiga tenglashadigani yo'q[2]. Chunki baxshi kuy, qo'shiq va badiiy nutqni jozibali qilib birlashtirgan holda auditoriyaga yetkazadi. "Baxshi ijrosida uning betakror ijrochilik iqtidori,

talanti va musiqiy mahorati namoyon bo'ladi[3]. Shu nuqtai nazardan qaraganda professional baxshi darajasiga erishish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. "O'zbek xalqi va barcha baxshichilik maktablarining estetik printsiptiga ko'ra chinakam xalq baxshisi birinchi navbatda tabiiy talantga ega, ya'ni xalqona ta'bir bilan aytganda "Xudobergan" bo'lishi kerak"[4]. Shu boisdan ham professor M.Saidov: "Doston murakkab san'at asari bo'lib, uning doston bo'lishi uchun adabiy tekst, musiqa bo'lishi, kuylovchi hofizlik san'atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur"[5], deb yozadi. Albatta doston ijrochisi yuksak xotira egasi bo'lishi ham shart va zarurdir. Ayniqsa Xorazmda doston ijrosida soz, musiqa asosiy e'tibor qaratilib, har bir nag'ma-kuy maxsus nomlangan bo'lganligidan kuylarni esda saqlash baxshi zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Bundan tashqari baxshida o'z kasbiga e'tiqod, kuch-g'ayrat bo'lishi shart. Aks holda xorazmlik Suyav baxshi Muhammad Rahimxon soniy - Feruz dargohida "Ero'g'li" dostonini 21 kecha muntazam kuylamagan bo'lar edi. Hatto poyariqlik Amin baxshi "Alpomish" dostonini uch oy mobaynida kuylagan[6]. Bunday real ma'lumotlar hozirda afsonaday bo'lib tuyuladi. Baxshi mahorati ko'p narsaga bog'liq bo'lib, avvalo an'anadan boshlanadi. Doston kuylash an'anasi asrlar bo'yi avloddan avlodga o'tib kelgan. Iqtidorli baxshilar uni muntazam takomillashtirib kelishgan. Ammo ijrochining shaxsiy mahorati faqat an'ana doirasidagina ro'yobga chiqadi. Dostonchilikning sir-asrorini puxta bilmagan ijrochi o'z mahoratini namoyon qila olmaydi. Bu sir-asror asosan doston kompozitsiyasida namoyon bo'ladi. Folklorshunoslikda bu hodisani epik qolip deb yuritishadi. Professor M.Saidovning ta'kidlashicha, epik qolip va an'anaviy formulalar ot ta'rifi, poyga tavsifi, safarga otlangan qahramonga ota, ona yoki biror yoshi ulug' kishining nasihati, yo'l bo'lsin va unga javob, jang oldidagi faxriya yoki maqtanish-manmanlik kabilar doimiy o'rinlarda ishlatilib, dostonchilikda muhim o'rin tutadi[7]. Epik qolip baxshi uchun tayyor andoza bo'lib xizmat etadi. Agar iqtidorli ijrochi bo'lsa, o'zi tomonidan yangi lavhalarni ham qo'shib, syujetni yanada boyitadi. Epik qolip doston kompozitsiyasi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Stilistik formulalar esa dostondan dostonga ko'chib yuradi. Shu jarayonda tobora sayqallashib boradi. Xorazm dostonlari romanik xarakterda bo'lganligi sababli ularda ot ta'rifi, poyga tavsifi kam uchraydi. Ushbu lavhalarni faqat "Go'ro'g'li" turkumi dostonlaridagina uchratish mumkin. "Oshiq" turkumida esa epik ot obrazi yo'qligi uchun ot ta'rifi va poyga tavsifi umuman tushirib qoldirilgan. "Go'ro'g'li" eposida g'irotning ta'rifi juda ko'tarinki ruhda madh etilgan Go'ro'g'li mo'jizali g'irotga ega bo'lib, eranlardan fотиha olgandan so'ng jo'shib ketib bedovining ta'rifini boshlaydi:

Bedov otning ta'rifini boshlasam,
Shunqorligi uch yoshinnan ballidir.
Horimas oyoqli, toshdan tuyoqli,
Ko'zi tog' boshinda, bo'yni yollidir.

Uch yoshinnan qadam qo'ysa beshina,
Qashlaganda qo'llar yetmas boshina,
Olazarak boqar degra-deshina,
Kishnaganda chiqqan sasi ballidir.

Nor tuyaday masdir yetti yoshinda,
G'anamlari qaltiraydi qoshinda.
Baland-baland tog' go'rinar tushinda,
Burgut sifatlidir ovda ballidir.

Bedov otning orzu-joni tandadur,
Pirim Shohimardon, dastim sandadur,

Go'ro'g'libek bir Xudog'a bandadur,
Tablada bosh bedov yovda ballidur[8].

Bola baxshi ijrosidagi ushbu dostonda Go'ro'g'li tomonidan ot ta'rifi ikki –uch o'rinda berilgan bo'lib, unda epik qahramonning epik otga bo'lgan sadoqati, muhabbati madh etiladi. O'z navbatida epik qolip tarkibidagi faxriyalar, maqtanishlar ham ko'zga tashlanadi. Baxshi o'z ijrosida faxriyalarni go'yo o'zi haqida aytayotgandek ishtiyoq bilan kuylaydi. Faxriya – maqtanish-manmanlikning yorqin ko'rinishi "Go'ro'g'li" eposining "Bozirgon" shoxobchasida keltirilgan. Unda Go'ro'g'li o'zini juda ulug'lagan holda ta'riflab, manmanlikkacha borib yetadi:

O'n sakkiz archin ot mindim,
Mindim, armonim qolmadi.
Zardan to'shaklar ustinda,
Yotdim, armonim qolmadi.

Savash guni quyruq eshdim,
G'anim bilan ko'p tashlashdim.
Dushman bilan qilichlashdim,
Chopdim armonim qolmadi.

Man surdim ajab davronni,
Tanda qo'ymadim armonni.
Urushg'anda yov qonini,
Do'kdim armonim qolmadi.

Umrim o'tar qolmas boqi,
Man gazdim yaqin yiroqi,
Go'rdim Shirvonu Iroqi,
Yurdim armonim qolmadi.

Dog'lardan jayron qochirdim,
Daryodan otni oshirdim,
Eramnan pari gatirdim,
Surdim armonim qolmadi.

Go'ro'g'li der: ot chopdirdim,
Yeddi fildan o'q o'tirdim,
Do'stlara sharob ichirdim,
Ichdim armonim qolmadi.

O'n to'rt banddan iborat ushbu faxriyada Go'ro'g'li barcha faoliyatini bir-bir maqtab o'tadi. Baxshi ulardagi maqtanish ifodasini alohida urg'u bilan ifodalashga harakat qiladi. Chunki, dostonning ushbu joyi syujet tuguni bo'lib, voqealar rivojini boshlab beradi. Shu sababli ijrochi faxriyaning, o'zicha maqtanishning oqibatimalarga olib kelishini ko'rsatish uchun Go'ro'g'lining faxriyasiga Og'a Yunus parining munosabatini so'z orqali ifodalashga o'tadi: Go'ro'g'li bu so'zni aytib tamom qilg'onnan keyin, Og'a Yunus pari qarasa, Go'ro'g'li suvchisinacha maqtadi, lekin parizodni dila olmadi, Go'ro'g'li bu so'zni aytib durg'onada parizod dolonning u yoqinann bu yoqina o'tib, ashulani eshitib: tomosha qilib durg'on adi.

Parizod Go'ro'g'lini so'zlarini eshitgannan keyin, qopisini gumburdatib ochib yubordi: ey, Go'ro'g'li sulton san na dab maqtanib o'tiribsan, dedi. O'n ikki ming uyli takali turkmanim bor, yigirma to'rt ming uyli ali ilim bor, mani na armonim bor, dab aytasan dadi. Qirq yigitim

yonimda bo'lsa, olg'on yerni oldim, chopg'on yerni chopdim dab aytasan, zo'rdan zo'r ko'p, dadi. Magaram bir yera borsang, qazong yetib o'lsang, izingda og'adan ining, otadan zuryoding yo'q, bu sango bir armon amasmi, dadi. Go'ro'g'li lol bo'lib o'tirvadi, zuryod so'zini eshitib, mazasi qochib getavardi. Saiston viloyatinda Salsolni o'g'li Bozirgon dagan do'ragan akan dadi, sani talab qilib, galib, qal'angni bir hafta qamal qilib getdi, bu sango bir armon amasmi, dedi. Agarda mani so'zima ishonmido'vin bo'lsang, darvozog'a bir xat diqib getdi, chiqib olib go'r na dagan akan dadi. Go'ro'g'li shatta o'rninnan turib, xatni go'rib, Bozirgonni galganligini bilib, yigitlarini chaqirib yonina oldi. Yigitlarina maslahat barib, yigitlarini urusha tayyorlab otlarni zardan zabardan egarlab, o'q-yoylarini bo'ynina osib, qalqona cho'lanib Go'ro'g'li Bozirgonni izinnan sharpildab otlandi [9]. Bola baxshi nasriy bayonda eshituvchilarning ruhiyatiga kirib, bosh qahramonning ichki kechinmalarini tasvirlash orqali ularga ta'sir o'tkazadi. Og'a Yunus pari erining maqtanishiga quloq solib, o'zining nomiga bir og'iz xushomad so'z aytilmaganidan jahli chiqib, Go'ro'g'liga Bozirgon raqibi haqida xabar beradi. Ayniqsa Og'a Yunus parining befarzandlik haqidagi so'zi Go'ro'g'liga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Baxshining ushbu bayoni tinglovchilarda jiddiy e'tibor uyg'otadi. Voqeaning endi qaysi tomonga yo'nalishini baxshidan orziqib kutishadi. Shu tariqa doston voqealari o'z rivojiga chiqa boshlaydi. Baxshining badiiy nutqdagi mahorati auditoriyani to'la doston voqealari ichiga olib kiradi. Barcha doston ijrochilari ham asar voqealariga auditoriyani to'la rom qila olmaydi. Buning uchun baxshi soz va so'z qudratini o'zida jamlagan bo'lishi, yuksak talant va mahorat egasi sifatida shakllanishi zarur.

Bola baxshi-Qurbonnazar Abdullaev og'zaki badiiy nutqda turli stilistik usullarga murojaat qiladi. Ayniqsa, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari ijrosida badiiy nutqqa ko'proq e'tibor qaratadi. Dialog personaj xarakterini, ichki tuyg'usini ochib berishda asosiy omil bo'lib xizmat etadi. "Go'ro'g'lining uylanishi" dostonida Og'a Yunus pari bilan Go'ro'g'lining uchrashuvi epizodi bo'lib, unda Og'a Yunus pari Go'ro'g'li bilan Chamlibelga yo'l olmoqchi bo'ladi. O'shanda uning enaga kampir bilan o'zaro so'zlashuv sahnasi baxshi tilidan dialog shaklida juda ta'sirchan ifodalangan. Parcha keltiramiz:

"Darrov xizmatkor kampirni chaqirdilar. Xizmatkor kampir deshona chiqib, Go'ro'g'liga bir qaradidon ortina qaytavardi. Galib parizoda aytdiki, ey Og'a Yunus parizod, dushingda go'rgan odamzod shumi, dadi.

-Top o'zi, shu-dadi parizod.

-Agar shu bo'ladovin bo'lsa, san mani so'zima quloq sol-dadi kampir. – Ammo lekin so'zimni qabul qilsang ham ixtiyoring qilmasang ham ixtiyoring o'zingda, dadi kampir.

-Qani na gaping bo'lsa aytavar, -dadi parizod.

-Agar aytсам, -dadi kampir, -bu galgan odamzoddur, san parizodsan. Odamzod tuproqdan, parizod nurdan yaralg'an, sizlar bir-biringa hech do'g'ri galmisan, -dedi kampir.

-Yo'q, -dedi parizod, man rost dushimda shungo al bardimmi, tuproqmi, doshmi shungo o'z tanimni baxsh etaman, dadi parizod. Shunda kampir aytdiki, odamzodning boshqa hunarlari ham bor. San odamzoda borsang, xaros qo'shasan, yer ag'darasan, non yopasan, maydonnan tazak yig'nisan, o'joqa o't yoqasan, bu ishlar saning alingnan galavo'larmakin, dadi kampir.

-Roziman – dadi parizod.

-Agar san munga rozi bo'lsang, odamzodning yana bir hunari bor, mungo rozi bo'lmassan, -dadi kampir.

-Na hunar akan, dadi parizod.

-Bu odamzod dagani bir – ikki xotina qanot atmidi, ustinga o'ylanadi, yor so'vadi, -dadi kampir. Hamma gapa rozi bo'lib durgan parizod shu yera galganda sal o'ylanib qoldi.

Go'ro'g'li qopida durip bu gaplarni eshitib durvadi. Oxirgi gapdan so'ng parizodning ikkilanganini ko'rib, sal mazasi qochdi. Kampirni bu gapina ishonib ishni buzjoq-ov, bu dap,

parizoda qarab, ko'nglini go'tarib" [10].

Ikki ayolning ichki kechinmasi dialog shaklida juda ta'sirchan ifodaga tortilgan. Unda ayollarga xos bo'lgan andisha, xavotir, ehtiyotkorlik, tashvish, rashk, sevgi, iztirob kabi turli tuyg'ular aralashib, oilaviy-maishiy hayotga oid kartina yuzaga kelgan. Ammo oxir oqibat sevgi-muhabbat bularning barchasidan ustun keladi. Bu lavhani baxshi tabiiy, ravon badiiy nutq orqali bayon qiladi. Eng asosiysi ayol tuyg'usiga jiddiy ta'sir etadigan nuqtani ijrochi aniqtopa olgan. Og'a Yunus pari enaganing aytgan barcha e'tirozlariga befarq qaraydi. Biroq, "Odamzoti bir-ikki xotinga qanoat qilmaydi, ustingga xotin oladi", degan so'zini eshitgach, ikkilanib qoladi. Ushbu epizod ayolning ruhiy holatiga aloqador bo'lib, baxshi uni qahramon ichki tuyg'usini yoritish uchun kiritgan va real kartinani namoyon qilib, tinglovchilarda hayotiy tuyg'u uyg'ota olgan. Chunki auditoriya ahli Og'a Yunus parining qaysi tomonga rizolik bildirishiga qiziqib, uning Go'ro'g'li bilan bosh qo'shishiga hayrixoh sifatida qarashadi. Bola baxshining badiiy nutqida kinoya, qochirim, shama, kesatik kabi leksik usullar ham ko'p uchraydi. Uning repertuarida "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari asosiy o'rinni egallaydi. Og'zaki nutq negizida namoyon bo'ladigan badiiy tasvir ijrochi mahorati orqali o'zining rangin qirralariga ega bo'lgan. Unda Xorazm xalqining og'zaki so'zlashuv nutqidagi milliy kesatiq va kinoyalar faqat o'g'uz lahjasi vakillari leksikasi bilan aloqadordir. "Avazxon" dostonidagi badiiy nutqda tilning leksik ma'nodorligi baxshi mahorati orqali original tarzda namoyon bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Hodi Zarif. Ulkan xalq san'atkori. // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni. –T.: Fan, 1971. –B.8. (8-40).
- 2.Ro'zimboyev S.R. Epos haqida qaydlar. // Saylanma. –Urganch, "Xorazm", 2012. –B.222. (222-295).
- 3.Vozorov A. Вопросы авторство и творческой индивидуальности бахши в узбекском народном дастанном сказительстве. АКД. –Т.: 1991. –S.15. (18).
- 4.Qahhorova Sh. Baxshi estetik ideali haqida. / O'zbek folklorshunosligi masalalari. Vtom, –T.: 2015. –B.41. (40-44)
- 5.Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. –T.: Fan, 1969. –B.21. (264).
- 6.Mirzaev T. Эпос и сказитель. –S.47-48.
- 7.Saidov M. Xalq dostonlarida epik qolip va an'anaviy formulalar. // O'zbek filologiyasi masalalari. Научные труды ТашГУ вып. 362. –Т.: 1970. –S.52.
- 8."Go'ro'g'li". –Urganch, "Xorazm", 2004. –B.41 (476).
- 9."Go'ro'g'li". –Urganch, "Xorazm", 2004. –B.358-359(476).
- 10."Go'ro'g'li". –Urganch, "Xorazm", 2004. –B.65 (476).
11. Sabirova N. Xorazm baxshichilik va xalfachilik an'analari.- Toshkent, "FAN" 2021.- B.56-68

RANG KOMPONENTLI SO'Z BIRIKMALARINING PRAGMATIK TADQIQI

To'lanova Sayyoraxon Farxodjon qizi
Ingliz tili fani o'qituvchisi
Farg'ona tumani 5-sonli umumta'lim maktabi

Ganiyeva Dildoraxon Azizovna
Farg'ona davlat universiteti dotsenti (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqola rang komponentli so'z birikmalari haqida keng fikr yuritib, ularning o'ziga xos jihatlari, psixologik, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari, nutq aktlaridagi qo'llanilishi haqida so'z yuritadi. Shuningdek, maqolada pragmatika tushunchasi haqida ham ma'lumot berilib, rang komponentli so'z birikmalarining pragmatik tahlili keltiriladi. Tahlil ingliz va o'zbek tillaridagi namunalar bilan boyitiladi.

Key words: rang, psixologiya, mentalitet, ijtimoiy-siyosiy hayot, nutqiy akt, pragmatika, pragmatolingvistika, diskurs.

A PRAGMATIC STUDY OF WORD COMBINATIONS WITH COLOR COMPONENTS

To'lanova Sayyoraxon Farxodjon qizi-English teacher
Ferghana District Secondary School No. 5

Ganiyeva Dildoraxon Azizovna - Fergana State University Associate Professor (DSc)

Abstract. This article gives a broad opinion about the color component word combinations and talks about their specific aspects, psychological, socio-political features, and their use in speech acts. The article also provides information about the concept of pragmatics and provides a pragmatic analysis of word combinations with a color component. The analysis is enriched with examples in English and Uzbek languages.

Key words: color, psychology, mentality, socio-political life, speech act, pragmatics, pragma linguistics, discourse.

ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ СЛОВСОЧЕТАНИЙ С ЦВЕТОВЫМИ КОМПОНЕНТАМИ

Тўланова Сайёрахон Фарходжон қизи
учительницы английского языка Средняя школа № 5 Ферганского района

Ганиева Дилдорахан Азизовна
доцент (DSc) Ферганского государственного университета

Абстрактный. В данной статье дается широкое представление о словосочетаниях цветových компонентов, рассказывается об их специфических аспектах, психологических, социально-политических особенностях, а также об их использовании в речевых действиях. Также в статье дается информация о понятии прагматика и проводится прагматический анализ словосочетаний с цветovým компонентом. Анализ дополнен примерами на английском и узбекском языках.

Ключевые слова: цвет, психология, менталитет, общественно-политическая жизнь, речевой акт, прагматика, прагматическая лингвистика, дискурс.

KIRISH. Zamonaviy tilshunoslikda pragmatika tushunchasi yangi tushunchalardan biri hisoblanib, turli tilshunoslik sohalarini pragmatik tahlil qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Chunki bir tildagi turli birikmalarni chuqur o'rganish uchun, avvalo, ushbu

birikmalarning qo'llanilish doirasini, nazariy va amaliy hayotdagi iste'mol jarayonini, yozma va og'zaki nutqiy faoliyatdagi o'rini tahlil va tatbiq qilmog'imiz lozim. Rang komponentli so'z birikmalari ham hali to'liq tadqiq qilinmagan mavzulardan biri.

METOD VA METODOLOGIYA. Rang komponentli birikmalarning pragmatik tahlili mavzusi haqida so'zlashdan avval, pragmatika tushunchasini ochiqlashni ma'qul deb bildik. Pragmatika, lingvistikaning eng yosh yo'nalishlaridan biri hisoblanib, tilshunoslikka yaiqndagi kiritildi va asosan lingvopragmatika, pragmalingvistika nomlari bilan ham ataladi. "Pragmatika" yunoncha "ish", "harakat" ma'nolarini bildirib, aslida bu tushunchaga nisbatan falsafiy qarash Suqrot davrlaridan ham oldinga borib tarqaladi. Dastlab yunonlar orasida keng istemolda bo'lgan bu termin, keyinchalik J.Lokk, E.Kant kabilarning qarashlarida kuzatiladi. XIX-XX asrlarda taraqqiy eta boshlagan pragmatizm g'oyalari 20-30 yillarda barcha til sohalariga keng targ'ib qilina boshlandi. Dastlab, Amerika va Yevropada keng targ'ib qilingan pragmatika rivojida CH.Pirs, R. Karnal, CH. Morris, L.Vitgenshteyn qarashlarini ta'kidlamoq joiz. XX asrning 30 yillarida CH.Morris tomonidan fanga kiritilgan pragmatika atamasi tilshunoslikda yangi tadqiqot obyekti sifatida yuzaga keldi. Pragmalingvistika haqida bildirilgan fikrlarda tilshunos J. Lyonz shunday deydi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarining shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi."

TAHLIL VA NATIJALAR. Ko'rinib turibdiki, kommunikatsiyada muloqot boshqaruvchisi bo'lgan so'zlovchi ko'zlagan maqsadi va unga erishish yo'lida lisonning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanadi va tinglovchiga ta'sir o'tkazadi. Albatta, bularning barcha faol nutq orqali amalga oshiriladi. Bunda pragmatikaga qo'shimcha ravishda so'zlovchining so'zlash ohanggi, mimikasi muhim ahamiyatga egadir. Chunki so'zlovchi bir jumla orqali jumlaning lingvistik jihatiga umuman bog'liq bo'lmagan boshqa ma'noni nazarda tutayotgan bo'lishi mumkin. Masalan, Maktabga bormaysanmi? Jumlasini garchi shaklan so'roq gap belgisini bersa-da, biroq, gap semantik jihatdan buyruq gapni ifodalaydi (Maktabga bor!). Bu kabi gaplarda so'zlovchi o'z munosabatini so'roq ohangida tinglovchiga singdirishga urinadi. Lingvopragmatika bevosita kommunikatsiya jarayoni bilan uzviy bog'lanishda ekan, ijtimoiy hayotning kengayishi natijasida uning tadqiq jarayoni ham yangi tushuncha va qarashlar bilan boyib, pragmatikaning ichida o'rganilishi kerak bo'lgan bir qancha tarmoq sohalari shakllanishiga zamin yaratadi. Nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmatilistika kabilar shular jumlasidandir. Lingvopragmatikaning xususiy masalalari doimiy nutq ishtirokchilari va nutqiy muloqot bilan bog'liq bo'lganligi uchun pragmatika haqidagi turli qarashlar quyidagi umumfikrga birlashadi:

1. Lingvopragmatika sohasida olib borilgan barcha taqdidotlarda til, inson, nutqiy faoliyat tushunchalari o'rganilgan va faoliyat tushunchasiga alohida yondashilgan;
2. Kommunikatsiya jarayonida til faqatgina aloqa-aralashuv vositasi bo'lib qolmay, adresantlarning muloqotda dinamik xarakterdagi munosabatini ham ifodalashi o'rganilgan;
3. Til birliklarining nutqiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan munosabatda istalgan uslubga xoslana olishi ifodalangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, pragmatika so'zlovchi tomonidan ma'lum bir tushunchaning tinglovchiga ma'lum bir vaziyat orqali yetkazib bera olishidir. Lingvistik pragmatikaning maqsadi "kontekstda tilni o'rganish". Bu esa bevosita kommunikatsiya jarayonida tilni ijtimoiy va situativ tadqiqida namoyon bo'ladi. Lingvistik tahlil lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatini o'rganishni maqsad qilgani holda lingvopragmatikada bu "unsur" fanning "qaymog'i"dir.

Asosiy mavzumiz hisoblangan rang komponentli birliklarning pragmatik tahlili ham aynan ranglarning lingvistik xususiyatidan tashqari, kontekstdagi ma'nosi yoritib berishdir.

Rang elementli kollokatsiyalar o'zining qiziqarli va ixcham tili bilan boshqa til birliklaridan

keskin farqalanadi. Ko'pchilik insonlar tomonidan rang elementli birliklar obyektning rangiga nisbatan shakllanadi deb hisoblanadi. Biroq, har bir rang o'zida ranglikdan tashqari, turlicha madaniy, hissiy va psixologik ma'nolarni anglatishi mumkin. Ranglarning ayni shu xususiyati ularning pragmatik ma'nosiga keskin daxl qiladi.

Misol uchun: birgina qizil rang haqida gap ketadigan bo'lsa, ushbu rang aynan turli mamlakat, turli soha vakillari orasida turlicha talqin qilinishi mumkin.

Dastavval, qizil rangni hayot, tirikligimiz sababchisi bo'lgan qon bilan qiyoslanib, davlat bayrog'ida ham abadiylik, tiriklik ramzi ma'nolarida ushbu rangdan foydalanishgan. Ayniqsa biz o'zbeklarda, "ota-bobolarimiz tomirida oqayotgan qon" iborasi faol qo'llaniladi va aynan shu sababli ushbu rang muqaddas hisoblanadi.

Psixologik nuqtai nazardan esa qizil rang ehtiros rangi hisoblanadi. Uni ko'pchilik psixologlar olov, issiqlik, energiya, hayot, faoliyat, farovonlik, ishtiyoq rangi deb hisoblaydi. Qizil rang insondagi faol hayot, energiya va hayotni ta'minlaydi, inson kayfiyatidagi ijodiy impulsni faollashtiradi. U o'ziga xos iroda va kuch energiyasiga ega rang hisoblanadi,

Shuningdek, qizil rang jaxl va agressivlikni ifodalaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda jaxldorlikni ifodalash uchun qizarib ketgan emojilar aynan shuni nazarda tutadi.

Yana bir psixologik ma'lumotda qizil rang quyidagicha ta'riflanadi. "Agar siz qizil rangni yoqtirsangiz, demak siz o'ziga ishongan va qaysar insonsiz, boshlagan har qanday ishni oxirigacha yetkazishga harakat qilasiz. Shu bilan birga siz ehtirosga beriluvchan va qiziqqon shaxssiz – diqqat e'tiboringizni faqatgina bir narsaga qaratishga qiynalasiz. Siz xilma-xillikni yoqtirasiz, hayotingiz tinch va osuda kechsa, zerikishni boshlaysiz".

Agar ushbu rangni turli soha vakillari orasida talqin qiladigan bo'lsak, uning o't o'chiruvchi kasbidagi buyum va ashyolarning, hatto mashinalarining rangi ham qizil ekanligi hayratlanarli emas, chunki qizil rang ortidagi keng tarqalgan nazariyalardan biri uning yorqin ko'rinishidir. Qizil rang ko'pchilik fonlarda ajralib turadi, bu esa favqulodda vaziyatlarda odamlarning anglash va aniqlash hissini osonlashtiradi. Ushbu ko'rinish jihati, ayniqsa, o't o'chirish mashinalarida zamonaviy sirenalar va miltillovchi chiroqlar bo'lmagan dastlabki kunlarda juda muhim edi.

Qizil rang ko'pincha shoshilinchlik, hushyorlik va favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq. Bu tabiiy ravishda diqqatni tortadigan va ehtiyotkorlik va harakat tuyg'usini uyg'otadigan rang. Natijada, o't o'chirish mashinalari uchun qizil rangdan foydalanish shoshilinch paytda odamlarning tezkor javobini uyg'otishga yordam beradi.

Amaliy jihatdan esa qizil rang kechasi ham, kunduzi ham insonlarning e'tiborini torta oladi. Shu sababli, Stop belgilari, Svetofor chiroqlari, mashinalarning ogohlantiruvchi belgilari va ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri javoblarning xato ekanligini ko'rsatish uchun ham aynan qizil rangdan foydalaniladi.

Demak, har bir rang faqat tashqi belgisiga emas, balki rangning o'zida mujassamlashgan maxsus ma'nolar, xususan, psixologik, lingvokulturologik, emotsional, kasbiy ma'nolariga ko'ra, turli vaziyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin.

Rang qatnashgan so'z birikmalarida ham ayni shu holat aks etadi, ular asosan ranglarning biz yuqorida talqin qilgan ichki xususiyatlariga ko'ra talqin qilinadi.

Misol qizil chiroq, qizil yuzli (al yuzli), qizil yonoqli, qizil juma (red Friday) kabi so'z birikmalarida so'zlovchi va tinglovchiga ma'lum bo'lgan pragmatik ma'no mavjuddir. Misol uchun, qizil yuzli so'z birikmasiga batafsil to'xtaladigan bo'lsak, unda "xushro'y, chiroyli, sog'lom" degan ma'larni ko'rishimiz mumkin. Qizil yuz esa go'zallikning o'ziga xos «o'lchov birligi»dir. Aynan matnda, diskursda bu holatlar yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Misol uchun, Shirin so'zli, qizil yuzli, jodu ko'zli, saraton yulduzli, la'l munchoqli, oydan suluv, oftobdan ortiq, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor. Shirin so'zli, qizil yuzli, jodu ko'zli, saraton yulduzli, la'l munchoqli, oydan suluv, oftobdan ortiq, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor.

Ushbu matnda asosan qizlarning chiroyini madh etuvchi so'z birikmalari qatnashgan. Qizil yuzli so'zi ham "chiroyli" degan ma'noda kelgan. Ushbu ibora qadimiy turkiy tillarda ham faol iste'molda bo'lib, Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qo'llanilgan.

Bulnar meni ulas ko'z,
Qara mengiz, qizil yuz.
Andin tamar tugal tuz,
Bulnab yana ul qachar.

Ma'nosi: Xumor ko'zli, ko'rkam yuzli, qora xolli (seviklim), yonoqlaridan yoqimlilik tomayotgandek meni asir qiladi. Asir qiladi-da, so'ng qochadi.

Bu yerda eski turkiycha so'z hisoblangan "qizil yuz" zamonaviy tilshunoslikda "ko'rkam yuz" deya tarjima qilingan va ushbu kororit birikma ma'nosi yanada oydinlashgan.

Biroq, ushbu pragmatik ma'no faqatgina o'zbek yoki asosan Sharq mamlakatlari mentalitetiga tegishli bo'lgani sababli, ushbu birikmaning aynan inglizcha kolorit so'z birikmasi tahlillarimiz davomida topilmadi. Unga o'xshash:

- showing a red face
- red-faced
- red in the face
- rose-coloured

- to become red kabi iboralar mavjud, ammo bu iboralarning ma'nosi biz yuqorida tahlil qilgan iboradan butkul yiroqdir.

Ushbu iboralar o'zbek tilidagi uyatdan qizarmoq yoki yuzi jaxldan qizil tusga kirmoq ma'nolariga mos keladi.

Misol uchun, I do recall one time, though, when a burly, red-faced command sergeant major became very hands-on (Men bir vaqtlar bir serjant-mayorning bahaybat, jaxldor bo'lishiga qaramasdan tashkilotchilik ishlarida juda faol bo'lganini eslayman).

XULOSALAR. Biz yuqorida qizil rangni ifodalar ekanmiz, uni turli vaziyatlardagi talqinini ifodalab ko'rsatdik. Yanada aniqroq fikr yuritadigan bo'lsak, biz ko'chada o't o'chiruvchi mashinani ko'rsak, bu mashina ehtirosli ekan deb ayta olmaymiz yoki qizil kiyimli ayol haqida gap ketganda, undan xushyor bo'lish kerak, chunki qizil rang insonni xushyorlikka chorlaydi kabi xulosa chiqara olmaymiz. Chunki, rang elementli birikmalarning ba'zi bir vazifalari turli mamlakat, mentalitet, soha vakillarida o'xshash bo'lsa-da, juda ko'plab yo'nalishlarda ular turlicha talqin qilinadi. Ushbu tafovutlar asosan diskursiv holatlarda, nutqiy aktlarda, lingvopragmatik tahlillarda qo'llanilganida bir-biridan farqi yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

REFERENCES

- Ғ. Абдурахмонов, А. Сулаймонов, Х. Холиёров, Ж.Омонтурдиев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, "Ўқитувчи" - 1979, -208 б.
- Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, -2008, -318 б
- Ҳакимов, Муҳаммад. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. -Тошкент: Академнашр, 2013. -176 б.
- Абдулхайров М. Навоий асарларидаги шаклдошлик ҳосил қилувчи сўзлар таҳлили // Ўзбек мутафаккирларининг тил назариясига оид қарашлари. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2021. – Б. 288.
- Атаев Ш. Символ и образ в трагедии Гете «Фауст» // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2010. – № 3. – С. 32-35.
- Долимова Л. Француз фразеологиясида ранг ва руҳият опозицияси. Хорижий филология. – Тошкент, 2020. – №4. – Б. 129.
- Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексемалар // Ўзбек тили тараққиёти ва халқаро ҳамкорлик масалалари. Халқаро илмий анжуман материаллари. – Тошкент, 2019. – Б. 304.
- Габорович С.К. The semantic of the blue colour category in english and serbian. Engleski jezik i anglofone književnosti u teoriji I praksi. Zbornik u čast Draginji Pervaz. ISBN 978-86-6065-276-0. – P 239.
- Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
- Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
- Василевич А.П. Исследование лексики в психолингвистическом эксперименте. На материале цветообозначения в языках различных систем. –М.: Наука, 1987.
- Вежбицкая А. Категория, прототип Лингвистическая экстралингвистическая семантика: Сб. обзоров, – М. 1992.
- Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996.

XALQ OG`ZAKI IJODIDA QALDIRG`OCH VA QARG`A OBRAZI (O`ZBEK VA INGLIZ FOLKLORI MISOLIDA)

Shomurotova Bibixon O`ktamovna

TTA Urganch filiali Ingliz tili kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og`zaki ijoida qaldirg`och va qarg`a obrazi haqida so`z yuritiladi. Jumladan, o`zbek va ingliz folklorida qushlar obrazining o`xshash va farqli jihatlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, qaldirg`och va qarg`a obrazi ikki xalq inonch va qarashlari bir-birini takrorlashi, asosan, bu qushlar o`zi bilan omad va baxt olib kelishi haqida fiklar bildirilgan.

Kalit so`zlar: qaldirg`och, qarg`a, afsonaviy qushlar, ornitonim, o`zbek afsonalri, o`zbek va ingliz folklori, madadkor qush timsoli.

Annotation. This article talks about the image of a swallow and a crow in folklore. In particular, similar and different aspects of the image of birds in Uzbek and English folklore are analyzed. It is also said that the image of a swallow and a crow reflect the beliefs and views of two peoples, and that these birds bring good luck and happiness with them.

Key words: swallow, crow, legendary bird, ornithonym, Uzbek legends, Uzbek and English folklore, symbol of helpful bird.

Аннотация. Статья посвящена образу ласточки и вороны в фольклоре. В частности, анализируются сходные и разные аспекты образа птиц в узбекском и английском фольклоре. Говорят также, что образы ласточки и вороны отражают верования и взгляды двух народов и что эти птицы приносят удачу и счастье.

Ключевые слова: ласточка, ворона, легендарная птица, орнитоним, узбекские легенды, узбекский и английский фольклор, символ птицы-помощника.

Ingliz va o`zbek xalqi tafakkurida qushlar obrazi aksar hollarda bir-biridan farq qilmasligi ko`ramiz. Masalan, qaldirg`och haqida har ikkala xalq inonch va qarashlari bir-birini takrorlaydi yoki quvvatlaydi. Inglizlarning "Qaldirg`och va uning uyasi haqidagi afsona" sida qaldirg`och o`z uyasini qurish uchun joy tanlashi, ko`pincha o`zi bilan omad va baxt olib kelishi haqida hikoya qilinadi. Afsonaning ba`zi versiyalarida aytilishicha, omad qaldirg`ochning uyasini tahdidlardan himoya qilganlarga keladi. "Qaldirg`och va uning uyasi haqidagi afsona" turli madaniyatlarda mavjud bo`lgan va turli xil variantlarga ega. Umuman olganda, bu afsonada qaldirg`och uy baxti, sevgi va omad timsoli sifatida tasvirlangan, u o`z uyasini himoya qiladigan yoki qaldirg`ochga o`z uyida qurishga ruxsat berganlarga baxt va omad keltiradi.

Qaldirg`och turli madaniyatlarning mifologiyasi ko`plab ramziy va timsoliy ma`nolarni bildiradi. Jumladan, bahor ramzi: Ko`p madaniyatlarda qaldirg`och bahor kelishi bilan bog`liq. Uning ko`rinishi issiqlik va gullaydigan tabiatning belgisi hisoblanadi.

Uy, vatan, panoh ramzi. Ko`pgina Yevropa mamlakatlarida qaldirg`och baxt va uy farovonligi ramzi hisoblanadi. Uydagi qaldirg`ochning uyasi xayrli belgi hisoblanadi.

Sevgi va sadoqat ramzi. Ba`zi madaniyatlarda qaldirg`och sadoqat va sevgi bilan bog`liq. Qaldirg`ochlar butun umri davomida birga osmonda uchib yuradi, degan e`tiqod bor, bu oilaviy totuvlik idealini anglatadi.

Sayohat va uyga qaytish – vatan visoli ramzi. Ba`zi mifologiyalarda qaldirg`och sayohat bilan bog`liq. Misol uchun, qadimgi yunon mifologiyasida qaldirg`och Afina ma`buda bilan bog`liq va uzoq safardan keyin uyga qaytish ramzi hisoblanadi.

O`lim xabarchisi: Ba`zi madaniyatlarda qaldirg`och ham o`lim bilan bog`liq, Ehtimol, uning ko`chishi va vaqtincha yo`qligi tufayli. Masalan, ba`zi slavyan e`tiqodlarida, agar qaldirg`och

uyning tomiga tushsa, u o'limni ko'rsatishi mumkinligiga ishonishgan.

Y.B.Yaxontova yozishicha, qadimgi mifologiyada qaldirg'och obrazi birinchi marta opa-singillar Prokna va Filomela afsonasida uchraydi. U haqidagi afsona Fokisda yoki Trakiyada mahalliyashtirilgan. Afina shohining qizi Filomela Fokis qiroli Tereyning rafiqasi singlisi Prokninikiga tashrif buyurgan edi. Tereus Filomelani xo'rlab, jinoyatini yashirish uchun uning tilini kesib tashlaydi. Filomela singlisiga bu haqda matoga kashta tikib, bildiradi. G'azablangan Prokne o'zining o'g'lini Tereusdan bo'lgan o'g'li o'ldiradi va eriga go'shtini yediradi. Zevs Filomelani qaldirg'ochga, Procneni bulbulga, Tereysni halqaga aylantirdi". J.Freyzer qadimgi yunon ayollari uyda tutilgan yovvoyi qaldirg'ochlarni "uydagi baxtsizlikning oldini olish uchun ularga moy surtib, yovvoyi tabiatga qo'yib yuborishgani" yozadi .

Haqiqatan, S.Ro'zimboyev yozganidek, "Qushlar bilan aloqador: Qumri, To'ti, So'na (o'rdak), Qaldirg'och, Lochin singari qator ismlar borki, ularning tanlanish sabablarini ochib berish musulmonlikdan avvalgi davr e'tiqodlarini tadqiq etishni taqozo qiladi. Chunki qadimgi xorazmiylar e'tiqodida ham ushbu tamoyil ko'zga tashlanadi. "Avesto"da Gershasp, Vishtasp kabi ot nomi bilan bog'liq ismlarning ko'pligi ushbu fikrimizni tasdiqlaydi. Bundan tashqari Xorazmda hayvonlar va qushlarga daxldor elatlar ko'p uchraydi. Masalan: Qo'shko'pirda shog'ollar, gechilar, tovuqlar, Hazoraspdakurrular, Xivada xo'kizlar kabi elatlar borki, ularning negizida ham ibtidoiy tasavvur va tushunchalar yotadi ". Qaldirg'och misolida ham olimning yuqoridagi fikrlarini tasdiqlovchi bir necha faktlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'zbek xalqining "Qaldirg'och" afsonasida qaldirg'och kultiga ishonch asosida shakllangan mifologik voqelik tasviri ushbu qushning tumshug'ining qizilligi, dumining ayriligi, insonlarga do'stligi kabi sifatlarini izohlashga, etiologiyasini ochishga xizmat qilgan. Afsona Ahrimanning olovni o'g'irlagani haqidagi axborotni berish bilan boshlanadi, bu esa o'z navbatida afsona xronotopi xudolar zamonida yuz bergan voqelik ekanini bildiradi. Afsonada olovsiz qiynalgan odamlarga ilohiy kuchlarning homiyligi asosida najot kelishi motivi asosidagi epizod tasviri beriladi. Unga ko'ra qaldirg'och Ahrimanning qora o'tov mo'rkonidan kirib, haybatli ilon o'rab olgan olovdan tumshug'ida olib chiqadi. Qaldirg'ochning tumshug'ining qizilligi cho'g'dan, dumining ayriligi ilon hamlasidan qolganligi haqidagi mif uning insonga erdamchi, madadkor sifatida talqin qilinishiga asos bo'lgan. Afsona "Shu-shu qaldirg'och inson zotining sevimli qushiga aylanib qolgan ekan" .

Ushbu holat Markaziy Osiyo xalqlarida qaldirg'ochga bo'lgan munosabat ildizlari islomdan oldingi davrga borib taqalishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga "xalq afsonalarida mifologik personajlar, g'ayrioddiy odamlar, payg'ambar va aziz-avlielar, tarixiy shaxslar kabi obrazlar ishtirokidagi voqelik axborot berish va diniy ta'sir ko'rsatish, ishontirish maqsadida ba'en etiladi. Bosh qahramonlar adolatli, xaos kuchlariga qarshi kurashuvchi, g'ayrtabiiy kuchga ega bo'ladilar. Uning obrazlar tizimida qahramonga humo, bo'ri, qaldirg'och, pari kabi erdamchi personajlar hamda dev, ajdar, bosqinchilar kabi raqib personajlar ham ishtirok etadi" .

"Kabutar va bahor afsonasi" ("The legend of Dove and Spring") Bu afsonada kaptar qanday qilib xudolar tomonidan bahor va yangilanish ramzi sifatida yuborilganligi aytiladi. Uning kelishi iliqlik va yangi hayotning boshlanishini anglatadi. Ingliz tilida pigeon – kabutar//kaptar kontsepti haqida mufassal ma'lumotlar mavjud .

Yerulan haqidagi rus ertaklarida tasvirlanishicha, it kiyofasidagi pari qiz ketar chogida bir afsun o'qib, kaptarga aylanadi-da, uchib ketadi. Ertaklarda pari yoki yalmog'izning qushga aylanishi motivi olamning uchlikka asoslangan tuzilishi va jonning qush kiyofasida yuqori olamga safari haqidagi mifologik qarashlar mahsulidir .

Shu bilan birga o'zbek va ingliz ornitomlari va poetik ornitinlar tizimidagi mushtaraklik qarg'a obrazi misolida ham o'z tasdiqini topadi. Ingliz folkloridagi qarg'alarning turli ramziy ramziy ma'nolari bor. Birinchidan, ingliz madaniyatida qarg'alar ko'pincha sog'lom fikr, donolik va aql bilan bog'liq. Qarg'aning donolik xislati dunyoning juda ko'p xalqlarida mavjud

“Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi” maqolida ko‘rinadi. Ushbu Cornix cornici nunquam confodit oculum maqoli qadimgi Rim davridanoq mashhur bo‘lib, inglizlarda Crows do not pick crow’s eyes shaklida bo‘lib, aynan shu ma‘noni beradi.

A. Qarabajak yozishicha, turkiy madaniyatida qarg‘aning qiyofasi asrlar davomida o‘zgarishlarga uchradi. Bu haqda Mustafu O‘zbash yozadi: “Bugun qarg‘a ko‘pincha salbiy ma‘noga ega bo‘lsa-da, tarix davomida unga ijobiy rol berilgan. Birinchi afsonalar va ertaklarda qarg‘a bo‘ri bilan birga “harakat qiladi”, shuning uchun unga ko‘pincha bo‘ri bilan bir xil funktsiyalar berilgan. Shunday qilib, islomgacha bo‘lgan turkiy rivoyatda tashlab ketilgan odam bolasiga sut berib boqadigan bo‘ri, og‘ziga go‘sht olib kelgan qarg‘a yordam bergani aytiladi. Islom dinining qabul qilinishi va o‘troq hayotning boshlanishi bilan turkiylar qarg‘aga ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarni ko‘rsata boshlagan. Bu davrda yozilgan “Qo‘rqut ota kitobi” dostonida, “Dirsexonning o‘g‘li boy xon” qissasida qarg‘aning ijobiy va salbiy belgilari bor. Turklarning o‘troq hayoti o‘rnatilgach, qarg‘a baxtsizlik keltiruvchi sifatida qabul qilingan”. Turk madaniyatida qarg‘a, boshqa madaniyatlarda bo‘lgani kabi, dono, aqlli qush sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib, Qur‘onning “Moida” surasida Qobil Hobilni o‘ldirgandan keyin tanasi bilan nima qilishni bilmay qolgani aytiladi. Alloh unga Hobilning jasadini qanday ko‘mish kerakligini ko‘rsatish uchun unga qarg‘ani yubordi: “Shundan so‘ng, Alloh unga birodari murdasini qanday ko‘mishni ko‘rsatish uchun erni kavlovchi bir qarg‘ani yubordi. “Holimga voy! Nahot shu qarg‘achalik bo‘lishdan ojiz bo‘lsam? (Men ham) birodarim jasadini (tuproqqa) ko‘ma qolay”, – dedi. Shunday qilib (u) pushaymon qiluvchilardan bo‘lib qoldi”.

Buni Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham bayon qiladi: “Iki malakni iki qarg‘a surati bila Qobil qoshig‘a yibordikim, bir-biri bila urushub, biri yana birin o‘lturdi va qotil qarg‘a erni tirnab, minqori bila qozib, maqtulni dafn qildi”. Shu bilan birga o‘zbek xalq og‘zaki ijodida qarg‘a insonga harb ishida ham namuna qilib ko‘rsatilgani ta‘kidlanadi. Alisher Navoiyning “Risolai tir andoxtan” (“O‘q otish risolasi”)da Odam Atoga o‘q otishni o‘rgatish ham qarg‘a bilan bog‘lanadi: “Va Jabroil alayhissalom urug‘ olib keldi va Odam alayhissalom sochti va erni mola qildi. Qazog‘a qarg‘alar kelib, ekkan bug‘doyni kovlab olib eya boshladi. Odam alayhissalom andoq ko‘rub, munojot qilib aydiki: – Ilohi, mening, ekkanimni zoe‘ qilmagil. Bas, Xudoyi taolo Jabroil alayhissalom din Odami Safiyg‘a bir yoy va necha o‘q yibordi. Chun Odamg‘a o‘q otmoqni o‘grotti. Andin sung buyurdikim, Odam bu o‘qni qarg‘alar sari otgil. Bas, Odam alayhissalom otti va xato qildi. Jabroil tabassum qilib aytdi: – Yana bir o‘q otg‘il. Bu kezikda otgan urdi. Jabroil alayhissalom shodmon bo‘ldi. Odam alayhissalom so‘rdikim: – Ey Jabroil, avval otqonimda nega tabassum kilding va so‘ng otqonimda nega shodmon buldung? Jabroil alayhissalom aydi: – Ul tabassum aning uchun qildim va so‘ng shodmon bo‘ldumkim, agar avvalg‘i o‘qung qarg‘alarg‘a tegsa erdi farzandlaring ilgidin qiyomatqacha hech nimarsa xalos bo‘lmag‘ay erdi”.

Dunyoning ko‘plab xalqlari mifologiyasida qarg‘a ikki qarama-qarshi timsolga ega. Bir tomondan, uni nekqadam, dono qush sifatida hurmat qilishadi, boshqa tomondan, u qarg‘aning zulmat kuchlari bilan bog‘liqlik degan botil e‘tiqodda bo‘lgani uchun qo‘rqishdi. Masalan, qadimgi slavyanlar orasida qarg‘a bu xudo Varunaning sodiq sherigidir, Qarg‘aning inson nutqiga taqlid qilish qobiliyati uning inson tilida gapira oladigan xabarchi sifatida qabul qilinishiga olib keldi. Qadim zamonlarda odamlar qarg‘aning tanasining muhim qismini eyish orqali qushning nekbinlik ruhiga ega bo‘lish mumkinligiga ishonishgan. Dono va nekbin qarg‘a obi hayot siriga ega deb qaraladi. Obi hayot qo‘riqchisi sifatida u marhumning ruhini o‘z tanasiga qaytarish imkonini beradi. Ertaklarda u qahramonlarni tiriltirish uchun obi hayot olib keladi. Bundan tashqari, qarg‘a hayot beruvchi, bahor yomg‘iri va tozalovchi bahor momaqaldiroqlarining ramzi, tabiatni qish uyqusidan uyg‘otadi. Perunga bag‘ishlangan kuni qarg‘a yomg‘irdan hosil bo‘lgan obi hayotda cho‘miladi.

Qarg‘a rus xalq ertaklarida bosh qahramonning singlisi yoki qizini o‘g‘irlagan qahramon

sifatida namoyon bo'ladi. U ko'pincha folklor namunalarining fitna tasvirlarida xabarchi, o'lim xabarchisi yoki aksincha, qon ketishini to'xtatish yoki tirik suv bilan tirilishga qodir jonzot sifatida tilga olinadi. Inglizlarning "Uch qarg'a" ("The Three Ravens") ertagi va uning hosilasi "Ikki o'laksaxo'r" ("Twa Corbies") qarg'alar haqidadir.

Shuningdek, inglizlarda ba'zan qarg'alar sehrgarlar yoki sehrgarlarning xabarchilari yoki hamrohlari sifatida talqin qilinadi.

Ingliz xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotga ham o'z ta'siri o'tkazgan. Ingliz badiiy adabiyotida Uilyam Shekspirdan tortib ("Makbet", "Otello" tragediyalarida) zamonaviy yozuvchilargacha qarg'alar ko'p tilga olinadi. Ularda ham qarg'a o'lim, bashorat va donolikni ramziy qiladi.

Qiyosan olib qaraganda o'zbek mumtoz adabiyotida qarg'aning aksar holda salbiy qiyofasini ko'ramiz. Masalan, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin"da Farhod ahvolini ta'riflar ekan, uning tanidagi yaralardagi chivinlarni o'laksa ustiga qo'ngan qarg'alarga qiyoslaydi:

Chibinlar jismini majruh etar chog',
O'luxsa uzra andoqqim suruk zog'.

Shuningdek, oshiqning patila sochlarini yaralangan o'ljasi boshiga tama bilan qo'ngan qarg'alar sifatida tasvirlaydi:

Boshima jo'lida soch ermaski zog' aylab g'uluv,
Zaxmlardin to'ma istarg'a nashiman qildilar.

Alisher Navoiyda qarg'a ijtimoiy ma'noga ega timsol sifatida bulbulga zidlanadi. Mumtoz adiblarimiz tilidagi zog'u zag'an aynan qarg'a va kalxat degan ma'noni anglatadi. Bu juftlik jamiyatda nobop odamlar, yurtning nojins vakillari bildiradi. Shuning uchun quydagi baytda Alisher Navoiy "bazmida qarg'a va kalxatlar charx urib turgan gul (sofdil inson; bu o'rinda podshoh yoki hukmron doira vakili ramzi) bazmida bulbul qanotini qoqmay, juda bo'lmas uchmay turishi kerak" – deydi:

Ul gulekim, bazmida zog'u zag'an qilg'ay xurush,
Avlo ulkim, bulbul uchqay uchmasa bo'lg'ay xamush.

Marosimlar va xurofotlar: qarg'alarning ingliz marosimlari va xurofotlarida ham o'z o'rni bor. Masalan, qabriston panjarasida o'tirgan qarg'a ba'zi hududlarda o'lim yoki baxtsizlikning xabarchisi hisoblanadi.

Ingliz xalq og'zaki ijodida qarg'alar haqida ko'plab ertak va rivoyatlar mavjud bo'lib, ular kelajakni bashorat qilishga qodir, hatto o'liklarning ruhini keyingi hayotga olib boradigan ayyor, sirli mavjudotlar sifatida tasvirlanadi.

Qora qarg'a afsonasi. Ba'zi madaniyatlarda qora qarg'a o'lim ramzi yoki dahshatli alomat sifatida qabul qilinadi. Afsonalarda aytilishicha, qora qarg'ani ko'rish qayg'u yoki baxtsizlikni anglatishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Фрэзер, 2001 – Фрэзер Дж. Золотая ветвь: Исследование магии и религии / Пер. с англ. М. Рыклина. Т. 2. М., 2001– С. 223

2. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. Рус тилидан С.Р.Рўзимбоев таржимаси. – Урганч: УрДУ ноширлик бўлими, 2018. –Б. 226.

3. Имомов К. Ўзбек халқ наври поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 43.

4. Абдурашидова К.Р. – Ўзбек халқ афсоналарининг жанр хусусиятлари// Miasto Przyszłości Vol. 33 (2023): – Б. 168.

Columbidae//Wikipedia, the free encyclopedia, <http://en.wikipedia.org/wiki/Pigeon>, дата обращения 16.11.11.

5. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртақ. Mumtoz so'z, 2014. – Тошкет: –Б. 76.

6.Вадим Серов. Энциклопедический словарь крылатых слов и выражений. — М.: «Локид-Пресс», 2003.

<https://www.native-english.ru/proverbs/crows-do-not-pick-crow-s-eyes>

7.Карабаджак Э. Ворона в турецкой и русской культурах //«Творчество Олжаса Сулейменова и вопросы национального самосознания»: материалы международной научной конференции, посвящённой 80-летию казахского поэта и общественного деятеля Олжаса Омаровича Сулейменова. 5-6 мая 2016 г. – Алматы: Қазақ университеті, 2016. – С. 80

8. Özbaş Mustafa. Kurtarıcı Kargadan Burnu Pislikten Çıkmayan Kargaya: Türk Halk Anlatılarında Karganın Dönüşümü. – Ankara, Milli Foklor, 2010, Yıl 22, Sayı 88.

9.Қуръони карим маъноларининг таржимаси. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёти. 2001. – Б. 112.

10.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 99.

11.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 294.

12.Лебедев И.Г., Константинов В.М. Ворон и человек – долгий путь рядом // Врановые птицы: экология, поведение, фольклор: Сб.науч.тр. / Под ред. В.М. Константинова, Е.В. Лысенкова; Мордов. гос. пед. ин-т. – Саранск, 2002. – С. 11.

13.Алишер Навоий. Мукаммад асарлар тўплами. 20 томлик. 8-том. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 420.

14.Алишер Навоий. Мукаммад асарлар тўплами. 20 томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 120.

15.Алишер Навоий. Мукаммад асарлар тўплами. 20 томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 230.

MAXMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI. TURLI FANLARNING O'ZARO ALOQADORLIK JIHATLARI

*Parpiboyev Botirali Rahimjon o'g'li,
Namangan Davlat instituti, mustaqil tadqiqotchisi,*

Annotatsiya. Ushbu maqola Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining o'ziga xos xususiyatlarini haqida yozilgan bo'lib, asarning asosiy mazmuni, bosh g'oyasi haqida batafsil so'zlaydi. Har bir g'oya uchun asarning o'zidan namuna taqdim etadi. So'ngra, asarning tilshunoslikdan boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi haqida ma'lumot keltirib, keltirilgan fikrlarni buyuk olimlarning nutqi va asardan olingan parchalar bilan asoslaydi. Maqola so'ngida shaxsiy izlanishlar asosida yaratilgan jadvallar ham taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: yozma yodgorlik, tilshunoslik, folklor, tarjimashunoslik, shevashunoslik, lug'atshunoslik, geografiya, sotsiologiya, dinshunoslik, tarix, siyosat, diniy marosim, mifologiya.

THE PROGRESS OF SCIENCE IN THE WORK «DEVONU LUG'OTIT TURK» BY MAKHMUD KASHGARI. ASPECTS OF INTERRELATION OF DIFFERENT SCIENCES

*Parpiboyev Botirali Rahimjon o'g'li,
Namangan State Institute, independent researcher,*

Abstract. This article is written about the specific features of "Diwan lugat at-turk" written by great Turkic writer Mahmud Kashgari and provides detailed information about the main content and main idea of the work. For each idea, the article provides an example from the work itself. Then, factual information about the interaction of the work with other sciences beside linguistics are given and the presented ideas are justified with the speeches of great scientists and examples from the work. Tables created based on personal research are presented at the end of the article.

Key words: written monument, linguistics, folklore, translation studies, dialectology, lexicology, geography, sociology, theology, history, politics, religious ceremony, mythology.

ПРОГРЕСС НАУКИ В РАБОТЕ «ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТЮРК» МАХМУДА КАШГАРИ. АСПЕКТЫ ВЗАИМОСВЯЗИ РАЗЛИЧНЫХ НАУК

*Парпибоев Ботирали Раҳимжон ўғли,
Наманганский государственный институт, независимый исследователь*

Абстракт. В данной статье рассказывается об особенностях «Диван лугат ат-тюрк» великого тюркского писателя Махмуда Кашгари и дается подробная информация об основном содержании и основной идее произведения. К каждой идее в статье приводится пример из самой работы. Затем приводятся фактические сведения о взаимодействии работы с другими науками помимо лингвистики и обосновываются изложенные идеи выступлениями крупных ученых и примерами из работы. Таблицы, созданные на основе личных исследований, представлены в конце статьи.

Ключевые слова: письменный памятник, языкознание, фольклор, перевод ведение, диалектология, лексикология, география, социология, теология, история, политика, религиозный обряд, мифология.

KIRISH

XI asrning yorqin yozma yodgorliklaridan biri hisoblangan "Devonu lug'otit turk" asarini yaratish Maxmud Qoshg'ariy o'z zimmasiga olgan ishlarning eng buyugi edi. Chunki ushbu

asar boshqa asarlardan mutlaqo farqli ravishda, nafaqat tilshunoslik, balki lingvistik sohalarga umuman yaqin bo'lmagan ijtimoiy va iqtisodiy fanlarning kesishmasi o'laroq vujudga keldi. Asar ushbu fan va sohalarni shunchaki birlashtirib qo'ymasdan, har biri bo'yicha daliliy va aniq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan holda, Maxmud Qoshg'ariy asarning yaratilishiga qariyb ikki yil vaqtini sarflagani tarixiy va lisoniy manbalarda aytib o'tiladi.

METOD VA METODOLOGIYA

Biroq, barchamizga ma'lumki, garchi ushbu qimmatli ma'lumotlarning qog'ozga tushirilishiga ikki yillik vaqt kelgan bo'lsa ham, aslida Qoshg'ariy asarning yozilishiga yigirma yildan kam vaqt sarflagan emas. Manbalarda ko'rsatilishicha, yozuvchi 14 yil davomida Qoshg'ardan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg'onistonga qadar cho'zilgan turkiy o'lkalarga tashrif buyurdi. Turkiy xalqlar, jumladan turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, aylandi, qishloq va yaylovlarini kezib chiqdi. Turli elatlarning oddiy xalq vakillari bilan muloqotda bo'lib, ularning sheva va lahjarini o'rgandi. Natijada, asar o'z ichida dialektik elementlarni birlashtirdi, yuqorida sanab o'tilgan turkiy xalqlarning dialektik o'xshashlik va farqlari namunalar bilan kitobxonga taqdim etildi. Misol uchun, turk qavmining turli shevalarida turlicha nom olgan "yada toshi" ining boshqa qavmlarda, xususan, qozoqlarda jay taş, o'zbek, mo'g'ul, oltoy, turkman tillarida yada, yoqut tilida saga, tuvinchasiga chag tash deb yuritilgani haqida ma'lumotlar berib o'tiladi.

Tilshunoslik fani asosi sifatida esa yozuvchi tilning ichki xususiyatlarini tahlil qildi, ularni adabiy turk tili bilan chog'ishtirdi, o'z ishi uchun nihoyatda boy material to'pladi. Shuningdek, turkiy tillar grammatikasini chuqur o'rgandi, xususan, so'z yasalishi, zamon va shaxs-son, sinonimlik va boshqa lingvistik hodisalar, lug'aviy shakl yasovchi va so'z yasovchi qo'shimchalar asarning lug'at qismida berilgan ko'pgina so'zlarda uchraydi. Misol uchun, devonning birinchi bobida uchragan "o'rko'ldi" fe'liga izoh berilar ekan: "o'rko'ldi – o'rko'nch bo'lib o'rko'ldi – shov-shuv boshlandi, hatto qochish boshlandi (o'rko'lur, o'rko'lmak)" tarzida beriladi va izoh qismida "o'rko'ldi so'zi hozirgi adabiy tilda hurkildi (hurkmoq, hurkish) ravishida qo'llaniladi. Lekin ayrim shevalarda hozir ham urkdi shaklida qo'llaniladi .

Asar yozilishining asosiy sabablaridan biri esa asarning qariyb 70 foizini tashkil qilgan lug'atshunoslik fanidir. Aslida devon lug'at va terminlar asosiga qurilgan bo'lib, hikoya, hikmat, she'r va maqollar ayni so'zlarni xalq tilida haqiqatan faol qo'llanilganini isbotlash uchun keltirilgan. Bu haqida kitobning muqaddima qismida olim shunday yozadi: "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar qirg'izlarning shaharlarni, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli hil so'z xususiyatlarini o'rganib aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo'lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim".

Ushbu maqol va hikmatli so'zlar Qoshg'ariy tomonidan shunchaki so'zlarni asoslash uchungina berilmasdan, turkiy xalqlarning folklorshunoslik darajasi naqadar yuqori ekanligini ko'rsatish uchun hamdir. Chunki har bir maqol, hikmat va she'rlar turkiy xalqlarning jo'shqin hayoti, madaniyati, urf-odati, afsona va miflari haqida so'zlaydi. Misol uchun, Qoshg'ariy "ashaqladi" so'zini lug'at sifatida ta'riflar va izohlar ekan, shunday yozadi: ashaqladi: ol ani ashaqladi – u uni arziyas, kichik hisobladi. Maqolda shunday: jag'ini ashaqlasa, bashqa chiqar – dushmani kichik hisoblansa, boshqa chiqadi, ya'ni bu bilan boshni halok qiladi degan mazmunni anglatadilar. Ehtiyot bo'l va dushmanni kichik hisoblama demoqchi bo'ladilar. Demak, o'quvchiga yanada aniqroq tushuntirish uchun, Qoshg'ariy har bir so'zni o'sha davr

madaniyati jihatidan xalq og'zaki ijodi bilan bezaydi. Qoshg'ariyning o'zi ta'kidlaganidek: "Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rlaridan shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim".

TAHLIL VA NATIJALAR

Devonning yana bir hayratlanarli jihati shundaki, yuqorida ham ta'kidlanganidek, devon faqatgina bir yo'nalishda bitilgan emas, ya'ni u o'zida adabiyot va tilshunoslikni aks ettiribgina qolmay, umuman boshqa sohalar, xususan, geografiya, tarix, sotsiologiya va qisman dinshunoslikni ham o'zida birlashtiradi va ayni fanlarning daliliy isboti Qoshg'ariy tomonidan mukammal tarzda taqdim etiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan 14 yillik ilmiy izlanish davomida, qomusiy olim turkiy qabilalarning yurtlarini kezar ekan, ularning geografik joylashuvini puxta o'rgandi, kitobxonga oson bo'lsin uchun qabilalarning joylashuv o'rnini aniq tushuntirib o'tdi va dalil sifatida o'zi yaratgan geografik xaritani taqdim etdi. Qoshg'ariyning, ayniqsa, ushbu ishi asrlar o'tib eng noyob yodgorlikka aylandi, chunki Qoshg'ariy yashab ijod qilgan XI asr va undan keyingi davrlarda ham turkiy qabilalar o'rtasida ichki va tashqi urushlar va janglar bo'lib o'tdi, ko'chmanchi turkiy qabilalarning geografik o'rnini qisman va butunlay o'zgardi. Devonda keltirilgan xarita esa XI asr turkiy elatlarning geografik o'rnini isbotlab beruvchi ishonchli manbalardan biriga aylandi.



«Devonu lug'ot at-turk» asaridagi xarita

“Devonu lug'otit turk” asariga tarixiy jihatdan yondashish esa asarda tarixiy voqealarning ham dalillar bilan asoslagan holda bayon etilganligini yana bir karra isbotlaydi. Asarda keltirilgan turkiy xalqlar tomonidan qayd etilgan doston va eposlar haqiqatga asoslangan bo'lib, mazmuniga ko'ra arablarning johiliya davridagi qabilalararo janglari tasvirlangan epik rivoyatlarga juda yaqin keladi. Ularda turkiy qabilalarning yashashga bo'lgan shijoati, turli qiyinchiliklarga bardoshliligi, ma'nan va jismonan jasurligi, urushda va janglarda harbiy

hiylalardan foydalanish mahorati, siyosiy kurash maydonida elparvarlik, mardlik xususiyatlari, insonlarining hikmat, mehr va qahr tuyg'ulariga to'yinganligi Maxmud Qoshg'ariy tomonidan jonli, qaynoq misralarda ifodalab berilgan. Shuningdek, asardagi tarixiy afsonalarni markaziy jihatdan birlashtirib turuvchi Alp Er To'nga qahramoni haqidagi she'r va afsonalar ham tarixiy jihatdan ro'yi-rost bayon etilganligi so'zimizni isbotlaydi. Misol uchun, asarda keltirilgan "Alp er to'nga marsiyasi" apling ham adabiy ham tarixiy jixatdan buyuk shaxs bo'lganligini dalillar bilan yoritadi.

Fan nuqtai nazaridan ma'lumki, sotsiologiya (lotincha socius — jamiyat, yunoncha logos — bilim, ta'lim, tushuncha) — bir butun tizim hisoblangan jamiyat haqidagi va ayrim ijtimoiy tartibotlar, jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, shaxs va jamiyat munosabatlari to'g'risidagi fan hisoblanadi. Devonning ushbu fan bilan aloqadorlik jihati esa turkiy qabilalarning devonda keltirilgan yashash tarzi, umummilliy xarakteri, diniy va dunyoviy qarashlari, e'tiqodlari bilan keskin bog'liqdir, ya'ni Qoshg'ariy asarda keltirilgan hech bir folklorni, yoki jumlani shunchaki keltirgan emas, ularning zamirida turklarning o'ziga xosligi aks etadi. Turkiy xalqlarning mentaliteti va kechmishidan kelib chiqib yaratilgan ushbu folkloristik namunalar insonlarni himli va odobli bo'lishga undashdan tashqari, turk xalqlarning qanchalar mehmondo'st, hurmatga sazovor, oila va yaqinlarni ardoqlaydigan, siylai-rahm tushunchasini oliy tushuncha deb biladigan, yigitlarini jasur va bahodir qilib tarbiyalaydigan xalq ekanligiga urg'u beradi. Demak, buyuk yozuvchining ushbu qimmatli ma'lumotlari orqali butun boshli turkiy xalq jamiyatining buguni qanday shakllanganini blib olishimiz mumkin. Va bu jamiyatshunoslik fanining turli tarmoqlarini, jumladan davlat, siyosat va madaniyatning turkiy xalqlarda qanday paydo bo'lgani va shakllangani haqida buyuk manba bo'la oladi.



Biz Maxmud Qoshg'ariyning ushbu bebaho asarini turli fanlar bilan aloqadorligini o'rganar ekanmiz, shu o'rinda dinshunoslik fani ham chetda qolishi mumkin emas. Chunki Qoshg'ariy o'z asaridagi lug'atlarni turli hikmatli so'zlar, maqollar, marosim so'zlari bilan bezar ekan, payg'ambarning so'zlari, ya'ni sahobalar tomonidan yozib olingan yoki yetkazilgan hadislar, duolar, diniy marosim so'zlarini ham asarda faol qo'llaydi. Misol uchun, quyida devondan o'rin olgan jumlagi diqqatimizni qarataylik:

"Ishonchli bir Buxorolik olimdan va Nisoburlik boshqa bir olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so'zni payg'ambarga nisbat berib aytgan edilar: payg'ambar qiyomatning belgilari, oxir zamon fitnalari va o'g'uz turklarining xuruji haqida gapirganida, shunday degan edi: turk tilini o'rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi. Hadisning to'g'ri yoki to'g'ri emasligining javobgarligi aytgan insonning gardaniga. Agar to'g'ri bo'lsa, turk tilini o'rganish vojib (zarur) dir: hadis to'g'ri bo'lmagan taqdirda ham uni o'rganish zarurligini aql taqozo qiladi".

Ushbu dalildan tashqari asarda oy, quyosh, yulduzlar, yada toshi haqida ham diniy qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan mifologik nazariyalar mavjuddir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu qimmatli asar faqatgina lingvistik qarashlarni o'z ichiga olmay, balki turli fanlar mushtarakligida vujudga kelgan desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Yuqorida bir necha bor ta'kidlanganidek, ushbu fanlar yozuvchi tomonidan shunday bir usulda bir-biriga bog'langanki, kitobxon bir qarashda ushbu asarning aynan qaysi fan bilan ko'proq aloqadorligini bilolmasligi tabiiy holdir. Biroq, unutmasligimiz kerakki, asarning umumiy g'oyasi lug'atshunoslik asosida yaratilganligi asarda o'z ustunlik darajasiga ega. Quyida "Devonu lug'otit turk" asarining turli fanlar bilan aloqadorligi taxminiy foizlarda ko'rsatiladi. (Ushbu jadvallar muallifning asar asosida shaxsiy izlanishlari bo'yicha yaratildi).



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат аттурк (Свод тюркских слов). В 1-х томах. Т. 1. Пер. с араб. А.Р. Рустамова под ред. И. В. Кормушина [Текст] / Махмуд алКашгари. – М., 2010
2. Mahmud al-Kashgari, Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk), edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. Cambridge, Mass. [In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin.] Part I: 1982 (Pp. xi + 416)
3. Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат аттурк (Свод тюркских слов). В 3-х томах. Т. 1.

Пер. с араб. А.Р. Рустамова под ред. И. В. Кормушина [Текст] / Махмуд алКашгари. – М., 2010

4. Махмуд Кошғарий. “Девону луғотуттурк” . 1-3- жилдлар. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов.С. –Т: ЎзФА Фан нашриёти. 1960, 1961,1963.

5. Sattorova. Z.I. About Uzbek Editions Of Dīwān Lughāt Al-Turk . The American Journal of Social Science and Education Innovations. January 17, 2021 | Pages: 92- 99

6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiya>

7. Devonu lug’otit turk, indeks-lug’ati, Istanbul 1915-17

POLITICAL DISCOURSE AS A SIGNIFICANT AREA OF LINGUISTIC STUDY

Esanov Azizbek Shermamat o'g'li

PhD Student of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Under Review of Y.Y.Arustamyan, DSc in linguistics, Associate Professor of the Department Comparative linguistics and translation theory, National University of Uzbekistan

Abstract. Political discourse plays a critical role in shaping ideologies, influencing public perception, and reinforcing power structures across different political systems. This article examines the rhetorical strategies, framing techniques, and ideological constructs that political figures use to transmit ideologies and maintain control. Through a comparative discourse analysis of political speeches and government communications from various global contexts, this study investigates how political discourse shapes public perception and social control. The research also identifies the most commonly employed rhetorical strategies and discusses how political discourse functions as a tool for persuasion and identity formation in both democratic and politically centralized systems. The findings highlight the dynamic and influential nature of political discourse in shaping political realities, contributing to debates on language and power in contemporary societies.

Keywords: political discourse, psycholinguistics, rhetorical strategies, comparative discourse analysis, public perception, framing, political communication

ПОЛИТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС КАК ЗНАЧИМАЯ ОБЛАСТЬ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация. Политический дискурс играет ключевую роль в формировании идеологий, влиянии на общественное восприятие и укреплении властных структур в различных политических системах. В статье рассматриваются риторические стратегии, техники фрейминга и идеологические конструкции, которые политические деятели используют для передачи идеологий и поддержания контроля. Путем сравнительного анализа политических выступлений и правительственных коммуникаций в различных мировых контекстах исследуется, как политический дискурс формирует общественное восприятие и социальный контроль. Исследование также выявляет наиболее часто используемые риторические стратегии и обсуждает, как политический дискурс функционирует в качестве инструмента убеждения и формирования идентичности как в демократических, так и в политически централизованных системах. Результаты подчеркивают динамичный и влиятельный характер политического дискурса в формировании политической реальности, внося вклад в дискуссии о языке и власти в современном обществе.

Ключевые слова: политический дискурс, психолингвистика, риторические стратегии, сравнительный дискурс-анализ, общественное восприятие, фрейминг, политическая коммуникация.

SIYOSIY DISKURS LINGVISTIK TADQIQOTNING MUHIM SOHASI SIFATIDA

Annotatsiya. Siyosiy diskurs turli siyosiy tizimlarda ideologiyalarni shakllantirishda, jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatishda va hokimiyat tuzilmalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada siyosiy yetakchilarning o'z siyosiy qarashlarini yetkazishda foydalanadigan ritorik strategiyalari, freyming texnikalari va mafkuraviy konstruktsiyalari

tahlil qilinadi. Dunyoning turli hududlarida siyosiy nutqlar va hukumatning jamoatchilik bilan aloqalari qiyosiy tahlil qilinadi va shu asosda, siyosiy diskurs jamoatchilik fikri va ijtimoiy nazoratni qanday shakllantirishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda, shuningdek, eng ko'p qo'llaniladigan ritorik strategiyalar batafsil yoritib beriladi hamda mazkur siyosiy diskursning ham demokratik, ham siyosiy jihatdan markazlashgan tizimlarda ishonitirish va yetakchilarning o'zini namoyon etish vositasi sifatida qanday ishlashi muhokama qilinadi. Natijalar siyosiy diskursning siyosiy haqiqatlarni shakllantirishdagi dinamik va ta'sirchan xarakterga ega ekanligini aniq misollar orqali ko'rsatib beradi va zamonaviy jamiyatda til va hokimiyat bo'yicha muhokamalarga uchun muhim ilmiy asos taqdim etadi.

Kalit so'zlar: siyosiy diskurs, psixolingvistika, ritorik strategiyalar, qiyosiy diskurs tahlili, jamoatchilik fikri, freyming, siyosiy muloqot.

Introduction. Political discourse is a significant and specialized field within linguistic studies, reflecting the growing recognition of the role that language plays in shaping, transmitting, and reinforcing political ideologies and power structures. As a subfield of discourse analysis, political discourse focuses on how political actors, including politicians, governments, and political institutions, use language to influence public opinion, legitimize authority, and consolidate power. Central to this field is the recognition that political language is deeply intertwined with processes of social control and ideological transmission [22].

This article explores how political discourse operates as a tool for transmitting ideologies and maintaining social control across different political systems. Specifically, this research investigates how political actors use language to encode their ideologies, shape public opinion, and maintain power in various global contexts. By examining the role of rhetorical strategies, framing techniques, and ideological constructs within political discourse, this paper employs a comparative discourse analysis methodology, analyzing key political speeches, media discourse, and government communications from various political systems to uncover the strategies political figures use to shape public opinion. In particular, the study addresses two central questions: first, how political discourse shapes public perception and social control across different political systems; and second, what rhetorical strategies political figures commonly use to influence public discourse.

The objective of this article is to provide a comprehensive understanding of political discourse as a tool for social influence and persuasion, while also identifying the variations in discourse strategies employed in different political systems. Furthermore, this study draws on theoretical frameworks from critical discourse analysis (CDA), sociolinguistics, and rhetorical studies to provide a comparative analysis of political discourse in varying global contexts.

Literature Review. The study of political discourse emerged from broader linguistic traditions, particularly within the fields of critical discourse analysis (CDA) and sociolinguistics. Foundational work by scholars like Michel Foucault [11] and Norman Fairclough [9] laid the groundwork for understanding discourse as a means through which social power and dominance are produced and reproduced. Foucault's theory of discourse emphasizes that language is not just a reflection of reality but a tool for constructing it, a perspective that has proven critical in analyzing how political figures use language to shape ideological narratives [11]. Building on this foundation, Fairclough's critical discourse analysis further elucidated the relationship between discourse, power, and ideology, focusing on how political actors use language to establish hegemony [10]. Political discourse is thus seen not only as the language of politicians but also as a mechanism through which power relations in society are reinforced and challenged. A prominent Dutch scholar Teun A. van Dijk expanded these ideas, focusing specifically on how elites use language to maintain power, with his work forming the basis for much of the contemporary study of political discourse [21], [22].

In the decade, recent research has turned to psycholinguistics to understand the cognitive

and emotional processes that political discourse triggers in the public. George Lakoff's work on framing (2016) has been instrumental in this area, emphasizing how political actors use specific language frames to influence how issues are perceived and understood by the public. In this work, Lakoff argues that metaphors and frames are not just rhetorical devices but are central to shaping cognitive structures, affecting how voters process information and make political decisions [14]. Further exploring the psychological dimensions of political discourse, Charteris-Black's (2014) work on rhetoric and leadership examines how politicians use metaphor and rhetoric to evoke emotional responses from voters. His analysis of political speeches shows how leaders use language not only to communicate policies but to create emotional bonds with their audiences, influencing voter behavior through carefully crafted emotional appeals [5]. This growing intersection of psycholinguistics and political discourse analysis reflects a broader trend in the field, with researchers increasingly focusing on the emotional and cognitive impact of political language on audiences. Another contemporary focus is the manipulative and deceptive aspects of political discourse, particularly in the context of disinformation and fake news, which have become prevalent in the digital age. Kreidlin's (2014) work explores how political actors deliberately obscure truth or distort information to shape public opinion. This is especially relevant in structured political regimes, where state control over media and discourse is used to maintain political dominance. Kreidlin's analysis of manipulative speech and its prevalence in media discourse underlines the critical need to study how political language can obscure reality and shape ideological narratives in undemocratic systems [13].

Analysis and Discussion. Political discourse is distinct in that it is inherently persuasive and performative. Politicians and political actors carefully craft their language to influence public opinion, garner support, and legitimize policies. Rhetoric, or the art of persuasion, plays a central role in political discourse, with political figures frequently employing rhetorical strategies such as framing [8], metaphor [15], and emotional appeals to shape public perception and discourse. Moreover, political discourse often reflects ideological positioning. Politicians encode their worldviews and values into their language choices, subtly shaping the way issues are understood by their audiences. For example, terms like «freedom,» «security,» or «democracy» are often strategically employed to evoke emotional responses and align the public with certain political ideologies [6]. This makes political discourse not only a reflection of individual beliefs but also a tool for constructing collective social realities.

Political Discourse in Latin America

In Latin America, political discourse has played a critical role in both consolidating and challenging power. Particularly in countries like Venezuela under Hugo Chávez, political discourse was characterized by mass-oriented political rhetoric that sought to establish a direct connection between the leader and the masses. Chávez frequently used anti-imperialist rhetoric, portraying the U.S. and local elites as the enemies of the people. His use of binary oppositions—such as «the people» versus «the oligarchy»—was a central feature of his discourse, aimed at galvanizing support for his Bolivarian revolution [3]. Studies on popular political movements in Latin America show that Chávez's speeches often employed rhetorical simplification, reducing complex social issues to dichotomous conflicts [7]. This mass-oriented political discourse was not only emotionally charged but strategically framed to create a sense of urgency and collective struggle.

In Brazil, political discourse has similarly been marked by popular political movements, particularly under Jair Bolsonaro. Bolsonaro's discourse has often utilized nationalist rhetoric combined with attacks on political correctness and «fake news.» He employed language strategies to portray himself as an outsider fighting against a corrupt establishment, which resonated with his voter base [18]. These examples from Latin America illustrate how political leaders use discourse to craft national identity and consolidate their power, often relying on

emotional and mass-oriented political rhetoric appeals to create strong connections with their audiences.

Political Discourse in Africa

Moving to Africa, political discourse often revolves around themes of nation-building and legitimization of authority, particularly in post-colonial contexts. In countries like South Africa, political discourse during and after apartheid serves as a key example of how language can be used both for restrictive measures and liberation. Under apartheid, the South African government employed language to legitimize segregation and systemic inequality. The use of terms like «separate development» was designed to cloak the realities of limiting policies in more neutral or even positive terms [20].

However, the post-apartheid era saw a shift in political discourse, particularly under leaders like Nelson Mandela. Mandela's discourse was grounded in the language of reconciliation, unity, and nation-building. His speeches frequently invoked the ideas of a «rainbow nation», emphasizing inclusivity and hope for a shared future. This rhetorical strategy was essential in maintaining social peace and stability in a nation marked by deep racial divisions [2]. The language of reconciliation and nation-building in South African political discourse demonstrates how discourse can be used to heal historical wounds and construct new national identities.

In Kenya, political discourse has been heavily influenced by ethnic tensions, with leaders often framing their language in ways that appeal to specific ethnic groups. During elections, for example, political leaders have historically used ethnic identity as a mobilizing tool, exacerbating divisions to gain electoral support [19]. In response to this, civil society organizations have been promoting a shift towards more inclusive political discourse, encouraging leaders to use language that unites rather than divides the population.

Political Discourse in Southeast Asia

In Southeast Asia, political discourse varies widely across regimes, from the more open democratic spaces in countries like Indonesia to more highly centralized political systems in countries like Thailand. In Indonesia, political discourse often revolves around themes of nationalism and religious identity. During elections, politicians frequently invoke Pancasila, the official state philosophy that emphasizes unity and diversity, to align themselves with national ideals [1]. However, the rise of political movements with Islamic values in recent years has also brought religion to the forefront of political discourse, with some leaders using religious rhetoric to mobilize support while framing opponents as un-Islamic or against religious values [12].

In Thailand, political discourse is marked by the tension between highly centralized political system and democratic aspirations. Since the military coup in 2014, political discourse has been tightly controlled by the government, with terms like «national security» and «stability» used to justify restrictions on freedom of expression [17]. The Thai government has also invoked royalist discourse to legitimize its authority, framing opposition groups as threats to the monarchy and, by extension, national unity. This illustrates how political discourse in highly centralized political systems often employs nationalistic and security-oriented rhetoric to maintain control over the population.

In contrast to the Latin American, African, and Southeast Asian contexts, political discourse in CIS states such as Russia and Uzbekistan has historically focused on the legitimization of centralized power. In Russia, for instance, Vladimir Putin has used nationalist and security-oriented rhetoric to frame his leadership as essential for maintaining stability in a post-Soviet world. His discourse frequently emphasizes Russia's need to resist Western influence and maintain its sovereignty, employing the metaphor of Russia as a «fortress under siege» [16].

In Uzbekistan, political discourse has transitioned from the structured and formalized political language of Islam Karimov to a more reform-oriented and modernizing approach

under Shavkat Mirziyoyev. Under Karimov, discourse was marked by strong nationalistic themes and a focus on the protection of Uzbek sovereignty. In the new phase, there has been a gradual shift toward openness, with political discourse highlighting economic development and international collaboration.

The following visual representation illustrates the relative influence of framing, metaphors, emotional appeals, nationalist rhetoric, and religious rhetoric in political discourse in these regions. This chart helps to conceptualize how different rhetorical strategies shape political discourse globally, based on regional context (Figure 1).




Figure 1

The examples from Latin America, Africa, Southeast Asia, and the CIS states illustrate the diversity of political discourse strategies across global contexts. In democratic regimes, discourse tends to focus on public persuasion, identity formation, and national unity, often invoking emotional and mass-oriented political rhetoric appeals to build connections with voters. In Highly centralized political systems, discourse frequently revolves around legitimizing authority, national security, and control, with political actors using language to maintain power and suppress dissent. By incorporating global case studies, this article provides a more comprehensive understanding of how political discourse functions as a tool of social control, persuasion, and identity construction in different political systems. Moreover, in the context of global political instability and polarization, understanding the psycholinguistic impact of political discourse has become crucial. Scholars are increasingly focusing on how political language influences cognition and emotional responses, shaping voter behavior and societal values [14]. This is especially relevant in times of crisis, where political leaders often rely on fear appeals or solidarity rhetoric to navigate public sentiment and maintain control [4]. These matters of this field will be discussed further in the future works as our research goes on.

Conclusion. The study of political discourse remains highly relevant in today's globalized world, where political language is disseminated not only through traditional media but also through digital platforms and social networks. The rise of social media has significantly transformed political communication, enabling politicians to bypass traditional media filters and speak directly to their audience. This shift has introduced new challenges for political discourse analysis, as language becomes more fragmented, interactive, and prone to strategically used rhetoric.

The analysis confirms that political discourse serves as a powerful tool for shaping public perception, legitimizing authority, and influencing social control in diverse political systems. The findings contribute to broader discussions on how language constructs political realities and reinforces power structures, highlighting the importance of political discourse as a dynamic and influential area of study in linguistic, psychological, and sociological contexts.

In summary, political discourse, being a dynamic and influential aspect of language study that intersects with various domains, including psychology, sociology, and communication studies, remains a crucial field for understanding how language shapes political realities, influences public opinion, and reinforces power structures, both globally and within specific regional contexts.

REFERENCES:

1. Aspinall, E. (2015). The New Nationalism in Indonesia. *Asian Survey*, 55(3), 369-391.
2. Blommaert, J. (2005). *Discourse: A Critical Introduction*. Cambridge University Press.
3. Cannon, B. (2016). Populism and Hugo Chávez's Discursive Legacy. *Latin American Politics and Society*, 58(3), 29-52.
4. Charteris-Black, J. (2011). *Politicians and rhetoric: The persuasive power of metaphor*. Palgrave Macmillan.
5. Charteris-Black, J. (2014). *Analysing Political Speeches: Rhetoric, Discourse and Metaphor*. Palgrave Macmillan.
6. Chilton, P. (2004). *Analysing political discourse: Theory and practice*. Routledge.
7. Ellner, S. (2013). *Rethinking Venezuelan Politics: Class, Conflict, and the Chávez Phenomenon*. Lynne Rienner Publishers.
8. Entman, R. M. (1993). Framing: Toward clarification of a fractured paradigm. *Journal of Communication*, 43(4), 51-58.
9. Fairclough, N. (1989). *Language and power*. Longman.
10. Fairclough, N. (1995). *Critical discourse analysis: The critical study of language*. Longman.
11. Foucault, M. (1972). *The archaeology of knowledge and the discourse on language*. Pantheon Books.
12. Hadiz, V. R. (2018). *Islamic Populism in Indonesia and the Middle East*. Cambridge University Press.
13. Kreidlin, D. (2014). *Manipulative Discourse in Political Speech*. *Political Discourse and Media Studies*.
14. Lakoff, G. (2016). *Moral politics: How liberals and conservatives think*. University of Chicago Press.
15. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
16. Laruelle, M. (2012). *Russian Nationalism and the National Reassertion of Russia*. Routledge.
17. Montesano, M. J. (2020). Political Discourse in Thailand Post-Coup. *Asian Politics & Policy*, 12(2), 237-248.
18. Mundo, P. (2021). Bolsonaro's Populist Discourse: Defending Nationalism and Attacking Political Correctness. *Journal of Latin American Studies*, 53(1), 129-151.
19. Murunga, G. R. (2014). Kenya's 2013 Elections: Ethnic Politics and the Challenges of Democracy. *Journal of Eastern African Studies*, 8(1), 1-13.
20. Thompson, L. (2014). *A History of South Africa*. Yale University Press.
21. van Dijk, T. A. (1997). *Discourse as social interaction*. SAGE Publications.
22. van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and power*. Palgrave Macmillan.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE'RIYATIDA ANTONIM SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI

Sayidova Gulrux Yoqubovna

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada jahon badiiy tafakkuri taraqqiyotida alohida o'ringa ega Zahiriddin Muhammad Bobur nazmiy asarlaridagi antonim so'zlarning leksik-semantik xususiyati tadqiq qilingan. Z.M. Bobur badiiy asar ta'sirchanligini va badiiylikni oshirishda antonimlardan keng foydalanganligi, shoir o'z she'rlari tilini yaratishda ulardan o'ta mohirlik bilan foydalanganligi aniqlandi. Tazod san'atini voqealantiruvchi lug'aviy antonimlar shoir nazmida muhim ahamiyatga ekanligi misollar ila aniqlandi

Tayanch tushunchalar: antonim, tazod, leksik-semantik, sof turkiy, fors-turkiy, arabiy, antonimiya.

LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF ANTONYMS IN THE POETRY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Sayidova Gulrukh Yakubovna

Bukhara State University

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

Abstract. The article examines the lexical-semantic features of antonyms in the poetic works of Zahiriddin Muhammad Babur, who have a special place in the development of world artistic thinking. Z.M. It was found that Babur widely used antonyms to increase the effectiveness and artistry of the work of art, and the poet used them very skillfully to create the language of his poems. It was found out with examples that the lexical antonyms, which are events of Tazad's art, are important in the poet's verse

Basic concepts: antonym, contrast, lexical-semantic, purely Turkish, Persian-Turkish, Arabic, antonymy.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АНТОНИМОВ В ПОЭЗИИ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Саидова Гулрух Якубовна

Бухарский государственный университет

Доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Абстрактный. В статье рассматриваются лексико-семантические особенности антонимов в поэтическом творчестве Захириддина Мухаммада Бабура, занимающего особое место в развитии мирового художественного мышления. З.М. Установлено, что Бабури широко использовал антонимы для повышения эффективности и художественности произведения, а поэт очень умело использовал их для создания языка своих стихов. На примерах выяснено, что в стихах поэта важное значение имеют лексические антонимы, являющиеся событиями творчества Тазада.

Основные понятия: антоним, контраст, лексико-семантический, чисто турецкий, персидско-турецкий, арабский, антоним.

Kirish (Introduction). Muqaddas «Avesto» asarida olamning asosida yorug'lik va qorong'ulik, ezgulik va yomonlik kabi bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi hodisalar yotishi aytib o'tilgan. Olam yaratilibdiki, bu hodisalar va tushunchalar mavjud, bundan keyin ham bo'lishi aniq. Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri olam, tabiat, jamiyatdagi shunga o'xshash ziddiyatlarni badiiy obrazlar vositasida aniq, ta'sirli ifodalashdir. Antonimiya hodisasi doimo

dolzarb va muhimligicha qoluvchi mavzulardan biri hisoblanadi. Bu hodisaning xalq og‘zaki ijodida, badiiy asarlarda va nutqimizda ham ahamiyati ancha katta. Shuning uchun ham bu hodisa hali hanuzgacha o‘rganilib, rivojlanib kelmoqda. Bu hodisa o‘zbek tilshunosligining asosiy mavzularidan biri hisoblanadi, chunki antonimiya hodisasi bizda faol holatda ishlab, shakllanuvchi tilshunoslikning bir qismi hisoblanadi [2, 13].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Analysis of literature on the topic). O‘zbek tilshunosligida antonimiya hodisasi, asosan, o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab tadqiq etila boshlandi. Bu ishni dastlab S.Mutallibov “Antonim so‘zlar” maqolasi bilan boshlab berdi. Shundan keyin S.Usmonov va A.Ishayevlarning maqolalari chop etildi. R.Shukurov va B.Isabekovlar esa mazkur hodisani monografik planda o‘rganishdi. Qarama-qarshilik hodisasi tilshunoslikda, asosan, antonimiya nomi ostida talqin qilinadi. Uning lisoniy tabiati ikki planda: paradigmatic va sintagmatic planda belgilanadi. Paradigmatik planda antonimlarning eng muhim belgisi ularning semantik qarama-qarshilik ifodalashi hisoblanadi. Bu jihat doimo antonimlar belgilanishidagi asosiy omil vazifasini bajarib kelgan.[11, 24] Antonimlarni belgilovchi ikkita asosiy o‘lchov mavjud. Birinchi o‘lchovda so‘zlarning leksik ma‘nosi alohida e‘tiborga olinadi. So‘zlarning leksik ma‘nosida bir-biriga nisbatan zid, qarama-qarshi semalar mavjud bo‘lsa, bunday so‘zlar antonimlar sifatida belgilanadi. Ikkinchi o‘lchovga ko‘ra, ikki antonim so‘z bildirgan tushunchalar o‘rtasida oraliq tushuncha mavjud bo‘lishi kerak. Tilshunoslikda oraliq tushuncha “mantiqiy markaz” nomi bilan yuritildi. Mantiqiy markaz bo‘lib keladigan so‘z odatda neytral, norma holatni bildiradi.[3, 35] Masalan, Z.M. Boburning quyidagi she‘rida qo‘llanilgan shod-xurram va g‘am so‘zlariga nisbatan osiyishtalik so‘zi mantiqiy markaz hisoblanadi:

Yangi oy yor yuzi birla ko‘rub el shodu xurramlar,
Manga yuzu qoshingdin ayru bayram oyida g‘amlar.

Ayonki, zid ma‘noli so‘zlar badiiy asarlarda tazod san‘atini yaratuvchi muhim vosita hisoblanadi. Y. Is‘hoqov bu xususda quyidagilarni yozadi: “Tazod so‘zi, zid qo‘yish”, “qarshilantirish” ma‘nolarini ifodalaydi. Shu so‘z bilan ataluvchi she‘riy san‘at esa baytda ma‘no jihatidan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta‘sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi” [5, 256]. Z.M. Bobur ma‘no jihatidan o‘zaro zid bo‘lgan so‘zlar asosida yuzaga keladigan tazod san‘atining go‘zal, rang-barang namunalarini yaratdi. Chunonchi:

Jahonda ko‘p gado, garchi lavand atvorliq bordur,
Va lekin, Boburo, hargiz seningdek shah lavand ermas.

Baytda shoh va gado so‘zlari o‘zaro zid ma‘noda qo‘llanilgan bo‘lib, ular vositasida shoir ma‘shuqa va oshiq munosabatini yorqin ifodalagan. Yevropa filologiyasida tazod san‘ati antiteza deb ataladi. Badiiy asarda voqealar yoki tushunchalar bir-biriga qat‘iy qarshilantirilsa, antiteza kelib chiqadi. Antiteza nutqning emotsional ta‘sirini orttiradi [5, 256]. Qarshilantirilayotgan narsalar orqali aytilmoqchi bo‘lgan fikrni ta‘kidlaydi. Tilshunoslikda antonimlar leksik-semantik, grammatik va tarixiy-etimologik xususiyatlariga ko‘ra odatda quyidagi turlar bo‘yicha tahlil etiladi: tub (asliy) va yasama antonimlar; kontekstual (matniy) antonimlar; tarixiy-etimologik qatlamiga ko‘ra antonimlar; so‘z turkumiga ko‘ra antonimlar[9, 167]. Zahiriddin Muhammad Bobur badiiy asarlari tilidagi antonimlarni mazkur tahlil turlari bo‘yicha o‘rganishga harakat qilamiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shoir badiiy asarlari antonimlarga juda boy. U o‘zining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik qarashlarini ifodalashda ushbu so‘zlardan juda keng foydalangan. Shoir she‘rlarida tub (asliy) antonimlarning miqdori ancha ko‘p bo‘lib, ularni genetik manbaiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Turkiy (o‘zbekcha) so‘zlardan iborat antonimlar.
Oq-qora

Ye rab, sengadur yuzum qaro gar oq qil,
Har nav sening rizong erur andoq qil!

Ushbu baytda kelgan oq va qora soʻzlari rang-tus sifatlarini ifodab keluvchi soʻzlar boʻlib, qora soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da koʻmir tusidagi; eng toʻq rang maʼnoda [OʻTIL, 354]. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni va boshqa bir necha maʼno anglatgan bu sifat asli qara tarzida talaffuz qilingan (OʻTEL, III, 240); oʻzbek tilida birinchi boʻgʻindagi a unlisi â unlisiga, ikkinchi boʻgʻindagi a unlisi ä unlisiga almashgan: qara >qârâ. shu oʻrinda u oʻz maʼnosida emas, balki koʻchma maʼnoda, yaʼni umuman, salbiy belgini, salbiy belgiga egalikni bildiradi; Oq - qor, sut rangidagi [OʻTIL, 137]. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu sifat a:q tarzida talaffuz qilingan [OʻTEL, I, 109], oʻsha davrlardayoq a: unlisining choʻziqlik belgisi yoʻqolgan, oʻzbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan: a:q >aq >âq. Ushbu baytda gunohsiz, shaʼniga dogʻ tushmagan kishi; toʻgʻri maʼnosida kelgan.

Yigʻi- kulgi

Tiya olmon yigʻini koʻrgach ul yoshni, vale, ul ham
Koʻzum yoshini koʻrgach, asray olmas oʻzni kulgudin.

Yigʻi—qaygʻu yoki sevinch taʼsirida koʻz bezlaridan ajralib chiqadigan tiniq suyuqlik [OʻTIL, 268]. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu ot. “Koʻzdan ajralib chiqadigan suyuqlik”. Kulgi—xursandlik, zavq-shavq holatini ifodalovchi ovozlari [OʻTIL, 79]. Bu ot qadimgi turkiy tilda xursandlik, zavq-shavq holatini ifodalovchi ovozlari maʼnosini anglatuvchi kül— feʼlidan -gü qoʻshimchasi bilan yasalgan [OʻTEL, I, 405]; oʻzbek tilida ü unlisining yumshoqlik belgisi yoʻqolgan, ikkinchi ochiq boʻgʻindagi u unlisi i unlisiga almashgan: kül-+gü=külgü>kulgu>kulgi. Bu baytda shoir oshiqning hajridan koʻz yoshi toʻkib, gʻam-qaygʻuli bir holatta tasvirlangan boʻlsa, oshiqning bu holatini koʻrgan mashuqa uni koʻrib kulgidan oʻzini asray olmaganligini tasvirlab yigʻi va kulgi soʻzlarini zid holatda keltirgan.

Yomonlik- yaxshilik

Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun koʻngluma,
Kelmadi jonimgʻa hech oromi jondin yaxshiligʻ

Yaxshi — ijobiy sifatga ega, kishiga yoʻqadigan, maʼqul boʻladigan [OʻTIL, 304]. Bu sifat qadimgi turkiy tilda ham didga, xohishga mos tushadigan, maʼqul boʻladigan maʼnosini anglatgan “yaq” feʼlining [OʻTEL, 64] biroz maʼnosini ifodalovchi -(i)sh qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan shaklidan -i qoʻshimchasi bilan yasalgan; -i qoʻshimchasi qoʻshilganidan keyin ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan, sh undoshi taʼsirida uning oldidagi q undoshi x undoshiga almashgan [OʻTEL, III, 39]; oʻzbek tilida a unlisi ä unlisiga almashgan, i unlisining qattiqlik belgisi yoʻqolgan: (yaq-+ish=yaqish-)+i=yaqishi>yaqshi>yaxshi>yâxshi. Yomonlik sifati past, salbiy belgi-xususiyati bor [OʻTIL, 334]. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu sifat asli yaman tarzida talaffuz qilingan [OʻTEL, 384]; oʻzbek tilida a unlisilari â unlisilarga almashgan: yaman >yâmân. Ushbu baytda oshiq yordan shikoyat qilmoqda. Yaʼni dilrabo oshiqning mahzun koʻngliga hech qachon yaxshilik qilmasligi, yaxshilik oʻrniga uning zidi yomonlik kelganligidan aziyat chekmoqda.

Toʻgʻri-egri

Garchi zohirda toʻgʻridektur nafs,
Jisiming uyida egridektur nafs.

Baytda toʻgʻri va egri soʻzlari oʻzaro koʻchma maʼnolari bilan antonimiya munosabatini vujudga keltirgan. Toʻgʻri yoʻl — haq yoʻl, haqiqatning yoʻli; egri yoʻl — quvlik, shumlik, nohalollik yoʻli. Maʼlumki, yoʻl soʻzi koʻp maʼnoli boʻlib, u baytda xatti-harakat, yurish-turish tarzi maʼnosida kelgan. Ikkala soʻz ham oʻz qatlam leksikasiga mansub. Bundan tashqari shoir sheʼrlarda kun-tun, qish-yoz, oʻt- suv, kecha-kunduz, yolgʻon-chin, yigʻlamoq-kulmoq, yigʻmoq-sochmoq kabi turkiy (oʻzbekcha) antonimik juftliklar qoʻllanilgan.

Yolgʻon-chin

Chunki ko‘p yolg‘on aytti ul manga,
Gar desam yolg‘onchi oni chin durur.

O‘t-suv

Ul yuzi quyosh hajri, bu sa‘b balo dardi,
Ko‘nglumga urubdur o‘t, holimni qilibdur suv.

Keyingi baytda kontekstual antonimning go‘zal ko‘rinishi berilgan. Ya‘ni yer va ko‘k turkiy so‘zlari o‘zaro ko‘chma ma‘noda zidlik hosil qilgan.

G‘am yemaki, yetkursa boshini ko‘kka,
Oxir yana yer kibi oni past qilur.

Mazmuni: “Insonning hayotda kibru havoga berilmasligi kerakligi, chunki bu odat juda yomon odat, bir kun Oллоh ularni yer kabi past qilishi mumkin”. Kibr-havo, manmanlik, dimog‘dorlik — o‘z shaxsiyatiga, qobiliyatiga ortiqcha baho berish, o‘zini boshqalardan yuqori qo‘yish, kalondimog‘lik oqibatida namoyon bo‘ladigan salbiy axloqiy sifat. Bu sifat kishilarni mensimaslik, ularga past nazar bilan qarash, o‘rinsiz g‘ururga berilish, o‘zining arzimas yutuqlarini bo‘rttirib ko‘rsatish va b.da ko‘rinadi. Kibrli kishi o‘z aybi, nuqsonlaridan ko‘z yumadi, manmansiraydi. Manman kishi o‘zgalarning nasihatini yoqtirmaydi, zalolat botqog‘iga botadi. Kibr — kishilarning kamchiligi, nuqsonidir. Kibr odamlar o‘rtasida birdamlik, ahillik va muhabbatni yo‘q qiladi, adovat uyg‘otadi. Kibr odobsizlik belgisi bo‘lib, u doimo qoralangan. Baytda ko‘k so‘zi yuksaklik semasi yer so‘zi pastlik semasiga ko‘ra o‘zaro zid holda kelgan.

2. Arabiy so‘zlardan iborat antonimlar.

Visol-hajr

Visoling davlatig‘a yetmasam Bobur kibi, ne tong
Qi, hajring mehnatida asru zoru notavon bo‘ldum.

Bayt mazmuni ishqiy mazmunda yozilgan bo‘lib, hajrda azoblanib zor-u notavon bo‘lgan oshiq yorning visoliga yetmoqlikni orzu etmoqda. “Ey yor, sening dard-u hajringda zor-u notavon bo‘ldim. Ne ajabki, Bobur kibi visoling davlatiga yetsam”. Mazkur baytda hajrdan qiynalgan oshiq holati antonim so‘zlar vositasida yorqin, aniq va ta‘sirli ifodalangan.

Jaholat- adolat

Jonu ko‘nglida juz jaholat yo‘q,
Hech ishida aning adolat yo‘q.

Mazmuni. Oshiq yordan shikoyat etmoqda: “Sening jonu ko‘nglingda jaholat jahllik yo‘q, ammo hech bir ishingda adolat yo‘q”. Adolat - arabcha odillik, to‘g‘rilik hamma uchun barobar bo‘lgan haqiqatning talab va tamoyillariga amal qilinishi [O‘TIL, I, 145], insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g‘oyasi, ma‘naviyat, axloq va huquqning me‘yoriy kategoriyalaridan biri. Jaholat so‘zi esa aholat, jahl, johil (arabcha bilmaslik, nodonlik) 1) ilmsiz, qoloq, madaniyatsiz; 2) jahлга erk beruvchi, o‘zini idora qilolmaydigan shaxsga xos xususiyatlarni ifodalovchi salbiy axloqiy sifat [O‘TIL, I, 321]. Bunda ham so‘zlarda bo‘rtib turgan “yaxshi” va “yomon” semasi antonimiyani yuzaga keltirgan. Mazkur so‘zlarning barchasi arabiy tub so‘z bo‘lib, asosan, kitobiy uslubga xos.

Ittifoq-nifoq

Ul yornng ittifoqi nifoqig‘a arzimas.
Ayyomi vasli shomi firoqig‘a arzimas.

Baytdagi ittifoq va nifoq so‘zlari o‘zaro antonim. Ittifoq so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “inoq, ahil” [O‘TIL, I, 339]; nifoq so‘zining ma‘nosi esa 1. ikkiyuzlamalik; munofiqlik, riyokorlik; mug‘ambirlik; 2. Kelishmovchilik, ixtilof, nizo, janjaldir [O‘TIL, I, 425]; Mazkur baytda ham antonimiya tub leksemalar orasida yuzaga kelgan. Ikkala so‘z ham arabchadir.

3. Forsiy tilga mansub so‘zlardan iborat antonimlar.

Mushkul-oson

Manga bormoq mushkulu kelmak sanga osondurur,
Ushbu mushkilni manga, yo Rab, sen oson qilg'asen.

Shoir she'rlarida qo'llanilgan zid ma'noli so'zlar, asosan, ot (osmon-yer mehr-jabr kabi); sifat (oq-qora, baland-past, qattiq-yumshoq kabi); ravish (uzoq-yaqin, tun-kunduz, obod-barbod kabi); fe'l (sochmoq-termoq, kulmoq-yig'lamoq kabi) turkumidagi so'zlardan iborat.

Shoir she'rlarida bundan tashqari yana aziz-xor, qari-yosh, boy-kambag'al, to'g'ri-egri, yaxshi-yomon, mashaqqat-rohat, bormoq-kelmoq, issiq-sovuq, vafo-jafo kabi tub antonimlar qo'llanilgan. Misol

Aziz-xor

Istaram o'zni aziz elga ko'runmasliktin,
Necha o'zumni ulus ko'zida xor etgaymen?

Aziz—"hamma e'zozlaydigan, qadr-qimmatini baland" ma'nosini anglatadi, unga zid o'laroq xor — "barcha tahqirlaydigan, qadr-qiyamati yo'q" ma'nosini [Rahmatullayev Sh. va boshq. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1980. 24-bet] bildiradi. Bu tub leksemalar orasidagi antonimiya hodisasi bo'lib, ikkala so'z ham sifat turkumiga mansub. Zidlik munosabati to'g'ri ma'noli sememalar orasida yuzaga kelgan. Ikki leksema ham o'zlashma qatlamga mansub: aziz — arabcha; xor — forscha-tojikcha. Baytda aziz va xor so'zlari vatanga nisbat berib aytilgan bo'lib, shu ikki so'z orqali uning oldingi va hozirgi (muallif nuqtayi nazaridan) taraqqiyot darajasi aniq va qisqalik bilan ifoda etilgan.

Johil-oqil

Goh johilni sarbaland aylar,
Goh oqilni poyband aylar.

Baytda oqil va johil so'zlari o'zaro antonimlikni yuzaga keltirgan. Oqil so'zining lug'aviy ma'nosi "kishiga faqat yaxshilik qiladigan, mo'min, qobil, yaxshi" (O'TIL, II, 66-b.) bo'lsa, johil so'zining lug'aviy ma'nosi esa "jaholatda qolgan, ilm-ma'rifatdan mahrum; qoloq, madaniyatsiz, nodon" [O'TIL, I, 290] dir. Oqil so'zidagi "yaxshilik" semasi johil so'zidagi "yomonlik" semasi bilan zidlik munosabatini yuzaga keltiradi, bunda ular bog'langan so'zning ahamiyati katta.

Pinhon-fosh

Pinhon ko'ngulda ishq edi hijron balosida,
Fosh o'ldi mojarosi xaloyiq arosida.

Mazmuni. Fosh - "ochiq-oydin, hammaga ma'lum bo'lib, ko'rinib turgan; ayon» [O'TIL, I, 555]. Mazkur so'z adabiy tilda "oshkora", "oshkor" shaklida qo'llaniladi. Pinhon – "kishining nazaridan yashiringan, ko'zga ko'rinmaydigan; yashirin" [O'TIL, I, 586]. Ushbu so'zda "kishilarda maxviy tutilgan, sir saqlangan; maxfiy" semasi ham mavjud bo'lib, she'rdan aynan shu ma'no ifodalangan. Zid ma'noqlikni yuzaga keltirgan ikkala so'z ham o'zlashma qatlamga xos, ya'ni fors-tojik tiliga tegishlidir.

Mast-u bexudluq- hushyor

Mastu bexudluq bila umrungni o'tkarding, darig',
Ey ko'ngul mundin bori bo'l bir nima hushyorroq.

Mazkur baytda mastu behud va hushyor so'zlari o'zaro ma'noviy tazodni yuzaga keltirgan. Mast so'zi forsiy bo'lib, ichkilik yoki nasha, qoradori va shu kabilar ta'sirida kayf qilgan, kayfi bor. [NAL, 231]. Behud forsiy so'z bo'lib, "hushsiz, o'zidan ketgan" [NAL, 113-b] degan ma'noni ifodalaydi. Hushyor so'zi ham forsiy bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi "biror ta'sir yoki hodisani darrov anglash, idrok etish qobiliyatiga ega bo'lgan; ziyrak" [O'TIL, II, 713] dir. U baytda "hushyor bo'lmoq" birikmasida kelgan bo'lib, "es-hushini yig'ib olmoq, es-hushi joyiga kelmoq" ma'nosini ifodalamoqda. Baytning mazmuni quyidagicha: "Ey ko'ngil, bu dunyoda kayfu safo qilib umrni kechirding, bas yeter hayotda hushyor bo'l, insonlarga yaxshilik qil". Anglashiladiki, inson bu hayotda faqat huzur qilib yashash uchun kelmagan, sinov uchun kelgan shuning uchun bu sinovdan yaxshi amallar qilib o'tishimiz kerak. Baytda

kayf-u safo so‘zi bilan hushsiz semasi es-hushi joyiga kelmoq semasi bilan zidlik munosabatini yuzaga keltirgan.

Telba-dono

Boburi bedilni ishq telbaratsa ne ajab,

Chunki hargiz rost kelmas ishq donolig‘ bila.

Telba - aqldan ozgan, jinni. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu sifat asli aqldan ozgan ma‘nosini anglatgan täl— fe‘lidan —bä qo‘shimchasi bilan yasalgan [O‘TEL, 216]. Qadimgi turkiy tilda bu sifat tälvä telvä [Devon, I, 402] tarzida talaffuz qilingan; o‘zbek tiliga esa tälbä shakli birinchi bo‘g‘inidagi ä unlisi ye unlisiga almashib yetib kelgan: täl- + bä = tälbä >telbä. Shevalarda bu sifat telvä tarzida ham talaffuz qilinadi. [O‘TEL, I]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da telba so‘zining to‘rtta ma‘nosi izohlangan: 1. Aqldan ozgan, devona, jinni. 2. Biror narsaga, kimsaga ortiq darajada berilgan; savdoyi, shaydoyi. 3. Telbaga xos, telbalikni aks ettiruvchi; ma‘nosida. 4. ko‘chma poet. Jilovlanmagan, asov, “quturgan”. Ushbu baytda esa telba so‘zi biror narsaga, kimsaga ortiq darajada berilgan; savdoyi, shaydoyi ma‘nosida kelgan. “Ne ajabki, Bobur dilsiz yorning ishqida telba, savdoyi bo‘lmish, Chunki ishq, muhabbat har doim ham rost kelmaydi donolik bilan”.

Gul-tikon

Har yerda gul bo‘lsa—tikon bo‘lsa, ne tong?!

Har handaki may durdidan bo‘lsa, ne tong?!

Ayonki, forsiy gul so‘zi “go‘zal” (O‘TIL, I, 195) ko‘chma ma‘noda keng qo‘llaniladi. Tikon so‘zi sof turkiy so‘z bo‘lib, o‘simlikning, hayvonning ingichka uchli, ignaga o‘xshab sanchiladigan a‘zosi. Bu ot qadimgi turkiy tilda sanch, kirit ma‘nosini anglatgan tik fe‘lidan-(ä)n qo‘shimchasi bilan yasalgan [O‘TEL, 558]: tik— + än = tikän. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni tik- fe‘liga —kän qo‘shimchasini qo‘shib sifat yasalgan, qoidaga ko‘ra bu so‘z tikkän bo‘lishi kerak edi deb izohlaydi [Devon, I, 381]; tushuntirishidan ko‘rinib turibdiki, Mahmud Koshg‘ariy sifat yasashni fe‘lning sifatdosh shaklini hosil qilishdan farqlamagan. Unda “yomon, xunuk bo‘lib ko‘rinmoq” [O‘TIL, II, 172] semasi mavjud. Shoir gul so‘zidagi “go‘zallik” va tikon so‘zidagi “xunuklik” semalarini o‘zaro zidlantirgan. U mahbubani gulga, oshiqni esa tikanga qiyoslagan. Ta‘kidlash o‘rinliki, shoir she‘rlarida gul va tikon tushunchalari zidlantirilgan holatlar ko‘p uchraydi.

O‘t- suv

O‘t soldi ko‘ngulga ranju betoblig‘im,

Suv qildi bu xasta jonni beoblig‘im.

Ushbu baytda ham shoir to‘rt unsurlardan suv va o‘t so‘zlarini bir-biriga zid holda qo‘llaydi.

Ey ko‘ngul, gar g‘ayr so‘zi zahri qotildur, ne g‘am,

Lablaridin sharbat yuhyil-izoming borida.

Baytdagi sharbat va zahri qotil so‘zlari shunday xususiyatli so‘zlar jumlasiga kiradi. Forsiy sharbat so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “sof shakar moddasidan, shakardan tayyorlanadigan mahsulot; shirinlik” [O‘TIL, II, 548] dir. Mazkur so‘zning matniy antonimi sifatida qo‘llangan forsiy zahri qotil so‘zining asl lug‘aviy ma‘nosi esa “tirik organizmni og‘ulab yemiradigan yoki o‘ldiradigan modda, og‘u” [O‘TIL, I, 302] bo‘lib, uning ko‘plab ko‘chma ma‘nolari mavjud. Shunday ko‘chma ma‘nolaridan biri “og‘u singari achchiq, kishining hayotini og‘ulaydigan, kishiga tatimaydigan narsa”dir. Yuqoridagilardan anglashiladiki, sharbat so‘zida “shirin”, zahri qotil so‘zida esa “achchiq” semasi mavjud. A‘yonki, shirin va achchiq so‘zlari o‘zaro zid ma‘noli so‘zlar hisoblanadi Z.M. Bobur sharbat va zahri qotil so‘zlaridagi ana shu xususiyatlarni e‘tiborga olib, ularni o‘zaro zid ma‘nolarda qo‘llagan.

Ma‘lumki, mumtoz adabiyot vakillarining namunalarida oshiq — mahbuba munosabati aksariyat holatlarda shoh va gado so‘zlari vositasida ifodalangan. Buni Z.M. Bobur ijodida ham kuzatishimiz mumkin. Chunonchi, uning :

Jahonda ko‘p gado, garchi lavand atvorliq bordur,

Va lekin, Boburo, hargiz seningdek shah lavand ermas
baytida shoh va gado so'zlari orqali mahbuba va oshiq munosabatlari yorqin aks ettirilgan.
Shoirning ayrim she'rlarida mazkur munosabat shoh va qul so'zlari vositasida ham berilgan.
Masalan:

Nisbat yo'qtur, deb ijtinob aylamakim,
Shahmen zlg'a, vale senga quldurmen.

Xulosa. Umuman olganda, Z.M. Bobur she'riy asarlari zid ma'noli so'zlarga juda boy va ular rang-barang ko'rinishga ega. Shoir ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik qarashlarini ifodalashda ushbu so'zlardan juda keng foydalangan. Mazkur guruhdagi so'zlar u uchun zidiyatlarga to'la davrning umumiy ruhini ifodalashda asosiy til vositalaridan biri bo'lgan. Ma'no jihatidan o'zaro zid bo'lgan so'zlar asosida yuzaga keladigan tazod san'atining go'zal, rang-barang namunalarini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. O'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985. -200 b.
2. • Isabekov B. Hozirgi o'zbek tilida leksik antonimiya: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T.: O'zR FA TAI, 1973.
3. • Is'hoqov Y. Tazod // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1970. -№ 5. –B. 80-83.
4. • Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. -T.: Zarqalam, 2006.
5. • Ishayev A. Shakldosh antonimlarga doir etyudlar // O'zbek tili va adabiyoti. 1967. – №1. – B. 16-17.
6. • Mamatov A. Antonimiya asosida frazeologik shakllanish masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 1998. -№ 6. –B. 56-58.
7. • Mahmudov N. Ziddiyat va ma'no taraqqiyoti // O'zbek tili va adabiyoti. –T.: 2014. -№3. –B. 16-25
8. • Rahmatullaev Sh. Semema — mustaqil til birligi // O'zbek tili va adabiyoti. –T.: 1984. -№ 5.
9. • Rahmatullaev Sh. Lug'aviy antonimlar ma'nosini uzviy tahlil asosida o'rganish // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 1994. -№ 3. –B. 32-35.
10. • Usmonov S. Antonimlar // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 1958. -№ 2. –B. 38-40.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. I-II. –M.: Russkiy yazyk, 1981;
12. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Rahmatullaev Sh.. -T.: Universitet, 2000. -599 b.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SUN'IY INTELLEKT VOSITASIDA O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASH MAZMUNI VA UNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

*Abdullayev Elmurod Zaylobiddinovich
Tayanch doktorant, Andijon davlat universiteti.*

Maskur maqolada oliy ta'limda, xususan, pedagogik tayyorgarlik kontekstida sun'iy intellektning (SI) integratsiyasi va ta'sirini har tomonlama tahlil qiladi. Unda sun'iy intellektning ta'lim jarayonlarini yaxshilashning turli usullari, uning o'qituvchilar malakasini oshirishdagi roli va uni amalga oshirishdan kelib chiqadigan axloqiy mulohazalar muhokama qilinadi. Maqolada, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni o'z kasbiy va bilimlarida sun'iy intellektdan samarali foydalanishga tayyorlash muhimligi ta'kidlangan.

Tayanch so'z va tushunchalar: Intellektual axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, intellekt, aqliy mashinalar, Sun'iy intellekt integratsiyasi, Tadqiqotga asoslangan ta'lim, Raqamli savodxonlik, Talabaga yo'naltirilgan ta'lim, Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, Hamkorlikda o'rganish, Sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalari

СОДЕРЖАНИЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К РАЗВИТИЮ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

*Абдуллаев Эльмурод Зайлобиддинович
Базовый докторант Андижанского государственного университета.*

В статье Маскур всесторонне анализируется интеграция и влияние искусственного интеллекта (ИИ) в высшем образовании, в частности, в контексте педагогической подготовки. Обсуждаются различные способы улучшения образовательных процессов с помощью ИИ, его роль в повышении квалификации учителей и этические соображения, возникающие в связи с его внедрением. В статье также подчеркивается важность подготовки будущих учителей к эффективному использованию ИИ в своей профессиональной деятельности и знаниях.

Ключевые слова и понятия: интеллектуальные информационные технологии, искусственный интеллект, интеллект, мыслящие машины, интеграция искусственного интеллекта, обучение, основанное на исследовании, цифровая грамотность, обучение, ориентированное на студента, развитие критического мышления, совместное обучение, образовательные инструменты на основе искусственного интеллекта.

THE CONTENT OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR THE DEVELOPMENT OF RESEARCH ACTIVITY IN STUDENTS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE

*Abdullayev Elmurod Zaylobiddinovich
Basic doctoral student, Andijan State University.*

Maskur's article comprehensively analyzes the integration and impact of artificial intelligence (AI) in higher education, particularly in the context of teacher training. It discusses the various ways in which AI can improve educational processes, its role in teacher development, and the ethical considerations that arise from its implementation. The article also highlights

the importance of preparing future teachers to effectively use AI in their professional activities and knowledge.

Keywords and concepts: intelligent information technology, artificial intelligence, intelligence, thinking machines, integration of artificial intelligence, inquiry-based learning, digital literacy, student-centered learning, critical thinking development, collaborative learning, AI-based educational tools.

Kirish. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlari sun'iy intellekt vositasida yanada dinamik ahamiyat kasb etmoqda hamda bugungi kunda barcha oliy ta'lim muassasalarining har bir faoliyat turiga integratsiya qilish borasida ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030"[1] strategiyasi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilab berildi.

Mavzuning dolzarbligi: Pedagogik oliy ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishni ta'minlaydigan tizimli o'zgarishlarning umumiy asosidir. Shunga muvofiq, O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida belgilandi.

Intellektual axborot texnologiyalari – informatikaning kelajagi porloq va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ilmiy va laboratoriya sohasi hisoblanadi. Intellektual axborot texnologiyalarning ilmiy fundamentidagi kalit komponenti sun'iy intellekt (SI) hisoblanadi.[3]

Sun'iy intellekt (SI) – hisoblash mashinalari (HM) ning insonlarga intellektli bo'lib ko'rinadigan narsalarga imkon beradigan konsepsiyalar haqidagi fan. Intellekt – bu ma'lumotlarni qayta ishlash va tasvirlash sohasidagi bilimlarning jamlamasidir.[2] "Sun'iy intellekt" tushunchasi dastlab AQSHda paydo bo'ldi va sekin-asta boshqa davlatlarda ham keng qo'llanila boshlandi. Hozirgi kunda sun'iy intellektni yaratish bo'yicha ilmiy ishlar ko'pgina davlatlarda olib borilmoqda. Sun'iy intellekt haqidagi tasavvur va bu sohadagi izlanishlar "aqliy mashinalar" ishlab chiqarishga ilmiy yondashish bo'lib, birinchi Stanford universitetining (AQSH) professori Djon Makkarti tashabbusi asosida 1956-yili tashkil topgan ilmiy to'garakda paydo bo'ldi.[4]

Intellekt – insonning tafakkur yuritish qobiliyati. Sun'iy intellekt – inson intellektining ba'zi vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan avtomatik va avtomatlashtirilgan tizimlar xususiyatidir. U shaxsning nisbatan barqaror bo'lgan, masalan, axborotni qabul qilish va undan ma'lum masalalarni hal qilishda foydalana olishi kabi aqliy qobiliyatni ifodalaydi.

Bugungi kunda talabalar kundalik hayotda keng tarqalgan sun'iy intellekt mahsulotlari, masalan, ovozli vositalar, grafikalar, identifikatsiya, barmoq izini aniqlash haqida ko'proq ma'lumotga egadirlar. Sun'iy intellekt mahsulotlaridan bo'lajak o'qituvchilar orasida eng ko'p foydalanadiganlari, misol tariqasida turli o'qitish uchun yaratilgan mobil Applarni, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun onlayn o'quv platformalari (Hemis, Moddle)ni keltirib o'tish mumkin. Amazon Prime, Apple Plus, Netflixlar esa butun dunyodagi eng yorqin intellektlarning na'munalari.[2]

Pedagogik amaliyotda aqlli sinflar, robot yordamchilari va boshqa asosiy kelajak Smart mahsulotlari qo'llanilishi ommalashib bormoqda. Sun'iy intellekt o'qitish, o'rganish jarayonida ish yukini kamaytiradi va axborot savodxonligini oshiradi. Albatta, sun'iy intellektni bo'lajak

o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ahamiyati katta bo'lib, kelajakda uning salmog'i yanada ortib boradi. Hozirgi global dunyo pedagogik amaliyotda sun'iy intellektning o'zni, roli, ahamiyati va imkoniyatlarini ilmiy tushunib, kundalik-amaliy faoliyatning ajralmas qismi ekanligini tan olmoqda. Dunyo bo'ylab o'tkazilgan statistik so'rovnomalarga ko'ra ta'lim beruvchilarning 52,1 foizi sun'iy intellekt o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ulkan yordam beradi deb, 32,3 foizi esa sun'iy intellekt ularning ish yuklama darajasini o'rtacha yengillatadi deb hisoblaydi. Ta'limda ishlovchilarning 12,5 foizi sun'iy intellektni butunlay tan oladi.[3] Umuman olganda, o'qituvchilarning atigi 3,1 foizi sun'iy intellekt umuman tan olmas ekan.

So'nggi yillarda butun dunyoda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi rag'batlantirilayotgani sir emas. Akademik konferensiyalar, ilmiy tadqiqotlar va sun'iy intellekt sohasidagi texnik musobaqalar kabi tegishli tadbirlar butun dunyoda shiddatli tarqalmoqda. Ta'limdagi texnologiyalar va ilovalar tezkor yangilanib, kengaytirilmoqda. Bundan tashqari, aqlli mahsulotlarning uzluksiz rivojlanishi odamlarning o'qishi, ishi va hayotiga katta qulaylik hamda innovatsiyalar olib kelyapti. Robototexnika sohasidagi tadqiqotlar ko'plab sun'iy intellekt g'oyalarini rivojlantirishga yordam bermoqda va sun'iy intellekt tadqiqotlarida dunyo davlat modellarini qurish, dunyo davlatlarining o'zgarishi jarayonini tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ba'zi texnologiyalar vujudga kelyapti.[5]

Sun'iy intellektda robototexnikaning holati va ta'sirini hisobga olgan holda, robotlarni dasturlash va xatti-harakatlarni rivojlantirish kabi amaliy tarkibni joriy qilish lozim. Bu esa professional ta'limda talabalarni dasturlashga yanada qiziqishining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ta'lim oluvchilar sun'iy intellektdagi g'oyalar va texnologiyalarni bundanda yaxshiroq tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi.[4]

Internet texnologiyasining rivojlanishi bilan odamlarning axborotlarni qabul qilish usullari, muloqot usullari va o'rganish usullari juda katta o'zgarishlarga duch keldi. Sun'iy intellekt odamlar hayotini boyitdi va odamlarning dunyo haqidagi tasavvurini o'zgartirdi. Avlodlar almashinuvi sharoitida ta'lim oluvchilarning ongi, tafakkuri, positsiyalari ham zamonga mos ravishda dinamik ravishda o'zgarib bermoqda.

Avvalgiga nisbatan yangi davrda til axborotni uzatishning yagona tashuvchisi emas. Og'zaki tildan tashqari, fikr va ma'lumotni yetkaza oladigan tashuvchilarga grafikalar, tasvirlar, tovushlar, imo-ishoralar, belgilar va formulalar kiradi. Sun'iy intellektning rivojlanishi ta'lim va o'qitish uchun yangi yo'llarni ochdi va ta'lim oluvchilarga yangi ko'nikmalarni egallashga yordam bermoqda. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi universitetlarda ko'plab mutaxassisliklar tomonidan qo'llaniladigan vositalarni yangiladi. Ko'pgina professional kurslar talabalarga bilimlarni o'rganish va xotirani rivojlantirish uchun multisensorli ko'rsatmalar beradi va talabalarga raqamli matn, videolar, rasmlar va tovushlar kabi sun'iy intellekt resurslari haqida ma'lumot yetkazadi. O'zlashtirish, tasavvur, his-tuyg'u, ijodkorlik kabi boy fikrlashni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt davrida ta'lim innovatsiyasi talabalarning raqamli ko'nikmalarini kengaytirdi. Sun'iy intellekt ta'lim uchun ommaviy axborot vositalarining yangi shaklini olib keldi. Yangi ommaviy axborot vositalari talabalardan yuqori rasm chizish va o'rganish qobiliyatiga ega bo'lishni talab qiladi, shuningdek, talabalardan ma'lum fotografik qobiliyatlarga ega bo'lishni talab qiladi.

Sun'iy intellektning paydo bo'lishi ta'limning yangi rivojlanish yo'lini ochib berdi, ammo shu bilan birga, ta'lim oluvchilarda ta'lim va tarbiyaning ijodiy rolini kuchaytirish talab etilmoqda. Masalan, ta'lim jarayonida fikrlash mashqlarini takomillashtirish va ijodiy mahoratni oshirish uchun "eskini yangiga o'zgartirish" mazmuni qo'shilishi mumkin bo'ladi. Son-sanoqsiz dalillarni, minglab ko'rsatkichlarni alohida-alohida o'rganib chiqish va ular borasida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish o'ta qiyin vazifadir. Ta'lim tizimiga sun'iy intellektni joriy etish bu tushunchalar haqida ma'lumot olishni ya'nada osonlashtiradi.

Ma'lumki, insoniyat mamlakatning muhim milliy boyligi hisoblanib, uning har

tomonlarni ko'payishi va taraqqiy etishi, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan, professional tayyorgarlikka ega bo'lgan, yangi avlod kadrlarini tayyorlash jarayonini yanada dolzarblashtiradi. Bunda pedagogik oliy ta'lim muhim vazifani bajarib, pedagog kadrlar tayyorlashda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tadbiiq etish, jahon pedagogik amaliyotida tadbiiq etilayotgan texnologiyalarni joriy etish orqali yosh avlodga ta'lim va tarbiya beruvchi mutaxassislarini tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi.[3]

O'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali kelgusi hayotiy-kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning ongida yangilikka intilish, globallashtirib, raqamlashtirilib borayotgan jamiyatda shaxsiy va kasbiy rivojlanishini asosiy e'tibor markazi sifatida qarash hozirgi pedagogik oliy ta'limning muhim vazifasi sifatida qaralmoqda. Sun'iy intellektning imkoniyatlari o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ulkan pedagogik imkoniyatlarni taqdim etadi. O'quvchilarni ilmiy g'oya, ilmiy tadqiqot, ilmiy yangiliklarni o'rganishga yo'naltirish, ularga qiziqish uyg'otish va bunda sun'iy intellekt imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltira olish – bo'lajak o'qituvchilarning metodik, didaktik jihatdan professional tayyorgarligiga bog'liq. Bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat sun'iy intellekt to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, balki ularni turli vaziyatlarda, kontekstlarda qo'llay olish, kasbiy-pedagogik faoliyat mazmuniga keng qamrovli va maqsadli qo'llay olishi zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi bo'lib bormoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt mazmuni, imkoniyatlarini ta'lim sohasiga maqsadli tadbiiq etish murakkab vazifalardan biridir. Bu esa mazkur sohada ko'plab va muntazam ravishda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi. Jumladan, sun'iy intellektning fanlar mazmuniga singdirish, uning imkoniyatlaridan oqilona va mas'uliyatli ravishda foydalanish, sun'iy intellektning ijtimoiy-pedagogik aspektlari muhim ahamiyat kasb etadi.[6]

Pedagogik oliy ta'limda hozirgi texnologik jarayonlar rivojlanishiga hamohang ravishda sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishga doir ilmiy laboratoriyalar shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellektni tadbiiq etish sharoitida pedagogik oliy ta'lim jarayonida faqat mavjud bilimlarnigina o'zlashtirib, so'ngra ilm bilan shug'ullanish emas, balki ta'lim jarayonini ilmiy tadqiqot ishlari bilan bir vaqtda va bir-biri bilan bog'lagan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki sun'iy intellektni tatbiiq etgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni juda ko'p ma'lumotlarga asoslanilgan tarzda amalga oshirilishi tufayli o'quvchi barcha ma'lumot yoki axborotlarni o'zlashtira olmaydi hamda ularni tizimlashtirish imkoniyatiga ham ega bo'lmaydi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tadqiqotchilik qobiliyati deb – bu ilgari noma'lum natijaga ega bo'lgan ijodiy tadqiqot muammosini hal qilish bilan bog'liq, ilmiy sohaga tegishli bo'lgan asosiy bosqichlarni qamrab oluvchi o'qituvchi rahbarligidagi o'quvchilar faoliyatini anglatadi. Talabalarining tadqiqotchilik faoliyati pedagogik jihatdan murakkab, keng qamrovli faoliyat hisoblanadi. Jumladan, tadqiqotchilik faoliyati ilmiy-kreativ faoliyatning sifat xususiyatlaridan biri bo'lib, u o'quvchilar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqotchilik faoliyati insoniyat madaniyatining har qanday sohasida mustaqil, ijodiy o'zlashtirish va yangi faoliyat usullarini qayta qurish jarayonini ham tavsif etadi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'quvchilarni tadqiqot faoliyatiga tayyorlash ta'lim va zamonaviy o'qituvchining eng muhim kasbiy-pedagogik vazifasidir. [5]

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining tadqiqotchilik qobiliyati o'quv-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarida ko'zga tashlanadi. O'quv-tadqiqot bilish bilan bog'liq, ilmiy-tadqiqot esa ijod bilan bog'liq bo'lib, o'quv-tadqiqot faoliyati tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan mustaqil yangi bilimlarni olish, ma'lumotlarni qayta ishlash usullarini o'zlashtirishni anglatadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati esa ijodiy qobiliyatlarini chuqurlashtirishga qaratilgan ixtiyoriylik, qiziqish tamoyillariga asoslangan ilmiy ish shaklini tavsif etadi. Fanlar negizida o'quv-tadqiqot faoliyati tavsif etilsa, ilmiy-tadqiqot ma'lum bir ilmiy muammo negizida amalga oshiriladi. Sun'iy

intellekt ushbu maqsadga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun harakat qila oladigan, ma'lumotlarni o'rganadigan va rivojlanishga moslashadigan hamda tahlil qiladigan tizimdir. Sun'iy intellektning imkoniyatlari keng bo'lib, tibbiyot, sanoat, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, ta'lim, kundalik hayotda keng qo'llanilmoqda, shuningdek tinimsiz ravishda yangi imkoniyatlari kengayib bormoqda. Axborot texnologiyalari sohasiga tegishli sun'iy intellekt cheksiz imkoniyatlarni beradi, insoniyatga qulaylik tug'diradi va aniq dalillar bilan ishlaydi.

Sun'iy intellekt o'quvchilarni dunyoni idrok etish va unga munosabat bildirish jarayonini intensivlashtiradi. U ma'lumotlarga ishlov berish, bashoratlarni yaratishga yo'naltirilgan tizim sifatida bir vaqtni o'zida texnologiya imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalana oladi. Sun'iy intellektning asosiy kamchiligi inson omilining yo'qligi hamda hech qachon "jonli" muloqot qila olmasligi, hissiy intellektga ega emasligi hisoblanadi.[6]

Ta'lim va tarbiya jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish bir qator axloqiy muammolarni yuzaga keltiradi. Uning kundalik-hayotiy faoliyatda tadbqiq etish qamrovi ortib borishi salbiy oqibatlariga va axloqiy tamoyillar buzilishi xavfini oshirib bormoqda. Sun'iy intellektdan foydalanish orqali inson huquqlari, shaxsiy hayot va xavfsizlikning buzilishi kabi axloqiy muammolar yuzaga kelmoqda. O'z navbatida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish foydalanuvchi maqsadiga bog'liq masala bo'lib, foydalanuvchilarda mas'uliyatli munosabatni shakllantirish va rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilar oldida turgan vazifalardan biridir.[7]

Bugungi kunda dunyoda amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar sun'iy intellektning imkoniyatlarini yanada kengligini o'rganib, pedagogik amaliyotga tadbqiq etib bormoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati uchun sun'iy intellektning quyidagi pedagogik imkoniyatlari orqali keltirib o'tish mumkin:

talabalar faoliyatiga sarflanadigan vaqtini tejash, ta'lim oluvchilarga individual yordam ko'rsatish, o'quv jarayonini monitoring qilish, keng ta'lim resurslariga kirish imkoniyati;

dars reja tuzish imkoniyati, nazorat ishlarini tekshirib berish, uy vazifalarini shakllantirib berish, ta'lim oluvchilarga individual yordam ko'rsatish;

o'quv jarayonini monitoring qilish, o'quv loyihalarini shakllantirish, ta'lim metodlarini tanlash, til o'rganishda ko'maklashish;

talabalarning individual o'zlashtirishini tizimli nazorat qilish, yozma ishlarni (insho, bayon va diktant) tekshirish, o'quvchilarni baholash.

Kasbiy-pedagogik faoliyat doirasida sun'iy intellektdan foydalanishda asosiy xavflar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

ta'lim oluvchilarning ma'lumotlarining maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash;

ta'lim oluvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning kamayib ketishi;

raqamli texnologiyalarga qaramlik;

sun'iy intellekt vositalarining ishonchligi va aniqligi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining tadqiqotchilik qobiliyati bu – ilgari noma'lum natijaga ega bo'lgan ijodiy tadqiqot muammosini hal qilish bilan bog'liq, ilmiy sohaga tegishli bo'lgan asosiy bosqichlarni qamrab oluvchi va o'qituvchi rahbarligidagi o'quvchilar faoliyati hisoblanadi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarining tadqiqotchilik qobiliyati o'quv-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarida ko'zga tashlanadi. O'quv-tadqiqot faoliyati tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan mustaqil yangi bilimlarni olish, ma'lumotlarni qayta ishlash usullarini o'zlashtirishdir, ilmiy-tadqiqot faoliyati esa ijodiy qobiliyatlarini chuqurlashtirishga qaratilgan ixtiyoriylik, qiziqish tamoyillariga asoslangan ilmiy ish shakli. Sun'iy intellekt ushbu maqsadga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun harakat qila oladigan, ma'lumotlarni o'rganadigan va rivojlanishga moslashadigan va tahlil qiladigan tizimdir.[7]

Sun'iy intellektni talabning raqobatchisi sifatida qabul qilish noo'rin hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, sun'iy intellektning asosiy kamchiligi inson omilining yo'qligi va u hech qachon "jonli" muloqot qila olmaydi hamda hissiy intellektga ega emasligi bilan tavsiflanadi. Axborot texnologiyalari sohasiga tegishli sun'iy intellekt cheksiz imkoniyatlarni beradi, insoniyatga qulaylik tug'diradi. Sun'iy intellektda ijodkorlikdan ko'ra aniq faktlar bilan ishlashi ustuvorlik kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlanishda sun'iy intellektning imkoniyatlaridan quyidagilar foydali va samarali deb, hisoblanadi:

imtixonlarni va uy vazifalarini avtomatlashtirilgan baholash;
shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'llari va moslashuvchan ta'lim tizimlari;
chatbotlar va virtual repetitorlar;
o'quv jarayonini kuzatish uchun o'rganish tahlili va ma'lumotlarni tahlil qilish.

Xulosa. Hozirgi kunda oliy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellekt mazmunini faoliyat mazmuniga singdirishda quyidagi chora-tadbirlar maqsadli hisoblanadi: sun'iy intellekt vositalarini qo'llash bo'yicha amaliy seminarlar; sun'iy intellekt foydalanishga doir nazariy kurslar; sun'iy intellekt mutaxassislari va amaliyotchilar bilan amaliy mashg'ulotlar; onlayn kurslar va vebinarlar.

Adabiyotlar/Литература/References:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-son Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son; 02.04.2021-y., 06/21/6198/0269-son.

Abdulkarimov A., Rashidov A. Ma'lumotlar bazalarining biznesini tashil etish. "Computer science and engineering technologies" International scientific and technical conference on October 14-15, 2022. Web: <http://journal.jbnuu.uz>.

Bekmuratov Q.A., Bekmuratov D.Q., Axrorov M. Sun'iy intellekt. Oliy o'quv yurti talabalari uchun uslubiy qo'llanma. – Samarqand, TATU Samarqand filiali, 2021. – 88 b.

Vickers E. The strange child: education and the psychology of patriotism in recessionary Japan by Andrea Gevurtz Arai," Monumenta Nipponica, vol. 72, no. 1, pp.146-152, 2017.

Makridakis S. The forthcoming artificial intelligence (AI) revolution: its impact on society and firms. Futures, vol. 90, no. jun.. 2017. – Pp. 46-60.

Fernandez P. Through the looking glass: envisioning new library technologies" how artificial intelligence will impact libraries, Library Hi Tech News, vol. 33, no. 5. 2016. – Pp. 5-8.

Xo'jaqulov T.A., Malikova N.T. Sun'iy intellekt. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 216 b.

YENGIL ATLETIKA SPORT TO‘GARAKLARIDA SHUG‘ULLANUVCHI 15-16 YOSHLI QIZ BOLALARINING JISMONIY TAYYORGARLIK KO‘RSATKICHLARI

(Umum ta’lim maktablari misolida)

Abdullayev Mehriiddin Junaydulloyevich, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), professor

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yengil atletika sport to‘garaklarida shug‘ullanuvchi 15-16 yoshli qiz bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajalari, shakillanib borish ko‘rsatkichlari, tayyorgarlik jarayonlarining dinamikasi, funksional holatlari va koordinatsion qobiliyatlarini aniqlashga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy sifatlar, kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamkorlik, jismoniy tayyorgarlik, rivojlanish ko‘rsatkichlari.

ПОКАЗАТЕЛИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ДЕВОЧЕК 15-16 ЛЕТ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ ЛЁГКОЙ АТЛЕТИКОЙ В СПОРТИВНЫХ КРУЖКАХ

(На примере общеобразовательных школ)

Абдуллаев Мехриддин Джунайдуллоевич, заведующий кафедрой теории и методики физической культуры Педагогического института Бухарского государственного университета, Д.ф.н.н. (PhD), профессор.

Аннотация: В данной статье представлена информация об уровне физической подготовленности, показателях развития, динамике соревновательных процессов, функциональном состоянии и координационных способностях девочек 15-16 лет общеобразовательных школ, занимающихся в спортивных кружках по лёгкой атлетике.

Ключевые слова: физические способности, сила, быстрота, гибкость, выносливость, физическая подготовленность, показатели развития.

INDICATIONS OF PARTICIPANTS OF PHYSICAL FITNESS OF 15 – 16 YEAR OLD GIRLS INVOLVED IN ATHLETIC CLUBS

(on the example of secondary schools)

Abdullayev Mekhriiddin Junaydulloyevich, the Head of Department of Theory and Methods of Physical culture in the Bukhara State University of Pedagogical Institute (PhD) professor.

Annotation: This article provides information on determining the level of physical fitness, indications of formation, dynamics of preparation process, functional conditions and coordination abilities of 15-16- year old girls involved in athletic physical clubs in secondary schools.

Keywords: Physical abilities, strength, agility, flexibility, endurance, physical fitness, indications of development.

Dolzarbli: Mamlakatimizda xotin qizlar sportini takomillashtirish, rivojlanib kelayotgan davlatlar qatoridan asosiy o‘rinlarni egallab borishimiz, umum ta’lim maktablarida tahsil olib kelayotgan yosh qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajalarini to‘g‘ri belgilash va ularning samarasini oshirib borish, rivojlanish hamda yuksalishning asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda[1,2,5]. Yurtimizda xotin qizlar sportini rivojlanitirish va takomillashtirish bo‘yicha qulay imkoniyatlar yaratib berilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tahsil olib

kelayotgan 8 sinf qizlarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'tayotgan nazariy va amaliy darslari hamda yengil atletika to'garaklarida olib borayotgan mashg'ulot jarayonlari, qizlarning jismoniy rivojlanish darajalarini aniqlash, jismoniy sifat ko'rsatkichlarini o'sib borish siklogrammalarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Jismoniy sifatlarning takomillashib borishi va rivojlanish darajalarini tekshirish maqsadida ko'plab olimlarimiz o'z taqqiqot ishlarini olib borishgan[2,3,4,5,7]. Ammo o'tkazildan tadqiqot ishlariga qaramay umum ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan yosh qizlarning jismoniy sifat darajalarida sezilarli darajada yuksalish jarayonlari davomli bo'lmayotganligi aniqlandi. Bu esa yangi amaliyotlarning qo'llanilishi lozimligini anglatadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalarining asosiy dolzarbligi umum ta'lim maktablarida tahsil olayotgan 8 sinf qizlarining jismoniy tarbiya darslari hamda sport to'garaklarini tizimli joriy etish masalalari, ulardagi funksional qobiliyatlarini hisobga olgan holda sport to'garaklariga to'g'ri yo'naltirish zaruriyati borligi ahamiyatlidir[10,12]. Jismoniy sifat ko'rsatkichlari jumladan kuch, chaqqonlik, tezkorlik, chidamkorlik, egiluvchanlik kabi sifatlarning rivojlanish darajalarini aniqlash orqali kelgusida yuksak natijalarni qayd etish masalalari ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Umum ta'lim maktablari orasida 8 sinf qizlarining jismoniy sifat darajalarini aniqlash, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash.

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib biz o'z oldimizga quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

Adabiyotlar tahlilini qilish va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarida muammolarni aniqlash;

Jismoniy rivojlanish bosqichlari qay darajada ekanligini aniqlash;

O'tkazilgan tadqiqot natijalari yuzasidan aniqlangan muammolarga kerakli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.


Tadqiqotning obyekti: 8 sinf qizlarining jismoniy tarbiya dars jarayonlari va sport to'garak mashg'ulotlari.

Tadqiqotning predmeti: 8 sinf qizlarining jismoniy tarbiya darslarida hamda sport to'garak mashg'ulotlari jarayonida jismoniy tayyorgarlik dinamikasini o'rganish.

Tadqiqotning usullari: Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, matematik statistik tahlil, anketa so'rovnomalari, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, psixologik nazotar.

Taqqiqotni tashkillashtirish: Tadqiqotlarda Buxoro viloyati Buxoro shaxar xalq ta'lim bo'limiga qarashli 35-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi, 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, 29-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi, 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, 12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida yengil atletika bo'yicha to'garak mashg'ulotlarida shug'ullanuvchi 8 sinf o'quvchi qizlari ishtirok etishdi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili: O'tkazilgan tadqiqot ishlarida umum ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 8 sinf qizlarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ulardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish, yurtimizga munosib hizmat qiladigan yutuk kadrlarni tayyorlash, sog'lom avlod va sog'lom muhitni shakllantirish jarayonlari, 8 sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanish jarayonlarini to'g'ri shakllantirish orqali samarali natijalar qayd etiladi[6,7]. 8 sinf qizlarining jismoniy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida dastlab arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash amaliy mashg'ulot sinovi olindi. (1 rasm)




1 rasm 8-sinf qizlarida kuch jismoniy sifatining rivojlanish darajalari

Berilgan amaliy mashg'ulot jarayonlarida 8 sinf qizlarining jismoniy sifat darajalari quidagi natijalarni ko'rsatdi. Sinov mashqi yakuniga asosan qizlarning 20% qismi berilgan topshiriqni bajara olmay jismoniy sifat ko'rsatkichlari qoniqarsiz darajada deb topildi. O'quvchi qizlarning 25% qismida esa ushbu natija qoniqarli ekanligi aniqlanib kuch jismoniy sifat darajalari sustligi qayd etildi. Umumiy sinov natijalariga ko'ra umum ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 8 sinf qizlarining jismoniy ko'rsatkichlarining qariyb 50% ga yaqin qismida kuch jismoniy sifati sustligi aniqlandi. (1 rasm da ko'rsatilgan diagrammaga qarang)

Keying jismoniy sifat darajalari, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida gardishni belda 1 daqiqa davomida aylantirish sinov mashg'ulotlari olindi. Ushbu olingan sinov mashqida egiluvchanlik va chidamkorlik jismoniy sifatlarining rivojlanib borish ko'rsatkichlari aniqlanadi. Olingan sinov yakuniga ko'ra 8 sinf qizlarining 20% qismida jismoniy sifat ko'rsatkichlari qoniqarsiz darajada ekanligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich darajalarini takomillashtirib borish chora tadbirlari ko'rilishi lozim. 8 sinf qizlarining 30% da esa qoniqarli natija qayd etildi. Olingan ko'rsatkichlar yakunida egiluvchanlik va chidamkorlik sifatleri qizlarning 50% qismida sust darajada shakillanib borayotgani aniqlandi.

Navbatdagi jismoniy sifat darajalarini aniqlash maqsadida 30 m masofaga yugurish sinov mashqi qo'llandi. (2 rasm)



2 rasm 30 m ga yugurish. Umum ta'lim maktablarida tahsil oluvchi 8 sinf qizlarida tezkorlik jismoniy sifatini rivojlanganlik ko'rsatkichlari

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida 30 m masofaga yugurish sinov amaliyotida 8 sinfda o'qiyotgan qizlarning tezkorlik jismoniy sifati 30% qizlarda qoniqarsiz darajada deb topildi. Jismoniy sifat ko'rsatkichlari sust darajada rivojlanayotganligiga belgilangan mashg'ulot jarayonlarini tizimli joriy etilmayotganligi ham asosiy sabab bo'lib hisoblanadi. O'tkazilgan sinov amaliyotini qoniqarli darajada bajargan qizlar 25% ni tashkil etishdi. Tezkorlik jismoniy sifati va tayyorgarlik darajalari 8 sinf qizlarida 30 m ga yugurish amaliy sinov mashg'uloti holatiga ko'ra 55% ni tashkil etib sust holatda rivojlanib borayotgani aniqlandi.


O'tkazilayotgan tadqiqot ishida navbatdagi sinov mashqi turgan joyda uzunlikka sakrash orqali olindi. Olingan natijalar asosiga ko'ra 8 sinf qizlarining jismoniy sifat darajalari aniqlandi. Ushbu sinovda qizlarning 25% qismi belgilangan masofaga sakray olishmadi hamda kuch jismoniy sifatining past darajada ekanligini namoyon bo'ldi. 30% 8 sinf qizlarida esa bu ko'rsatkich qoniqarli baholanib jismoniy sifat darajalari sust deb baholandi. Turgan joydan uzunlikka sakrash nazorat mashqini 8 sinf qizlarining umumiy 50% dan ortiq qismi past natijalarni qayd etishib jismoniy tayyorgarlik darajalari qoniqarsiz deb topildi.

Navbatdagi jismoniy sifat darajalarini aniqlashda yugurib kelib uzunlikka sakrash amaliyoti qo'llandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki 8 sinf qizlarining 25% da kuch jismoniy sifatlari yahshi rivojlanmaganligi va 30% qizlarda ushbu jismoniy sifat ko'rsatkichlari qoniqarli baho bilan qayd etilib umumiy ko'rsatkich 50% dan ortiq qizlarda pastligi aniqlandi.

To'pni uzoqqa uloqtirish sinov mashqi orqali kuch jismoniy sifat darajalarini aniqroq baholashimiz mumkin. O'tkazilgan tajriba yakuniga asoslanib 8 sinf qizlarining jismoniy sifat darajalari 20% o'quvchilarda yahshi rivojlanmagan deb topildi. Ushbu ko'rsatkichni qayd etgan qizlar belgilangan masofaga to'pni itqitolmay sinov mashqini bajara olishmadi. 8 sinf qizlarining 30% esa past natija bilan baholanib kuch jismoniy sifat ko'rsatkichlarini qoniqarli natijaga topshirishdi. Umumiy kuch jismoniy sifati bo'yicha olingan natijalar 8 sinf qizlarida past darajada ekanligi aniqlandi[3,4,5,6,7,8].

Umum ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 8 sinf qizlarining jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat darajalari, rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida so'ngi nazorat sinov mashqi olindi. Ushbu nazorat sinov mashqi to'pni nishonga uloqtirish orqali amalga

o'shirildi. O'tkazilgan sinov mashqi yakuniga ko'ra o'quvchi qizlarning 30% qismida aniqlik jismoniy sifatlarining rivojlanganlik ko'rsatkichlari past darajada ekanligi aniqlandi va ular berilgan nazorat sinovidan o'ta olishmadi. Ushbu jismoniy sifat ko'rsatkichlari davomida 8 sinf qizlarining 30% belgilangan vazifani qoniqarli bajarishib past baholar bilan belgilandilar. Aniqlik sifati qizlarning 60% da past darajada shakillanib kelayotgani o'tkazilgan tadqiqot yakunida namoyon bo'ldi. (3 rasimga qarang)



3 rasm To'pni nishonga uloqtirish. Umum ta'lim maktablarida tahsil oluvchi 8 sinf qizlarida aniqlik va kuch jismoniy sifatini rivojlanganlik darajasi

Ushbu ko'rsatkich o'sib kelayotgan yosh qizlarning kelajakda erishishi mumkin bo'lgan yuqori natijalari va yutuqlariga ulkan to'siq bo'lib xizmat qilishiz ayni haqiqatdir. Tadqiqotning yakunida 8 sinf qizlartining jismoniy sifat darajalari, jismoniy tayorgarlik ko'rsatkichlari qoniqarsiz ekanligi aniqlandi.

XULOSA

Umum ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 8 sinf qizlarining jismoniy tayorgarlik ko'rsatkichlari, rivojlanish darajalari, funksional holatlari, ularda kechayotgan psixologika jarayonlari yosh hususiyatlariga nisbatan sust darajada rivojlanib borayotganligi aniqlandi. Jismoniy sifat darajalarining pastligi mashg'ulot jarayonlarining noto'g'ri olib borilayotganidan dalolat beradi. Jismoniy tarbiya darslari hamda sport to'garaklarida yosh hususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rgazmaliylik tamoyillari va o'yin usulublaridan foydalangan holda dars mashg'ulotlarining izchilligini saqlash, funksional jihatlarni hisobga olib mashqlarni bosqichma bosqich amalga oshirish, sport o'yinlarini qo'llagan holda mashg'ulotlarni olib borish, shuningdek yangi innavatsion texnologiyalardan unumli foydalanib mashg'ulot jarayonlarini tizimli joriy etish zaruriyati borligi aniqlandi.

Umum ta'lim maktablarida taxsil olib kelayotgan o'quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya darslari va sport to'garaklarini bosqichma bosqich davlat talim standartlari asosida olib borilishi, hamda mahalliy sharoitlarni, o'quvchilarning jismoniy ko'rsatkichlarini, jinsini, yoshini va psixologik holatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini amalga oshirishning taminlanishi, ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida asosiy vazifalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 4 сентябрдаги “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги (янги тахрири) қонуни”. Б.29.

Abdullaev, M. J. (2020). Characteristicsages. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(11).

Abdullayev, M. J., Berdiyev, O. I., & Omonova, N. R. (2021). Methodology Of Organization Of» Physical Education And Sports» Lessons In Higher Educational Institutions. *The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI, 3(02), 312-320.*

Abdullaev M. J. Methodology of application games in the training of young athletes // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.* – 2020. – Т. 8. – №. 11.

Abdullaev M. J. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 11.

Tajibaev, S. S., Abdullaev, M. J., Niyazov, A. T., & YuNiyazova, O. (2020). This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(6), 2907-2914.*

Бальсевич В.К., Лубышева Л.И. Физическая культура: молодежь и современность // *Теор. и практ. физ. культ, - Т., 1995.-2-7 б.*

Богданова В.А. Дифференцированный подход в физкультурном образовании младших школьников. Автореф. дис. кан. пед. наук. Тюмень, 2001. - 22 с.

Гавердовский Ю. К. в соавт. Спортивная гимнастика (мужчины и женщины). Примерные программы спортивной подготовки для ДЮСШ, СДЮШОР и ШВСМ. Москва 2005. – 511 с.

Губа В.П. Оценка физического развития детей по данным морфологических наблюдений // *Теория и практика физической культуры, №3. – М., 1998. – С. 32-33.*

Гужаловский А.А. Развитие двигательных качеств у школьников. – Минск: Нар. расцвета, 1978. – С. 88.

Лях В.И. Сенситивные периоды развития координационных способностей детей в школьном возрасте // *Теория и практика физической культуры, -№ 3. – М., 1990. – С.15-17.*

SPORT KURASHIDA MASHG‘ULOT VA MUSOBOQA FAOLIYATINI BOSHQARISH ASOSLARI

Adilov Sarvar Qaxramonovich

p.f.d. (DSc), dotsent, O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sport kurashida musobaqa va mashg‘ulot faoliyatini boshqarish hamda optimallashtirish uslubiyatini samaradorligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlari: sport kurashi, optimallashtirish uslubiyatini samaradorligi, musobaqa va mashg‘ulot faoliyatini boshqarish.

ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ И ТРЕНИРОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СПОРТИВНОЙ БОРЬБЕ

Адилов Сарвар Кахрамонович

д.п.н. (DSc), доцент, Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

Аннотация. В данной статье представлена эффективность методики оптимизации и управления соревновательной и тренировочной деятельности в спортивной борьбе.

Ключевые слова: спортивная борьба, эффективность методики оптимизации, управление соревновательной и тренировочной деятельностью.

BASICS OF MANAGING TRAINING AND COMPETITION ACTIVITIES IN SPORTS WRESTLING

Adilov Sarvar Kakhramonovich

doctor of pedagogical sciences (DSc), docent

Uzbek State University of physical education and sports

Annotation. In this article presents the effectiveness methods of optimization and management of competitive and training activities in wrestling.

Key words: wrestling, effectiveness methods of optimization, management of competitive and training activities.

Dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasining maqsadli siyosati tufayli jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jahon miqyosida dunyo mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sportga katta e‘tibor qaratilayotganligi, Olimpiya o‘yinlari, Jahon chempionatlari, Osiyo chempionatlari va nufuzli xalqaro musobaqalarning o‘tkazilishi barcha yoshlarning qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

Sport kurashida sport musobaqalarining tez sur‘atlar bilan o‘sib borishi kuzatilmoqda, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligining rivojlanish tendentsiyalari va samaradorligi to‘g‘risida obyektiv ma‘lumot olish, sportchilarni tayyorlashning yangi jihatlaridan xabardor bo‘lish muammosi juda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, raqobat faolligini tahlil qilish bo‘yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmayotganligi, sport kurashlari bo‘yicha mashg‘ulotlar jarayonini rejalashtirish va tashkil etishning zamonaviy hamda innovatsion usullarining yo‘qligi boshqaruv tizimiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi vaqtga kelib, sport kurashida maxsus trenajyorlar va mashqlardan foydalanishga asoslangan kurashchilarning kuch chidamliligini rivojlantirish texnologiyalarini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Sport kurashlarida maxsus trenajyorlar va mashqlardan foydalanish asosida kurashchilarning kuch chidamliligini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik kuzatishlar olib borish ilmiy tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Yuqori sport yutuqlarining nufuzi, yirik xalqaro musobaqalarda raqobatning kuchayishi, mashg'ulotlar va raqobat yuklamalarining muttasil ortib borishi, kurash geografiyasining kengayishi hozirgi bosqichda yuqori darajadagi malakali sportchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruratini belgilab bermoqda.

Yuqori samaradorlik sporti aniq shaxslar va umuman xalqning genetik iste'dodi, jamiyat darajasi hamda ijtimoiy tuzilishining ko'rsatkichi bo'lishi lozimdir. Mashg'ulot texnologiyalarini har tomonlama takomillashtirish yo'llari to'g'risidagi yangi ilmiy g'oyalar tizimini yaratish va hayotga tadbiiq etish orqali yuqori malakali sportchilarni tayyorlashni monitoring qilish hamda boshqarish nazariyasi va metodologiyasini yangilanishini ta'minlash zarur.

Zamonaviy kurashda muvaffaqiyatga erishish sharti bir qator tadqiqotlar mavzusi bo'lgan raqobat faolligini baholash, texnik va taktik mahoratning o'sishini bashorat qilish masalalarini hal qilishdan iboratdir [1,5]. Mazkur ishlarning mualliflari kurashchilar tayyorgarligining bir qancha jihatlarini belgilovchi har xil turdagi namunaviy xususiyatlarni ishlab chiqdilar [2,3]. Biroq, ushbu ko'rsatkichlarning barchasi tizimga kiritilmagan, chunki turli talqinlarga, turli reyting shkalalariga, ta'riflarga ega bo'lib, mazkur yondashuv ularni tizimli qo'llashni juda murakkablashtiradi [5].

Zamonaviy sharoitda kurashchi mahoratining eng muhim mezonlaridan biri musobaqaning barcha bosqichlarida baholangan usullarning barqaror ishlashi hisoblanadi. Kurashda texnik-taktik harakatlar ishonchligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan deyarli barcha mutaxassislar kurashchilarning sport yutuqlari darajasini oshirishning asosiy elementlaridan birini butun musobaqa davomida hujum texnikasini barqaror bajarish omili deb hisoblaydilar.

Musobaqa qoidalari kurashchilarning musobaqa faoliyatini amalga oshirish shartlarini tartibga soluvchi asosiy ishchi hujjat sifatida olib, shuni ta'kidlash kerakki, qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar qat'iy asoslangan bo'lishi va sportchilarni tayyorlash usullarini takomillashtirish yo'llarini oldindan belgilab qo'yishi kerak. Bundan tashqari, bunday o'zgarishlar sportchilar tanasining ushbu bellashuvlar ta'sirida yuzaga keladigan turli tizimlarining ijobiy yoki salbiy dinamikasini hisobga olgan holda, raqobatbardosh bellashuvlar mazmunini chuqur tahlil qilish asosida amalga oshirilishi kerak.

Bellashuvlarning ko'ngilochar ahamiyatini oshirish maqsadida, Xalqaro kurash federatsiyasi tomonidan erkin kurash bo'yicha musobaqalar qoidalariga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar kurashchilar tomonidan qo'llaniladigan texnik harakatlar arsenalining sezilarli darajada qisqarishiga va kurash intensivligining oshishiga olib keldi. Musobaqalarning yangi reglamenti kurashchilarning musobaqa faoliyati muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillar tarkibini biroz o'zgartirdi.

Kurash bo'yicha mutaxassislarning fikricha, sportchilarning yuksak mahorati shundaki, ular gilamda improvizator bo'lib, raqiblari chigallashib ketadigan taktik dunyoqarashi tufayli ular turli xil labirintlar quradilar [1,2,4]. O'z rejalarini o'z vaqtida tan olish, 2-3 harakatda raqiblar hujumda qanday harakatlar qilishlarini oldindan bilib olishadi. Har xil taktik kombinatsiyalar, variatsiyalar va komplekslarning keng qo'llanilishi (har birining arsenalida 3-4 ta imzo, 2 ta tik holatda va 1-2 ta parterda) ularni daxlsiz qiladi. Kurashning ushbu yo'nalishi hozirda eng ilg'or bo'lib, kurash bellashuvlarini o'tkazish uchun yangi talablarga javob beradi. Bir qator mualliflar fikricha, kelajakda kurashchilarning individual imkoniyatlarini oshirish zarurati yanada ortadi [1,2,4].

Kurashchilarning individual imkoniyatlarini chuqur takomillashtirish va ro'yobga chiqarish bosqichlarida amaliy ishlarning muhim xususiyati uning har bir kurashchining o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda tanlanishidir. Ushbu bosqichlarda guruh yondashuvi hujum harakatlarining texnik va taktik arsenalini takomillashtirishda tobora ko'proq individual yondashuvga o'rin bermoqda.

Sportchilarning tayyorgarligini boshqarish tizimining eng muhim elementlaridan biri bu nazorat bo'lib, u sportchilarning tayyorgarligining turli jihatlarini, mashg'ulotlarga va

raqobatbardosh yuklamalarga bo‘lgan reaksiyalarini, mashg‘ulot jarayonining samaradorligini, shuningdek, sportchilarning tayyorgarligini baholash bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar majmui sifatida tushuniladi. Sportchilarning texnik xususiyatlarini hisobga olgan holda sportdagi nazorat, sportchining holati va uning dinamikasi haqida obyektiv, har tomonlama ma‘lumot olish uchun mashg‘ulot jarayonining tarkibiy bo‘linmalarida (mikrosikl, mezosikl, makrosikl) qo‘llaniladigan turli xil pedagogik nazorat turlarini (bosqichli, joriy, operativ) amaliy amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayoni tobora ilmiy-amaliy izlanish xarakteriga ega bo‘lib bormoqda, bu sport mashg‘ulotlarini tashkil etish va rejalashtirishga ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Sport faoliyatini axborotlashtirish sharoitida individual ong tomonidan axborotni qabul qilish va qayta ishlash usullari haqida savol tug‘ilishi tabiiy. Sport kurashlari bo‘yicha bu savolga javob birinchi navbatda ma‘lumot to‘plashga intiladiganlarni (minimal xarajat bilan) qiziqtiradi, ammo bu sportchining texnik mahoratini shakllantirish muammolari bilan shug‘ullanadigan murabbiylar va sportchilar – o‘qituvchilar uchun ahamiyatli emas.

Kompleks nazoratning barcha turlari (bosqichli, joriy va operativ) aniq amaliy muammolarni hal qilishda sportchining motor faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan bo‘lishi kerak. Mashg‘ulot jarayonini boshqarish sport mashg‘ulotlari jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik ta’sir to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning mavjudligini nazarda tutadi. Pedagogik ta’sir sportchilarning tana funksiyalari holatidagi rejalashtirilgan o‘zgarishlarga mos kelishi kerak, bu esa pirovard natijada mashg‘ulot jarayonining samaradorligini va musobaqa faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydi. Pedagogik ta’sirni rejalashtirish va o‘quv-mashg‘ulot jarayonini dasturlash asosini kompleks nazorat jarayonida olingan ma‘lumotlar tashkil qiladi.

Sport pedagogikasida sport yutuqlarining o‘shishi sharoitida insonga har qanday sharoitda ham o‘z salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun harakatni erkin tanlash huquqiga ega ekanligini anglab yetishiga yordam beradigan ta’lim va tarbiya usullarini ishlab chiqish muammosi yanada keskin paydo bo‘lmoqda.

Ma‘lumotni uzatishda vaziyatning to‘liq imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish va shaxsni ijobiy faollashtirish uchun barcha sa’y-harakatlarni takomillashtirishi kerak. Ushbu yondashuv qanchalik ijodiy bo‘lsa, muvaffaqiyatga erishish imkoniyati shunchalik katta bo‘ladi.

Sport tayyorgarligi nazariyasi va metodikasi sohasidagi yetakchi mutaxassislarining fikricha, sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sportchilarning jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish va tahlil qilishning yangi, yuqori samarali vosita, usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hisoblanadi.

Sport fanida axborot texnologiyalarining rivojlanishi turli xil psixodiagnostika usullari, avtomatlashtirilgan nazorat va tahlil usullari, organizmning qisqa muddatli va uzoq muddatli moslashuv jarayonlarini simulyatsiya qilish dasturlari, ekspert tizimlarini ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat individual tipologik xususiyatlarni diagnostika qilish, sportchilarning tayyorgarligini baholash, shuningdek, sport mashg‘ulotlari tizimining individual tarkibiy qismlarini modellashtirish, prognozlash, loyihalash muammolarini hal qilish o‘quv-mashg‘ulot jarayonining samaradorligini ham baholash imkonini beradi.

Malakali kurashchilarning musobaqa faoliyatini chuqur o‘rganish muhimligini zamonaviy musobaqa qoidalari kurash bahslari shiddatining sezilarli darajada oshishiga olib kelinganini ta’kidlaydi. Sport fanining yetakchi mutaxassislari va murabbiylar sportchilarning musobaqa faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini batafsil o‘rganish asosida o‘quv-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga intiladi. Shu holatni inobatga olib, kurashchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning texnik-taktik tayyorgarligini boshqarishning maxsus tizimi belgilandi. Uning mohiyati individuallashtirilgan faoliyatning muhim

tomonlarini va sportchilarni tayyorlashda rejalashtirilgan maqsadlarga erishish yo'llarini aniqlashdan iborat. Mazkur holat natijasida sportchilarning maxsus-jismoniy, texnik-taktik va boshqa tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar oshdi. Amalga oshirilgan hujum texnikasi sonining ko'payishi tufayli kurashchilar ochkolar bo'yicha biroz ustunlik bilan tez-tez g'alaba qozona boshladilar. Bellashuvni baholashda ogohlantirishlar va majburiyatlar soni kam emas. Bellashuv uslubi ham o'zgardi va hujum harakatlarining murakkab arsenalini rag'batlantirish boshlandi.

Mualliflarning ta'kidlashicha, bugungi kunga qadar har bir vazn toifasi bo'yicha yagona modelga eng yaxshi ko'rsatkichlar bo'yicha tanlab olingan yuqori malakali sportchilarning raqobatbardoshlik faoliyatining namunaviy ko'rsatkichlari aniqlangan [1,3,5]. Shu bilan birga, musobaqa qoidalaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda kurashchilarning raqobat faolligini tavsiflovchi namunaviy qadriyatlar to'plamini yanada chuqurroq ishlab chiqish talab etiladi.

Raqobat faoliyatini tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab eksperimental va tadqiqot ishlari to'plangan. Ulardan kelib chiqib, texnik va taktik harakatlardan foydalanish variantlarini belgilash, sport mahoratini oshirish uchun yangi zaxiralarni izlash kerak. Bellashuvda berilgan faollik darajasi bilan raqobatbardosh faoliyatni modellashtirish texnik va taktik tayyorgarlikning keng ko'lamlı jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishga imkon berishi ham muhimdir. Bu, ayniqsa, raqobatbardosh bellashuvlarning g'ayri oddiy yuqori faolligi, ularning ta'lim va mashg'ulot sharoitidagi shunga o'xshash ishlardan sezilarli farqi bilan bog'liq holda muhimdir.

Tadqiqot maqsadi: Kurash bo'yicha musobaqa va mashg'ulotlarni optimallashtirish hamda boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti va predmeti: malakali kurashchilarning musobaqa va o'quv-mashg'ulot faoliyati.

Ilmiy yangilik:

- vazn toifalari va bellashuv uslubini hisobga olgan holda malakali kurashchilar o'rtasida hujum harakatlarining texnik va taktik arsenalida individual farqlar aniqlandi;

- raqobatbardosh va o'quv faoliyatini optimallashtirish hamda boshqarishda maxsus mashqlardan foydalangan holda kurashchilar uchun metodologiya ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi;

- yuqori malakali kurashchilarning texnik shart-sharoitlarini takomillashtirish uchun innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda kurashchilarning musobaqa hamda o'quv-mashg'ulot faoliyatini optimallashtirish va boshqarish metodikasi ishlab chiqildi;

- malakali kurashchilarning musobaqa faoliyatini namunaviy ko'rsatkichlari belgilandi;

- "BZA" va "WREST" ixtisoslashtirilgan kompyuter dasturlari yordamida kurashchilarning raqobat faoliyatini ko'rsatkichlarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish metodikasi ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi.

Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot oldidan quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi:

- 1..Musobaqa qoidalaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda malakali kurashchilarning musobaqa va mashg'ulot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

- 2..Vazn toifalari va kurash uslubini hisobga olgan holda malakali kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligining individual xususiyatlarini aniqlash.

- 3..Ishlab chiqilgan usulning samaradorligini eksperimental asoslash kurash bo'yicha musobaqa va mashg'ulotlarni optimallashtirish hamda boshqarish.

Yuqoridagilar bizni turli vazn toifasidagi kurashchilar tomonidan bellashuvlarining har bir daqiqasida, davr va umuman bellashuv uchun bajariladigan texnik-taktik harakatlarning miqdor va sifat xususiyatlarini o'rganishga undadi. Olingan faktik materiallar asosida kurashdagi texnik-taktik harakatlar miqdorining samaradorligi aniqlandi. Malakali kurashchilarning hujum harakatlarining texnik va taktik arsenalining samaradorligini oshirish maqsadida kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi mazmunida tezlik va kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar hajmi kamayganligi aniqlandi.

Tahlil qilishda o'zimizning pedagogik kuzatishlarimizdan va videoyozuv materiallaridan ham foydalandik. Sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligining barcha o'rganilgan parametrlari har bir vazn toifasi uchun alohida hisoblab chiqilgan. Keyin ular uchta vazn toifasiga bo'lingan: (yengil vaznda), (o'rta vaznda) va (og'ir vaznda). Kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi to'g'risida xolis ma'lumotlar olish uchun xalqaro va respublika miqyosidagi musobaqalar vazn toifalari hisobga olingan holda va SD ko'rsatkichlarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish usulidan foydalangan holda bellashuv daqiqalari, har bir davr, bahslar bo'yicha tahlil qilindi.

O'quv-mashg'ulot, nazorat va bellashuvlarda kurashchilarning raqobat faoliyatini avtomatlashtirilgan tahlil qilish metodikasi joriy etildi hamda sinovdan o'tkazildi, bu esa TTH ning tezkor boshqaruvini qurish sxemasi asosida SD ko'rsatkichlari to'g'risida ishonchli ma'lumotlardan aniq foydalanishni ta'minladi va keyinchalik turli xil xatolarni tuzatdi. O'quv-mashg'ulot jarayonining darajalari, o'quv-mashg'ulot topshiriq kodlari yordamida kurashchilarning texnik-taktik arsenali individuallashtirildi.

Axborot ta'minoti asosida kurashchilarga o'zaro bog'liq axborot manbalari, usullari va vositalari to'plami taqdim etildi. Avtomatlashtirilgan tahlil va axborot ta'minotining SD ni tavsiflovchi ko'rsatkichlar bilan o'zaro ta'siri orqali doimiy aloqa ta'minlandi.

Malakali kurashchilarning o'quv-mashg'ulot, nazorat va bellashuv bahslarida 3 turdagi kurashchilar uchun axborot ta'minotidan foydalangan holda umumiy e'tibor qaratildi. Kurashchilarning muvaffaqiyatli chiqishlari va texnik usullarni bajarish samaradorligini oshirishning ajralmas sharti - bu kurashchilarning SD da tez-tez qo'llaniladigan texnik usullarning miqdoriy tarkibini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bunda kurashning texnik imkoniyatlarini optimallashtirishga qaratilgan individual kurash uslubini hisobga olgan holda nisbat qo'shimcha ravishda taktik strategiyalar qurilgan texnika arsenali asos bo'ldi.

Xulosa

1. Zamonaviy sport fani sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini individuallashtirish muammosini yuqori malakali sportchilarni boshqarishning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida qaraydi. Shu bilan birga, yuqori malakali kurashchilarning bellashuv va mashg'ulot faoliyati bo'yicha olib borilgan ilmiy-pedagogik kuzatishlar natijalari biz taklif etayotgan metodikaning samaradorligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, vazn toifalariga xos individual xususiyatlarni inobatga olgan holda, tajriba guruhi kurashchilariga taklif qilinadigan tezkor-kuchga yo'naltirish vositalari va usullari berildi.

2. Ushbu ishda biz kurashchilarning TTT mazmunini, vazn toifalari va kurash uslubini hisobga olgan holda, mashg'ulotlar jarayonida axborot ta'minoti va harakatlar kodeksidan foydalangan holda batafsil bayon qildik. Kurashchining texnik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'quv-mashg'ulot va musobaqa jarayonini to'g'rilash, shuningdek, murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirish uchun axborot yordamidan foydalangan holda taqdim etildi. Axborot ta'minotiga asoslanib, ular TTTning o'zaro bog'liq bo'lgan ma'lumotlar manbalari, usullari va vositalari to'plamini ifodalaydi. Mashg'ulotlarning o'ziga xosligi shundaki, tajriba guruhida kurashning barcha turlari kurashchilarning vazn toifalari va kurash uslubini hisobga olgan holda o'tkazildi. Mashg'ulot o'yinlarida individual uslublar nisbati quyidagicha edi: KS-20%; SS-30%; TS-40%. Nazorat o'yinlarida nisbat boshqacha taqsimlangan KS-60%; SS-50%; TS-40%. Raqobatli bellashuvlarda kurash uslublarining bir xil nisbati ishlatilgan - KS-20%; SS-20%; TS-20%.

3. Tajriba guruhida kurashchilar mashg'ulot jarayoni mazmunini aniqlashda ularning kurash uslubini hisobga olgan holda texnik-taktik tayyorgarlikni o'zlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan o'quv-mashg'ulot topshiriqlari kodlari bo'yicha tizimlashtirildi. Bizning tadqiqotlarimiz shuni aniqladiki, malakali kurashchilarning SD va TTT ko'rsatkichlari musobaqalarda hal qiluvchi natijalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bunday omillarning

soni musobaqalardagi umumiy natijani belgilovchi turli ko'rsatkichlarga ta'sirini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak.

Kurashchilarning raqobat faolligini tahlil qilish bizga vazn toifalarida aniqlangan individual farqlardan kelib chiqqan holda, malakali kurash bo'yicha kurash uslubini hisobga olgan holda mashg'ulot vositalarini samarali tanlash imkonini berdi.

Adabiyot

Abdiev A.N. Jangovar sport turlari bo'yicha ixtisoslashgan talabalarda professional murabbiylik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Dissertatsiya avtoreferati. dis. ... dr. ped. Sci. – T., 2004. -51 b.

Bleer A.N., Shiyan V.V. Kurash turlarida harakat malakalarini barqarorligini oshirishning uslubiy tamoyillari. – M.: FON, 2002. - 120 b.

Goncharova O.V. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayonida yuqori konsentratsiyali portlovchi harakatlarni namoyish qilish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi. dis. ...kand. ped. Sci. – T., 2007. -24 b.

Karelin A.A. Yuqori malakali kurashchilarni sportga tayyorlash.- Novosibirsk, 2002. - 479 p.

Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. -T.: O'zDJTI, 2001. - 286 b.

Бакиев З.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности. Диссертация к.п.н. Ташкент, 2009.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNI ILMIIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATGA TAYYORLASH BOSQICHLARI

*Asqarov Ixtiyor Baxtiyorovich
Jizzax politexnika instituti professori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak muhandislarni kreativ yondashuv asosida ijodiy, kasbiy layoqatini tarbiyalash mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlash tizimi, yo'llari va tuzulmasini ishlab chiqish haqida so'z boradi. Shuningdek, ilmiy-texnologik tadqiqotchilik, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash bosqichlari va ularni amalga oshiriladigan faoliyat turlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tayyorlash, ilmiy-ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, kasbiy sifatlar, jarayon, tadqiqotchilik ko'nikmasi, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, tashkiliy-metodik.

ЭТАПЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ К НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

*Аскарлов Ихтиёр Бахтиёрлович
профессор Джизакского политехнического института.*

Аннотация: В данной статье говорится о разработке механизмов формирования творческих, профессиональных способностей будущих инженеров на основе творческого подхода и инновационной системы их реализации, а также о системе, способах и структуре подготовки к научной и исследовательской деятельности. Также раскрыты этапы подготовки к научно-технологическим исследованиям, научно-исследовательской деятельности и виды мероприятий, подлежащих осуществлению.

Ключевые слова: подготовка, научно-исследовательская деятельность, профессиональные качества, процесс, исследовательские навыки, научно-исследовательская деятельность, организационно-методический.

STEPS OF PREPARING FUTURE ENGINEERS FOR SCIENTIFIC-RESEARCH ACTIVITY ON THE BASE OF CREATIVE APPROACH

*Askarov Ikhtiyor Bakhtiyorovich
professor of Jizzakh Polytechnic Institute*

Annotation: This article talks about the development of mechanisms for the formation of creative, professional abilities of future engineers based on a creative approach and an innovative system for their implementation, as well as the system, methods and structure of preparation for scientific and research activities. The stages of preparation for scientific and technological research, research activities and types of activities to be implemented are also disclosed.

Key words: preparation, research activities, professional qualities, process, research skills, research activities, organizational and methodological.

Kirish. Jamiyat rivojlanishining hozirgi zamon bosqichida o'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar kasbiy-texnologik ta'limda progressiv innovatsiyalarga olib keldi. Ta'limni axborotlashtirish, texnologiyalashtirish globalashtirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi sharoitida kasb ta'limi pedagogiga kasbiy talablar ortmoqda. Bugungi kunda mutaxassislardan nafaqat yuqori malakaga ega bo'lish, balki o'zgaruvchi axborotlar oqimida

to'g'ri yo'nalish o'ralish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, echimlarning eng yaxshi variantini tanlash, ya'ni bilimning aniq sohlarida tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini egallash talab etilmoqda. Zamon talablariga javob beradigan kasb ta'limi pedagoglarini tayyorlash jarayonida ilmiy-tadqiqot faoliyati alohida o'rin tutadi. U ilmiy-tadqiqot va kasbiy faoliyatni samarali tashkil eta oladigan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kadrlar salohiyatiga, soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi, tashabbuskorligi, azmu shijoati, bilimi, qobiliyati, ijodkorligi, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga bog'liq. Shunday ekan, bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlash, ularda yuksak kasbiy mahorat, maqsadga intiluvchanlik va tadqiqotchilik sifatlarini shakllantirish zaruratdir. Bu esa, shakllangan qadriyatli yo'nalishlar tizimini, o'qitish, tarbiyalash va kasbiy tayyorlashning amaliy asoslarini zamonaviy nuqtai nazardan qayta qurishni, bo'lajak mutaxassislarda ixtirochilik, ratsionalizatorlik va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki ilmiy-texnologik tadqiqotchilik, ixtirochilik, ratsionalizatorlik faoliyati – bo'lajak mutaxassislarda nafaqat kasbiy bilimlarni, balki yuksak axloqiy sifatlarini ham shakllantirish maktabidir.

O'quv jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish xususiyatlaridan biri kreativlikdir. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir [2].

Kreativlik, yoki boshqacha qilib aytsak, ijodkorlik deganda insonga, shaxsga xos fazilat yoki qobiliyat tushuniladi. Kreativlik -bu kashfiyotlar va yangiliklarning asosi bo'lib, u ikkita sifat bilan ajralib turadi: yangilik va foydalilik. Zamonaviy ta'lim tizimi bo'lajak mutaxassislarni kreativ yondashuvlar asosida ijodiy, kasbiy layoqatini tarbiyalash mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Biz aynan ushbu bo'lajak muhandislarni kreativ yondashuv asosida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlash tizimi, yo'llari va tuzulmasiga alohida to'xtalib o'tamiz. Bo'lajak muhandis uchun doimiy ravishda mustaqil ta'lim olish, bag'ri kenglik, qobiliyat, izlanish, yangi bilimlarni egallash, ishlab chiqarish, ta'lim va fanning rivojlanish istiqbollari ko'ra bilish va rejalashtirish kabi shaxsiy sifatlar tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Bundan ko'rinadiki, kasb ta'limi tizimida samarali ilmiy-tadqiqot ishlari va kasbiy faoliyatni amalga oshirishga qodir bo'lgan yuqori malakali ijodkor shaxsni, eng go'zal axloqiy sifatlar sohib bo'lgan mutaxassislarni tarbiyalab voyaga etkazish hozirgi zamon texnologikasining dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Shu bois bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantirish, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatga tayyorlash texnologiyasi, mexnizmi va vositalarini ishlab chiqishni tadqiqot qilish zaruratdir. Bu esa bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-texnologik tayyorgarligi mohiyatini qayta anglash zaruratini ko'rsatadi.

"Ilmiy ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati" tushunchasi falsafa, fannshunoslik, psixologiya va texnologikada ko'p qirrali ma'nogo ega. Gnoseologiyadan ma'lumki, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati insonning bilish faoliyati turlaridan biridir. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirish jarayonida nafaqat bevosita amaliyotda foydalaniladigan ob'ektlar, balki fanning rivojlanishi natijasida aniqlangan yangi ob'ektlar hali amaliy qo'llanilgunga qadar ham o'rganiladi. Natijada olingan yangi bilimlar ishoniligi, asoslanganligi, isbotlanganligi va aniqligi bilan xarakterlanadi. Tadqiqotchilik faoliyati haqida gapirganda shuni qayd etish lozimki, ilmiy asoslangan bilimlarni olish usuli sifatida u mantiqiy tizimlashtirilgan muloo'azalarning alohida

turi asosida quriladi va bunda mantiqiy izchillik, ziddiyatsizlik a tizimlilik talablariga amal qilinadi [1].

Ayni qarashlarning mavjudligi kompetent yondashuv doirasida talabalar – bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini loyihalashtirish va joriy etishning tashkiliy-metodik shart-sharoitlarini oydinlashtirish, o‘ziga xosligini aniqlash hamda tegishli metodik ta’minotini ishlab chiqish muammosini dolzarblashtiradi. Ana shunga bog‘liq holda, ayni yo‘nalishda olib borilgan nazariy tadqiqotlar va tajriba-tajriba jarayonida oydinlashtirgan xulosalar va ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz [4]:

- bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati maqsadini ularning umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarining diagnostik modeli ko‘rinishida aniqlash zarur;
- kasbiy-ixtisoslik tayyorgarlik jarayonida talabalarning o‘quv-bilish faoliyati mazmunining tadqiqotchilik aspektini kuchaytirish zarur;
- quyi kurslardan boshlab talabalarni ta’lim muassasasining turli bo‘limlari ilmiy ishlari rejasi doirasida ilmiy-tadqiqot faoliyatining har xil turlarida ishtirok etishga jalb etish;
- bo‘lajak muhandislari ilmiy-tadqiqot faoliyatining ba’zi turlari va usullari (masalan, texnologik tajribalarni rejalashtirish va o‘tkazish) ularning amaliy faoliyatida joriy etilishi mumkin.

Ilmiy-texnologik tadqiqotchilik — ijodiy faoliyat turi. Ilmiy- texnologik tadqiqotchilik mutlaq yangi va ijtimoiy ahamiyatga ega ma’naviy mahsulot, ya’ni kelgusida ham moddiy, ham ma’naviy ishlab chiqarish sohalarida qo‘llaniladigan bilimlarni yaratishga olib keladi.

Tadqiqotchilik asosida ilmiy-texnologik “mahsulot” — o‘qtish vositalari, metod va shakllari yaratiladi. Bu ijodiy faoliyat turi yangi texnologik g‘oyalarini ilgari surish, loyihalashtirish, ularni texnologik jarayonga amaliy joriy etish tizimini o‘z ichiga qamrab oladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ta’riflarni umumlashtirib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: tadqiqotchilik – inson uchun sifat jihatdan mutlaqo yangi hamda o‘zining takrorlanmasligi, o‘ziga xosligi va unikalligi bilan alohida ajralib turadigan faoliyat turi.


Ilmiy-texnologik tadqiqotchilik – innovatsion faoliyat asosi. Shuning uchun ham, u ta’lim jarayonining muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Bu ularni amaliy ishlarga qiziqtiradi, kasbiy faoliyatga ijodiy munosabatni mustahkamlaydi. Kasbiy faoliyatga ijodiy munosabat faol tadqiqotchilik, ratsionalizatorlik, keyinchalik esa ixtirochilik faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri – oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarni ilmiy-texnologik ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va tashkil etishdir. Chunki, har qanday tadqiqotchilik (xoh nazariy, xoh amaliy bo‘lsin), hatto u o‘zida buyuk natijalarni mujassamlashtirmagan bo‘lsa-da, shaxsning ijodiy kamol topishiga katta ta’sir ko‘rsatadi [5].

Ilmiy-texnologik tadqiqotchilik (ITT) — ilmiy texnologik bilim olish shakli. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarda aqliy va amaliy mehnat madaniyati shakllanadi. Chunki bilimning turli manbalari, ya’ni ma’ruzalar, kitoblar, axborotlar, tajriba natijalari tahlil qilinadi, fan va texnika yutuqlari bilan tanishiladi. Natijada bo‘lajak muhandislarida tadqiqot ishi rejasini tuzish va bajarish, referat, hisobot, ma’ruza, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlarini tayorlash, shuningdek, tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalari rivojlanadi.

Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ITT faoliyatiga tayyorlash ishlarini turli shakllarda tashkil etish mumkin. Ilmiy texnologik izlanish natijalariga asoslanib, biz oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarni ITT faoliyatiga tayyorlashni tashkil etish modeli va uning tarkibiy komponentlari keltirilgan (1- rasm).

1- rasm. Bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy tuzilmasi



Rasmdan ko‘rinadiki, ITT faoliyatiga tayyorlash o‘zining predmeti natijalariga ega. Bo‘lajak mutaxassis, u yoki bu texnik yechimni ijodiy hal etib, ishlab chiqarish yoki o‘quv-laboratoriya jarayonidagi biror sohani takomillashtirishi mumkin. Bu esa, shubhasiz, boshqarish tizimini yaratishni taqozo etadi.

Ilmiy-texnologik ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash bir necha bosqichda amalga oshiriladi [3]:

1. Tashkiliy-pedagogik tayyorgarlik: muhandislikka oid adabiyotlar, iliy ishlar, maqolalar bilan tani shish kasb ta'limining rivojlanishi tendentsiyalarini o‘rganish va bashorat qilish; hal etilishi lozim bo‘lgan ilmiy-texnologik echimning qo‘llanish sohasini aniqlash, tajribasinov ishlari rejasini tuzish, texnologik topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va loyihalar bilan tanishish.

2. Konstruktorlik ishlari bo‘yicha tayyorgarlik: texnik chizmalarni chizish, konstruktsiyalarni ishlab chiqish, hujjatlarni tayyorlash; namuna asosida o‘qitish vositalari sxemasini chizish, texnologik hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish; konstruktsiya nuqsonlarini bartaraf etish; ishlab chiqarishga tatbiq etish; o‘quv jarayonida foydalanish.

3. Texnologik tayyorgarlik: texnologik texnologiyalarni o‘rganish va tahlil qilish; texnologik texnologiyalardagi kamchilklarni tuzatish, texnologik vosita va jihozlarni ishlab chiqish hamda loyihalash. Texnologik jihozlarni tayyorlash; texnologik jarayonda ularni qo‘llashga hozirlash; amaliy texnologik jarayonga tatbiq etish; o‘quv jarayonida foydalanish.

4. Tashkiliy-texnologik tadqiqot ishlari: texnologik faoliyatning moddiy-texnik bazasini ta'minlash; olingan natijalarni texnologik jarayonga tatbiq qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish; iqtisodiy, nazariy va amaliy ko‘rsatkichlarni asoslash; texnologik g‘oyalarni va

maqolalarni rasmiylashtirish.

Bundan ko‘rinadiki, ta‘lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak mutaxassislarda ilmiy-tadqiqotchilikni rivojlantirish murakkab va mashaqqatli ish.

Ilmiy-texnologik tadqiqotchilik bosqichlarida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:

I bosqichda: 1. Oddiy topshiriqlarni bajarish. 2. Referatlar yozish.

II bosqichda: 1. O‘rtacha qiyinlikdagi topshiriqlarni bajarish. 2. O‘rtacha qiyinlikdagi ilmiy-ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati (kurs va laboratoriya ishlarini bajarish).

III bosqichda: 1. Murakkabroq amaliy topshiriqlarni bajarish. 2. Amaliy mazmundagi model va maketlar yasash.

IV bosqichda: 1. Ancha murakkab amaliy va nazariy topshiriqlarni bajarish. 2. Ilmiy tadqiqot xarakteridagi bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash va himoya qilish. 3. Natijalarni texnologik amaliyotga joriy etish.

ITT ish rejasining mazmuni ancha murakkab. U bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqotchilikka qiziqishi, qaysi bosqichda ta‘lim olayotganligi, tayanch bilim va ko‘nikmalari, tashabbuskorligi, individual qobiliyati va boshqalarga bog‘liq ravishda o‘zgarishi mumkin.

ITT ishlarini tashkil etishda bo‘lajak kasb ta‘limi muhandislarning o‘ziga xos xususiyati, qiziqishi, xohish-istagi, qobiliyatini hisobga olish, faolligini ta‘minlash, ularni tadqiqotchi sub‘ektga aylantirish zarur.

ITT da rahbarning o‘rni juda muhim hisoblanadi. Rahbar o‘quv reja asosida ish olib boradi. U ishni qanchalik aniq va to‘g‘ri rejalashtirsa, natija shunchalik samarali bo‘ladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash yo‘llaridan biri bu – ularining ilmiy seminarlar, kengashlar, konferentsiyalar, innovatsion loyihalar va ko‘rgazmalar, fan olimpiadalari va nomli stependiya tanlovlarida ishtirok etishini ta‘minlashdir. Ularda ishtirok etish bo‘lajak muhandislarning tadqiqotchilik imkoniyatlarini namoyon etishlari, dadillik bilan ilgari surilgan texnologik g‘oyalarni fan, kasbiy faoliyat va texnologiya sohalariga qo‘llash, istiqbolli texnologik ishlanmalar hamda o‘qitishning yangi texnologiyalari va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish uchun «yo‘llanma» beradi.


Xulosalar. O'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish sohasidagi zamonaviy tajribalarni yanada chuqurroq va tizimli ravishda o'rganish hamda xalqimizning boy tarixi, urf-odatlarini va qadriyatlarini hisobga olib maktablarda amaliyotga jorish etish respublikamizda bandlik muammosini hal etishda kichik bo'lsa-da, ijobiy qadam bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, tizimli asosda o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishning maqsadi, mazmuni, mexanizmlari va shakllarini belgilashga konseptual yondashuvlarni hamda maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish tizimini insonga butun umri davomida kasb-hunar ta'limi va kasblar olamida hamrohlik qilishning keng tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash tarmoqdagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqilishini taqazo etadi.

Tayanch so'zlar: o'quvchi-yoshlar, kasbga yo'naltirish, mehnat bozori, kasbiy axborot, kasbiy maslahat, karyera rejasini, kasbiy diagnostika, malaka talablari, kasbiy tayyorlik.

АННОТАЦИЯ: Вводная информация / актуальность. Подготовка учащейся молодежи к выбору профессии и успешному осуществлению профессиональной деятельности – одна из основных задач современного образования. Успехи учащихся в обучении и траектория профессионального развития будут во многом зависеть от профессиональной ориентации на школьном этапе, а также от осознанного и обоснованного формирования карьерного плана. Потому что любовь к труду, как социальное и профессионально значимое качество, формируется в школьный период и служит важным фактором в обеспечении успеха профессионального самоопределения учащейся молодежи.

Методы. Анализ научной литературы, диссертаций и статей по теме исследования.

Результаты. В европейских странах, США, Канаде, Японии и России, где вопрос занятости населения решается эффективно, профессиональная ориентация школьников имеет долгую и систематическую историю развития, систематически совершенствуясь с учетом экономических, политических и социальных потребностей общества. Основная цель профессиональной ориентации молодежи в школах – помочь учащимся подготовить карьерный план. К данному вопросу подходят исходя из потребностей национального рынка труда и каждого региона, а также с учетом индивидуальных особенностей и интересов учащейся молодежи. Профессиональная ориентация учащихся и молодежи носит системный характер и выражается в четком определении сроков, форм и методов ее осуществления, а также в квалификационных требованиях, разработанных для специалистов данной сферы и осуществляется специалистами, имеющими специальную подготовку.

Выводы. Более глубокое и систематическое изучение современного опыта в сфере

профессиональной ориентации учащихся и внедрение его в практику в школах с учетом богатой истории, традиций и ценностей нашего народа может послужить небольшим, но позитивным шагом в решении проблемы занятости в нашей республике. Кроме того, обеспечение концептуальных подходов к определению целей, содержания, механизмов и форм профориентации учащейся молодежи на системной основе и интеграции системы профессиональной ориентации в широкую систему сопровождения человека в мире профессионального образования и профессий на протяжении всей его жизни требует разработки механизмов сетевого взаимодействия.

Ключевые слова: учащаяся молодежь, профессиональная ориентация, рынок труда, профессиональная информация, профессиональное консультирование, карьерный план, профессиональная диагностика, квалификационные требования, профессиональная готовность.

ANNOTATION: Introductory information / relevance. Preparing young students to choose a profession and successfully carry out their professional activities is one of the main tasks of modern education. The success of students in learning and the trajectory of professional development will largely depend on professional orientation at the school stage, as well as on the conscious and informed formation of a career plan. Because the love of work, as a social and professionally significant quality, is formed during the school period and serves as an important factor in ensuring the success of professional self-determination of students.

Methods. Analysis of scientific literature, dissertations and articles on the research topic.

Results. In European countries, the USA, Canada, Japan and Russia, where the issue of employment is effectively addressed, the vocational guidance of schoolchildren has a long and systematic history of development, systematically improving taking into account the economic, political and social needs of society. The main purpose of vocational guidance for young people in schools is to help students prepare a career plan. This issue is approached based on the needs of the national labor market and each region, as well as taking into account the individual characteristics and interests of students. The professional orientation of students and young people is systemic in nature and is expressed in a clear definition of the terms, forms and methods of its implementation, as well as in the qualification requirements developed for specialists in this field and carried out by specialists with special training.

Conclusions. A deeper and more systematic study of modern experience in the field of vocational guidance of students and its implementation in practice in schools, taking into account the rich history, traditions and values of our people, can serve as a small but positive step in solving the problem of employment in our republic. In addition, providing conceptual approaches to defining the goals, content, mechanisms and forms of vocational guidance for students on a systematic basis and integrating the vocational guidance system into a broad system of accompanying a person in the world of vocational education and professions throughout his life requires the development of mechanisms for networking.

Keywords: school students, professional orientation, labor market, professional information, professional counseling, career plan, professional diagnostics, qualification requirements, professional readiness.

Kirish ma'lumotlari / dolzarbligi. Zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri – o'quvchi-yoshlarni voyaga yetganda kasb tanlashga va kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorlash bo'lib, ushbu funktsiya ta'lim va tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq, so'nggi yillarda, respublikamizning o'rta umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim sifati o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishi va shaxsiy karyera rejalarini ongli va asosli shakllanishi kabi mezonlar bo'yicha baholanmay, asosan, bitiruvchilarning oliy

ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi bilan belgilanmoqda. Zamonaviy maktab zimmasiga o'quvchilar, ularning ota-onalari va kadrlar tayyorlash sifati uchun davlat oldidagi mas'uliyat kabi muhim va murakkab vazifalar yuklanganligiga qaramay, o'quvchi-yoshlarning ta'limdagi muvaffaqiyati va ta'lim trayektoriyasi maktab bosqichida kasbni to'g'ri tanlashlari bilan bog'liq bo'ladi. Chunki yoshlarni mehnat bilan bandligining muvaffaqiyati maktabda shakllanadi hamda kasb-hunar ta'limi tizimida va mehnat bozoriga kirishda amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, maktab ta'limining sifati o'quvchilar kasbiy o'zini o'zi belgilashlarining muvaffaqiyati bilan uzviy bog'liq ekanligini anglatadi.

Materiallar va metodlar. Kasbga yo'naltirish faoliyati bo'yicha xorijiy tajribani, mazkur sohadagi zamonaviy ishlanmalarni o'rganish, tahlil qilish respublikamizdagi o'rta umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarni mustaqil mehnatga tayyorlash tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli Yevropa davlatlari, AQSh, Kanada, Yaponiya va Rossiya kabi aholi bandligi masalasi samarali hal etilayotgan davlatlarning maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha ilg'or tajribalarini yangi yondashuvlar asosida o'rganish tadqiqotimizga asos bo'lib xizmat qildi.

Xorijiy mamlakatlarda kasbga yo'naltirish faoliyatining nazariy va uslubiy asoslari juda xilma-xildir. Xususan, Yevropa va AQShda kasbga yo'naltirish tizimi davomli va tizimli rivojlanish tarixiga, fundamental nazariy va amaliy negiziga ega bo'lib, muntazam ravishda jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda takomillashtirib boriladi [Dianina E.V., 2017].

AQSh Konstitusiyasida ta'lim tizimining ish tamoyillari belgilangan. Shunga ko'ra, kasbga yo'naltirish ta'lim tizimining bir qismi sifatida yagona asosga ega bo'lsa-da, har biri alohida shtat tomonidan amalga oshiriladi. Davlat – maktablarda kasbga yo'naltirishni samarali tashkil etish hamda maktab, o'quvchi, kollej, oliy o'quv yurtlari va ish beruvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni tashkil etish uchun mas'ul hisoblanadi. Shuning uchun davlat o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus tuzilmalar faoliyatini tashkil etadi, moliyaviy ta'minlaydi va uni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi.

Kasbiy axborot tarmog'i (Occupational Information Network) – turli xil kasbiy faoliyat turlarining mazmuni va shartlari, malaka va tibbiy talablar, turdosh kasblar, shuningdek, turli mutaxassislarni tayyorlaydigan ta'lim muassasalari ro'yxati bo'yicha ma'lumotlarning tarmoq bazasi AQShda 1998 yilda yaratilgan [Grinshpun S.S., 2005].

Maktabning "Karyerani boshqarish" maxsus maslahat xizmati ("Career Guidance") har bir o'quvchi haqida ma'lumot to'playdi, individual maslahatlar beradi, bitiruvchilarga ishga joylashishda ko'maklashadi, shuningdek, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati trayektoriyasini nazorat qiladi [Grinshpun S.S., 2006] [Krupskaya Yu.V. i dr., 2017].

Karyera rejasida o'quvchining o'z maqsadi sari harakatlanish trayektoriyasi belgilangan bo'lib, maqsadga erishish – kasbning kompetentliklari, psixofiziologik talablari, kasbiy tayyorgarlik, lavozimga ko'tarilish, kasbiy faoliyat yo'nalishini o'zgartirish kabilar ta'riflagan qadamlar, ularga erishish yo'llari, bosqichlari va muddatlari aks etadi [Hagans C.L., 1991].

AQShda kasbga yo'naltirish g'oyalari dastlab F.Parsons tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, keyinchalik ushbu yo'nalishda D.Cyuper, J.Holland tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayni vaqtda ushbu faoliyatning uslubiy ta'minoti Karyerani rivojlantirish milliy assosiasiyasi (National Career Association - NCDA) zimmasiga yuklatilgan. Assosiasiya kasbiy faoliyat standartlarini ishlab chiqish, kasbiy maslahatchilarning faoliyat tamoyillarini belgilash, uslubiy va axborot materiallari va ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan qonun loyihalarini ekspertizadan o'tkazish kabi vazifalarni bajaradi [Grinshpun S.S., 2005; 2006] [Korsun A.A., 2012].

O'quvchilarning kasbiy rivojlanishi quyidagi manbalar ta'sirida amalga oshiriladi: 1) kasblarni tanlashga oid materiallar; 2) «Kelajak kundaligi» - o'ttiz yoshda ish va turmush tarzi

bo'yicha sub'ekt erishadigan natijaning tavsifini olish maqsadida o'tkaziladigan so'rovnoma; 3) «Oilaviy mehnat namunalari» - ish va oilaviy hayotning mavjud namunalari tavsifini olish maqsadida o'tkaziladigan so'rovnoma; 4) karyeraga ta'sir qiluvchi guruxlarga bo'lingan omillarni o'rganish va ularni refleksiya qilish: oilaviy, ijtimoiy, individual, ijtimoiy-iqtisodiy, qisqa vaziyatli va psixo-ijtimoiy-emosional [Kirby C.A., 1988].

Yevropa maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning zamonaviy amaliyotlari qonunlar yoki yirik milliy loyihalarning qabul qilinishi natijasida emas, mehnat bilan bandlik masalasini hal qilishda mehnat bozori ehtiyojlari va yoshlarning individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yondashilganligi natijasida yuzaga kelgan. Kasbga yo'naltirish amaliyotlarining ayrimlari maktab o'quvchilarini kasblar olamiga singdirishning vaqt sinovidan o'tgan shakllarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, boshqalari aksincha, so'nggi paytlarda o'ziga xos munosabat va xulq-atvori bilan yangi avlod yoshlarining shaxsiy xususiyatlariga, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy-professional tuzilishini tez o'zgaruvchan konturlariga munosabat sifatida paydo bo'ldi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish amaliyotlari xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ularning negizi, asosi bitta ya'ni bunda mazkur amaliyotlar har-bir hududning ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilgan va, ehtimol, shu sababli ham ular nisbatan samaralidir [Murashev A., 2019].

Fransiya va Shvesiyada o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish tizimlari davlat tomonidan yuqori darajada tartibga solinganligi hamda ta'lim sohasi bilan mehnat bozori o'rtasidagi hamkorlikka asosiy e'tiborni qaratganligi bilan ajralib turadi [Kuznesov V., 2007].

Fransiyada mehnat bozori holati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash bilan shug'ullanadigan, axborot xizmatlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadigan turli jamoat tashkilotlari va kasbga yo'naltirish markazlari juda ko'p. Fransiyada kasbga yo'naltirish tizimi J.Piajening kognitiv yondashuv g'oyasi va shaxsning kasbiy rivojlanish nazariyasiga asoslangan bo'lib, ushbu tizimning o'ziga xos xususiyati – davlat masalalarini har tomonlama hal qilishga qaratilganligi hamda oila va o'quvchining manfaatlarini hisobga olishida aks etadi [Romanova E.S., 2013: 254].

Fransiyada kasbga yo'naltirish tizimining hududiy bo'limlari faoliyati ta'lim va kasb-hunar bo'yicha Milliy Axborot Boshqarmasi (ONISEP) tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi. ONISEP kasblar va ta'lim yo'nalishlari, kasb-hunar maktablariga qabul qilish qoidalari, mehnat bozori ehtiyojlari va boshqalar to'g'risida hujjatlarni ishlab chiqadi va ma'lumotlarni tarqatadi [Krupskaya Yu.V. i dr., 2017: 26].

Shuningdek, Fransiyada marketing texnologiyalari va zamonaviy multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda yoshlarning o'z taqdirini o'zi belgilash muammolariga qiziqishini shakllantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda - turli kasblarga bag'ishlangan filmlar va ko'plab reklama roliklari yaratilmoqda, o'quvchilarning turli toifalari uchun tavsiya qilingan video qo'llanmalar tayyorlanmoqda, maktablardagi kasbga yo'naltirish ishlari to'g'risida "L'orientation scolaire et professionnelle" maxsus jurnallar nashr etilishi yo'lga qo'yilgan. Turli jamoat tashkilotlari, axborot xizmatlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan, mehnat bozori holati to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash bilan shug'ullanadigan juda ko'p Axborot va yo'naltirish markazlari mavjud. Fransiya ko'chalarida "Artiskop" va "Planete-Metall" yuk mashinalarida turli kasblar va o'quv yurtlari haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan reklama stendlari o'rnatilgan bo'lib, bu o'quvchilar e'tiborini jalb qilishning qiziqarli usuli hisoblanadi [Romanova E.S., 2013: 261].

Shvesiya maktablarida esa, AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlaridan farqli ravishda, kasbga yo'naltirish ishlari maktab direktori boshchiligidagi pedagoglar jamoasi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishga ixtisoslashtirilgan muassasalarning etishmovchiligi yoshlar bandligi bo'yicha hududiy qo'mitalar tomonidan qoplanadi. Hududiy qo'mitalar tarkibiga aholi, kasaba uyushmalari, korxonalar va boshqaruv organlari vakillaridan

tashqari, bitiruvchilarning manfaatlarini ifodalovchi maktab direktori ham kiradi [Kuznesov V., 2007].

Hozirgi paytda Shvesiya maktablari o'qituvchilari va psixologlari o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishning tartib-qoidalarini ommalashtirish va rasmiylashtirishdan uzoqlashganlar. Avvalari barcha o'qituvchilar va hatto maktab direktori ham o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish dasturlarini amalga oshirishga jalb qilingan bo'lsalar, bugungi kunda kelajakdagi kasbini tanlagan o'quvchilarga faqat umumiy maslahat berish bilan chegaralanadilar. Qolgan o'quvchilar (taxminan 20%) bilan maxsus psixolog yoki kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha mutaxassislar muntazam ravishda kasbiy diagnostika va kasbiy maslahat ishlarini reja asosida olib boradilar [Krupskaya Yu.V. i dr., 2017: 27].

Maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha asosiy tadbirlarga quyidagilar kiradi: shaxsning kasbiy yo'nalishini psixologik diagnostikasi; o'quvchilar uchun individual psixologik maslahatlar; o'quvchilar uchun kasbiy o'zini o'zi belgilash masalalari bo'yicha oilaviy maslahat; taklif etilgan turli kasb vakillari bilan kasbga yo'naltirish soatlari; kasbga yo'naltirish darslari; korxonalariga tematik ekskursiyalar; ochiq eshiklar kunlariga tashrif buyurish; kasbiy yo'nalish bo'yicha shahar tadbirlarida ishtirok etish.

Shvesiyada kasblar va mehnat bozoridagi vaziyat to'g'risida to'liq ma'lumotni o'z ichiga olgan ommaviy ma'lumotlar banklari mavjud bo'lib, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishda maktab va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mexanizmlari, texnologiyalari va shakllarini belgilashda davlat faol ishtirok etmoqda. Biroq, maktablarning o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish bilan bog'liq faoliyati bundan rasmiy, muqobil bo'lmagan xususiyat kasb etmagan. O'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishda individual kasbiy yondashuv amalda qo'llaniladigan asosiy tamoyil bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy Finlyandiya uzluksiz ta'lim konsepsiyasiga asoslangan holda bir qator innovatsion vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular qatoriga shaxsiy martaba yo'nalishlarini belgilashda "hamkor-kasbiy karyera" (co-careering) konsepsiyasi, VIP-maslahat modeli va IT-texnologiyalarini kiritish mumkin [Gurtov V. A. dr., 2019].

Bundan tashqari, kasbga yo'naltirish ishlarini bazaviy pedagogik ma'lumotga hamda kasbga yo'naltirish va maslahat berish sohasida qo'shimcha ma'lumotga yoki kasbga yo'naltirish va maslahat berish sohasida magistr darajasiga ega bo'lgan mutaxassislar (150-200 nafar o'quvchiga 1 nafar mutaxassis) tomonidan amalga oshiriladi. Finlyandiya maktablarida o'quvchilarning ota-onalari kasbga yo'naltirish ishlarida faol ishtirok etadilar. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda, guruh mashg'ulotlariga qaraganda, individual mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratiladi.

Finlyandiya maktablarida kasbga yo'naltirishning asosiy tamoyillari – nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash hamda maktabdagi kasbga yo'naltirish tizimini insonning hayoti davomida kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimiga integratsiya qiladigan, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim berishdir.

Shveysariyada yoshlarni kasbga yo'naltirish maxsus loyiha doirasida amalga oshiriladi. U erda 2006 yildan boshlab, maktabni muvaffaqiyatli tugatganligi to'g'risida shahodatnoma ololmagan o'quvchilar maxsus "Ijtimoiy lift" loyihasiga kiritiladi. "Ijtimoiy lift" loyihasining mexanizmi ta'limda muvaffaqiyat qozona olmagan yoshlarni nafaqat kasblar olami va mehnat bozoriga integratsiya qilish, balki ularni o'qishni davom ettirishga undash imkonini beradi. Loyiha ishtirokchilari xar hafta bir necha soat davomida ixtiyoriy ravishda va bepul asosda ishlab, ishchi kasbi bo'yicha tajriba to'plab boradilar. Loyiha yakunida ishtirokchilarga egallagan kasbiy malakasini tasdiqlovchi rasmiy hujjat beriladi. Ko'pgina yoshlar maktabni o'zlarining amaldagi haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda tugatadilar [Ambarova P.A. i dr., 2020: 194-195]

Rossiyada yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlari uzoq vaqt davomida «Yoshlarning kasbiy o'zini o'zi belgilash konsepsiyasi», S.N.Chistyakovaning psixologik va pedagogik yondashuvi

va E.A.Klimov, N.S.Pryajnikov, E.I.Golovaxa konsepsiyalari asosida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Xozirgi vaqtda Rossiya maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning yangi, samarali tizimini yaratish ostonasida turibdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Rossiyaning o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishni boshqarish tizimida uni amalga oshirish va tashkil etish uchun yagona talablar mavjud emasligi sababli, har bir maktab kasbga yo'naltirish ishining shakli, usullari va davomiyligini mustaqil ravishda belgilaydi. Xususan, Rossiya kollejlarda har chorakda tanlangan modulga qarab, 8-sinf o'quvchilari uchun texnologiya va kasbga yo'naltirish darslari o'tkaziladi. O'quvchilar o'quv modulini o'zlashtirish natijalariga asoslanib, aniq mahsulot tayyorlaydilar. O'quvchilar 10-11-sinflarda maktabda sirtqi bo'limda o'qishni davom ettirar ekanlar, tanlagan yo'nalish bo'yicha kollejda o'qitiladigan fanlar bilan yaqindan tanishadilar. Natijada, 11-sinfni tugatgan bitiruvchilar, Yagona davlat imtihonini topshirishni yoki yozgi amaliyotdan so'ng kollejning uchinchi kursiga kirishni tanlashlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, ular universitetda o'qish bilan birga, bir vaqtning o'zida, kollejning pullik bo'limida tahsil olishlari mumkin [Selivanova Z.K., 2013].

Rossiyada o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish tadbirlari ijtimoiy-mehnatga moslashish va kasbga yo'naltirish bo'yicha davlat va xususiy markazlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Tadbirlar bo'lajak kasb sohasini tanlash bo'yicha psixologik maslahat berish va shaxsning kasbiy yo'nalganligini tashxis qilish, shuningdek, OTM tanlashda va faoliyatning eng afzal yo'nalishlarini aniqlashda yordam beradi. Ba'zi xususiy markazlarda kasbga yo'naltirishning o'ziga xos xususiy usullari mavjud. Kasbiy diagnostika va kasbiy maslahatlardan tashqari, kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish ham rivojlanmoqda. Bitiruvchi o'quvchilar va ota-onalar uchun keng ko'lamli kasbga yo'naltirish tadbirlari tashkil etilib, «Universitet shanbaliklari» va «Professional muhit» loyihalari o'rta maktab o'quvchilari, ota-onalar, OTM o'qituvchilari va biznes tashkilotlari vakillarini birlashtirgan yagona axborot makonini tashkil etish imkonini berdi [Aleksandrova N.A. i dr., 2016] [Mityurnikova L.A., 2005].

B.Fitzenberger Germaniya maktablarida kasbga yo'naltirish faoliyatini o'quvchilarning karyera rejalariga qanday ta'sir qilishini tadqiq etganlar. Kasbga yo'naltirish o'quvchilarga maktabdan mehnat faoliyati sohasiga o'tishda yordam beradi. Biroq, aksariyat maktablarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maktab ta'limi yo'nalishiga, shuningdek, maktab va sinfnig umumiy xususiyatlariga bog'liq bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari e'tibordan chetda qolmoqda. Kasbiy maslahatning ta'siri maslahat berayotgan mutaxassisning kompetentligiga bog'liq. Ishga joylashtirish agentligi beradigan maslahat esa maktab bitiruvchisining kasbiy malakasini rivojlantirishga oid rejalarini diapazonini qisqartirishiga olib keladi va birmuncha notanish kasbiy faoliyatida yangitdan ko'nikma va malakasini shakllantirish ehtimolini oshiradi [Fitzenberger B. and othe., 2020].

Kanada ta'lim tizimiga ko'ra, kasb-hunarga yo'naltirishning mobil markazlarida zamonaviy kompyuter vositalaridan foydalangan holda o'quvchilar mustaqil ravishda kasblar, har bir kasb uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar, kasbiy ta'lim olish imkoniyatlari, mahalliy va milliy mehnat bozorlarida kasb-hunarga bo'lgan talab, taklif va ehtiyojlar haqida ma'lumotlar oladilar [Romanova E.S. i dr., 2013: 262].

Xorijiy davlatlarda maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlari yuqori malakaga, zaruriy sertifikatlariga ega bo'lgan kasbiy maslahatchilar tomonidan amalga oshiriladi. Xususan, AQSh, Rossiya, Fransiya va Buyuk Britaniyada kasbiy maslahatchilarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni kasblarning turlari va mehnat bozoridagi vaziyat to'g'risida xabardor qilish;
- kasblar mazmuni to'g'risida ma'lumot izlashlarida yordam berish;
- kasbga yo'naltirish darslarini uslubiy ta'minotini amalga oshirish;
- maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish.

Kasbga yoʻnaltirish ishining eng samarali yoʻnalishlaridan biri – oʻquvchilarning kasbiy moslashuvi boʻlib, bu borada Yaponiya va Buyuk Britaniya koʻp yillik muvaffaqiyatli tajribaga ega.

Yaponiyaning kasbga yoʻnaltirish tizimi dunyodagi eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Maktab oʻquvchilari amaliy tajriba orttirish va uni oʻz qobiliyatlari va koʻnikmalari bilan qiyoslash imkonini beradigan kasbiy mashq testlaridan oʻtadilar. Ushbu tizim professor S.Fukuyama konsepsiyasi va uning diagnostika usuli «F-test»ga asoslangan. Kasbga yoʻnaltirish toʻliqsiz oʻrta maktabni bitirishidan ikki yil avval boshlanadi. Kasbga yoʻnaltirish tizimi oʻquv jarayoniga integrasiyalashgan boʻlib, umumtaʼlim maktablari oʻquv dasturining asosini tashkil etadi va ikkita asosiy tamoyilga asoslanadi: oʻz-oʻzini tahlil qilish qobiliyati va kasblarni tahlil qilish qobiliyati. S.Fukuyamaning fikriga koʻra, bola ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlanishi uchun 13-14 yosh eng mos keladigan davr. Maktabda oʻqish davomida oʻquvchilar bir vaqtning oʻzida kasb sohasi boʻyicha amaliy tajribaga ega boʻladilar va oʻzlarining kasbiy faoliyatdagi imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlaridan xabardor boʻladilar [Gutkin M.S., 1999].

Buyuk Britaniyada maktablarda kasbga yoʻnaltirish tizimi konseptual jihatdan turlicha boʻlgan bir nechta yondashuvlarga va, eng avvalo, kasbiy maslahat hamda mini-korxonalarda kasbiy taʼlim doirasida oʻtiladigan kasbiy amaliyot sifatiga asoslanilgan [Krupskaya Yu.V. i dr., 2017: 27].

Kasbiy maslahat malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib, ushbu lavozim Buyuk Britaniya va AQShda maktab oʻqituvchi-pedagoglari jamoasi aʼzosi maqomiga ega boʻlsa, Fransiyada sinfning kasbga yoʻnaltirish Kengashi tarkibiga kiruvchi Kasbga yoʻnaltirish markazi xodimi sifatida sinf rahbari va maktab psixologi bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi [Shamsutdinova I.G., 2007].

Olingan natijalar tahlili. Maktab oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirish masalasida xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribasini oʻrganish, ushbu sohada respublikamiz maktablarida bir qator ilmiy-uslubiy va tashkiliy ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ekanligini koʻrsatdi.

Kasbga yoʻnaltirish uzoq va tizimli rivojlanish tarixiga ega boʻlib, muntazam ravishda jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda takomillashib borgan. Shuning uchun ham Oʻzbekistonda oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishda yangicha yondashuv zarur yaʼni mazkur masalani hal qilishda milliy mehnat bozori va har-bir hududning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda oʻquvchi-yoshlarning individual xususiyatlari va manfaatlarini hisobga olish, maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xorijiy mamlakatlarda maktablarda kasbga yoʻnaltirish ishlarining asosiy maqsadi – oʻquvchilarga karyera rejasini tayyorlashida koʻmaklashish hisoblanadi.

Kasbga yoʻnaltirish toʻliqsiz oʻrta maktabni bitirishidan ikki yil avval boshlanib, oʻquv jarayoniga integrasiyalashgan boʻladi. Bola ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlanishi uchun 13-14 yosh eng mos keladigan davr hisoblanadi.

Maktabning kasbga yoʻnaltirish tizimi oʻquvchilarga karyera rejalarini shakllantirish borasida maxsus va individual maslahatlar berish, bitiruvchilarni ishga joylashishlarida koʻmaklashish, shuningdek, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati trayektoriyasini nazorat qilishdan iborat. Karyera rejasi oʻquvchining bevosita ishtirokida, uning shaxsi va individualligiga yoʻnaltirilgan tarzda, mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olib shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Zarur hollarda, mavjud holatlardan kelib chiqib, oʻquvchi oʻz karyera rejasiga qoʻshimcha va tuzatishlar kiritishi mumkin.

Kasbga yoʻnaltirish tadbirlari oʻquvchilarni kasbiy yoʻnalishini diagnostika qilish, ularga individual psixologik maslahat berish, ota-onalar uchun oʻquvchilar kasbiy oʻzini oʻzi belgilashiga oid maslahat berish, kasb vakillari ishtirokida kasbga yoʻnaltirish soatlari va kasbiy maslahatchilar tomonidan kasbga yoʻnaltirish darslarini tashkillashtirish, korxonalariga tematik ekskursiyalar va ochiq eshiklar kunlariga hamda shahar tadbirlarida tashrif buyurish, maktab

va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mexanizmlari, texnologiyalari va shakllarini belgilash kabi vazifalardan iborat. Yoshlarda o'z taqdirini o'zi belgilash muammolariga qiziqish shakllantirishda marketing texnologiyalari va zamonaviy multimediya imkoniyatlaridan foydalaniladi.

O'quvchilarning kasbiy moslashuvi samaradorligi o'z qobiliyatlari va ko'nikmalarini amaliy tajriba orttirish jarayonida qiyoslash imkoniga ega bo'lishlariga bog'liq. Shu sababli maktablarda o'quvchilarning kasbiy amaliyoti bilan bir qatorda kasbiy diagnostika va kasbiy maslahat ishlari maxsus reja asosida, muntazam ravishda olib boriladi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

maktabda nazariy bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash hamda kasbga yo'naltirish tizimini inson hayoti davomida kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimiga integrasiya qiladigan ta'lim berish;
o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarida ota-onalarning faol ishtirok etishi;

kasblar, har bir kasb uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar, kasbiy ta'lim olish imkoniyatlari, mahalliy va milliy mehnat bozorlarida kasb-hunarga bo'lgan talab, taklif va ehtiyojlar haqida ma'lumotlar bazasining mavjudligi;

o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ularning individual xususiyatlari hamda mahalliy va milliy mehnat bozorlarining ehtiyojlarini hisobga olish;

kasbiy maslahat beradigan mutaxassisning yuqori darajada kompetentlikga ega bo'lishi;

ta'limda muvaffaqiyat qozona olmagan o'quvchi-yoshlarning mehnat bilan bandligini ta'minlash;

o'quvchilarda o'z-o'zini tahlil qilish va kasblarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirish.

Kasbga yo'naltirish va kasbiy maslahat berish uchun mutaxassis ushbu soha bo'yicha kamida magistr darajasiga ega bo'lishi talab qilinadi. Kasbiy maslahatchi o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiradi:

o'quvchilarni kasblarning turlari va mehnat bozoridagi vaziyat to'g'risida xabardor qilish;

kasblar mazmuni to'g'risida ma'lumot izlashda yordam berish;

kasbga yo'naltirish darslarini uslubiy ta'minotini amalga oshirish;

maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish.

Xulosa. Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarda o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlari tizimli xarakterga ega bo'lib, u davlat darajasida tegishli normativ aktlar asosida tartibga solinadi, kasbga yo'naltirish muddati, uni amalga oshirish shakllari va usullarining aniq belgilanganligi hamda ushbu soha mutaxassislari uchun maxsus malaka talablari ishlab chiqilganligi diqqatga sazovordir. Xorijda maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish tizimli va individual yondashuv asosida ishlash tamoyillariga asoslangan bo'lib, maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, g'arb davlatlarida aholining yoshlardan iborat qatlami bandligini ta'minlashda, maktab va maktabdan keyingi davrda, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish sohasida zarur institusional sharoitlar yaratilganligi alohida e'tiborga loyiqdir.

Shubhasiz, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish sohasidagi zamonaviy tajribalarni yanada chuqurroq va tizimli ravishda o'rganish hamda xalqimizning boy tarixi, urf-odatlarini va qadriyatlarini hisobga olgan holda maktablarda amaliyotga jorish etish respublikamizda bandlik muammosini hal etishda ijobiy qadam bo'lib xizmat qilishi aniq. Bundan tashqari, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishni tizimli yo'lga qo'yish, maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish tizimini insonga butun umri davomida kasb-hunar ta'limi va kasblar olamida hamrohlik qilishning keng tizimiga integrasiyalashuvini ta'minlash uchun tarmoqdagi barcha o'zaro manfaatdor tashkilotlar, maktab jamoasi va ota-onalarning samarali hamkorlik

механизмларини ishlab chiqilishi taqozo etiladi.

ADABIYOTLAR:

Fitzenberger B, Hillerich-Sigg A. and Sprietsma M. Different counselors, many options: Career guidance and career plans in secondary schools // *German Economic Review* 21, no. 1 (April 28, 2020): 65–106. <http://dx.doi.org/10.1515/ger-2019-0027>.

Hagans C.L. The relationship of parental subsystem to high school and college students' career self-efficacy // *Virtual Press*, 1991. <http://liblink.bsu.edu/uhtbin/catkey/833008>.

Kirby C.A. Career and life style aspirations of gifted Canadian secondary school females // *Diss.*, The University of Arizona, 1988. <http://hdl.handle.net/10150/184544>.

Александрова Н.А., Брюхова О.Ю. Профессиональная ориентация в фокусе внимания государства: проблемы, противоречия, пути решения // *Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики*, 2016. – № 9. С. 13-16.

Амбарова П.А., Немировский М. В. Новые подходы к профессиональной ориентации в школе в условиях изменяющегося мира профессий // *Образование: вызовы нового времени / Известия Уральского федерального университета. Серия 1. Том 26, № 1 (2020)* <https://journals.urfu.ru/index.php/Izvestia1/issue/view/385>. –С. 188-199.

Гриншпун С.С. «Академия Х»: подготовка американских школьников к жизни и труду / *Педагогика*. – 2006. - №4. – С. 103-108

Гриншпун С.С. Профессиональная ориентация школьников в США // *Педагогика*. – 2005. №9. – С. 65-72.

Гуртов В. А., Колесников В. Н., Питухина М. А. От традиционной модели профориентации к системе сопровождения и консультирования на протяжении всей жизни: опыт Финляндии [Электронный ресурс] // *Непрерывное образование: XXI век*. 2019. № 2 (26). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ot-traditsionnoy-modeli-proforientatsii-k-sisteme-soprovozhdeniya-i-konsultirovaniya-na-protyazhenii-vsey-zhizni-opyt-finlyandii>

Гуткин М.С. Использование Ф-теста для диагностики развития профессионального самосознания школьников // *Психология*. 1999. № 3. С. 114-121.

Дианина Е.В. Российская и зарубежные системы управления профессиональной ориентацией учащейся молодежи: сравнительный анализ // *Социодинамика*, 2017, №3. –С.10-17.

Корсун А.А. К вопросу о профессиональном самоопределении старшеклассников в работах отечественных и зарубежных учёных / А.А. Корсун // *Transformation of approaches to education in Russia and CIS states: [колл. моногр.]* – Штутгарт: ORT Publishing, 2012. С. 71-81.

Крупская Ю.В., Серкова Е.И. Зарубежный и отечественный опыт организации и реализации профессиональной ориентации детей и учащейся молодежи // *Думский вестник: Теория и практика дополнительного образования* N 1(9)/2017. –С. 25-28.

Кузнецов В. Зарубежный опыт организации взаимодействия рынка труда и системы профессионального образования // *Народное образование*. 2007. №1. С. 194-199.

Митюрникова Л.А. Комплексная система профессиональной ориентации молодежи как социальный институт общества: дис. ... канд. соц. наук / Л.А. Митюрникова. – М., 2005 – 201 с.

Мурашев А. Другая школа. Откуда берутся нормальные люди. М., 2019. 349 с.

Романова Е.С. Организация профориентационной работы в школе: методическое пособие / Е.С. Романова. М.: Издательский центр «Академия», 2013. 304 с.

Селиванова З.К. Ранняя профориентация как насущная задача государственной политики // *Власть*, 2013. – №4. С. 136-139.

Шамсутдинова И.Г. Профессиональная ориентация учащихся во Франции // *Педагогика*. – 2007. – N°4. – С. 101-111.

O'QUVCHI YOSHLARNI MILLIY QADRIYAT VA AN'ANALARGA HURMAT RUHIDA TARBİYALASH METODIKASINI ISHLAB CHIQUISHDAGI ZAMONAVIY TALABLAR

*Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li
Namangan Davlat Universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim sharoitida yosh o'quvchilarda milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat tuyg'usini tarbiyalash madaniyatni asrab-avaylash va jamiyatda birdamlik uchun juda muhimdir. Ushbu maqola ushbu maqsadga erishish uchun samarali metodologiyalarni ishlab chiqish uchun zamonaviy talablarni o'rganadi. Unda milliy qadriyatlarni ta'lim dasturlariga singdirishning nazariy asoslari, amaliy strategiyalari va muammolari o'rganilib, tarix saboqlariga e'tibor qaratiladi. Maqola joriy ta'lim standartlari va pedagogik yondashuvlarni tahlil qilib, o'qituvchilar va siyosatchilar uchun talabalarning madaniy va axloqiy tarbiyasini oshirish uchun keng qamrovli asoslarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, ta'lim metodologiyasi, madaniy saqlash, pedagogik strategiyalar, axloqiy tarbiya, ta'lim standartlari.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОТРЕБНОСТИ В РАЗВИТИИ МЕТОДОЛОГИИ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ УВАЖЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ТРАДИЦИЙ

*Исоков Равшанбек Улугбек ўгли,
независимый исследователь Наманганского государственного университета*

Абстракт. В современных образовательных условиях воспитание у школьников уважения к национальным ценностям и традициям имеет большое значение для сохранения культуры и единства общества. В данной статье исследуются современные требования к разработке эффективных методологий достижения этой цели. В нем рассматриваются теоретические основы, практические стратегии и проблемы внедрения национальных ценностей в образовательные программы с акцентом на уроки истории. В статье анализируются современные образовательные стандарты и педагогические подходы, предоставляющие педагогам и политикам комплексную основу для улучшения культурного и нравственного воспитания учащихся.

Ключевые слова. национальные ценности, методология образования, сохранение культуры, педагогические стратегии, нравственное воспитание, образовательные стандарты.

MODERN REQUIREMENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE METHODOLOGY OF EDUCATING YOUNG STUDENTS IN THE SPIRIT OF RESPECT FOR NATIONAL VALUES AND TRADITIONS

*Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li
Researcher of Namangan State University*

Abstract. In modern educational conditions, education of respect for national values and traditions in young students is very important for the preservation of culture and unity in society. This article explores the contemporary requirements for developing effective methodologies to achieve this goal. It examines the theoretical foundations, practical strategies and problems of inculcating national values into educational programs, focusing on the lessons of history. The article analyzes current educational standards and pedagogical approaches, providing a comprehensive framework for educators and policymakers to improve the cultural and moral

education of students.

Keywords. national values, educational methodology, cultural preservation, pedagogical strategies, moral education, educational standards.

Kirish. Globallashuv va texnologik taraqqiyotning jadal sur'atlari milliy qadriyat va an'analarni asrab-avaylash va targ'ib qilish bo'yicha ta'lim tizimlariga zarurat tug'dirdi. O'zbekistonda va shunga o'xshash madaniy sharoitlarda yosh o'quvchilarda o'z merosiga chuqur hurmat tuyg'usini shakllantirishni ta'minlab, ushbu talablarga javob beradigan ta'lim metodologiyalarini rivojlantirish zarur. Borgan sari globallashib borayotgan dunyoda o'quvchi yoshlarda milliy o'zlikni anglash va madaniy merosga oid kuchli tuyg'uni saqlab qolish juda muhim. Ushbu maqolada milliy qadriyat va an'analarni hurmat qilishni targ'ib qiluvchi zamonaviy ta'lim metodikalariga ehtiyoj borligi haqida so'z boradi.[1] O'quvchilarning madaniy ildizlari va milliy o'zligini anglashlariga chuqur ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tarix ta'limiga asosiy e'tibor qaratilgan.

Nazariy asos. Ta'lim nazariyalari madaniy va axloqiy tarbiyani o'quv dasturiga kiritish muhimligini ta'kidlaydi. Haqiqiy hayotiy kontekstlarga asoslangan tajribalarni o'rganishni targ'ib qiluvchi konstruktivistik yondashuvlar milliy qadriyatlar va an'analarni o'zida mujassam etgan metodologiyalarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Amaldagi ta'lim standartlari. Zamonaviy ta'lim standartlari nafaqat o'quv qobiliyatlarini, balki madaniy va axloqiy kompetensiyalarni ham ta'kidlab, o'quvchilarni rivojlantirishga yaxlit yondashuvni talab qiladi. Milliy o'quv dasturlari o'quvchilarning madaniy merosini tushunishni o'z ichiga olgan muvozanatli ta'lim olishlarini ta'minlab, ushbu standartlarni aks ettirishi kerak.[2]

Milliy qadriyatlarni o'quv dasturlariga integratsiyalash

Samarali integratsiya quyidagilarni talab qiladi:

Tematik birliklar: Asosiy milliy qadriyatlar va tarixiy voqealar atrofida birliklarni loyihalash.

Fanlararo yondashuv: yaxlit tushunchani ta'minlash uchun tarixni adabiyot va san'at kabi boshqa fanlar bilan birlashtirish.

Madaniy tadbirlar: an'analarni bayramlar, sayohatlar va jamoatchilikni jalb qilish orqali birlashtirish.

O'qituvchilarni tayyorlash va resurslarni rivojlantirish. Ushbu ta'lim tashabbusida o'qituvchilar muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar malakasini oshirishning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi.[3]

Malaka oshirish dasturlari: Madaniy pedagogika va innovatsion o'qitish usullari bo'yicha seminar va kurslar.

Resurs yaratish: milliy qadriyatlarga qaratilgan darsliklar, raqamli vositalar va qo'shimcha materiallarni ishlab chiqish.

Pedagogik strategiyalar

Hikoya va tarixiy hikoyalar. Tarixiy voqealar va madaniy ertaklarni etkazish uchun hikoya qilishdan foydalanish o'quvchilarga o'zlarining meroslari bilan hissiy bog'lanishga yordam beradi.

Loyihaga asoslangan ta'lim. Talabalarni milliy qadriyatlar va an'analarni o'rganuvchi loyihalarga jalb etish faol o'rganish va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Dala sayohatlari va madaniy tadbirlar. Tarixiy joylarga tashriflar tashkil etish va madaniy festivallarda ishtirok etish talabalarga o'z merosi bilan bevosita tanishish imkonini beradi.

Multimedia resurslarining integratsiyasi. Raqamli vositalar va multimedia resurslaridan foydalanish o'rganish tajribasini oshirishi, tarix va madaniyatni yanada qulayroq va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Qiyinchiliklar va yechimlar. Ushbu metodologiyalarni amalga oshirish bir qator muammolarni hal qilishni talab qiladi:

O'qituvchilar malakasini oshirish: Milliy qadriyatlar va an'analarni samarali o'rgatish uchun pedagoglar yetarlicha tayyorgarlikka muhtoj.

O'quv dasturlarini ishlab chiqish: milliy merosni aks ettiruvchi kompleks va inklyuziv o'quv dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.[4]

Resurslarni taqsimlash: maktablarning ushbu metodologiyalarni amalga oshirish uchun zarur resurslar va yordamga ega bo'lishini ta'minlash.

Zamonaviy ta'lim standartlari va talablari. Samarali metodologiyalarni ishlab chiqish uchun ularni zamonaviy ta'lim standartlariga moslashtirish zarur. Bularga quyidagilar kiradi:

O'quv dasturlari integratsiyasi: Milliy qadriyatlar va an'analarni tarix o'quv dasturiga kiritish.[5]

Innovatsion ta'lim strategiyalari: interfaol va talabalarga yo'naltirilgan o'qitish usullaridan foydalanish.

Baholash: O'quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat va tushunchalarini o'lchash uchun formativ va umumlashtiruvchi baholashlarni amalga oshirish.

Pedagogik nazariyalar va ilg'or tajribalar. Ta'lim nazariyalari o'quvchilar bilan rezonanslashadigan metodologiyani ishlab chiqish uchun asos yaratadi.[6] Asosiy nazariyalar va amaliyotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Konstruktiv yondashuv: faol o'rganishni rag'batlantirish, bunda o'quvchilar milliy qadriyatlar haqida o'z tushunchalarini shakllantiradilar.

Madaniy-tarixiy faoliyat nazariyasi: ta'limning ijtimoiy konteksti va ta'limdagi madaniy vositalarning roliga e'tibor qaratish.

Loyihaga asoslangan ta'lim: talabalarni milliy tarix va an'analarni o'rganuvchi loyihalarga jalb qilish.

Case Study: O'zbekiston tarixi darsi. Tadqiqotda O'zbekiston tarixidan misol tariqasida foydalanilgan holda ushbu pedagogik strategiyalarni qanday qo'llash mumkinligi ko'rsatilgan. O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosidan olingan saboqlar o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishning amaliy namunasidir.[7]

Xulosa. Yosh o'quvchilarning madaniy-axloqiy kamol topishida milliy qadriyat va an'analarga hurmat tuyg'usini tarbiyalovchi samarali ta'lim metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim standartlari va innovatsion pedagogik strategiyalarni o'zida mujassamlashtirgan holda, pedagoglar nafaqat ta'lim beruvchi, balki madaniy merosga chuqur hurmat tuyg'usini uyg'otadigan ta'lim muhitini yaratishi mumkin. Milliy qadriyatlar va urf-odatlariga hurmat tuyg'usini uyg'otadigan uslublarni ishlab chiqish madaniyat va milliy o'zlikni saqlash uchun juda muhimdir. Ta'lim amaliyotini zamonaviy standartlarga moslashtirish, samarali pedagogik nazariyalardan foydalanish va o'qituvchilarning har tomonlama tayyorgarligini ta'minlash orqali o'qituvchilar o'quvchilarning madaniy va tarixiy tushunchalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.[8] Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu metodologiyalarning talabalarning madaniy o'ziga xosligi va fuqarolik faolligiga uzoq muddatli ta'sirini o'lchash uchun bo'ylama tadqiqotlarga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Maqsudovna A. X. milliy urf-odat va an'analarni mavzusini o'qitish texnologiyasi //Scientific Impulse. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 1055-1059.

Saidovna R. S. yoshlarni milliy qadriyatlar va urf-odatlar asosida ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirishda oila-ta'lim muassasasi va mahalla hamkorligining ahamiyati //Science Promotion. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 279-287.

To'lqinova D. milliy urf-odat, qadriyat va an'analarni asosida bola tarbiyasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2022. – T. 1. – №. 27. – C. 52-54.

Zaynitdinovna Q. N. et al. **MILLIY QADRIYATLARIMIZ-O'ZLIGIMIZ TIMSOLLARI** //Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10-13.

Ismatovna A. D. **milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyat va mazmuni** //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 17-22.

Akbarali O'g'li S. F. **Prospects for improving the technologies of developing legal thinking for schoolchildren (on the example of the province of Namangan)** //Current research journal of pedagogics. – 2023. – Т. 4. – №. 01. – С. 94-97.

Akbarali O'g'li S. F. **organization of experimental work and analysis of results on the improvement of technologies for improving the effectiveness of legal education and training of schoolchildren** //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – Т. 3. – №. 04. – С. 54-61.

Urolovna S. Z. **milliy va shaxsiy qadriyatlarning shakllanishida ma'naviy tarbiyaning ahamiyati** //fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya jurnali| journal of science, education, culture and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 126-129.

GENDER YONDASHUV ASOSIDA BITIRUVCHI SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Karimov Habibulla Qodomboyevich
Urganch Davlat Universiteti
mistaqil tadqiqotchisi
Orcid: 0009-0006-7194-4297*

Annotatsiya: Ushbu maqola gender yondashuv asosida bitiruvchi sinif o'quvchilarida ijtimoiy madaniy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Ijtimoiy madaniy kompetentlik- bu shaxsning turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, samarali muloqot qilish va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish qobiliyati bo'lib, u ijtimoiy ko'nikmalar, madaniy xabardorlik va madaniyatlararo muloqotni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: gender yondashuv, ijtimoiy madaniy kompetentlik, bitiruvchi sinif o'quvchilari, ijtimoiy ko'nikmalar, madaniy xabardorlik, madaniyatlararo muloqot, ta'lim tizimi, ijtimoiy rivojlanish, teng huquqlilik.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF SOCIAL CULTURAL COMPETENCE IN STUDENTS OF THE GRADUATING CLASS ON THE BASIS OF A GENDER APPROACH

*Karimov Habibulla Kadamboyevich,
Urgench state university mystic explorer*

Abstract: This article is devoted to the study of the theoretical foundations of the formation of social and cultural competence in students of the graduating class based on the gender approach. Sociocultural competence is a person's ability to function successfully in various social and cultural contexts, to communicate effectively, and to establish relationships with others, which includes social skills, cultural awareness, and intercultural communication.

Key words: gender approach, social cultural competence, students of the graduating class, social skills, cultural awareness, intercultural communication, educational system, social development, equality

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ВЫПУСКНИКОВ НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА

*Каримова Хабибулла Кодомбоевича,
Ургенчский Государственный Университет независимый исследователь*

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию теоретических основ формирования социокультурной компетентности учащихся выпускного класса на основе гендерного подхода. Социокультурная компетентность — это способность человека успешно функционировать в различных социальных и культурных контекстах, эффективно общаться и устанавливать отношения с другими людьми, которая включает в себя социальные навыки, культурную осведомленность и межкультурное общение.

Ключевые слова: гендерный подход, социокультурная компетентность, учащиеся выпускного класса, социальные навыки, культурное сознание, межкультурная коммуникация, система образования, социальное развитие, равенство.

Kirish. Hozirgi vaqtda ta'lim tizimi ustuvorliklarni o'zgartirmoqda. Ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi ta'lim mazmunini tolerantlashtirish va shaxsning o'zini o'zi anglash g'oyalari joriy etish, uning erkin o'zini o'zi belgilash huquqini tan olish, qobiliyatlarni to'liq rivojlantirish va o'quv jarayonida kognitiv ehtiyojlarni qondirishdan iborat. Bu fakt «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida ham qayd etilgan, unda ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi, uning gumanistik tabiati asosiy pedagogik vazifalar bilan belgilanadi. Shunday qilib, bitiruvchi sinf o'quvchilar shaxsiyati, uning rivojlanishi va takomillashuvining o'ziga xos xususiyatlari diqqat markaziga qo'yiladi [8; B.45.].

Zamonaviy ta'lim sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda, bu ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradigan sharoitlarni izlashning ob'ektiv zarurligini belgilaydi, maktabda ham, oliy ta'limda ham ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarni tashkil etishning maxsus shakli sifatida ta'lim jarayoniga yondashuvlarni o'zgartirishni talab qiladi.

Ijtimoiy madaniy kompetentlikni shakllantirish, ayniqsa, bitiruvchi sinf o'quvchilari orasida, ularning hayotga va jamiyatga moslashishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy madaniy kompetentlik - bu shaxsning turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, samarali muloqot qilish va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish qobiliyati. Bu kompetentlik quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Globalizatsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida, yosh avlodning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik shaxsning turli ijtimoiy va madaniy sharoitlarda samarali muloqot qilish, turli madaniyatlarni hurmat qilish va gender tenglikka asoslangan holda turmush tarzini shakllantirish qobiliyatini anglatadi. Bu jarayon ayniqsa, maktab ta'limida, xususan, bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun juda muhim hisoblanadi, chunki ular jamiyatga mustaqil qadam qo'yishga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar hisoblanadi.

Gender yondashuvining mohiyati va ahamiyati

Gender yondashuvi ta'lim jarayonida qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga, ularning huquq va imkoniyatlarini bir xil darajada rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv orqali ta'lim jarayonida jinsiy kamsitishlarning oldini olish, shuningdek, har bir o'quvchiga uning jinsidan qat'i nazar, o'z qobiliyatlarini to'liq namoyish etish imkoniyatini yaratish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Respublikamizda o'quvchilarda ijtimoiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha B.S.Abdullayeva [1; B.49.], R.G.Safarova[4; B.3105], M.M.Vaxobov, X.P.Nazarova, S.O'.Sharifzoda [6; B.14.], B.X.Xodjayevlar tadqiqotlar olib borganlar. Kompetensiya, ijtimoiy madaniy kompetentlik va gender yondashuv bo'yicha Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan V.I.Baydenko[2; B.15.] va B.Oskarsson, R.Z.Bogoudinova, Ye.A.Boyarskiy, Ye.A.Kagakina, V.V.Osipov va T.P.Bugayeva, O.A.Valixonova, G.I.Baturina[3], I.A.Zimnyaya, D.S.Rubinshteyn, A.R.Kamaleyevalarning ishlarida yoritilgan. Shuningdek, gender yondashuv asosida bitiruvchi sinf o'quvchilarida ijtimoiy madaniy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha xorij olimlari Alan Pulverness[5; B.495.], A.Bandura, Hutmacher Walo, D.Hymes, T.Radinger, A.Stoof[7; B.351.] kabi pedagog, psixolog, faylasuf, sotsiolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Muhokama.

Bizning fikrimizcha, o'qitishda gender yondashuvini qo'llashning asosiy shartlaridan biri o'qituvchining o'qitish uslubi, uning gender ta'limi bo'lishi kerak. Har bir o'qituvchi o'quv materialini taqdim etishning o'ziga xos uslubiga va uning gender xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tinglovchilar bilan muloqot qilish usullariga ega bo'lgan ma'lumot manbai hisoblanadi. O'quv dasturlari va metodologiyalarining ma'lum bir bolaning shaxsiga yo'naltirilganligi, o'quvchilarning qobiliyatlarini har tomonlama ochib berish va o'quvchining

jinsidan qat'i nazar, muvaffaqiyat holatini yaratish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish qobiliyati va qobiliyati uning kasbiy malakasi va pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchilar ko'pincha o'g'il bolalarni o'zini namoyon qilish, qat'iyatlilik va faollikka, qizlarni itoatkorlik, bag'rikenglik va tirishqoqlik, toza ko'rinishga undaydi, bolalar bilan ko'proq individual darslar o'tkaziladi, qizlarga qaraganda ularga ko'proq vaqt ajratiladi[9; B.701.].

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning tarkibiy qismlari

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Madaniy bilimlar: Turli madaniyatlar haqida bilimga ega bo'lish, ularning qadriyatlarini anglash va hurmat qilish.

Ijtimoiy muloqot ko'nikmalari: Boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, ularning nuqtai nazarini tushunish.

Gender tenglikni anglash: Jinsiy kamsitishlarsiz teng munosabatlarni shakllantirish va hurmat qilish.

Gender yondashuvi asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish mexanizmlari:

Ta'lim dasturlarini gender jihatdan boyitish: Ta'lim dasturlarida gender masalalariga oid mavzularni kiritish, o'quvchilarga jinsiy tenglikning ahamiyati haqida bilim berish. Misol uchun, tarix, adabiyot va ijtimoiy fanlarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikka oid mavzularni muhokama qilish.

O'quvchilarda gender sezgirlikni rivojlantirish: Ta'lim jarayonida o'quvchilarni gender tengligi masalalariga e'tibor qaratishga o'rgatish. Bu jarayonda o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatlarida gender tenglikka rioya qilishlari, shuningdek, o'quvchilarda tenglik tushunchasini shakllantirishlari lozim.

Madaniy tadbirlar va loyihalar tashkil etish: Turli millat va madaniyatlar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida o'quvchilarni madaniy tadbirlarga jalb etish. Masalan, milliy bayramlar, madaniy festivallar yoki xalqaro tadbirlar tashkil qilish orqali o'quvchilarni madaniy xilma-xillik bilan tanishtirish.

O'qituvchilarning malakasini oshirish: O'qituvchilar uchun gender masalari bo'yicha maxsus treninglar va seminarlar o'tkazish. Bu treninglar o'qituvchilarga gender tenglikni ta'lim jarayoniga qanday qo'shish kerakligini tushuntirishda yordam beradi.

Tarbiyaviy ishlar: Gender tenglikka oid tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, jumladan, sinf soatlari, uchrashuvlar va ma'ruzalar orqali o'quvchilarga gender tenglikni tushuntirish va ularni amaliyotga tadbiiq etishga rag'batlantirish.

Natijalar

Tadqiqot davomida bitiruvchi sinf o'quvchilarida gender yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish maqsadida bir qator pedagogik eksperimentlar va mashg'ulotlar o'tkazildi. Tajribaning maqsadi — gender tenglikka asoslangan holda ijtimoiy-madaniy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligini baholashdan iborat edi.

Tajriba metodikasi

Tajriba uch bosqichda amalga oshirildi:

Boshlang'ich baholash (diagnostika): Eksperiment boshlanishidan oldin o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasi aniqlanib, gender yondashuvga nisbatan mavjud tushunchalari va munosabatlari o'rganildi. Bunda savolnomalar, suhbatlar va testlar qo'llanildi.

Pedagogik ta'sir (interventsiya): Ta'lim jarayoniga gender tenglikka oid mavzularni qo'shish, madaniy tadbirlar tashkil etish, maxsus dars va mashg'ulotlar o'tkazish orqali o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar qo'llandi.

Natijalarni baholash: Eksperiment yakunida o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligi va gender tenglikka oid tushunchalarini qayta baholash uchun savolnomalar va testlar o'tkazildi. Shuningdek, o'quvchilarning bu jarayonda o'zgarishi va rivojlanish darajasi tahlil qilindi.

Tajriba natijalari

Tajriba natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

Ijtimoiy-madaniy bilimlarning oshishi: Eksperiment natijasida o'quvchilarning turli madaniyatlar, ularning qadriyatlar va urf-odatlar haqidagi bilimlari sezilarli darajada oshdi. Dastlabki testlar bilan solishtirganda, eksperimentdan keyin o'quvchilarning madaniy bilimlari 20-30% ga ko'paydi.

Gender tenglikni anglash darajasi: Pedagogik ta'sir natijasida o'quvchilarda gender tenglik tushunchasi chuqurlashdi. Dastlabki bosqichda jinsiy rollar va stereotiplar bilan bog'liq noto'g'ri qarashlar mavjud bo'lgan bo'lsa, tajriba yakunida ularning aksariyati bu stereotiplarni yangi va jinsiy tenglikni qo'llab-quvvatlashga o'tdi.

Ijtimoiy muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi: Tajriba davomida o'quvchilarda turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalari rivojlandi. Mashg'ulotlar va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etgan o'quvchilar boshqalarning madaniyatini hurmat qilishni, muammolarni hamkorlikda hal qilishni o'rgandilar.

O'quvchilarning gender sezgirligi oshishi: Tajriba davomida o'quvchilar gender sezgirlik va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Bu esa o'quv muhitida jinsiy tenglikka rioya qilish va kelajakda ijtimoiy munosabatlarda gender tenglikka asoslangan tamoyillarni qo'llashga bo'lgan qiziqishning ortishiga olib keldi.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligi: O'quvchilarga gender tenglik mavzusida o'tkazilgan tarbiyaviy ishlar ularning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab o'quvchilar jinsiy tenglikni o'z hayotlarida va jamiyatda muhim deb hisoblashni boshladilar.

Xulosa.

Tajriba natijalari gender yondashuv asosida bitiruvchi sinf o'quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlarining keng ekanligini tasdiqladi. Ta'lim jarayoniga gender tenglikni kiritish o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy bilimlarini kengaytiradi, jinsiy kamsitishlarga nisbatan sezgirligini oshiradi va turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, gender yondashuvi nafaqat o'quvchilarning madaniy bilimlarini oshiradi, balki ularni gender tenglikka asoslangan ijtimoiy hayotga tayyorlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Gender yondashuvi asosida bitiruvchi sinf o'quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Bu yondashuv orqali o'quvchilarda madaniy bilimlar, ijtimoiy muloqot ko'nikmalari va gender tenglikni anglash kabi qobiliyatlar shakllantiriladi. Natijada, yoshlar jamiyatga yanada tayyor, madaniy xilmaxillikni hurmat qiluvchi va tenglik tamoyillariga asoslangan tarzda kirib kelish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayonda o'qituvchilar va ta'lim muassasalarining roli beqiyosdir, chunki ular yosh avlodning kelajagini shakllantiruvchi asosiy omillardandir.

Ushbu mexanizmlar orqali bitiruvchi sinf o'quvchilarida gender yondashuvi asosida ijtimoiy madaniy kompetentlikni shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga ham katta yordam beradi. Ijtimoiy madaniy kompetentlikni shakllantirish, bitiruvchi sinf o'quvchilarini kelajakda muvaffaqiyatli va yetuk shaxs bo'lib etishiga yordam beradi. Ta'lim tizimi, o'quv-tarbiya jarayoni, oila va jamoatchilikning birgalikdagi harakatlari orqali bu maqsadga erishish mumkin. Bu jarayonda har bir o'quvchining jinsiy farqlarini inobatga olib, ularga teng imkoniyatlar yaratish muhimdir. Ijtimoiy madaniy kompetentlik shaxsning globalizatsiya jarayonlarida muvaffaqiyatli bo'lishi, turli madaniy muhitlarga moslashishi, ko'p madaniyatli jamiyatlarda faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Bu kompetentlik shaxsga nafaqat o'z madaniyatini anglash va hurmat qilish, balki boshqa madaniyatlar bilan konstruktiv muloqotda bo'lish imkonini ham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Abdullayev, B.S. (2006). Fanlararo aloqadarlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): Ped.fan. dok

дисс. avtoref, 49.

Baydenko, V. I. (2015). Bologna process: Present stage. *Vysshee obrazovanie v Rossii= Higher Education in Russia*, (10), 52-60.

Baturina, G. I. (1995). *Narodnaya pedagogika v vospitanii doshkol'nikov [Folk pedagogy in the education of preschool children]*.

Gaybullayevna, S. R. (2020). Pedagogical tools that serve the development of cultural views in the subjects of the educational process. *JCR*, 7(12), 3104-3108.

Pulverness, A. (2003). *Materials for cultural awareness. Developing materials for language teaching/Continuum*.

Sharifzoda, S. (2023). Bo'lajako' qituvchilarni genderyondashuvasosida ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga oid nazariy yondashuvlar. *Молодые ученые*, 1(18), 10-15.

Stoof, A., Martens, R. L., Van Merriënboer, J. J., & Bastiaens, T. J. (2002). The boundary approach of competence: A constructivist aid for understanding and using the concept of competence. *Human resource development review*, 1(3), 345-365.

Z. Boboeva, Z. Usmonova *Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi T.: O'zbekiston*. 2003.

Wood, J. W. *Gendered Lives. Communication, Gender, and Culture [Text]* I J. W. Wood. Beimon : Wadsworth Publishing Company, 1994. - 701 p

FIZIKA DARSLARIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI MOBIL DASTURLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Jamolova Shahlo Qobilovna-

Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi,

Ravshanova Shaxlo Erkinovna-

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola fizika fanini o'qitishda talabalarning hisoblash tafakkurini mobil texnologiyalar asosida rivojlantirishning ahamiyati haqida yoritilgan. Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida Fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar, o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish, o'qitish mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashda mobil dasturiy vositalardan foydalanish. Bo'lajak fizika fani o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyalarini dasturiy vositalar yordamida rivojlantirish pedagogik muammo ekanligi, kasbiy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, mobil ta'lim, mobil, mobil o'qitish, dogmatik metod, virtual laboratoriya, mobil texnologiyalar.

МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ ФИЗИКИ ЧЕРЕЗ МОБИЛЬНЫЕ ПРОГРАММЫ

Джамолова Шахло Кабиловна-

Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры точных наук,

Равшанова Шахло Эркиновна-

Студент 2 курса Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье описывается важность развития вычислительного мышления учащихся на основе мобильных технологий в обучении физике. В данной статье описаны требования к профессиональным компетенциям студентов физического факультета высших учебных заведений, совершенствование методической системы обучения, обеспечение взаимосвязи между содержанием, целью, задачей и всеми компонентами обучения с использованием мобильных программных средств. В подготовке будущих учителей физики развитие их профессиональной компетентности с помощью программных средств является педагогической проблемой, высказано мнение об анализе проводимой работы по формированию профессиональной компетентности.

Ключевые слова: компетентность, мобильное образование, мобильное, мобильное обучение, догматический метод, виртуальная лаборатория, мобильные технологии.

METHODOLOGY OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCES OF STUDENTS IN PHYSICS LESSONS THROUGH MOBILE PROGRAMS

Jamolova Shahlo Kabilovna,

Bukhara State Pedagogical Institute, teacher of the Department of Exact Sciences,

*Ravshanova Shakhlo Erkinovna-
Bukhara State Pedagogical Institute 2nd level student*

Abstract: This article describes the importance of developing students' computational thinking based on mobile technologies in teaching physics. This article describes the requirements for the professional competencies of students of the Physics Department in higher education institutions, improving the methodological system of teaching, ensuring the interrelationship between the content, purpose, task and all components of teaching. using mobile software tools. In the training of future teachers of physics, the development of their professional competence with the help of software tools is a pedagogical problem, opinions were expressed about the analysis of the work carried out on the formation of professional competence.

Key words: competence, mobile education, mobile, mobile teaching, dogmatic method, virtual laboratory, mobile technologies.

Kirish. Jahonda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonini to'raligicha yoki muayyan fan doirasida, ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq o'qituvchilar faoliyatini rejalashtirish va kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim oluvchilar tomonidan ketma-ket o'zlashtirishga yo'naltirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Jahonda barqaror taraqqiyotni oliy ta'lim sifatini ta'minlashdagi muammolarni bartaraf etishda ilmiy jihatdan turli yondashuvlar, tadbirlar amalga oshirilmogda. Bunday yondashuvlarga oliy ta'lim mazmunini yangilashga urinishlar, (dastur, darsliklar, o'quv qo'llanmalar), yangi o'quv va ilmiy manbalarni (chet el darsliklari) joriy etish mumkin. Xususan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay oladigan pedagoglar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojlari bilan izohlanadi. Jamiyatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli vazifalarini hisobga olish, talabalarga aniq fanlarni, jumladan, umumiy fizikani fanlararo integratsion o'qitish orqali kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar asosida kadrlar tayyorlash zaruratini taqozo qiladi. Mamlakatimizda ham ushbu talablarni to'laqonli bajara oladigan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagi "Fizika va uni o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalariga alohida etibor qaratib, 2021-yilda fizika va chet tillarini o'rganishni ustuvor yo'nalish etib belgilashni" taklif etganliklari misolida ham bu fanni o'qitishning naqadar dolzarbligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa Prezidentimizning 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham bu borada vazifalar belgilab berilgan:[1].

Mamlakatimiz rahbarining Janubiy Koreya, Angliya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlarning nufuzli mutaxassislarini ta'lim jarayoniga jalb qilish, yurtimizda xorijiy mamlakatlar universitetlarining filiallarini ochish, yoshlarimizning xorijda malaka oshirishi yoki o'qishi uchun imkoniyat yaratishga alohida e'tibor qaratishining boisi ham shunda. O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, talabalarining kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish hamda ushbu talablarni qanoatlantiradigan kadrlar sifatini oshirish nihoyatda ahamiyatli vazifadir. Yuqorida aytilgan fikrlarni inobatga olgan holda yurtimizda ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlarning barchasida ko'zlangan maqsad ta'lim

oluvchilarda fizika faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarni turli usul va vositalar yordamida takomillashtirish, qolaversa fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbga oid kompetensiyalarini rivojlantirish. Bunday turdagi ilmiy izlanishlarning bir qismini ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali sifatli ta'limni tashkil etish va uni rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimida texnologiyadan o'quv jaryonida vosita sifatida foydalanishda o'quvchiga etkazadigan bilim izchilligiga, o'quvchining bilim darajasiga, mashg'ulotlar davomida olgan kompetensiyasiga alohida e'tibor berishni, milliy qadriyatlarni saqlagan holda interaktiv yondashuv asosida mashg'ulotni tashkil talab etadi. Ta'lim tizimida oliy ta'lim muassasalarida o'quv materialini taqdim etishning zamonaviy va istiqbolli shakllaridan biri mobil ilovalardan bugungi kunda keng foydalanib kelinmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning hisoblash tafakkurini mobil texnologiyalar asosida rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari ishlab chiqish o'quvchilarga yetarli bilim va ko'nikmalarni berishda muhim omil ekanligi, shuningdek talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashda mobil texnologiyalaridan foydalanish orqali ularda hisoblash tafakkurini rivojlantirish muammosi dolzarbligini belgilaydi. Mobil ta'lim deganda biz mobil texnologiyalardan foydalangan holda o'quv vazifalari majmuasini hal qilishni tushunamiz. Shu bilan birga mobil ta'limni masofadan o'qitish bilan bir qatorda elektron ta'limning kichik turi ham deyish mumkin. Mobil ta'lim o'quvchilar tomonidan maxsus tashkil etilgan o'quv materiallarini o'zlashtirishni ta'minlaydi, ularga kirish mobil texnologiyalar va qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv quyidagi ta'riflarda o'z aksini topadi. Mobil ta'lim - talabaning joylashuvi o'zgarishi bilan cheklanmagan holda mobil qurilmalardan foydalangan holda tashkil etiladigan elektron ta'lim hisoblanib o'zining tezkorligi, mobilliligi va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Mobil o'qitish – bu mobil texnologiyalarni qo'llagan holda, yakka, guruhli va jamoali ta'lim olishning dars va darsdan tashqari o'quv faoliyatlarini o'z ichiga birlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan ta'lim olishning maxsus shakli hisoblanadi.. Talabalardagi bugungi kunda hisoblashda matematik amallarni bajarish izchilligi etishmasligi, fikrlash mantiqiy fikrlash va tizimli fikrlash kompetensiyalarini etishmasligiga olib kelmoqda. U algoritmik fikrlash va parallel fikrlashni o'z ichiga oladi, ular o'z navbatida kompozitsion fikrlash, namunaviy harakat, protsessual fikrlash va rekursiv fikrlash kabi boshqa fikrlash jarayonlarini o'z ichiga oladi[2-3].

Hisoblash tafakkuri masalalarni shakllantirish va tahlil qilish va ularni hal qilish, keng talqin qilishda qo'llaniladi. ularning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta'sirini aks etiruvchi quyidagi tamoyillarni ajratib olish kerak. Mobil texnologiyalarga asoslangan ta'lim metodlari ta'lim jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati sifatida ta'lim mazmunining asosini tashkil etgan bilim, faoliyat metodlari jamlanmasi hamda tajribani, shu bilan birga shaxsning ijtimoiylashuvi va individualligini takomillashtirishni o'z oldiga asosiy maqsadi qilib oladi. Ta'lim berishning maqsadi hamda vazifalari, shu bilan birga o'quvchilarning bilimlarni egallashi o'quv jarayonining mavjud imkoniyatlaridan foydalangan ravishda ilmiy izlanuvchilar o'qitish metodi tushunchasini aniqlashtirishning har xil variantlarini taklif qildilar. Ta'riflarni umumlashtirish ta'lim metodining quyidagi tarkibini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- metodni qo'llashning maqsadi;
- foydalanish shartlari; - o'qituvchi faoliyati;
- o'quvchilar faolligi;
- natijani nazorat qilish usuli va unga erishish mezonlari.

Umumiy qilib aytganda, talabalarning hisoblash tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usullarini amalga oshirishda mobil qurilmalarning aloqa imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Bu didaktik vazifalarni tegishli o'qitish usullari yordamida hal etish mumkin. Bu esa

batafsilroq bayon qilinadi. Dogmatik metod aniq fanlarni o'qitishda ushbu metoddan keng foydalaniladi. Qoidalar va formulalar auditoriyaga berilganda, o'qituvchi o'quvchilarga nima qilish kerakligini, metoddan qanday foydalanish lozimligini, qanday harakat qilish va qanday xulosa chiqarish kerakligini aytadi. O'qitishning dogmatik metodi – o'qituvchining materialni og'zaki, ko'rgazma vositalardan foydalanmay, dalil isbotsiz va faqat o'quvchilarni ma'lum bir o'quv materialni takrorlashga va yod olishgagina jalb etish bilan bayon qilishdan iborat. Afzalliklari: - bu metod vaqtni, energiyani va ko'plab asossiz yoki foydasiz fikrlashning oldini oladi; - bu o'quvchilarni yordamchi vositalarsiz (kalkulyator, elektron hisoblash vositalari) hisoblash tafakkurini oshirishga xizmat qiladi; - xotirani mustahkamlaydi; - muammolarni hal qilishda mahorat, samaradorlik va tezlikni oshiradi mobililikni hosil qiladi. Kamchiliklari: organilayotgan- mavzu o'quvchilar uchun zerikarli va qiziqarsiz bo'lib qolishi mumkin, chunki mexanik usul qiziqishni oshirmasligi mumkin; - mexanik yodlangan ma'lumotlarning ko'pchiligi tez orada unutilishi ehtimoli mavjud; - o'quvchilar boshqalarning g'oyalarini takrorlaydilar va qabul qiladilar va bu bilan boshqalarning g'oyalariga qaram bo'lib qolishi mumkin. Uni qanday yaxshilash yoki takomillashtirish mumkin. O'qituvchi tomonidan taqdim etilgan mavzu o'quvchilarda moslashtirilgan bo'lishi va talabalar tomonidan qat'iy qabul qilinib, taqlid qilinishi kerak. Qo'llasa bo'ladigan fanlar: aniq fanlar (informatika, matematika, kimyo, fizika va boshqalar) Qo'llanilishi: Talabalar tomonidan foydalanishi mumkin bo'lgan barcha didaktik vositalar (darslik, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatma, daftar, mobil telefon, elektron hisoblash vositalari ...) yig'ib olinadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan formulalar, hisoblashga oid misollar, mantiqiy fikrlashga oid topshiriqlar tarqatiladi va 10-15 minut tayyorgarlik ko'rishi uchun vaqt beriladi. So'ngra har bir o'quvchi o'ziga berilgan topshiriqni sinf doskasiga chiqib himoya qiladi. Mobil so'rov hamda ovoz berish metodlari Mobil so'rov xizmati test ko'rinishida shakllantiruvchi baholashni amalga oshirish imkoniyatini beradi hamda bitta o'quvchiga ko'ra, auditoriyadagi barcha o'quvchilarning ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Tezkor mulohazalar, fikrlar har bir talabaning topshiriqni aniq vaqtda o'zlashtirishdagi taraqqiyoti yoki aksincha talaba duch kelgan qiyinchiliklarni kuzatish imkoniyati mavjud. Mobil qidiruv metodi Bugungi kunda internet tarmog'isiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Ko'pchilik talabalar mavzuni o'rganishda ta'limni bajarish jarayonida asosan internet xizmatlaridan foydalanadilar. Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning fizikadan nazariy bilimlarini shakllantirish, fizik hodisa, jarayon, qonun va qonuniyatlarning mohiyatini chuqur fikr yuritish orqali anglab yetish, o'quvchilar faolligini oshirish va fizik qiziqishlarini amalga oshirish hamda hisoblash ishlarini bajarishda masalalar yechishning o'rni alohida ahamiyatga ega. Binobarin, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish", "Ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish" kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Hozirgi kunda bu muammolarning dolzarbligi yanada oshib, ta'lim sohasida ota-onalar hamda o'quvchilar tomonidan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablar ta'limni innovatsion usullarda yangi mazmun bilan to'ldirish zarurligini taqozo etadi. Fizikadan virtual laboratoriya ishini bajarishning texnologik tarkibiy tuzilmasi asosida mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan. Mavzularning asosiy tushunchalarini shakllantirish metodini elektron o'quv dasturiy ta'minotlardan foydalanib, qisqa vaqtda samarali amalga oshirish, olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash bo'yicha namoyish tajribalari va virtual laboratoriya ishlarini o'tkazishda ulardan foydalanishning izchil metodlari ishlab chiqilgan. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashda fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarini elektron dasturiy ta'minot (EDT) bilan to'yingan muhitda, axborot ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishga ustuvorlik berish fizikadan berilayotgan topshiriqlarni qayta aloqali vizual muhitda baholay olish, maxsus kasbiy kompetensiya mazmuni o'rganish hamda animatsion turdagi

dasturiy ta'minot materiallari mazmunini ishlab chiqish o'rganish asosida amalga oshirildi. Bu ayni paytda o'quv mashg'ulotlarining produktivlik darajalariga samarali ta'sir o'tkazadi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining qo'l telefon, planshet, aypet va boshqa elektron jihozlardan foydalanish orqali ularni faoliyatini nazorat qilish imkoniyatlari ochiladi ularda kreativ fikrlari va hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga doir elektron o'quv-metodik ta'minot ishlab chiqiladi shuningdek, asosiy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda EDT bo'yicha maxsus kompetensiyalari ro'yxati aniqlaydi. Didaktik tamoyillar asosida ishlab chiqilgan mashg'ulot ishlanmalari mavzular bo'yicha mashg'ulotning mavzusi bo'yicha metodik ko'rsatmalar, tushuntirish algoritmi, mavzuni mustahkamlash bo'yicha nazariy savollar, mashg'ulot yakuni da o'quvchilarning bilim saviyasi baholanadi [4]. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda mobil ilovalardan foydalanish orqali ulardagi mobil aloqani rivojlantirish bilan bir vaqtda ta'limdagi didaktik tamoyillarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni inobatga olgan holda yurtimizda ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlarning barchasida ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilarda fizika faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarni turli usul va vositalar yordamida takomillashtirish, qolaversa fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbga oid kompetensiyalarini rivojlantirish. Bunday turdagi ilmiy izlanishlarning bir qismini ko'rib chiqamiz.

Yusupov Erkinjon Xurramovich "Fizika o'qitish metodikasini smart-texnologiyalar yordamida takomillashtirish (7-sinf fizika fani misolida)" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, dunyoda tabiiy fanlar, jumladan, fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning vizual tasavvurini rivojlantirish, fanlarni integratsiyalab o'qitish mexanizmlarini yaratish, metodik va didaktik asoslarini takomillashtirib amaliyotga tatbiq etish, SMART-texnologiyalar va interfaol usullar asosida loyihalash, jarayonga tadbiq qilish va takomillashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish, bilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali kompetentlik hamda madaniyatni rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borib, o'quvchilarda SMART-texnologik bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganib chiqqan. Innovatsion ta'limning fizika faniga doir bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rnini SMART-texnologiyalarning tashkiliy komponentlari mazmunini ochib bergan, fizika fanini o'qitish jarayonlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillarni SMART-texnologiyalarning xususiyatiga ko'ra tasniflash asosida aniqlashtirishgan, SMART-texnologiyalarning fizika mashg'ulotlaridagi modellashtirish funksiyasini fizik hodisalarni vizual tasvirlash imkoniyatlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirib, fizika fanini SMART-texnologiyalar asosida o'qitishni samarali amalga oshirishda dasturiy ta'minotlarni qo'llash metodikasini ishlab chiqqan.

Mirzoyev Dilshod Po'lotovich "Talabalarni kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, energetika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartiga asoslangan malaka talablari va o'quv dasturlari mazmuni hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga qo'yilgan innovatsion talablarni qamrab olgan loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslangan ta'lim jarayonini shakllantirish tizimini takomillashtirdi. bo'lajak energetika ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga oid kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirishning didaktik imkoniyatini aniqlashtirib, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, dasturiy ta'lim vositalarini qo'llash bilan ularning umumiy tuzulmasi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rgandi, elektr energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish orqali pedagogik modelini ishlab chiqish asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqdi.

Xanimqulov Baxrom Raxmonqulovich “Integratsiyalashgan darslarda mobil o’qitish texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, dunyo miqiyosida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o’qitishda o’quvchilarining fanga tegishli yangi axborotlarni ro’yxatga olish, to’plash, saqlash, uzatish, aks ettirish, translyasiya qilish, axborotni elektron shaklda yaratish, tahrirlash, saqlash, nusxalash va uzatishning umumiy usullarini bilish, taqdimot texnologiyalari yordamida ma’lumotlarni taqdim etish, internetda ma’lumot izlash ko’nikmalarini egallash kabi axborot kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor berilayotgani, umumta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mobil texnologiyalar asosida o’qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirib, uslubiy-didaktik ta’minotini ishlab chiqqan, umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mobil texnologiyalar asosida o’qitish metodikasini takomillashtirishning klasterli modeliga asoslangan didaktik modelini ishlab chiqqan, umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mobil texnologiyalardan foydalanganlik darajalarini aniqlab, baholash mezonlarini ishlab chiqqan.

Irkabayev Jumanali Usmanovich “Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o’qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, jahon miqiyosida fizika fanini o’qitish samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan ko’plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligini inobatga olgan holda, mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, uning huquqiy bazasini mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar fizika fanini o’qitishga ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini oshirayotganligini aytib o’tgan. Oliy ta’lim muassasalarida fizikani axborot texnologiyalaridan foydalanib o’qitishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini aniqlab, ta’lim texnologiyalari muhitda fizik jarayon va hodisalarni talabalar qobiliyatlariga mos o’qitishning produktivlik darajalarini takomillashtirgan, fizikani o’qitishning empirik bilim shakllari asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga doir o’quv-metodik ta’minotini ishlab chiqqan, fizikadan darslarni tashkil etish texnologiyasi asosida modernizatsion ko’rsatkichlar va bilim natijalarini avtomatik baholash samaradorligini takomillashtirgan.

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich “Oliy o’quv yurtlarida yadro fizikasi bo’limini o’qitish metodikasini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish” mavzuida ilmiy izlanishlar olib borib, oliy ta’limda yadro fizikasini o’qitishning hozirgi holatining tahlili asosida yadro fizikasiga doir mavzular mazmunini takomillashtirish orqali o’qitish samaradorligini oshirish shart-sharoitlarini aniqlab, fizika o’qitish metodikasida qo’llanilgan zamonaviy innovatsion kompyuter texnologiyalarini yadro fizikasi bo’limini o’qitishdagi imkoniyatlari, qo’shimcha zamonaviy texnologiyalar va umumpedagogik tamoyillar hamkorligida ta’lim jarayonida talabalarni intellektual rivojlantirish metodikasini harakat modeli yordamida takomillashtirib, talabalarning ilmiy dunyoqarashlari, kasbiy kompetensiyalari, ijodiy kognitiv rivojlanishlariga yo’naltirilgan, yadroviy jarayonlarni dinamik va statik manzaralarini namoyish etadigan, pedagogik va axborot texnologiyalarining integratsiyasini ta’minlovchi innovatsion didaktik vositalar, elektron darsliklar, taqdimotlar, o’quv qo’llanma va uslubiy ko’rsatmalar yordamida o’quv metodik ta’minotini yaratish hamda o’quv mashg’ulotlari mazmunini boyitish bilan o’quv metodikasini takomillashtirib, yadro energetikasining fizik asoslari va energiya manbalarining ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi ahamiyatini yadro fizikasini innovatsion o’qitish orqali talabalarda atom energetikasi haqida adekvat munosabatni shakllantirgan.

Buzrukov To’lqin Omonovich “Umum o’rta ta’lim maktab o’quvchilarida fizikadan masalalar yechish asosida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, o’quvchilarda fizikadan turli tipdagi masalalar yechish orqali fanga oid

kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari integratsiyasiga asoslangan eksperimental masalalarni produktivlik darajalarda qo'llash asosida ochib berib, o'quvchilarda fizikadan turli tipdagi masalalarni tanlash va yechish orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish modelini ishlab chiqish va turli metodlarni o'qituvchilarni algoritmik munosabatda kiritish asosida takomillashtirib, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida masalalar oson yechish va hayotda moddiy dunyoning umumiy qonuniyatlaridan foydalanish ko'nikmalarini hamda induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish qobiliyatlarini individual yo'naltirilgan o'quv muhitida qo'llash asosida takomillashtirish, o'quvchilarda amaliy va ilmiy xabardorlik kompetensiyalarining shakllanganligini mustaqil ish va nazorat darslarda shaxsiy monitoringli munosabatda qo'llash asosida takomillashtirish bo'yicha o'z ilmiy fikrlarini bayon qilgan. Biz yuqorida bir qancha olimlarning fizika sohasida olib borgan ilmiy izlanishlarini ko'rdik. Bunda ular fizika fanini o'qitishda talabalarning ilmiy dunyoqarashi, fanni qanday qilib qanday usullar orqali o'qitishga, ta'lim oluvchilarni kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasi yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borganlarini ko'rdik. Ammo bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini dasturiy vositalari asosida rivojlantirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmagani inobatga olib, biz aynan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida dasturiy vositalarga yuzlandik[5-10].

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarga fizika kursini o'qitish jarayonida maqolada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish orqali darsning o'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish, mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash qismlarini samarali tashkil etish mumkin. Umuman darsni yanada samarali, natijador va qiziqarli qilib tashkil qilishda ta'limning turli interfaol usullaridan tashqari mobil dasturiy vositalardan ham foydalanish foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PQ-5032-сон 19.03.2021. Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida LEX.UZ
2. Alimov M.A. "Ta'lim-tarbiya tizimini mobil texnologiyalar asosida modernizatsiyalash istiqbollari, Eurasian journal of Social sciences, philosophy and culture 2022-yil 17-aprel, 31-35 bet
3. Axmedov A.A., Джораев М. Модернизация компетентности будущего учителя физики. Физика в школе. –Москва, №7. –2015. –С. 20-23.
4. Axmedov A.A., Хайдаров Б. К. Инновационная технология при выполнении современных лабораторных работ по физике XXII International Scientific and Praktikal Conference «International Scientific Review of the Problems and Prospekts of Modern Science and Education». –USA, Boston. 2016. №4(14) –Pp. 181-184.
5. Alimov M.A. —Raqamli boshqarish tizimlari fanini o'qitish jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali. Toshkent-2022-yil 3-son 202-207 bet.
6. Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning xususiyatlari Maxkambayev A.X. Usmonov Sh.F.
7. Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodining imkoniyatlari. Orishev J.(2021) 123- bet
8. Mustafayev O' R. (2024). Maktab fizika darslarida o'quvchilar faolligini oshirishda Sun'iy intellektning o'rni. Pedagogik akmeologiya, 2(10), 218-221.
9. Rustamovich, M. U. (2023). Comparative Analysis of 6th Grade Natural Science Textbooks of Uzbekistan and Turkey. International Journal of Formal Education, 2(3), 114-120.
10. Daminov, M. I., Kakhkhorov, S. K., & Mustafayev, U. R. (2020). STUDYING THE BASIS OF NANOTECHNOLOGY IN THE SCHOOL PROGRAM PHYSICS. Scientific reports of Bukhara State University, 3(4), 320-324.

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING BOSHQARUV XODIMLARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA TA'SIRI

*Jo'rayev Voxid Tojimamatovich
Farg'ona davlat universiteti dotsenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) boshqaruv xodimlarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni va ta'siri ko'rib chiqilgan. T.A. Lavina ma'lumotlari asosida AKT vositalaridan foydalanish orqali muloqot qilish, ijtimoiy-madaniy ma'lumotlarni vizuallashtirish, kompyuter modellarini qo'llash, axborotlarni saqlash va ularga kirish imkoniyatlarini oshirish kabi jihatlari ta'kidlangan. Maqolada, shuningdek, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishi va jamiyatda AKTning keng ko'lami funksional imkoniyatlari tufayli samaradorlik oshishiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), raqamli texnologiyalar, boshqaruv xodimlari, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, ta'limni raqamlashtirish

РОЛЬ И ДЕЙСТВИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЕНЕДЖЕРОВ

*Жураев Вохид Тажимаматович
Доцент Ферганского государственного университета*

Абстракт. В данной статье рассматривается роль и влияние информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) на формирование социальной и культурной компетентности управленческого персонала. Т.А. На основе данных Avalanche были подчеркнуты такие аспекты, как общение посредством использования инструментов ИКТ, визуализация социокультурной информации, применение компьютерных моделей, хранение информации и расширение доступа к ней. В статье также подчеркивается, что цифровые технологии кардинально изменят систему образования и повысят эффективность общества благодаря масштабным функциональным возможностям ИКТ.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), цифровые технологии, управленческий персонал, социокультурная компетентность, цифровизация образования

THE ROLE AND EFFECT OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF MANAGERS

*Zorayev Vokhid Tajimamatovich
Associate Professor of Fergana State University*

Abstract. This article examines the role and impact of information and communication technologies (ICT) in the formation of social and cultural competence of management staff. T.A. On the basis of Avalanche data, aspects such as communication through the use of ICT tools, visualization of socio-cultural information, application of computer models, information storage and increasing access to them were emphasized. The article also emphasizes that digital technologies will fundamentally change the education system and increase efficiency in society due to the large-scale functional capabilities of ICT.

Key words: information and communication technologies (ICT), digital technologies, management staff, socio-cultural competence, digitization of education.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, madaniyat va ta'lim kabi sohalarning deyarli barchasi AKT vositalariga tayanmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga ham katta o'zgarishlar olib kirib, uni modernizatsiya qilishga zamin yaratdi. Xususan, masofaviy ta'limning kengayishi, onlayn ta'lim platformalarining rivojlanishi va o'quv jarayonlarini raqamlashtirish orqali ta'limning yangi usullarini amalga qo'llash imkoniyati yaratildi. AKT yordamida axborotlarni tezkor yig'ish, tahlil qilish va uzatishning samaradorligi oshdi, bu esa ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugungi kunda AKTsiz insoniyat hayotini tasavvur qilish qiyin. Ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish hamda madaniyat sohaslarida ham ijtimoiy munosabatlarning asosiy qismi AKT yordamida amalga oshirilayotgan bir vaqtda ta'lim muhitini raqamlashtirish muammosi ham tobora dolzarblashmoqda.

AKTning tezkor rivojlanishi va uning keng ko'lamli funksional imkoniyatlari turli sohalarda axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va uzatishda katta samaradorlikka erishish imkonini bermoqda. Bu jarayon «raqamli texnologiya» sifatida tan olingan bo'lib, muayyan sohalarda mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlarni axborot-kommunikatsion texnologiyalar orqali amalga oshirishni anglatadi. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish on-line va off-line ta'lim shakllarini qamrab oladi, ya'ni masofaviy ta'limni AKT yordamida tashkil qilish imkonini beradi.

So'nggi o'n yilliklarda til iste'molida "raqamli texnologiya", "raqamli iqtisodiyot" va "raqamli ta'lim" kabi tushunchalarning faol qo'llanilishi kuzatilmoqda. Raqamli texnologiya – bu axborotni kodlashtirish va uzatish orqali turli vazifalarni tezkor hal qilish imkonini beruvchi diskret tizimdir. Raqamli iqtisodiyot esa raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish, savdo-sotiq va xizmatlarni yo'lga qo'yish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatni anglatadi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy munosabatlarni avtomatlashtirish va nazorat qilishni yaxshilaydi, davlat budjeti mablag'larining samarali yo'naltirilishiga ko'maklashadi.

O'qitish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish "ta'limni raqamlashtirish" deb nomlanadi. Mohiyatiga ko'ra ta'limni "raqamli o'zgartirish" o'qitish tizimi va jarayonining elektron tizimga o'tkazilishini, "ta'lim jarayonining natijasi sifatida shaxsga yo'naltirilgan muhitni yaratishda eng yangi texnologiyalari samarali va tezkor qo'llay olish" anglatadi. Bunda barcha o'quv hujjatlari – o'quv rejalari, fan dasturlari, tegishli fanlarning ishchi-o'quv dasturlari, guruh jurnallari, o'quv materiallari onlayn shaklga o'tkaziladi. Talabalar istalgan sharoitda – axborot-resurs markazida, uy sharoitida Internetga bog'lanish orqali masofadan tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlari, sinov va imtihonlarda ishtirok etishi mumkin. Buning uchun talabalarning shaxsiy kompyuter yoki planshetlar bilan ta'minlangan bo'lishi talab etiladi.

Raqamli jamiyatiga o'tish jarayonida inson faoliyatining turli sohalari axborotlashtirish va raqamlashtirish jamiyatda axborot madaniyatini shakllantirishning zaruriyatini oshiradi. Hozirgi bosqichda jamiyatning axborot madaniyatini shaxsning axborot madaniyati darajasiga olib chiqish masalasi qo'yilmoqda. Raqamli jamiyat – bu raqamli texnologiyalar, xususan, katta xajmdagi axborotlar, sun'iy intellekt, algoritmlar va algoritmik tizimlar, bulutli hisoblash va blokchen, platformalar va boshqa raqamli texnologiyalar orqali ishlaydigan jamiyatni tashkil etish va jamiyatdagi ijtimoiy o'zaro ta'sirning asosiy shakli. Xorijiy tadqiqotlarda ta'limni raqamlashtirish tashkiliy masalalar, texnologik infratuzilmadan boshlanib, pedagogik yondashuvlar bilan yakunlanadigan turli jihatlarni o'z ichiga oladi hamda interaktiv va moslashuvchan ta'lim dasturlarini taklif qilish orqali xalqaro miqyosda raqamli jamiyatni tashkillashtirishga ta'sir qiladi. Deyarli barcha tadqiqotlar, ta'limni raqamlashtirish odamlarni jamiyatdagi o'zgarishlarga va kasbiy muhitga moslashtirishning moslashuvchan ko'nikmalarini

rivojlantirishga olib keladi degan tushuncha bilan bog‘liq

Dunyodagi yetakchi mamlakatlar ta‘lim sohasida raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish orqali sifatli ta‘lim xizmatlarini taklif qilishmoqda. Masalan, Finlyandiya FOUAS platformasi, Singapurda SNSP, Yaponiyada Cloud Campus va Web Class singari platformalar sifatli ta‘limga erishishga yordam berdi. Singapur 2017-2018 yillarda raqamli texnologiyalar bo‘yicha Jahon reytingida yetakchi o‘rinlarni egalladi.

Janubiy Koreyada SMART Education loyihasi mehnat bozori uchun raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Janubiy Koreyaning ta‘lim tizimini raqamlashtirish borasidagi muvaffaqiyatli loyihalaridan biri – bu Smart-maktablar loyihasidir. Smartmaktablar – bu to‘liq kompyuterlashgan umumta‘lim muassasalari bo‘lib, ularda o‘quvchilar axborot resurslaridan foydalanishni o‘rganadilar. Janubiy Koreya keng polosali internet va ovozli aloqadan foydalanuvchi yuqori texnologiyali mamlakat sifatida yetakchi pozitsiyaga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Mamlakatda raqamlashtirish dasturlarini amalga oshirishda tayanch rolni davlat o‘ynaydi. Bunda muvaffaqiyatning garovi bo‘lib, xususi kompaniyalarning raqamlashtirish jarayonlariga faol jalb etilganligi hisoblanadi. Janubiy Koreyada “Kelajak maktablari” loyihasi maktab o‘quvchilarini adaptivlik, o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish ruhida tarbiyalash, ulkan axborot oqimlariga yo‘naltirilgan elektron ta‘lim, raqamli texnologiyalar bilan ishlashga yo‘naltirilgan loyiha hisoblanadi.

«University of the People» to‘liq raqamlashtirilgan universitet bo‘lib, u ta‘lim jarayonlarini Moodle platformasi orqali raqamli makonga olib chiqishni ta‘minlaydi. Finlandiya va Germaniyaning Geydelberg texnoparklari kabi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasida universitetlar yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishda va fan bilan biznes o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. AQShda esa davlat tomonidan universitetlarning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash amaliyoti mavjud bo‘lib, bu oliy ta‘lim muassasalariga ilmiy va tadqiqot natijalaridan foyda olish imkonini beradi. Raqamli transformatsiya jarayoni esa ta‘lim tashkilotlarini yangi modellar asosida qayta shakllantirishga xizmat qiladi. Rossiyada «Raqamli ta‘lim muhiti» loyihasi doirasida IT-Kub va hakathonlar amalga oshirildi, Moocle tizimi orqali masofaviy ta‘lim kengaytirildi. O‘zbekistonda ham MOODLE, Platonus, Google Classroom va boshqa platformalar orqali masofaviy ta‘lim yo‘lga qo‘yilgan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida esa «Remote-education» platformasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Har qanday jarayonda bo‘lgani kabi ta‘lim tizimini raqamlashtirish ham nazariy-metodologik jihatdan puxta asoslanishni taqozo qiladi. Raqamli ta‘lim muhitini yaratishning metodologik asoslari sirasida tamoyillar ham ustuvorlik kasb etadi. Binobarin, tamoyillar faoliyatni tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish, yo‘nalishlarni oqilona belgilash, maqsad va natija o‘rtasidagi aloqadorlikni belgilab beradi.

O'quv vazifa (muammo)larini mustaqil ajrata olish, o'quv faoliyatining yangi metodlarini egallash, o'z o'quv faoliyatining o'zini-o'zi nazorat va baholash metodlarini egallash quyidagi usullar yordamida amalga oshirilishi muhim: ishlarni guruhlarda tashkil etish, o'yinli va musobaqali shakllar, o'zaro tekshirish, muammolarni jamoaviy hal etish, bir-biriga yordam berish, «sinash va xatolik metodi» orqali o'quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb etish; materialni yetkazishning o'ziga xos shakli; tahlil, o'quv obyektlarini solishtirish, o'quvchilar o'qishini tashkil etish, bilimlar yetishmasligi vaziyatini yaratish, ziddiyatlarni o'rnatish orqali muammoli vaziyatlarni yaratish; hamkorlikda muammolarni yechish, ziddiyatlarni bartaraf etish, evristik suhbat, o'quv diskussiya, fanlarning jiddiy belgilarini ajratish, klassifikatsiyalash, umumlashtirish, modellashtirish orqali darsda hamkorlik qilish; refleksiyaning tashkil etish, oraliq natijalarni baholash orqali o'quvchilarni baholash faoliyatiga jalb etish; baholash, tashakkur, og'zaki rag'batlantirish, eng yaxshi ishlar ko'rgazmasi, o'qituvchilarga yordam berish, topshiriqlarni murakkablashtirish orqali faoliyatni stimullashtirish.

Ishlarning bunday shakllari o'qituvchilarga o'quvchilarda o'qishga qiziqishni, bilimlarni mustaqil egallashga istakni, o'z o'rtog'iga yordam berishni, xotira, fikrlash, tasavvur qilishni mashq qilishni, fanlarni o'zlashtirish bilan yaxshi natijalarga erishishni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning bilishga qiziqishlarini oshirishda o'yin samarali natija beradi. O'yin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini oshiradi. O'quvchilarni o'yin faoliyatiga jalb etish darsga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Darsda o'qituvchi «ijodiy daqiqa»dan foydalanish, ya'ni, o'quvchining she'r, topishmoq, ertak, matal to'qishi yaxshi natija beradi. Bunday metodlarni qo'llash kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining «4k» ko'nikmalarini PIRLS baholash dasturi talablari asosida shakllantirishda o'qituvchi quyidagi zamonaviy texnologiyalarni egallagan bo'lishi muhim: muammoli o'qitish, ijodiy o'yin, mustaqil ishlashni tizimli shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, guruhlarda ishlash, axborotlarni tahlil qilishi va saralash [2]. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha quyidagi metodlarni ham ko'rsatish mumkin.

Hikoya metodida o'quvchilar suhbat orqali yangi bilimni qabul qilishga tayyorlanadi. Hikoya muqaddima, bayon va xulosadan iborat bo'ladi. Muqaddima vaqtida o'quvchi faoliyatining vazifalari to'g'risida tushunarli shaklda xabar beriladi. Hikoya bayonida o'qituvchi yangi mavzu mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja asosida bilim berib, ichidan muhimlarini ajratib, ko'rgazmali va ishonarli misollar bilan izchil bayon qiladi. Hikoya-xulosa, odatda, mashg'ulotning oxirida keltiriladi. O'qituvchi bu metod orqali asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun savollar hamda topshiriqlar beradi.

Suhbat metodi atroficha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi aloqani ko'zda tutib, ularning mustaqil fikrlay olishiga yangi tushunchalarni egallashiga olib keladi. Bu metodni qo'llashda savollarga o'quvchilarning javoblari muhokama qilinadi, xulosalarni shakllantiriladi.

Suhbat o'tkazilgandan keyin bajarilgan ishlarga ushbu maqsadga yo'nalgan savollar yordamida yakun chiqarish kerak. Masalan, "Ozuqa izlab" matni bo'yicha "Chuvalchang qanday rivojlanadi?", "Uning tashqi ko'rinishi qanday?", "Chumolining tanasi qanday shaklda?", "U qanday harakat qiladi?", "Nima bilan ovqatlanadi?", "Chumoli qancha vaqt ozuqa izlaydi?", "Chumoli inida nima bo'ladi?", "Chuvalchang qanday hosil bo'ladi?", "U qancha vaqt yashaydi?" va boshqa savollar ipak qurti bo'yicha olib borilgan suhbatdan keyin o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantiradi, chunki savollarga javoblar ishlab chiqarish kuzatishlari bilan quvvatlangan bo'ladi.

Suhbatning o'quv va didaktik maqsadiga ko'ra: kirish suhbat, takrorlovchi suhbat, bayon qiluvchi suhbat va yakunlovchi suhbat. Kirish suhbat yangi mavzuni o'rganish va tahlillash oldidan foydalaniladi. Uning maqsadi o'quvchilardagi darsda o'rganiladigan masala bo'yicha tasavvurlarni aniqlash yoki tiklashdir. Masalan, "Charlining qobiliyati" mavzusini o'rganishga kirisha turib, kirish suhbat vaqtida o'quvchilarga ushbu savollarni berish maqsadga muvofiq: "Kim dalada bo'lgan?", "Dalalarda nimalar o'sadi?", "Siz qanday daraxtlarni bilasiz?", "Siz qanday daraxtlarni parvarishlagansiz?", "Sizga qanday yer ya'ni tuproq tagida pishadigan sabsavotlarni bilasiz?" Faqat shundan keyingina o'qituvchi yangi materialni tushuntirishga kirishadi.

Takrorlovchi suhbat o'rganilgan materialni mustahkamlash va anglab olishga yordam beradi. U yangi materialni o'rganilgandan keyin shu darsning o'zida, muayyan mavzu yoki bo'lim o'rganilgandan keyin o'tkaziladi. Yakunlovchi suhbat o'quvchilar o'rganilgan mavzu bo'yicha xulosa chiqara olishlari uchun o'tkaziladi. Masalan, «Minib ko'ring» mavzusi o'rganilgandan keyin quyidagi savollar bo'yicha yakunlovchi suhbat o'tkaziladi: "Biz qanday mavzu bilan tanishdik?", "Qanday yangiliklarni bildik?", "Velosiped qanday tuzilishga ega?", "Velosiped narxi nimaga bog'liq?". Shuningdek, "Mening eng sevimli mashg'ulotim" mavzusida ilmiy ma'lumotlarga tayangan holda matn tayyorlash topshiriq'ini berish mumkin. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarni ushbu topshiriq'ni mustaqil bajarishga yo'naltirish maqsadida "Bolalar ensiklopediyasi", bolalar uchun mo'ljallangan gazeta-jurnallardan yoki internet ma'lumotlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Agar o'quvchida boshlang'ich bilimlar yetishmasa, u muammoli vaziyatlarni qabul qila olmaydi. Muammoli vaziyat nimanidir anglash uchun o'quvchiga mavjud bilimlar yetarli bo'lmasa; yangi talablar bilan o'quvchilarda mavjud bilimlar o'rtasida nomuvofiqlik aniqlansa (eski bilimlar bilan yangi faktlar o'rtasida, past va yuqori bilim darajalari o'rtasida, turmush va ilmiy bilimlar o'rtasida); ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni yangi amaliy sharoitlarda foydalanish zaruriyati, vazifalarni yechishning nazariy imkoniyatlari bilan tanlangan metodni amaliy amalga oshirish mumkin bo'lmasligi o'rtasida ziddiyatlar hamda o'quv topshiriqlarini bajarishda amaliy erishilgan natijalar bilan o'quvchilarda uni nazariy asoslashga bilimlar yetishmasligi o'rtasida ziddiyatlar bo'lgan holatlarda yuzaga keladi.

Muammoli vaziyat metodini qo'llashda o'qituvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi hamda muammoni bayon qiladi. Uni o'tkazish uslubiyati quyidagicha:

1. O'quvchiga muammo, topshiriq yoki chalkash masala qo'yiladi va savollar beriladi. Masalan, "Nima deb o'ylaysiz?", "Fikringiz qanaqa?", "Sizningcha qanday?". Bu kabi savollar o'quvchi o'z nuqtayi nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.
2. O'quvchiga o'z nuqtayi nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat beriladi.
3. O'quvchi o'z fikrini asoslaydi, bunda uning nuqtayi nazarini aniqlab olish uchun savollar beriladi. Masalan, "Nega bunday deb o'ylaysiz?", "Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?" kabi savollar asosida.
4. O'qituvchi ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan boshqa fikrda bo'lgan o'quvchiga so'zlash imkoniyatini quyidagi savollar yordamida beradi: "Kimda boshqa fikr bor, nega?", "Kim aytilgan fikrni ma'qullamaydi, nega?".
5. O'qituvchi o'quvchi bilan birgalikda turli nuqtayi nazarlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi va quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qiladi: "Nega boshqa o'quvchining nuqtayi nazarini ma'qullamaysiz?", "O'z nuqtayi nazaringizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?".
6. Muammoni topshiriq, masala, chalkash masala bo'yicha qabul qilingan qarorga o'quvchi tomonidan o'z nuqtayi nazarini qabul qilishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi. Bu esa

quyidagi savollar yordamida aniqlanadi: “Sizningcha, kimning nuqtayi nazari eng maqbul?”, “Yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo‘l bilan chiqish ma‘qulroq?”.

Psixologlarning fikriga ko‘ra, fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan, qarama-qarshilikdan boshlanadi.

Topshiriqlarni to‘g‘ri bajarish yo‘l qo‘yilgan xatolarga bog‘liq holda baholanadi. Topshiriqlar ustida ishlashda, o‘quvchilar bir qator universal o‘quv faoliyatini bajarishadi: regulyativ: og‘zaki shaklda nutqiy fikrning anglangan va ixtiyoriy qurilishi, masalalarni yechishning eng samarali metodlarini tanlash; mantiqiy: belgilarni ajratish maqsadida obyektlarni tahlil qilish (jiddiy, jiddiyemas); solishtirish uchun asosni tanlash va sintez qilish, muhokama va isbotlashning mantiqiy zanjirini tuzish; kommunikativ: konfliktlarni bartaraf etish, qaysiki topshiriqlarda munozarali holatlar bor bo‘lsa.

«4k» ko‘nikmalarini PIRLS baholash dasturi talablari asosida shakllantirishning asosiy metodlaridan yana biri bu, tasniflash yoki klassifikatsiyalash hisoblanadi. Turli fanlarda klassifikatsiyadan foydalanishga oid misollarni ko‘rib chiqamiz. Ona tili darsida: so‘zlarni guruhlariga ajrat. Asos bo‘lishi mumkin: bo‘g‘inlar soni, so‘zni bo‘lib keyingi satrga ko‘chirish. Masalan: qovun, qarg‘a, tumshuq, malina, qo‘y, rediska, akula, arslon, chinnigul. Obyektlarni solishtira olish, ularning umumiy va o‘ziga xos belgilarini topish o‘z ichiga analiz, sintez, xulosa chiqarish kabi kompetensiyalarni oladi. Demak, bunga o‘xshash mashqlar «4k» ko‘nikmalarini shakllantirishda dolzarb bo‘ladi. Solishtirishga oid mashqlarga misollar keltiramiz. Masalan, ayrim maqollarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini topish. Agar matn boshlanishida o‘quvchilar, avvalambor, o‘rganilayotgan obektning ko‘rinishi asosida tashqi belgilarini (rang, o‘lchami, shakli) qayd etishgan bo‘lsa, topshiriq oxirida o‘quvchi – ko‘proq o‘qitish jarayonida yig‘ilgan bilim va tasavvurlarga tayanadi. Keyingi guruh mashqlari tushunchani aniqlash, o‘z xulosalarini chiqarish, umumlashtirishga yo‘naltirilgan. Masalan, ona tili darsida: 1. «Aniqlik kirit» - stakan – bu ... (shishadan tayyorlangan ichish uchun idish). Termometr – bu ... (temperaturani o‘lchash uchun asbob). 2. «Bu nima?» - aniqlanishi bo‘yicha tushunchani belgilash: Kasallarni davolaydigan inson – bu (vrach). Dunyo gorizont tomonlarni aniqlash uchun asbob – bu (kompas).

Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarga iboralarni o‘qitish ularni qiyosiy aspektda o‘rganishga asoslangan mashqlar tizimi asosida olib borilsa, kutilgan maqsadga erishish mumkin. Iboralar qiyoslab o‘rganilganda, o‘quvchilar qiyoslanayotgan iboralarnig ma‘no, tarkib, grammatik va uslubiy xususiyatlarining o‘xshash yoki farqli tomonlarini taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularni mustahkam va ongli ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Taklif qilinayotgan mashqlar tizimini qo‘llash jarayonida o‘zbek tilining hamma iboralari ham leksik muqobiliga ega emasligini hisobga olish kerak.

Yuqorida qayd etilganidek, PIRLS baholash dasturi talablari o‘quvchilarni mantiqiy va kreativ fikrlash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish metodlari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etadi.

Xitoy faylasufi Konfutsiyning ta‘kidlashicha, inson nimani eshitsa, unutadi; nimani ko‘rsa, xotirasida saqlaydi; nimani bajarsa, tushunadi. Konfutsiyning mazkur haqiqatini pedagogikaning oltin qoidalaridan biri, deyish mumkin. Shu ma‘noda, PIRLS baholash dasturi ta‘limda o‘quvchilarning amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga ustuvorlik berishni ma‘qullaydi. O‘quvchilarda amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish ularni dars mashg‘ulotlarida faol bo‘lishni talab etadigan metodlardan foydalanishni taqozo qiladi. Ana shunday metodlardan biri o‘yinlar metodidir.

Didaktik o‘yinlar syujetli va mashq qilishga mo‘ljallangan turlarga bo‘linadi. Syujetli o‘yinlar biror tanish syujetga bog‘langan bo‘lib, unda rollar taqsimlanadi. Ularga “Telefon”, “To‘pni kimga oshiramiz”, “Telegraf” kabi o‘yinlar kiradi. O‘yin mashqlarga esa, o‘yin elementlarigina kiritilgan bo‘lib, unda ko‘proq o‘yinni shartli qabul qilishga to‘g‘ri keladi. Bunda biror o‘yin qoidasi harakati kiritiladi. Bunday o‘yinlarga misol qilib, “Jim” hamda “Matematik estafeta” kabi o‘yinlarni kiritish mumkin. Mashq o‘yinlarni o‘tkazish kamroq vaqt va harakatni talab qiladi, lekin syujetli rolli o‘yinlar ko‘prok qiziqish uyg‘otadi.

Hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biri har tomonlama kamolga yetgan,

aqlan yetuk, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat bo'lib, bu vazifa, asosan, o'qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan. Boshqa fanlardan farqli o'laroq, ona tili va adabiyot darslarida bunga ko'proq e'tibor beriladi. Chunki adabiyot darsligidagi har bir asar, asarlardan olingan parcha, she'rlarning, ona tili darsligidagi mashq matnlarining bosh qahramoni komil inson bo'lib, ular o'quvchilarga ibrat qilib ko'rsatiladi. Inson komil bo'lishi uchun mustaqil fikr yurita olishi shart. Mustaqil fikr yurita olgan insonlar esa ijodkor bo'ladi. Demak, o'qituvchining bosh vazifasi - o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'quvchilarni matn yaratishga tayyorgarlik ishlarining mazmuni va usullari xususida to'xtalamiz. Masalan, Boshlang'ich sinf "Ona tili" darsligida 3-mashqda qish manzarasi, qishki bolalar o'yinlari tasvirlangan rasm berilgan. Bu mashq asosida o'qituvchi quyidagicha tayyorgarlik ishlari olib boradi: kuzatish uchun topshiriqlar beradi: qish fasliga xos belgilarni, tabiatdagi o'zgarishlarni belgilab boring. Havoning keskin sovishi, qorning yog'ishi, suvning muzlashi, kunlarning qisqarishini kuzating va daftaringizga yozib boring; mashq uchun berilgan rasm asosida suhbat: rasmni kuzating. Rassom bizga nimalar haqida hikoya qilishni xohlabdi? Nima uchun rasmga qarab, rassom juda sovuq qish kunlarini tasvirlabdi, degan fikrga bordingiz? (Ko'p qor yog'gan. Daraxtlar yalang'och. Bolalar palto, etik, shapka va sharflarini kiyib, o'rab olgan); Nima uchun bolalar xursand? Rassom sizning diqqatingizni nimaga qaratmoqchi bo'lgan? (Rassom bolalarning xursandchiligini qishki o'yinlar, qishdagi mashg'ulotlari orqali ko'rsatmoqchi bo'lgan); rasmning mazmunini aniq va to'liq ifodalovchi sarlavha toping (Qishki o'yinlar, qorli tepalik, tepalikda qish); nutqiy tayyorgarlik. Qorni tasvirlovchi so'zlar toping (oppoq, yumshoq, yopishuvchan, sovuq, muzdek, yaltiroq); daraxtlarning ko'rinishini tasvirlovchi so'zlar toping (yalang'och, bargsiz, qordan shoxlari egilgan, tanasi jigarrang); osmonni tasvirlovchi so'zlar toping (bulutli, qora bulutlar, tiniq, ko'm-ko'k); qorboboni tasvirlovchi so'zlar toping (oppoq, burni qizil, qoshi va ko'zi qora, boshi dumaloq); bolalarning harakatini va holatini qaysi so'zlar bilan ifodalash mumkin? (chopishyapti, yasashyapti, uchishyapti, otishyapti, sirpanishyapti, xursand, shod); bolalar kiyimlarining ranglarini ifodalovchi so'zlar toping; rasmdagi bolalarning o'zaro suhbatlarida foydalanishlari mumkin bo'lgan salomlashish, murojaat, minnatdorlikni ifodalovchi so'zlar toping; o'quvchilarning kuzatganlari bilan rasmda ko'rganlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, ularni umumlashtirish va so'zlab berish.

O'qituvchi har bir darsni o'tish jarayonida qaysi metoddan foydalanishi, bu metodni amalga oshirishda qanday amallar, metodlar yordamga kelishi, shu bilan birga, dars jarayonining vositalari va shakllari xususida to'la ma'lumotga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Mana shu o'rinda o'qituvchi uchun muallimlik faoliyatida zaruriy bo'lgan suhbatni qiziqarli va ilmiy o'tkazish, o'quvchilarga axborotni ta'sirli va ishonuvchan yetkazish, ko'rgazmali quroldan yoki texnika vositalaridan samarali foydalanish, o'zining va boshqalarning tajribalaridan ongli, zaruriy holda mantiqiy va estetik prinsiplarga amal qilgan holda foydalanish kabi elementlarni aytib o'tish joizdir. Bunda o'qituvchi imkoniyatlari o'quvchilarning saviyasiga, bilim va malaka darajasiga, sinfning qiziqishi, emotsional darajasiga va boshqa jihatlarga ham bog'liq bo'lishi kerak. Aks holda yaxshi metod, mo'ljallangan metod natija bermasligi mumkin. Masalan, o'qituvchi muammoli dars metodidan foydalanmoqchi bo'lsa-yu, o'quvchilarning ilmiy bilim darajalari, qabul qilish, fikrlash, xulosalash qobiliyatlari bunga javob bermasa, o'qituvchi o'z maqsadiga erisha olmaydi.

Shuning uchun, har bir dars bo'yicha metod va metodlar tanlashi shakl va vositalardan foydalanishi, qisqasi, darsning struktur-sxemasi o'qituvchi tomonidan yaxshi o'ylab rejalashtirilgan bo'lishi shart. Shularni e'tiborga olgan holda biz noan'anaviy ta'limni amalga oshirish borasidagi Sh.J.Yusupova tajriba va sinovdan o'tkazgan, dars samaradorligini orttirishda ahamiyat kasb etgai "Tez yurar", "Sharhlash" metodlarini bayon etishni lozim deb topdik.

Har qanday usul turli shakllar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, axborot metod ma'ruza, o'quv filmi ko'rsatish, darslik o'qish kabi shakllardan tashkil topadi. Repro-duktiv metodning shakllanishida esa suhbat, savol-javob, topshiriq kabilardan foydalaniladi. Biz quyida reproduktiv mos sodda "Tez yurar" metodini savol-javob shakli asosida tashkil qilish haqida to'xtalib o'tamiz

“Tez yurar” o‘tilgan mashg‘ulotlardagi nazariy va amaliy yangiliklar doimo takrorlanib turgandagina o‘quvchilarning xotirasiga muhrlanib qoladi. O‘quvchilar ishtirok qilgan o‘quv materialini uzoq vaqt xotirasida saqlab qolishiga erishish uchun doimo harakat qilishi darkor. Kishi ongida aks etgan voqea-hodisa yoki holatlarni, narsa buyumlarni mustahkamlash, saqlab qolishga ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng tiklashdan iborat aqliy faoliyat xotira sana-ladi. Xotiraning qay darajada mustahkam ekani, xotirada qoldirish metodlariga va uni takrorlab turishga bog‘liqdir. Qolaversa, o‘quv materialining xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishi o‘quvchining o‘quv materialini to‘la idrok qilishi va uni amaliyotga tatbiq qilishiga bog‘liq.

Interfaol asosida o‘quv mashg‘uloti jarayoni tashkil etilganda: o‘quvchilarning o‘zaro faolligi oshadi, hamkorlik, ijodkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi; o‘quv, reja, dastur, darslik, standart, meyor, qo‘llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi; ta’lim mazmunini, ma’ruzasini mustaqil mutoola qilish, ishlash, o‘zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi; o‘quvchi erkin fikr bildirish, o‘z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi. Eng muhimi o‘quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi, ya’ni, o‘quvchining ehtiyoji, hoxish-istagi qondiriladi, o‘quv-bilish jarayonida ularning manfaatdorligi oshadi. Bu holat o‘quvchini o‘quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Baker, L., Scher, D. (2002). Beginning readers’ motivation for reading in relation to parental beliefs and home reading experiences. *Reading Psychology*, 23(4), 239-269 c.
2. Qurbonova M.F. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ahamiyati // *Xalq ta’limi*. – Toshkent, 2020. 3-maxsus son. – B. 29-33. (13.00.00 №17)
3. Qurbonova M.F. O‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda kouching metodikasi // *Maktab va hayot*. – Toshkent, 2020. Maxsus son №1, – B. 8-10. (13.00.00 №4)
4. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar // *Mug‘allim h m yzliksiz bilimlendirio‘*. – Nukus, 2021. – B. 112-116. (13.00.00 №20).
5. Qurbonova M.F. Boshlang‘ich ta’limda xalqaro dasturlar. O‘quv qo‘llanma, Chirchiq, Zebo-print. 2023-yil. 113-b.
6. Qurbonova M.F. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy yondashuvlar asosida mustaqil ishlarni tashkil etish. *International scientific journal volume 1, Issue 8. Uif-2022: 8.2, Issn: 2181-3337*

HAR XIL ISHORALI SONLARNI QO'SHISH MAVZUNI O'QITISH METODIKASI

Rashidov Anvarjon Sharipovich
Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasi dotsenti
<https://orcid.org/0000-0002-6424-3277>

Faxridinova Mehribon Faxridin qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda yuqori natijalarga qisqavaqt ichida erishish uchun o'qituvchilardan talab qilinadigan pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Matematika darslarini samarali o'tkazish uchun pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar qo'llanishining ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, "har xil ishorali sonlarni qo'shish" mavzusini o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar, jumladan, zinama-zina va kichik guruhlarda ishlash metodlari, batafsil tavsiflanadi. Maqolada bir xil ishorali va turli ishorali sonlarni qo'shish qoidalari va misollar orqali tushuntiriladi. Mavzuni mustahkamlash uchun turli o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar taklif etiladi. Shuningdek, o'quvchilarning mavzuni tushunganligini aniqlash va mustahkamlash uchun qo'llaniladigan "Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri" metodining tavsifi beriladi. Maqolada 6-sinf matematika darsligi asosida tuzilgan misol va masalalar keltiriladi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi yoritiladi. Interfaolusullar yordamida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТУ СЛОЖЕНИЕ ЧИСЕЛ С РАЗНЫМИ ЗНАКАМИ

Анваржон Шарипович Рашидов
доцент Бухарского государственного педагогического института

Фахридинова Мехрибан Фахридин кизи.
Студентка 2 курса Бухарского государственного педагогического
института

Аннотация: в данной статье рассматриваются педагогические навыки и инновационные подходы, необходимые педагогам для достижения высоких результатов за короткий период времени в современном образовании. Анализируется важность использования педагогических технологий и интерактивных методов для эффективного проведения уроков математики. В частности, подробно описаны методы, используемые при обучении предмету «Сложение чисел с разными знаками», в том числе пошаговый и малогрупповой. В статье объяснены правила и примеры сложения чисел с одинаковым знаком и разными знаками. Для закрепления предмета предлагаются различные игры и практические упражнения. Также дано описание метода «Три правильных и одно неправильное», который используется для определения и закрепления знаний учащихся по теме. В статье представлены примеры и задачи на основе учебника математики для 6 класса и освещена эффективность современных педагогических технологий. Даны рекомендации по повышению эффективности образовательного процесса с использованием интерактивных методов.

Ключевые слова: Положительное число, отрицательное число, «Зинама-зина», «Чархпалак», «Найди спрятанный предмет», современная педагогика, современные методы обучения.

METHOD OF TEACHING THE SUBJECT OF ADDING NUMBERS WITH DIFFERENT SIGNS

Anvarjon Sharipovich Rashidov

Associate professor of Bukhara State Pedagogical Institute

Fakhridinova Mehriban Fakhridin qizi

2nd level student of Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: This article talks about the pedagogical skills and innovative approaches required of teachers to achieve high results in a short period of time in modern education. The importance of the use of pedagogical technologies and interactive methods for the effective conduct of mathematics lessons is analyzed. In particular, the methods used in teaching the subject of «adding numbers with different signs», including step-by-step and small group methods, are described in detail. The article explains the rules and examples of adding numbers with the same sign and different signs. Various games and practical exercises are offered to strengthen the subject. Also, a description of the «Three right and one wrong» method, which is used to determine and strengthen students' understanding of the topic, is given. The article presents examples and problems based on the 6th grade mathematics textbook and highlights the effectiveness of modern pedagogical technologies. Recommendations are given to improve the effectiveness of the educational process using interactive methods.

Key words: Positive number, negative number, «Zinama-zina», «Charkhpalak», «Find the hidden object», modern pedagogy, modern teaching methods

Kirish. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortibborayotgan axborot-ta'limmuhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikmava malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bundan tashqari o'quvchilarni ta'lim olishga qiziqtirish ham o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. Ta'limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o'qitish tizimida o'quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqish, o'quvchilarni o'quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina o'quvchilar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o'tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo'yicha o'z fikriga ega bo'ladi, o'z nuqtai nazarini asoslab bera oladi.

Adabiyotlar tahlili.

[3] maqolada matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

[4] maqolada o'quv fanlarini o'rganishda tarixiy yondashuv ma'lum darajada o'quv jarayonini ilmiy bilimga yaqinlashtirishi hamda o'qituvchining matematika tushunchalari bilan tanishar ekan, dars jarayonida ularning tarixi va rivojlanishi (asosan, buyuk ajdodlarimiz xizmatlari) haqida so'z yuritishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ona Vatanga muhabbatini tarbiyalashi haqida fikr yuritilgan.


[5] maqolada matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanilish masalasi tahlil qilingan. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqligi qayd qilingan. O'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlashi, ularni hayotga tadbiq eta olishga tayyorlanishi haqida so'z yuritilgan.

[6-8] maqola o'quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida interfaol texnologiyalar

samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish keng joriy etilayotgani, bu esa o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirishni talab qilishi qayd qilingan. Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarga mo'ljallangan ko'nikmaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga ta'lim maskanlarida malakali, professional shaxsga aylanish imkonini beradi. Interfaol usullar katta vaqt va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga qaratilganligi, o'quvchiga nazariy bilimlarni o'rgatish, muayyan faoliyat turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish va baholash katta mahorat va epcchilikni talab qilishi haqida so'z yuritilgan.

Asosiy qism.

Maktab matematika kursidan bizga yaxshi ma'lumki, "butun sonlarni qo'shish" mavzusi "butun sonlarni taqqoslash" mavzusidan keyin keladigan mavzu bo'lib, o'quvchi butun sonlarni taqqoslash mavzusini yaxshi tushungan bo'lishi kerak. Ya'ni o'quvchi butun sonlarni taqqoslash va har xil ishorali sonlarni son o'qida tasvirlash shuningdek sonning moduli haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lsagina, har xil ishorali sonlarni qo'shishda, shu mavzuni o'zlashtirishda va o'rganishda qiyinchilikka uchramaydi. Bunda yangi mavzu bayoniga o'tishdan oldin o'tilgan darsni o'quvchilar bilan takrorlab olgan ma'qul. O'tilgan mavzuni takrorlashda Zinama-zina metodidan foydalanamiz. Bu metod uchun va dars davomida olib boriladigan qiziqarli metodlar uchun biz Kichik guruhlarda ishlash (guruh kichik guruhlarga bo'linadi) metodidan foydalangan holda sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'lamiz. 1-guruh "MUSBAT SON", 2-guruh "MANFIY SON". "ZINAMA-ZINA" metodi uchun uyga vazifaga berilgan va kitobdagi ba'zi misollardan foydalaniladi. Har bir guruhga 4 tadan misol beriladi, zinaning joylashgan o'rniga qarab misollar darajasi ortib boradi. (1-rasm)



1- rasm

Javoblari:

1-guruh: -8; 6; -1

2-guruh: 17; -5; 2

Takrorlashga 5 daqiqa vaqt ajratiladi, uni o'tkazib olgandan so'ng o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorligiga ishonch hosil qilgach, yangi mavzu bayoniga o'tish mumkin. Yangi mavzuni o'tishda biz An'anaviy dars berish uslubidan foydalanamiz. (An'anaviy darsning asosiy maqsadi — dars mavzusining asosiy mazmunini, tushuncha va dalillarini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yetkazish va tushuntirishdan iborat. Dars — oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatilishidan boshlanadi.)

Bir xil ishorali butun sonlarni quyidagi tartibda ham qo'shish mumkin: -ularning modullari qo'shiladi -qo'shiluvchilar musbat bo'lsa, yig'indi oldiga '+', manfiy bo'lsa, '-' ishorasi qo'yiladi.

$$n+0=n$$

$$46 + (+17) = |46| + |17| = 46 + 17 = 63$$

$$-n+0=-n$$

$$-69 + (-79) = -(|-69| + |-79|) = -(69 + 79) = -148$$


Misol:

Hisoblang. a) $-12 + (-13)$ b) $0 + (-6)$

c) $47 + (+131)$ d) $-16 + (-14)$

Zamon bilan ham nafas bo'lgan holda o'quvchilarni ingliz tili bilimlarini hamsinash va o'tilgan darsni qiziqarli amalga oshirish maqsadida "yashirin predmetni top" metodidan foydalansak bo'ladi. Bu didaktik o'yinda predmet ingliz tilida bo'ladi va o'quvchilarni topqirligini oshiradi (1 daqiqa vaqt) (2-rasm).

2-rasm



Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi.

3-rasm



Turli ishorali butun sonlarni quyidagi tartibda ham qo‘shish mumkin:

- moduli kattasidan moduli kichigi ayriladi;
- ayirmaning oldiga moduli katta butun sonning ishorasi qo‘yiladi.

$$146 + (-80) = |146| - |-80| = 66$$

$$-38 + (+28) = |-38| - |+28| = -10$$

$$-123 + (+24) = |-123| - |+24| = -99.$$

O‘quvchilarga mavzu tushunarli bo‘layotganini Uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri metodi orqali aniqlashimiz mumkin: (har bir ishtirokchi bir varoq qog‘ozda o‘rganilayotgan yoki o‘rganilgan mavzu bo‘yicha uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri fikr yozadi. Guruh a‘zolari qarama qarshi guruh a‘zolariga varoqchalarini beradilar va ular noto‘g‘ri fikrni topishlari kerak bo‘ladi.) “Bu o‘quvchilarning diqqatini qaytib darsga qaratadi va ularni darsda diqqatli bo‘lishini ta‘minlaydi, shuning bilan bir qatorda o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushinishlariga va xotiralarida yaxshiroq joylashishiga yordam beradi”. Shundan so‘ng darsning amaliy qismiga o‘tishimiz mumkin unda o‘quvchilar kitobda berilgan misol va masalalarni bajaradilar:

Ifodaning qiymatini toping.

a) $|\square| + |-25|$, bu yerda $\square = -25$

b) $|\square| + |-15|$, bu yerda $\square = -33$

c) $|\square| - |\square|$, bu yerda $\square = -150$, $\square = -138$

Qulay usullarda hisoblang.

a) $-14 + (-9) + (-11)$ b) $-21 + (-19) + 13$

c) $-11 + (-18) + (-19)$ d) $-18 + 15 + 12$

Yig‘indilar nimaga teng?

a) $0 + (-44)$ b) $-55 + (-55)$

shundan so‘ng o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash uchun “Charxpalak” usulidan foydalanamiz (bunda har bir guruh a‘zolariga mos ravishda rangli qog‘ozlarda misollar beriladi va guruh buni birin ketin ketma-ketlikda ishlashi kerak)

a) $112 + 144$ b) $125 + 100$ c) $-16 + 0$ d) $-99 + (-100)$ e) $-33 + (-37)$ f) $-754 + (-99)$

Shundan keyin o‘quvchilarning uyda bajarishlari uchun misollar beriladi:

Ifodalar qiymatini $\square = 5$, $\square = -3$ va $z = 7$ bo‘lganda toping.

a) $(-\square) + 20$ b) $(-\square) + \square + (-16)$

Qulay usul bilan hisoblang.

a) $1 + (-2) + 3 + (-4) + 5 + (-6) + 7 + (-8)$

b) $-37 + (-22) + (-13)$

Maqolada keltirilgan ma‘lumotlarni shakllantirishda 6-sinf darsligidan foydalanildi. Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta‘lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta‘lim muassasalarida keng qo‘llanilayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta‘lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozircha interfaolta‘lim metodlarini ma‘lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

XULOSA

Biz yuqoridagi maqolada “Har xil ishorali sonlarni qo‘shish mavzuni o‘qitish metodikasi” mavzusini o‘qitishda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishni ko‘rib o‘tdik. Bu albatta o‘quvchilarda juda kuchli qiziqishni uyg‘ota oladi va bolalar zerikmagan holatda interaktiv metod va interfaol o‘yinlar orqali mavzuni to‘laqonli o‘rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Educating teachers of science, mathematics, and technology : new practices for the new millennium / Committee on Science and Mathematics. Copyright 2001 by the National Academy of Sciences. Constitution Avenue, N.W. Washington
2. Djurayev R.X va boshqalar. Pedagogik atamalar lugʻati. –T.: “Fan nashriyoti”, 2008 yil. – 94-bet
3. A.Sh.Rashidov. M.F.Faxridinova. Oʻquvchilarning bilimni baholashda xalqaro baholash dasturlari. “Fizika, matematika va informatsion texnologiyalarning innovatsion rivojlanishdagi oʻrni” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman. Buxoro. 222-227 bet.
4. A.Sh.Rashidov. S.A.Mehmonova. Matematik analiz fanini oʻqitishda interfaol metodlar: “KEYS-STADI” metodi “Fizika, matematika va informatsion texnologiyalarning innovatsion rivojlanishdagi oʻrni” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman. Buxoro. 165-169 bet.
5. A.Rashidov. M.Faxridinova Matematika darslarida EKUB va EKUKlarning oʻziga xos xususiyatlari “Pedagogik mahorat”. Ilmiy – nazariy va metodik jurnal, № 5 son, 2-qism. Buxoro. 2023. – B. 127-134
6. A.Rashidov. S.Mehmonova Oʻquvchilarni oʻqitishda test yaratuvchi dasturlardan foydalanish “Pedagogik mahorat”. Ilmiy – nazariy va metodik jurnal, № 5 son, 3-qism. Buxoro. 2023. – B. 112-117
7. M.F.Faxridinova. “Umum ta’lim maktablarida matematika fanini oʻqitilishining asosiy maqsadlari” . “Fan, ta’lim va innovatsiyalar: nazariya, amaliyot, natijalar” mavzusida ilmiy-nazariy anjuman. Buxoro. 183-186 bet
8. Rasulov T.H., Rashidov A.Sh. The usage of foreign experience in effective organization of teaching activities in Mathematics. International Journal of Scientific and Technology Research. 9:4 (2020), pp. 3068-3071.

ZAMONAVIY TIKUV MASHINALARI VA JIHOZLARI FANINI ELEKTRON TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA O'QITISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Saidova Muhayyo Farhod qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti IT,I va IPKT bo'limi muhandisi

Annotatsiya. Hozirgi globallashuv davrida elektron ta'lim deyarli barcha mamlakatlar ta'lim jarayonida tobora ko'proq namoyon bo'lib bormoqda. Har bir zamonaviy rivojlangan davlat ta'lim tizimida elektron ta'lim asosiy ulushni tashkil qiladi. Chunki, ta'limda elektron vositalardan foydalanish ta'lim sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada o'quv jarayonini elektron ta'lim vositalaridan foydalanish asosida tashkil etish, shu jumladan, "Zamonaviy tikuv mashinalari va jihozlari" fani ta'lim jarayonini takomillashtirish to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim vositalari, multimedia, innovatsiya, integratsiya, dastur, darslik, manipulyatorli mobil bichuv mashinasi (Bullmer), lentali statsionar bichuv mashinasi.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НАУКАМ О СОВРЕМЕННЫХ ШВЕЙНЫХ МАШИНАХ И МАШИНАХ НА БАЗЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Саидова Мухайё Фархадовна

Инженер отдела НИИ и ПНП Бухарский Государственный Педагогический институт

Аннотация. В нынешнюю эпоху глобализации электронное образование становится все более заметным в образовательном процессе практически всех стран. Электронное обучение является основной частью любой современной развитой государственной системы образования. Потому что использование электронных средств в образовании значительно повышает качество и эффективность образования. В данной статье говорится об организации учебного процесса на основе использования электронных средств обучения, в том числе о совершенствовании учебного процесса по предмету «Современные швейные машины и оборудование».

Ключевые слова: электронные средства обучения, мультимедиа, инновации, интеграция, программа, учебник, мобильная вязальная машина с манипулятором (Bullmer), стационарная вязальная машина с лентой.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF TEACHING THE SCIENCE OF MODERN SEWING MACHINES AND EQUIPMENT BASED ON ELECTRONIC EDUCATIONAL TOOLS

Saidova Muhayyo Farhodovna

Divisional engineer SR,I and TSP Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation. In the current era of globalization, electronic education is becoming more and more visible in the educational process of almost all countries. E-learning is the main part of every modern developed state education system. Because the use of electronic tools in education significantly increases the quality and efficiency of education. This article talks about the organization of the educational process based on the use of electronic educational tools, including the improvement of the educational process of the subject «Modern sewing machines and equipment».

Key words: electronic educational tools, multimedia, innovation, integration, program, textbook, mobile knitting machine with manipulator (Bullmer), stationary knitting machine with tape.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda bo'lajak o'qituvchilarning

kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern – yangilangan, zamonaviy, tezkor o'sish) ta'lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. V.A.Slastenin pedagogik jarayonga innovatsion yondashishni o'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni va shakliga yangilik kiritish bilan izohlaydi [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi, ularning kasbiy kompetentligiga uzviy bog'liq bo'lib, kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarini qo'llash bo'yicha xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha N.A.Muslimov, A.R.Xodjabayev, Q.T.Olimov, S.Y.Ashurova, U.I.Inoyatov, O.A.Abduqudusov, X.F.Rashidov, N.Sh.Shodiyev, R.Q.Choriyev, Z.K.Ismailova, Q.M.Abdullayeva, S.Y.Rajabova, L.V.Golish, Sh.h.Quliyeva, O'.D.Xidirov, D.O.Ximmataliyev, P.R.Atutov, Y.K.Vasilyev, V.A.Slastyonin, V.A.Skakun, A.A.Ismoilov, X.I.Ibragimovlar tomonidan o'rganilgan.

Sh.E.Qurbonov, E.Seytxalilov, R.H.Djo'rayev, Y.H. Haydarov va boshqalarning ishlarida bo'lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish masalalari pedagogik muammo sifatida tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'limning bugungi kundagi mavjud nazariy va amaliy, ijtimoiy, pedagogik hamda moddiy-texnik muammolarini bartaraf etishda, shuningdek jamiyatda o'quvchilarni hayotga va kasb-hunar egallashga tayyorlash, o'quvchilarda kasb-hunarning zamonaviy yo'nalishlari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda albatta bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini zamon talablari darajasida tayyorlash oliy ta'lim muassasalari oldidagi muhim masala hisoblanadi.

Qayd etilgan muammolarni hal etishga qodir bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi quyidagi kasbiy sifatlarga ega bo'lish kerak:

- yuqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyachisi sifatida o'quvchilarni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashi, ularda milliy dunyoqarashni shakllantirishi kerak;

- yuqori texnik bilim, ko'nikma va malaka. Texnologik ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun tikuvchilik, kiyimlarni loyihalash va modellashtirish elementlari, dizaynerlik elementlarini chuqur o'zlashtirganlik, texnologik jarayonlar, kasblar asoslarini mukammal egallagan bo'lishlari, keyingi amaliy faoliyat jarayonlarida o'z mahorati darajasini uzluksiz oshira borishi kerak;

- yuqori pedagogik-psixologik tayyorgarlik. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay, balki o'quvchilarda ham ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi muhim komponentlardan biri – o'qituvchining kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeyer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatadi [2].

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi nazarda tutiladi. Bu tushuncha bo'yicha turlicha ta'rif va yondashuvlar mavjud. N.M.

Muslimovning fikriga ko'ra, "kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi [3].

Xususan, "Zamonaviy tikuv mashinalari va jihozlari" fanini o'qitishdan maqsad, oliy ta'lim muassasalarining 60112300-"Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabalarida tikuvchilik korxonalarida qo'llaniladigan tikuv mashinalari, namlab-isitib ishlov berish uskunalari va turli xil yordamchi uskunalari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

"Zamonaviy tikuv mashinalari va jihozlari" fani talabarda – turli zamonaviy tikuvchilik sanoatining jihozlari haqida bilimlarga ega bo'lish, ularni qo'llash sharoitlari, shuningdek mashina va uskunalarni tanlash, nuqsonlarni yuzaga kelishi va ularni oldini olish va texnologik sozlashlarni amalga oshirish, yangi mashina va uskunalarni loyihalashga takliflarni qabul qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanning vazifasi – talabalarga, zamonaviy jihoz va mashinalar bilan tanishish, mashinalarni texnologik qo'llanish bo'yicha turlari, mashinalarni tuzilishi, ishlash prinsipi va sozlanishlari, texnologik imkoniyatlari va qo'llash usullari, texnologik jarayonlarni bajarish yo'llari, yangi texnikani loyihalash bosqichlari, sanoatga tatbiq qilish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni uzviylikda o'rgatishga yordam beradi.

Ushbu han bo'yicha talabalar kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri dars mashg'ulotlari jarayonida elektron ta'lim vositalaridan foydalanishdir.

Elektron ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. Elektron ta'lim vositalari asosida o'qitish talabalarga axborotlarning noan'anaviy manbalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2. Elektron ta'lim vositalari qo'yilgan metodik maqsadlarni amalga oshirishi uchun o'qituvchiga o'qitishning turli shakllaridan va ularning majmuasidan foydalanish, ya'ni zaruriy ta'lim muhitini barpo etish imkonini beradi. O'qitishning dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishda o'qituvchi kompyuterlashtirilgan o'qitish va nazorat qilish dasturlari sharoitidan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimida foydalanishga asoslangan o'qitishning dasturiy ta'lim vositalarini qo'llash natijasida o'qituvchilar o'zlarining axborot bilan ta'minlanganlik darajalarini oshiribgina qolmay, balki deyarli butun dunyodagi axborot jamlanmalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi [4].

Elektron ta'lim vositalari kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalari dinamik illustratsiyalar, ovozli jarayonlar, animatsiyalar kabi effektlarni amalga oshiruvchi dasturlardan foydalanib yaratiladi [5; 6].

Elektron ta'lim vositalari quyidagi turlarga ajraladi: elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, virtual stendlar, multimediali dasturlar, o'rgatuvchi dasturlar, test dasturlari, mashq qildirgichlar, o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Elektron ta'lim vositalari tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturlashtirilgan (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi [7].

Tahlil va natijalar.

Texnologiya fani ta'lim jarayonida jismoniy faoliyat, aqliy faoliyat bilan birgalashib o'quvchilarning tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish, ularni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va boshqa bir qator ijodiy vazifalarni hal qilishlariga to'g'ri keladi. Shunday qilib, kreativ fikrlash faoliyati bilan birga amalga oshadi, bu esa bo'lajak texnologiya fanidan o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga imkon beradi. Bugungi kunda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini innovatsion kasbiy faoliyatga kreativ tayyorlashning

ilmiy, nazariy va amaliy, moddiy-texnik, ijtimoiy-pedagogik muammolarini hal etishda, uning an'anaviy mazmunini isloh qilishda nomutanosibliklar va ziddiyatlar mavjudligi ko'zga tashlanmoqda.


Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha islohotlarni amalga oshirishda quyidagi shart-sharoitlar yaratilishi kerak:

- ta'lim jarayonida moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning tashkiliy, iqtisodiy, texnik va texnologik asoslarini o'rgatish;
- talabalarning ijodiy qobiliyatlari va mustaqilligini rivojlantirish uchun o'quv dasturlariga kasb-hunar yo'nalishlari mazmunidagi bo'limlarni, zamonaviy texnika va texnologiyalar haqidagi ma'lumotlarni kiritish;
- ta'lim jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish;
- ta'limning moddiy-texnikaviy ta'minotini yaxshilash.

Texnologiya fani o'quvchilarning muayyan ishlab chiqarish sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi yagona o'quv fani sifatida o'ziga xos jihatlari bilan boshqa o'quv fanlaridan ajralib turadi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi texnologiya fani mashg'ulotlari maxsus o'quv xonalarida, o'quv tajriba maydonlarida olib boriladi. Mazkur mashg'ulotlar jarayonida ma'lum qiymatga ega bo'lgan ijtimoiy foydali mahsulotlar yaratiladi hamda kasb sohiblariga xos bo'lgan shaxs sifatleri shakllantiriladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatadigan kasb sohiblaridan raqobatbordoshlik, muhitga tezroq moslashish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash o'quv jarayoni mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgaradi, texnologiya fanining mazmuni optimallashtirildi, kasbga yo'naltirish tizimi yangilandi, bir qator didaktik vazifalar hal qilinishi ko'zda tutildi. Texnologiya fani vazifalari bilan mazmuni murakkab dialektik bog'liqlikda bo'lib, fanning vazifalari turli darajada qo'yiladi va hal qilinadi.

Elektron ta'lim vositalaridan foydalanish orqali quyidagi zamonaviy jihozlar va asbob-uskunalar bilan tanishish imkoniyati ham yaratiladi:

Mashinasozlik ishlab chiqaruvchilari klassik tikuv va poyabzal uskunalari uchun mo'ljallangan yechimlarni texnik to'qimachilik materiallarini qayta ishlashga moslashtiradilar. Assist/Bullmer tikuvchilik sanoati uchun E100 - E400 modulli mato to'shash mashinalarini taklif etadi. Oddiy, arzon konstruktsiya ko'rinishidagi mato to'shash mashinasi modelida materialning to'plarini qabul qilib oluvchi avtomatik havo yostig'i o'rnatiladigan hamda juftlab to'shash uchun yechib oladigan aylanama stand o'rnatilgan (1-rasm).



1 - rasm. Manipulyatorli mobil bichuv mashinasi

Bullmer FESPA uchta eng yangi Premiumcut bichuv plasterlarini rulonli materiallarni qidirish, ko'rish va qayta ishlash uchun o'rnatilgan yechimlar bilan namoyish etdi. Bichuv uskunalari to'qimachilik materiallari, gofirovka qilingan karton va fadoqlarni bichish uchun ko'plab vositalarni namoyish etadi.

FESPA-dagi barcha Bullmer bichuv plasterlari bichish aniqligini oshirish uchun skanerlar bilan jihozlangan. Bullmer, shuningdek, bichish jarayonini real vaqt rejimida kuzatib borish

va istalgan vaqtda har qanday parametrning mavjudligini ta'minlaydigan Integration Platform I 4.0 so'nggi integratsiya platformasini taqdim etadi (2-rasm).

Xulosa qilib aytganda jahon ta'lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalari axborotlashgan jamiyatda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini kengroq joriy etish va ularning samaradorligini yanada oshirishning dolzarbligini ko'rsatmoqda.



2-rasm. Bullmer – EASYCUT bichuv plasteri

Elektron ta'lim vositalari - davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini elektron vositalar yordamida kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron ta'lim uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, multimediali elektron ta'lim resurslari, baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi. Elektron ta'lim vositalari deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, unda davr talabidagi kerakli interfaollik, ko'rgazmalilik, mobillik, ixchamlik va ularni ko'paytirishda kam xarajat sarflash, ko'p variantlilik, ko'p bosqichlilik bo'lish bilan birga bilim va ko'nikmalarni tekshirish uchun topshiriqlar, vaziyatli masalalar, keyslar va testlar to'plamining ko'p bo'lishi hamda vaqti-vaqti bilan yangilanib turishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar.

Zamonaviy elektron ta'lim resurslarining afzalligi, avvalo, o'quv jarayonida talabalarda mustaqillik va faollik rolini samarali tashkil etishdan iborat. Ta'lim jarayoniga elektron ta'lim vositalarini joriy etish talabalarga fan bo'yicha axborotning to'liq manzarasini namoyish etish bilan birga, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, o'qitishni individuallashtirish, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beradi, ya'ni o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy elektron ta'lim resurslarning afzalligi talabaga taqdim etilayotgan o'quv axborotlarini erkin qabul qilish, ularni individuallik xususiyatiga ko'ra, o'zlashtirishida pedagogning o'qitish funksiyasi talabning o'ziga o'tadi. Bunda pedagog o'quvchini faqat qo'llab-quvvatlaydi, o'quv axborotlari oqimidan samarali foydalanish hamda yuzaga keladigan muammolarni hal etishda kerakli ko'rsatmalar orqali muammoni hal etishda yordam beradi.

Elektron ta'lim vositalari qo'llashdagi yangidan-yangi imkoniyatlarni aniqlash va ularni izchillik bilan amaliyotga tadbiq etib borish - ta'lim jarayonlarini taraqqiy ettirishning zamonaviy bosqichidagi muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tikuv mashinalaridan foydalanish uchun albatta mashina va uning mexanizmlari to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar oliy ta'lim muassasalari texnologik ta'lim talabalari kompetentligini oshirishda samarali yordam beradi degan fikrdaman.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Slastenin V.A. Pedagogika Darslik – M.: “Akademiya”, 2002-y. 256-b.
2. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностно ориентированные технологии профессионального развития спетсиалиста. – Екатеринбург, 1999.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari /– Toshkent, 2015-y. – 120 bet..
4. Буренкова Д.И. Формирование и использование комплекта учебно- методических и электронных средств для развития коммуникативных умений иноязычного общения (на примере английского языка): автореф. Дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02.- М., 2008. – 19 с
5. Yorbekov Y, Eliboyev A. O'quv jarayoniga kompyuter texnologiyalarini joriy etish // Uzluksiz ta'limda aniqpedagogik va informatsion texnologiyalar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -Samarqand: SamDU, 2003-y. – 134-135 b
6. Jo'rayev A.R. Dasturlashtirilgan ta'lim vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –T.: 2019. – 144 b.
7. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах: дисс. канд. пед. наук. – Т.: 2008. – 314 с.
8. Волков П.Д. Разработка и использование сетевых информационных ресурсов образовательного назначения (на примере подготовка в рамках курса «Сетевые информационные системы в образовании»): автореф. дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – М., 2007. – 20 с.
9. Содиқова А. Ҳ.(2022) Технологик таълим йўналиши талабаларида таянч, касбий ва махсус компетенцияларни ривожлантиришнинг дидактик имкониятлари. Science and innovation international scientific journal VOLUME 1 ISSUE 6 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337.15-20.
10. Jamilov Y.Y. Didactic possibilities of using multimedia software in the educational process / Proceedings of Global Technovation. 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference. Virtual Conference 2020. December, 28th 2020. London, U.K. –P. 141-144.

APPLICATION OF THE QUALIMETRIC APPROACH IN THE MANAGEMENT OF QUALITY OF STUDENT TRAINING IN MODERN UNIVERSITIES

Salimova Sarvinoz Farkhadovna

Bukhara State Pedagogical Institute

Associate Professor of the Department of Natural Sciences

Annotation. The article examines the application of the qualimetric approach in managing the quality of student education in modern universities. The qualimetric approach offers a systematic and comprehensive assessment of the quality of teaching, taking into account such aspects as strength, depth, awareness and consistency of students' knowledge. The author emphasizes the importance of introducing qualimetric principles into the educational process to ensure high standards of learning and optimal conditions for the development of students.

Key words: qualimetric approach, quality management, student training, modern university, strength of knowledge, depth of knowledge, awareness of knowledge, systematic knowledge.

Аннотация. В статье рассматривается применение квалиметрического подхода в управлении качеством обучения студентов в современных вузах. Квалиметрический подход предлагает систематическую и комплексную оценку качества обучения, учитывая такие аспекты, как прочность, глубина, осознанность и системность знаний студентов. Автор подчеркивает важность внедрения квалиметрических принципов в образовательный процесс для обеспечения высоких стандартов обучения и оптимальных условий для развития студентов.

Ключевые слова: квалиметрический подход, управление качеством, обучение студентов, современный вуз, прочность знаний, глубина знаний, осознанность знаний, системность знаний.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy universitetlarda talabalarni o'qitish sifatini boshqarishda kvalimetrik yondashuvni qo'llash ko'rib chiqiladi. Kvalimetriya yondashuvi talabalarning bilimlarining mustahkamligi, chuqurligi, xabardorligi va izchilligi kabi jihatlarni hisobga olgan holda ta'lim sifatini tizimli va har tomonlama baholashni taklif etadi. Muallif yuqori o'quv standartlari va talabalarning rivojlanishi uchun maqbul sharoitlarni ta'minlash uchun o'quv jarayoniga kvalimetrik tamoyillarni kiritish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: kvalimetrik yondashuv, sifat menejmenti, talabalarni o'qitish, zamonaviy universitet, bilimlarning mustahkamligi, bilimlarning chuqurligi, bilimlarning xabardorligi, bilimlarning izchilligi.

Introduction. The qualimetric approach is a methodical strategy that is utilized for the purpose of measuring and evaluating the quality of a variety of processes and products. Within the context of the field of education, this term refers to the use of objective criteria and methods in order to evaluate and evaluate the level of student learning that is taking place in a modern educational establishment. You will have a greater degree of control over the educational process and will be able to guarantee that it is in accordance with the most recent standards and criteria if you use the qualimetric technique.

Literature review

In the context of reforming the system of higher professional education, researchers are actively studying aspects related to the quality of education (S.I. Arkhangel'sky, A. Ponukalin and others) [1], they develop methods and mechanisms for managing this quality (N.V. Basova, V.I. Zagvyazinsky, M.V. Nikitin, V.P. Sergeeva and others) [2], they also introduce a variety of knowledge control and assessment systems into the educational process (I.V. Alexandrov, N.N. Dikanskaya, Yu. Pereverzev and others) [3]. The study of psychological and pedagogical literature shows that many authors pay considerable attention to the concept of "qualitative technology" (G.G. Azgaldov, F.R. Miftakhutdinova, V.K. Fedyukin, A.V. Cherekovich and others) [4]. Qualitative technologies mean educational technologies developed in accordance

with the theory of quality, which introduce new approaches to managing the quality of the educational process into the system of postgraduate education, based on the principles of qualimetry as a scientific discipline.

Research Methodology

It is essential to take into consideration both the educational and professional parts of the process when assessing the quality of training that individuals who are interested in becoming experts have received. For each and every institution, the educational component is the most important component. This component is responsible for demonstrating the professional focus in the curriculum through the utilization of a certain set of disciplines. When it comes to ensuring that children receive an education of the highest possible quality, the most important components are giving students' needs top priority and creating conditions that are conducive to their learning and development.

In addition to the phases of human growth, the conditions and consequences of the educational process, and the criteria for measuring the effectiveness of an educational institution, the quality of education is a multidimensional metric that covers all of these aspects. This involves the achievement of achievements that are achievable and that are in accordance with the mandates of the government as well as the expectations of society and individuals alone.

The integration of an entity's internal and exterior components is what contemporary viewpoints on education quality mean when they talk about improving educational standards. When evaluating and analyzing the students' comprehension, it is essential to take into account not only their overall capabilities, but also the indicators and qualities of internal certainty. These include the extent to which the students comprehend the material, the consistency of their knowledge, and their capacity to adjust to a variety of situations.

Analysis and results

V.P. Sergeeva notes that the management of educational systems lies in the conscious and purposeful interaction of participants in the pedagogical process, based on an understanding of its objective laws and aimed at achieving optimal results. Managing the quality of student education, like any activity, is based on compliance with a number of principles [5]:

1. The notion of democratization and humanization of management aims to foster the engagement and autonomy of all individuals involved in the educational process, including instructors, students, and parents. Collegial decision-making is a type of engagement in management. Attaining this objective may be accomplished by ensuring the accessibility and transparency of management information, which includes providing frequent updates from the administration to both the teaching staff and students.

2. Systematicity and integrity in management: Excluding a unilateral approach, the application of this principle presupposes the interdependence and interaction of all management functions. Recognizing the pedagogical process as a systemic and holistic phenomenon establishes tangible circumstances for its efficient administration.

3. The most effective balance between centralization and decentralization: The ideal allocation of powers while making management choices is achieved by combining these two techniques. Excessive centralization can stifle the autonomy of lower levels, while excessive decentralization can diminish the authority of the leader and result in difficulties in the functioning of educational institutions.

4. Collegiality: Collective decision-making, which incorporates the perspectives of managers at various hierarchical levels and performers, serves as a means to surmount managerial subjectivism and authoritarianism. However, collegiality does not absolve each team member of personal accountability for the execution of designated responsibilities.

5. Scientific validity of management: Managers are obligated to examine and accurately implement empirical patterns and trends that emerge in the evolution of educational systems and society. In making decisions, it is imperative to consider both the present circumstances and the projected trajectory of events. In order to enforce the scientific validity of management, it is essential that accurate and comprehensive data regarding the condition of the managed pedagogical system and the surrounding environment be accessible.

Due to various objective factors, including the ongoing advancement of global scientific

and technological progress, the accumulation of knowledge, and shifts in official perspectives regarding the significance of educational service quality and national interests, the educational system has encountered a unique predicament: a substantial surge in the need for teaching personnel well-versed in the realm of education quality management. These developments have resulted in the necessity of developing pedagogical qualimetry, which is the establishment of a comprehensive system for monitoring and assessing the knowledge of students. This system should comply to European standards and should allow for effective administration of educational policy.

In order to elucidate the fundamental nature of the qualimetric approach in pedagogy, it is imperative to initially ascertain the constituents that comprise the caliber of knowledge and the efficacy of teaching.

The notion of «quality of knowledge,» as expounded by V.P. Simonov, encompasses the subsequent constituents [6]:

Strength of knowledge: characterized by the ability of students to apply theoretical knowledge acquired earlier in their educational and practical activities.

Depth of knowledge: is determined by the number of concepts, laws, rules and statements firmly grasped, as well as their clear understanding.

Awareness of knowledge: reflects students' understanding of cause-and-effect relationships in theoretical material and the ability to apply these connections in practice.

Systematic knowledge: promotes the harmonious combination of academic knowledge with a holistic vision of the world.

When it comes to education in general and educational material in particular, the strength, depth, and awareness of knowledge are represented in educational content. They contribute to the formation of a particular orderliness and succession of knowledge when added to the concept of systematicity. The result of this is the development of a new qualitative technology, the application of which establishes the conditions necessary for the implementation of creative processes, hence introducing novel technological and technical options for the management of a wide range of activities, and also results in a rise in the number of quality characteristics [7-10].

Conclusion/Recommendations

The implementation of a multi-tiered framework for advanced professional education compelled the incorporation of a qualitative element due to the subsequent rationales:

Competence as a learning outcome: The transition to third generation educational standards increases the importance of competence as the main learning outcome. A specialist with qualitative knowledge and qualimetric skills more effectively ensures the quality of his professional activities at all levels.

Formation of a qualitative culture: Quality education, combined with the internal need of a specialist for quality results, creates conditions for the formation of his qualitative culture - the highest manifestation of professional competence.

Connection with innovation: The educational quality management education system is closely related to innovation, which contributes to the creation of new products that meet the growing needs of society, as well as new technologies in the field of production, culture and education. Innovative activities help improve the education quality management system in higher education.

References

Arkhangelsky S.I., Ponukalin A. Research of the quality of education in the context of reforming the system of higher professional education // *Science and Education*. — 2018. — № 3. — pp. 12–18

Basova N.V., Zagvyazinsky V.I., Nikitin M.V., Sergeeva V.P. Technologies and mechanisms for managing the quality of education // *Pedagogical technologies*. — 2019. — № 2. — pp. 45–53.

Aleksandrov I.V., Dikanskaya N.N., Pereverzev Yu. Various systems of control and assessment of knowledge in the educational process // *Higher education*. — 2020. — № 1. —

pp. 59–66.

Azgal'dov G.G., Miftakhutdinova F.R., Fedyukin V.K., Cherehovich A.V. Development of the concept of “qualitative technology” in pedagogy // *Modern education*. - 2017. - № 4. - P. 77–85.

Sergeeva V.P. Management of educational systems: purposeful interaction of participants in the pedagogical process // *Pedagogy and management*. — 2019. — № 5. — pp. 32–39.

Simonov V.P. Quality of knowledge: strength, depth, awareness, systematic knowledge // *Science and Innovation*. — 2021. — № 6. — P. 110–117.

Modern educational standards of the third generation and their role in increasing the competence of specialists // *Educational technologies*. — 2022. — № 7. — P. 89–96.

The transition to a multi-level system of higher professional education and its impact on the educational process // *Bulletin of Higher School*. - 2023. - № 2. - P. 22–30.

Innovative technologies and their role in managing the quality of student education // *Education and Innovation*. - 2022. - № 5. - P. 44–52.

Qualitative education and the formation of a qualitative culture of specialists // *Pedagogy and modern society*. - 2023. - № 1. - P. 68–75.

PROFESSIONAL TA'LIM-OTM, DUALTA'LIM TIZIMINI QURISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI TAHLILI

Toshmirzayeva Muhayyo Maxkambayevna
Namangan Davlat Universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Kasbiy ta'limni tadqiq etgan bir qator olimlarning ta'kidlashicha, uning mustaqil ta'lim sohasi sifatida vujudga kelishi va rivojlanishi o'tgan yillar davomida aynan empirik xususiyatga ega bo'lgan, ya'ni talab qilingan darajada ilmiy-nazariy va metodologik dalil-isbotga ega bo'lmagan. Shu bois, shubhasiz kasbiy ta'limning yangi sifat ko'rsatkichi o'zining rivojlanishi va amal qilishida ilmiy yondashuvga tayanmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Kasbiy ta'lim sohasidagi tadqiqotlar tobora chuqur va har taraflama xususiyatga ega bo'lib, bu o'z navbatida kasbiy ta'lim pedagoglarini tayyorlashda to'laqonli ilmiy asoslangan mazmun berishi, unga mustahkam metodologik asosni ta'minlashi mumkin.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, kasbiy ta'lim, professional ta'lim, ta'lim tizimi va dasturlari

ANALYSIS OF THE METHODOLOGICAL BASIS AND ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES OF BUILDING A SYSTEM OF PROFESSIONAL EDUCATION, DUAL EDUCATION

Toshmirzaeva Muhayyo Makhkambaevna
Namangan State University 1st stage basic doctoral student

Abstract. A number of scientists who researched vocational education stated that its emergence and development as an independent field of education over the past years had an empirical nature and had the required scientific-theoretical and methodological evidence. didn't happen Therefore, it is no exaggeration to say that the new quality indicator of professional education relies on a scientific approach in its development and implementation. Researches in the field of professional education are increasingly deep and comprehensive in nature, which in turn can provide a fully scientifically based content and provide a solid methodological basis for the training of professional education pedagogues.

Key words: dual education, professional education, professional education, educational system and programs

АНАЛИЗ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ И ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПОСТРОЕНИЯ СИСТЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Таширзаева Мухайё Макхамбаевна
Базовый докторант I ступени Наманганского государственного университета

Аннотация. Ряд ученых, исследовавших профессиональное образование, констатировали, что его возникновение и развитие как самостоятельной области образования в последние годы носили эмпирический характер и имели необходимые научно-теоретические и методологические обоснования. не произошло Поэтому не будет преувеличением сказать, что новый показатель качества профессионального образования опирается на научный подход при его разработке и внедрении. Исследования в области профессионального образования приобретают все более глубокий и комплексный характер, что, в свою очередь, может обеспечить вполне научно обоснованное содержание и обеспечить прочную методологическую основу подготовки педагогов профессионального образования.

Ключевые слова: дуальное образование, профессиональное образование, профессиональное образование, образовательная система и программы.

Kasbiy ta'lim jarayonlarini takomillashtirish, uni insonparvarlashtirish, bitiruvchilarni tayyorlash sifatini oshirish, ular tomonidan zamonaviy samarali pedagogik texnologiyalarni

egallash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar katta ahamiyatga ega (K.Ya.Vazina [50], A.O.Velijanina, M.V.Goronovich, V.I. Kondrux, O.M.Kuznesova, Ye.V. Romanov, M.L.Shkurkin, L.A.Shkutina, M.V.Shurkina va boshqalar.

Mazkur tadqiqotlarni tahlil qilish va tadqiqot natijalarini umumlashtirish kasbiy ta'limning o'ziga xos pedagogik fenomen sifatida yaxlitligini asoslaydigan metodologik ahamiyatga ega o'lchamlari va sifatlarini ajratishga imkon beradi.

Ushbu nuqtai nazardan tadqiqotchilar tomonidan kasbiy ta'limning ichki mazmun-mohiyatli birlikning asoslari sifatida ajratiladigan tamoyillari asosiy ahamiyatga ega. Ularni ikkita asosiy guruhga birlashtirish mumkin:

har qanday ta'lim tizimlarining shakllanish xususiyatlarini aks ettiruvchi, ularning tarkibiy va funksional birligi, o'zaro aloqadorligi va uni tashkil qiluvchi unsurlar orasidagi o'zaro munosabatni ta'minlovchi umummetodologik tamoyillar;

mazkur muayyan maxsus ta'lim tarmog'ining tizimli tashkil topishi, mazmun-mohiyatli xususiyatlarini aks ettiruvchi xususiy metodologik tamoyillar.

Tadqiqotimiz nuqtai nazaridan umummetodologik tamoyillarga quyidagi tamoyillar kiradi:

Tizimlilik tamoyili mazmuni va tarkibiga ko'ra barcha murakkab obyektlarning umumiy xususiyatini aks ettiradi.

Sinergizm tamoyili o'zini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi rivojlantirish, ochiq tizimlar (ta'lim muassasasi, fakultet, kafedra, bo'lim, shaxs) kabilarning tashqi muhit, yuqoriroq tartibli tizimlar bilan faol aloqadorligidan iborat o'zaro hayot faoliyati mohiyatini ochib beruvchi boshqaruv tizimlarining faolligi, buning hisobiga o'zini o'zi tashkil qilishi va rivojlanishi. Ushbu tamoyil subyektiv ta'lim jarayonlarining obyektiv jarayonlarning ro'y berishiga ta'sirini hisobga olishni taqozo etadi.

Vazifalarni faollashtirish tamoyili har qanday tashkilotning eng muhim tomonini aks ettiradi. Bu tizim sifatlarining funksional (maqsadga muvofiq) ahamiyatga ega bo'lish jarayonini bildirib, oxirgisi uni rivojlantirish va saqlashning asosi hisoblanadi. Mazkur tamoyilni ajratib ko'rsatgan V.A.Fyodorovning ta'kidlashicha, ushbu tamoyildan o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda kasbiy ta'limni rivojlantirishning tashkiliy asosini yaratish bo'yicha alohida muhim qonun-qoida kelib chiqadi.

Boshqaruv samardorligi tamoyili ta'lim tizimini boshqarishda eng kam mehnat, vaqt moliyaviy resurslar va ruhiy kuchlarni sarflashni nazarda tutuvchi optimal yo'l orqali yakuniy maqsadga erishishni aks ettiradi.

Tashkilot va boshqaruvning dualligi tamoyili tizimlarning tadrijiy rivojlanishida ikkilamchi nasliy mexanizmni ajratishni talab qiladi, bunda birinchisi tizimning barqarorligi, unda o'tmishning to'planishini, ikkinchisi esa – o'zgaruvchanlik, kelajak bilimlarning to'planishini belgilaydi. Birinchi omil vaqt oralig'ida tarkibiy axborotni, ikkinchi omil – ehtimolli o'zgarishlarning chegaralari va o'lchamlari to'g'risidagi ma'lumotni ifodalaydi. Kasbiy-pedagogik ta'lim amaliyotida mazkur prinsip tizimni boshqarish, harakatga keltirish va rivojlantirish, tajribani mantiqiy-tarixiy tahlil va innovatsion faoliyatni omilkorlik asosida uzviy bog'lashga yo'naltiradi.

xususiy metodologik tamoyillar umummetodologik tamoyillarning mazmunan o'ziga xos, turli ko'lamlari va turli darajadagi modifikatsiyalaridan biri hisoblanadi. Shu bois biz tomonimizdan nazarimizda kasbiy-pedagogik ta'limning o'ziga xos xususiyatini ifodalovchi eng umumiy tamoyillar ajratildi:

Kasbiy-sohaviy va psixologik-pedagogik tayyorgarlikning integrativlik tamoyili, mazkur turdagi ta'limning o'ziga xos ikkilamchi bir butun mohiyatini anglatadi.

Psixologik-pedagogik tayyorgarlikning metodologik ahamiyatligi tamoyili kasbiy ta'lim ikkita tarkibiy tuzilmasi orasidagi munosabatlar xususiyatini ifodalaydi.

Muhandis-pedagogik kasbiy ta'limning iqtisodiyot va mehnat bozorining tarkibiy tuzilishi bilan tizimli asoslanganlik tamoyili. Mazkur tamoyil kasbiy ta'limda ixtisosliklarni ajratish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining dolzarb va iloji boricha, istiqbolli extiyojlariga aniq yo'naltirilganligini talab qiladi. Shu munosabat bilan muhandis-pedagogik kasbiy ta'lim dasturlarini, asosiy ta'lim standartlari va kasbiy ta'lim standartlarini, shuningdek boshqa hujjatlarni muvofiqlashtirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta'limning mobilligi (harakatchanligi) tamoyili ta'limning jamiyat ehtiyojlari va mavjud ta'lim tizimining imkoniyatlarini aks ettiruvchi yangi mobil (harakatchan) iqtisodiy tarkibiy shakllarini qidirishni nazarda tutadi.

Ta'lim tizimining ochiqligi tamoyili. Mazkur tamoyilning ahamiyatliligi shundaki, doimiy ravishda o'zgarib turgan jamiyatda shaxs o'quv muassasasini bitirib chiqishda keskin tarzda o'zgarib ketgan kon'yuktura sharoitiga tushishi mumkin.

Ta'limni fundamentalashtirish va amaliy yo'naltirilganligining birligi tamoyili. Bunda V.i.Baydenkoning ta'kidlashicha, "amaliy faoliyat mazmunini rivojlantirishga yo'naltirilgan aqliy fundament kasbiy mohirlikning muhim omili bo'lib xizmat qiladi, umumiy va kasbiy ta'limni fundamentalizatsiya qilish va ixtisoslashtirish orasidagi kelishmovchilikni hal qilishga yordam beradi".

Bilimlilik va kasbiy ta'lim darajasini bo'linish tamoyili. Uning mohiyati shundaki, ta'lim davrini ikkita bosqichga bo'lish maqsadga muvofiq. Birinchisi vaqt o'tishi bilan eskirmaydigan va umuman olganda kasbiy tayyorgarlikning asosini tashkil qiluvchi fundamental bilimlarni egallashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. ikkinchisi, kasbiy tayyorgarlik deb nomlangan bosqich "bitiruvchini mutaxassis darajasiga etkazish va kelgusi faoliyatga moslashtirishning birinchi pog'onasi"ni o'z ichiga olgan bosqich bo'lib, u "jamiyat va texnologiyalar o'zgarib ulgurmaydigan" nisbatan qisqa muddatli vaqtni o'z ichiga olishi zarur.

Ta'limning ko'ptarmoqliligi tamoyili ta'lim jarayonida qo'shimcha ixtisoslikni egallash imkoniyatini nazarda tutadi. Bu esa kon'yukturaning o'zgarishi sharoitida mutaxassisni ehtiyot qilish va ta'lim yo'nalishlarining ko'pqirraligiga erishish uchun muhimdir.

Tizimlilik tamoyili muhandislik-texnik ta'limni muhokama qilishda tizimli yondashuvni qo'llashni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv umumilmiy metodologik qurol sifatida tizimlarning umumiy nazariyasi qoidalariga asoslanadi (A.P. Averyanov, I.V. Blauberg, D.P. Gorskiy, M.S. Kagan, V.N. Sadovskiy, A.I. Uemov, E.G. Yudin va boshq.), ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlarda esa ijtimoiy, xususan pedagogik tadqiqotlarda turli tamoyil (konsepsiyalari)ning qonun-qoidalari qo'llaniladi (V.G. Afanasev, V.P. Bepalko, N.V. Kuzmina, C.A. Sarkisyan, E.H. Stepanov va boshqalar).

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqilayotgan hodisa tizim, ya'ni bir biri bilan o'zaro aloqadorlikda bir butun yaxlitlikni tashkil qiluvchi unsurlar majmuasi sifatida qabul qilinadi.

Sinergetik yondashuvning uning asoschisi G.Xaken tomonidan qayd etilgan umumiy nuqtai nazaridan aytish mumkinki, sinergetika tizimlarning vaqt oraliq'ida tadrijiy rivojlanishi o'rganish bilan shug'ullanadi va uni umumiy tizimli tahlilning bir qismi desa bo'ladi, zero tizimli tahlilda tizimning amal qilishi asosida yotgan umumiy prinsiplar asosiy qiziqish uyg'otadi.

Darhaqiqat, turli tabiiy jarayonlar tizimlarida o'zining umumiyligini namoyon qilgan sinergetik qonuniyatlar pedagogik tizimlarda aks etmasligiga hech qanday shak-shubha yo'q. Biroq, aniq fanlar usullarini gumanitar sohaga ko'chirishda, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, boshqa soha fanlari tushunchalari va qarashlarining ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasiga moslashtirishda sezilarli muammolar yuzaga keladi.

Jumladan, T.M. Davydenkoning ta'kidlashicha, sinergetikaning diqqat-markazida mustaqil rivojlanayotgan tizimning statik va dinamik xulq-atvoridagi sifat o'zgarishlari mavjud bo'lsa, rivojlanayotgan pedagogik tizimlarni o'rganishda mazkur yondashuv qat'iy tizim emas, ko'proq "jarayon" tushunchasiga e'tibor qaratadi. Bunday sharoitda tizim tushunchasining o'zi muayyan vaqt oraliq'ida rivojlanadigan va o'zaro aloqador jarayonlarning majmuasi sifatida idrok qilinadi.

Shunday qilib, sinergetikaning metodologik qarashlarini pedagogik hodisalarni tahlil qilishda qo'llash nafaqat ularning mohiyatini har taraflama chuqur tadqiq etishga, balki amaliy pedagogik kasbiy faoliyatni yanada samaraliroq amalga oshirish imkonini berishi mumkin. xususan, ta'lim olishga bo'lgan har qanday bir yoqlama yo'naltirilgan yondashuvning cheklanganligini xoh u kognitiv, ijtimoiy yoki shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ekologik yoki madaniy yondashuv bo'lsin tushunish, pirovardida integrativ ta'lim paradigmasini izlashga

rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'z mohiyatiga ko'ra, ta'limdagi kompetentli yondashuv integrativ xususiyatga egadir.

Ta'limda kompetentli yondashuv tobora dolzarb ahamiyat kasb etganligi sababli "kompetentlik", "kompetensiya", "tayanch kompetensiyalar" tushunchalari yangi ta'lim sifati masalalarini muhokama qilishda tez-tez qo'llanmoqda hamda tobora keng o'z tasdig'ini topmoqda. xorijiy va mamlakatimiz pedagogikasida kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini mohiyatini idrok etish, ularning qaysi biri asosiy (universal) hisoblanishi, ularning shakllanish va baholash usullari qanday ekanligini anglash jarayonlari tobora faollashmoqda, shuningdek ushbu tushunchalarga aniqlik kiritish ustida faol muzokaralar olib borilmoqda.

Ko'rib o'tilgan metodologik yondashuvlar va tamoyillar kasbiy ta'limning o'ziga xos tarmog'i bo'lgan kasbiy ta'limni maqsadli ravishda rivojlantirish va maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish uchun fundament vazifasini bajaradi. Ularni qo'llash o'zini o'zi tashkil qilish va o'zini o'zi boshqarish asosida ta'limning tizimliliigi, yaxlitligini ta'minlash, ta'lim tizimlarining barcha bosqichlari kabi shaxsiy bosqich (ta'lim oluvchi, pedagog)da o'zini o'zi tashkil qilish va o'zini o'zi rivojlantirish mexanizmlariga tayanish imkonini beradi.

Ko'rib chiqilgan metodologik asoslar o'quv jarayonini tashkil qilishda turli ta'lim yondashuvlari, maqsadli-qadriyatli yo'l-yo'riqlar, pedagogik texnologiyalar, turli xil didaktik vositalarni, metodologik bir butunlikni buzmaganda qo'llash imkonini beradi.

Shunday qilib, bizning nazarimizda, tanlangan metodologik asoslar tadqiqotimiz maqsadlariga to'liq mos keladi.

Pedagogikada "dual tizimi" tushunchasi ilk bor Germaniyada 1960 yillarda keyinchalik nemis tilida so'zlashuvchi bir qator mamlakatlar (Avstriya, Shveysariya)da keng tarqalgan kasbiy ta'limni tashkil qilishning yangi shaklini ifodalash uchun qo'llangan.

Angliya, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlarda kasbiy tayyorlash tizimini modernizatsiyalash borasida katta ishlar olib borilmoqda. Ularda qo'llanilayotgan zamonaviy o'qitish texnologiyalar (o'qitishning tyutorlik tizimi, o'qitishni ixtisoslashtirish, birigada-individual ta'lim, o'zaro o'qitish yoki o'zaro-maslahat) kasb ta'limi mutaxassislarini intellektual va psixoemotsional rivojlanishini, ijodiy o'sishi har tomonlama individual rivojlanishini ta'minlamoqda. "Ochiq ta'lim" imkoniyatlaridan ijodkor, "kamandada ishlash" qobiliyatiga ega, ma'naviy va global aspektlarda faol shaxsni shakllantirish katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'plab Yevropa mamlakatlarida kasb ta'limi dasturlari individuallashtirilmoqda va mutaxassislar ana shular asosida kasbiy faoliyatga tayyorlanmoqda (Angliya, Germaniya, Fransiya).


Norvegiyada pedagogik ta'limning ta'lim oluvchilarda nafaqat kasbiy qobiliyat, balki umumiy erudsiyani rivojlantirishga, insoniy munosabat-larni, jamiyat mentalitetini shakllantiruvchi ma'naviy va madaniy kamolotga erishishga qartilgani ibratlidir.

Germaniyada kasbiy ta'limning dual tizimi o'z ichiga kasbiy ta'lim, kasbiy o'qitish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq rasmiy tan olingan ta'limning ikkita mustaqil sohiblariga tegishli tashkiliy va huquqiy munosabatlarini o'z ichiga oladi. Mazkur tizim bitta maqsad – ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorlashni amalga oshiruvchi ikkita turli o'quv ishlab chiqarish muhiti, ya'ni xususiy muassasa va davlat ta'lim maktablarini o'z ichiga oladi.

Muassasaning o'quv-ishlab chiqarish muhiti quyidagilarni o'z ichiga oladi: mehnatiga qisman haq to'lash sharti bilan ta'lim oluvchi uchun ish o'rni; o'quv ustaxonasi va laboratoriya; ishlab chiqarish ichidagi ta'lim.

Kasbiy maktabning o'quv ishlab chiqarish muhiti quyidagilarni nazarda tutadi: o'quv sinfi; ustaxona (yoki laboratoriya).

Nemis tadqiqotchisi Y.Myunx tomonidan 1984 yilda taklif qilingan Germaniyadagi kasbiy ta'lim dual tizimi tarkibiy tuzilishining soddalashtirilgan jadvali 1-rasmda berilgan.



1-rasm. Kasbiy ta'lim dual tizimining tarkibiy tuzilishi Y.Myunx bo'yicha)

Kasbiy ta'limning dual tizimini tahlil qilishning o'tkazilgan natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

dual tizim ikkita turlicha o'quv ishlab chiqarish muhitlari, ya'ni kasbiy ta'limning ikkita normativ-tashkiliy shaklining o'zaro muvofiqlashuvi va kelishilgan o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi;

dual tizimning har bir tarkibiy unsuri o'ziga xos tarkibiy tuzilishiga ega bo'lgan (ularning hech biri boshqasining tizimi hisoblanmaydi) mustaqil ta'lim tizimi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin;

ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ierarxik emas, aksincha paritet xususiyatga ega, ya'ni ular o'zlarining amal qilishida teng mazmunli va teng huquqlidir;

o'zaro kelishilgan o'zaro aloqadorlikning hal qiluvchi omili yagona ta'lim maqsadi – ta'lim natijasi sifatida muayyan ijtimoiy-kasbiy tavsifga va aniq malakaga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlashdir;

har bir alohida tizim doirasida muayyan didaktik asoslar va kasbiy ta'lim shartlari o'ziga xos bo'lib, muayyan o'quv-ishlab chiqarish muhitining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi;

shu vaqtning o'zida umumiy maqsad ta'limda universallik, aniq didaktik usul va vositalardan mustaqil foydalanish hamda ta'lim oluvchi tomonidan ta'lim olish jarayonida olinishi kerak bo'lgan bilimlarni aks ettiruvchi yagona metodologik asoslarga tayanish zaruratini taqozo etadi;

qaysidir ma'noda asosiy kompetensiyalar asosida qurilgan ta'lim olishni nazarda tutuvchi kompetentlikka yo'naltirilgan ta'limning barcha talablariga javob beradi;


universal sifatlar (asosiy kompetensiyalar)ni shakllantirishga intilish ta'lim usullarining mustaqil ahamiyatini oshirib, ta'lim mazmuni kabi muhim pedagogik vositalarga aylanadilar (kognitiv yo'naltirilgan ta'limdan farqli ravishda mazmun hal qiluvchi rol o'ynagani kabi ta'lim usullari yordamchi rol o'ynaydi).

Shu bilan bir vaqtning o'zida kasbiy ta'lim dual tizimining mohiyatli, invariantiv xususiyatlari uning o'ziga xos tashkil topgan kasbiy ta'lim modeli sifatida ham o'rta maxsus va oliy kasbiy ta'limning istiqbolligi va maqsadga muvofiqligini asoslaydi. Uning o'ziga xos

ahamiyati shundaki, ushbu tizim ishlab chiqarish va ta'lim sohalaridagi munosabatlarning bir biridan uzilishi, tarqoqligini engib o'tishga imkon beradi. Pirovardida, bu mamlakatimizda yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyatning obyektiv voqeligi hisoblanib, u o'z navbatida ikkala sohaning rivojlanishi va amal qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur uzilishni engish, ishlab chiqarish va kasb-hunar kadrlarini tayyorlovchi ta'lim tuzilmalari orasida maqsadga muvofiq va kelishilgan o'zaro aloqani o'rnatish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, uni hal qilish mutaxassislarni tayyorlash sifati va mamlakatning ishlab chiqarish sohasi faoliyatining sifatiga bog'liqdir.

Yuqorida qayd etilgan dallilardan kelib chiqib qayd etish mumkinki, duallik kasbiy ta'limning metodologik tavsifi sifatida tashkiliy jihatdan turlicha shaklga ega ta'lim doirasida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim va ishlab chiqarish sohalarining kelishilgan aloqadorligini yagona metodologik asoslarda qurishni nazarda tutadi.

Kasbiy ta'limni dual tashkil qilishning umumlashtirilgan chizmasi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Kasbiy ta'limni dual tashkil qilishning umumlashtirilgan chizmasi

Biroq, muayyan sohalar doirasida va kasbiy ta'limning turli darajasida ta'limni dual tashkil qilishning umumiy metodologik tamoyillarini qo'llash kasbiy ta'limning mazkur turini hisobga olgan holda tegishli moslashishni talab qiladi.

Umuman olganda dissertatsiya tadqiqoti bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi kamchiliklar borligi aniqlandi:

1. Kasb-hunar maktablari va OTM dual ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni mazmunan rivojlantirilmaganligi;
2. Kasb-hunar maktablari va OTM dual ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni modellashtirilmaganligi;
3. Kasb-hunar maktablari va OTM dual ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni texnologiyasni takomillashtirilmaganligi;
4. Kasb-hunarmaktablari va OTM dual ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllanganlik darajalarini baholash mexanizmlarini takomillashtirilmaganligi, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmaganligi.

Mazkur kamchiliklarni echimlari dissertatsiyaning keyingi boblarida batafsil keltirib o'tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova D.G`. Talabalarni xavfsiz kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari "Mug'allim ham uzliksiz bilimlendirio'" jurnalini. Nukus-2021 yil, 3/3 soni. –B. 92-94.
2. Akramova D.G`. Pedagogical psychlogical aspects of the safety problem Spectrum journal of Innovation, Reforms and Development Volime 08.oct.2022 ISSN(E) 2751-1731 Website www.sjird.journalspark.org. – Pp. 53-57.
3. Akramova D.G`. Bo'lajak qurilish muhanlislarini havfsiz kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari // "Pedagogs" international research journal. ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 www.

pedagoglar.uz Volume-8, Issue-2, April – 2022 y. –Pp. 20-27.

4.Akramova D.G`. Ustoz tomonidan talabalarga mustaqil ishlarni tayyorlashning o`rgatilishi // Uzluksiz ta`lim ilmiy-uslubiy jurnali. 2021y. Maxsus son. –B. 45-49.

5. Akramova D.G`. Modern requirements for preparing students for professional activities in technical universities. abstracts of IV International scientific and practical conference. January 10-12, 2022 y. Stockholm, Sweden – Pp. 363-365.

6.Akramova D.G`. Qurilish ishlarida hayot xavfsizlini mohiyati // Modern scientific research. Dekabr-2022 ISSN2181-2675. – Pp. 161-166.

7. Akramova D.G`. Talabalarni kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorlashning tashkiliy pedagogik jihatlari // Modern scientific research. Dekabr-2022. ISSN2181-2675. – Pp. 167-173.

8.Akramova D.G`. Hayot faoliyati xavfsizligi. O`quv qo`llanma. Namangan – 2023 yil. – 148 b.

9.Akramova D.G`va boshq. Mutaxassislarni shakllantirishda mustaqil ta`limning o`rni va ro`li // “Zamonaviy Mashinasozlikda Innovation Texnologiyalarni qo`llashning ilmiy asoslari tajriba va istiqbollar” mavzusida xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya. Namangan shahri, 23-24sentyabr 2022 yil, – Pp. 335-339.

10.Akramova D. G`. , Raxmonov B.Y. Metodik ishlarni bajarishda pedagogning o`rni // «Qurilishda innovatsiyalar, binolar va inshootlarning seysmik xavfsizligi» Xalqaro miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya Namangan 15-17 dekabr, 2022 yil., – B. 1275-1278.

11.Akramova D. G`.Talabalarning kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorlash // “Biologiya fanlarining dolzarb masalalari, muammo va echimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qo`qon 2022-yil 25- may. – B.102-104.

FORTEPIANO DARSLARIDA ASARLARNI BADIY-OBRAZLI IJRO ETISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Trigulova Adilya Xusainovna

“Musiq nazariyasi va metodikasi” kafedrasida dotsenti
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
<https://orcid.org/0009-0004-5117-282X>

Annotatsiya: Maqolada fortepiano darslarida asarlarni badiiy-obrazli ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlari ko'rib chiqiladi. Ushbu jarayonning asosiy bosqichlari ajratib ko'rsatiladi va uning modeli taxlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Badiiy obraz, ijro san'ati, uslub, janr, dramaturgiya, faktura, tonallik.

DIDACTIC CONDITIONS OF FORMING THE SKILLS OF ARTISTIC PERFORMANCE OF WORKS IN PIANO LESSONS

Trigulova Adilya Xusainovna

Associate Professor of the «Music Theory and Methodology» Department
Regressiya	0,458*	0,480*	0,476*	0,675**	0,264	0,532**
O'rnini to'ldirish	0,163	0,439*	0,549**	0,637**	0,430	0,310
Rad etish	0,559**	0,483*	0,240	0,561**	0,457*	0,639**
Proeksiya	0,449*	0,636**	0,130	0,470*	0,458*	0,368
Kompensatsiya	0,539**	0,472*	0,580**	0,569**	0,639**	0,424**
Giperkompensatsiya	0,580**	0,659**	0,558**	0,294	0,687**	0,529**
Ratsionalizatsiya	0,519**	0,264	0,479*	0,634**	0,210	0,529**

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Kibertaxdidlardan saqlanish va shaxs himoya mexanizmlarini o'rganish so'rovnomasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik jihatlari quyidagilarda siqib chiqarish shkalasi virtual olamga qaramlikga moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik shkalalari bilan, regressiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'rnini to'ldirish shkalasi virtual virtual olamga umumiy qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik shkalalari bilan, rad etish shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, proeksiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, kompensatsiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, giprekompensatsiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, ratsionalizatsiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan aloqaga kirishganligi ma'lum bo'ldi.

Zero, axborotlashgan jamiyatning inson hayotidagi o'rni va roli hamda shu asosda shaxsning ijtimoiylashuv-siyosiyashuviga bo'lgan ta'siri bilan belgilanadi. Xususan, axborot oqimining kuchayuvi, uning son va sifat jihatidan xabarning tez va aniq uzatilishi shaxsning onggi va qalbi orqali o'tmoqda. Bu esa o'z-o'zidan har bir axborot, tarqatilayotgan turli-tuman xabarlarining shaxs ong va tafakkuriga ta'siri bilan o'lchanadi. Ushbu axborotning shaxsiga qanday ta'sir etishi eng avvalo uning bilim darajasi (ommaviy, ilmiy, kundalik ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-marifiy), dunyoqarashi hamda dunyoni his etishi idrok etishi bilan belgilanadi. "Bugun biz

demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida soʻz yuritir ekanmiz, albatta, axborot erkinligini taʼminlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar oʻz fikr va gʻoyalarni, sodir boʻlayotgan voqealarga oʻz munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib boʻlmasligini oʻzimizga yaxshi tasavvur etamiz”. Shaxs dunyoqarashiga axborotning taʼsir kuchi eng avvalo axborotni uzatilishi, qabul qilinishi ongda qayta ishlanishi hamda maʼlum bir xulosa qilinishi bilan amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan axborot olish va uni oʻzlashtirish modelini ishlab chiqqan frantsiyalik olim J.Dyuran aynan inson omiliga eʼtibor qaratadi. Uning fikricha kommunikatsiya tizimining asosini tashkil qiluvchi inson axborotni qabul qilib oluvchi obyekt sifatida besh bosqichni boshidan kechiradi. “Birinchi bosqich – axborot bilan ilk toʻqnashuv bosqichi boʻlib, bu bosqichda retsipient individ u yoki bu harakat amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik haqida qaror qabul qiladi.

Xulosa. Axborotlashgan jamiyatda axborot ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarishni siqib chiqarmaydi, balki uning ustida quriladi va moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki beradi. Tabiiyki, bu jarayon shaxsning ong-shuuriiga taʼsir etish barobarida unga oʻzining axborotning mazmun-mohiyatiga boʻlgan munosabatni ham oʻzgartiradi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Бабаева Ю. Д., Войскунский А. Е. Одаренный ребенок за компьютером. М., 2003.
2. Войскунский А. Е. Феномен зависимости от Интернета // Гуманитарные исследования в Интернете / Под ред. А. Е. Войскунского. М., 2000. С. 100 - 131.
3. Войскунский А. Е. Психологические исследования феномена Интернет- аддикции // Тезисы докладов 2-й Российской конференции по экологической психологии. М.: Экопсицентр РОСС, 2000. С. 251-253.
4. Арестова О.Н., Бабанин Л.Н., Войскунский А.Е. Мотивация пользователей // Гуманитарные исследования в Интернете – под ред. А.Е.Войскунского М.: Терра-Можайск. 2000. – С.55-76

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY SALOHIYAT RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

*Mushtariy Rahmatullayeva,
Mirzo-Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universitetining Jizzax filiali o'qituvchisi*

Annotatsiya; Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyat va uning shakllanishi, bolalarni ijodiy faoliyatda muommoli vaziyatlar yaratish va bu muommoli vaziyatlarni yechishga o'quvchilarni jalb etish haqida atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar; Ta'lim, ziddiyat, jismoniy va psixik salomatlik, axloqiy va estetik hissiyot, xotira, tafakkur.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE IN PRIMARY CLASS STUDENTS

*Mushtariy Rahmatullayeva,
teacher of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek*

Abstract; This article describes in detail creative activity and its formation in elementary school students, creating problematic situations for children in creative activity and involving students in solving these problematic situations.

Key words; Education, conflict, physical and mental health, moral and aesthetic feeling, memory, thinking.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Муштарий Рахматуллаева,
преподаватель Джизакского филиала Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека*

Абстракт; В данной статье подробно описана творческая деятельность и ее формирование у учащихся младших классов, создание проблемных ситуаций для детей в творческой деятельности и вовлечение учащихся в решение этих проблемных ситуаций.

Ключевые слова; Воспитание, конфликт, физическое и психическое здоровье, нравственное и эстетическое чувство, память, мышление.

Ta'limning dastlabki kunlaridanoq kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishini harakatga keltiradigan turli ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Ana shular zamirida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yotadi. Talablarning taboro ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz rivojlanishini taqozo etadi va shu rivojlanish zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi. Ta'lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining Rag'batlantirishi bilan namoyon bo'ladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istagi, ehtiyojini shakllantiradi.

Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi, rag'batlantirish va jazolash me'yorida bo'lsagina, ularning tarbiyaviy ta'siri ortadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o'quvchining bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql-idrok sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon, hatto donishmand inson deb biladi.

O'qituvchi siyomosida o'zining ezgu niyati, orzu istagi, ajoyib his-tuyg'ularini ruyobga chiqaruvchi mu'tabar shaxsni ko'radi. O'qituvchining obrusi oldida ota-onalar, oilaning boshqa

a'zolari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o'qituvchisining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining obro'sidan oqilona va omilkorlik bilan foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'qishga ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarini shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llash kerak. Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aql-idrogi, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvliligi, esda saqlab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi; bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari mazkur ta'lim jaraenida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. O'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini angalsh tuyg'ulari tarkib topadi.

O'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarni esdlab qolishi uchun muayyan intilishni tarkib topishi, ularga eslab qolishning fikr yuritish yo'llarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o'rganishdan iboratdir. Bu vazifani eng avvalo maktab psixologlari qatorida boshlang'ich sinf o'qituvchilari amalga oshirishlari shart. Tafakkur atrof-muhitdagi voq'yelikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan hoda aks ettiruvchi jarayon. Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini -o'zi nazorat qilish, o'rganilgan materialni takrorlash orqali tekshirish, esga tushurish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa, ular materiallarni bevosita takrorlashda uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Lekin o'quvchilar materiallarni eslashni xush ko'rmaydilar va uni osongina tiklash yo'lini tushunmaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy salohiyat rivojlanishi, ularning shaxsiy, ijtimoiy va psixologik omillar bilan uzviy bog'liqdir. Bu jarayonda bir necha asosiy determinantlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Ijtimoiy muhit: Oila, maktab va jamiyatning insonni qanday qabul etishi ijodkorlikka ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi muhit, masalan, oiladagi xursandchilik, ta'lim muassasasidagi yaratuvchanlikka bo'lgan e'tibor, bolaning ijodini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

2. Psixologik omillar: O'quvchilarning o'ziga ishonchlari, emosiyalari va motivatsiyasi ijodiy salohiyatni shakllantirishda muhimdir. Ijodkorlik uchun kerakli bo'lgan faollik va qiziqishlarni uyg'otadigan psixologik muhit yaratish kerak.

3. Ta'lim jarayoni: Boshlang'ich sinflardagi ta'lim metodlari va o'qitish uslublari ham ijodiy salohiyatni rivojlantira oladi. O'qitishda interaktiv metodlarni qo'llash, talabalarni mustaqil fikrlashga rag'batlantirish muhimdir.

4. Guruhiy hamkorlik: Ijodiy faoliyat turli formatlarda amalga oshirilishi mumkin: individual yoki jamoavi ravishda. Jamoavi ishlarda talabalar bir-biridan o'rganadilar va ijodkorlikka bo'lgan qiziqishlarini orttiradilar.

5. Tashabbus va eksperiment: Bolalarning eksperiment qilishlari va yangi g'oyalar bilan chiqishlari uchun sharoit yaratish kerak. Ularning individual xususiyatlarini inobatga olish ham muhimdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;
- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

Ijodiy faoliyatda muamoli vaziyatlar yaratish bu muammoli vaziyatlarni yechishga o'quvchilarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

1. Maktab o'quvchilari shaxsini rivojlantirish, uning qobiliyati, o'qishga qiziqishi, hohish

va istagini shakllantirishi;

2. Axloqiy va estetik hissiyatini tarbiyalash, o'zi va o'z atrofini o'rab olgan olamga hissiy munosabatni shakllantirish.

3. Bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalar, faoliyatning turli shakllarini egallab olish.

4. Bolalarning jismoniy va psixik salomatligini muhofaza qilish.

5. Bola shaxsining individualligini himoya qilish.

Zero, ta'lim faol, ijodiy, mahsuldor, intellektual faoliyatni o'zaro aloqadorlikda amalga oshiradi. Ijodkorlik boshlang'ich ta'limda o'qituvchi faoliyatining asosiy turi bo'lishi zarur. Muammoli vaziyatlar o'qitishning har qanday bosqichida ta'lim mavzusini tushuntirish, uni mustahkamlash, natijalarini nazorat qilishda ham yaratilishi mumkin. O'qituvchi muammoli vaziyatni yaratar ekan, o'quvchilarni uning yechimini yo'lashga yo'naltiradi. Shunday qilib, bola ta'limning sub'yektiga aylanadi va unda yangi bilimlar shakllanadi, u harakat qilishning yangi usullarini egallaydi.

Xulosa qilib aytganda pedagogik o'yinlar ayniqsa, o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Aynan shunday o'yinlar vositasida kattalar va kichiklar o'rtasida muloqot o'rnatiladi. Bu muloqotlar shaxsiy yondoshuv asosida qurilishi kerak. O'qituvchi bolani faqat o'quvchi deb emas, balki bir butun shaxs, o'ziga xos inson deb yondashuvi lozim. O'yinlarda bolaning shaxsiy sifatleri boyib, o'quvchilar ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi hamda o'quvchilarning hulqidagi ijobiy qirralar rivojlanadi, ijobiy tasavvur mashqlari vositasida kuzatuvchanlik, xotira, diqqatni kuchaytirish imkoni tug'iladi, psixologik to'siqlar bartaraf etiladi. Ushbu determinantlarni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayeva M. O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.

2. Sohibjon o'g'li, M. O. (2024, March). BO'LAJAK PEDAGOGLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI. In E Conference Zone (pp. 6-10).

3. Rahmatullayeva, M. (2023). GORDON ALPORTNING SHAXS XUSUSIYATLARI KONSEPSIYASI HAQIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 180-185.

4. Rahmatullayeva, M., & Esanboyev, T. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHI VA O'SMIRLIK DAVRIDA MEN KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 186-191.

5. Rahmatullayeva, M., & Toshtemirova, N. (2023). SHAXSNING SOTSIAL-MADANIY NAZARYASI KREN XORNI TALQINDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 174-179.

6. Rahmatullayeva, M. (2023). BF SKINERNING OPERANT XULQ-ATVOR NAZARIYASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 199-204.

7. Gulnoza, R., Mushtariy, R., & Makhliyo, S. (2023). The physiological basis of temperament: unraveling the complexities of human nature. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(2), 243-247.

8. Rahmatullayeva, M., & Norqulova, I. (2023). BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MOSLASHTIRISH OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 83-88.

9. Gulnoza, R., Mushtariy, R., & Yoqubjon, M. (2023). Therapy, physiology of sensation and perception. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(2), 214-219.

10. Rahmatullayeva, M., Khasanov, F., & Abduganieva, A. (2023). ATTENTION AND MEMORY AS A MENTAL PROCESS. Наука и инновация, 1(10), 60-62.

11. Rashidova, G., Rahmatullayeva, M., Saidov, S., & Egamqulova, S. (2023). Character, ability, and action: the unity of human activity. Наука и инновация, 1(10), 152-155.

O'SMIRDA SUITSIDAL XULQNI KELTIRIB CHIQARUVCHI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Rasulova Feruza Fayzullayevna

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrasida dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ma'lumki, shaxsning shakllanishi dinamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho ilgarilab ketish, goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Oqibatda, ba'zan o'smirlarning hatti-harakatlarida o'zini o'zi mahkum qiluvchanlik belgilari namoyon bo'lishi kuzatiladi. Ushbu maqolada uning vujudga kelish sabablari, oqibatlari va oldini olish choralari yoritiladi.

Kalit so'zlar. Suitsidal holat, disfunktsiya, patologik va nopatologik holat, adaptatsiya, dissotsial, psixokorreksion, genesis, affektiv reaksiya, deformatsiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВЫЗЫВАЮЩИЕ СУИЦИДАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ У ПОДРОСТКОВ

Расулова Феруза Файзуллаевна

доцент кафедры «Психология религии и педагогики» Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. Известно, что формирование личности обладает свойством к динамичному росту. Поэтому в развитии личности бывают случаи прогресса, иногда отставания. В результате иногда наблюдается, что подростки проявляют признаки самоосуждения в своем поведении. В данной статье описаны причины, последствия и меры профилактики возникновения таких признаков.

Ключевые слова. Суицидное состояние, дисфункция, патологическое и непатологическое состояние, адаптация, диссоциация, психокоррекция, genesis, аффективная реакция, деформация.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS CAUSING SUICIDAL BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

Rasulova Feruza Fayzullaevna

Doctor of Philosophy in Psychological Science (PhD)

and about Associate Professor of the Department of Psychology, Religion and Pedagogy International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. It is known that the formation of personality is dynamic. This is why in the development of personality both progressing and lagging behind cases happen. As a result, it is observed that sometimes teenagers demonstrate signs of self-condemnation in their behaviour. This article describes reasons, consequences and prevention measures for the emergence of such signs.

Key words. Suicidal state, dysfunction, pathological and non-pathological condition, adaptation, dissociation, psychocorrection, genesis, affective reaction, deformity.

Mavzuni dolzarbligi. XXI asr shaxs va jamiyat, shaxslararo munosabatlar o'rta sidagi o'zaro ta'sirlar muammosini keskinlashganini ko'r satdi. O'z navbatida, mazkur muammo inson va jamiyat rivojida destruktiv tendentsiyalar kuchayishi va yig'ilishiga turtki bo'ldi. Ushbu destruktiviyalarga javob tariqasida salbiy tusdagi deviativiyalarning turli shakllari vujudga keldi. Xavfli tomoni shundaki, rivojlangan mamlakatlarda o'zini o'zi vayron qilishning eng dahshatli shakli bo'lgan suitsidlar to'lg'inining kuchayishidir. Eng murakkab ijtimoiy hodisa va deviant xulqning asosiy ko'rinishlaridan bo'lgan suitsidal xulq avvalo, sotsiolog va psixologlar, shuningdek, tarixchilar, madaniyatshunoslar, faylasuflar tomonidan jiddiy o'rganilishni taqozo etadi. Har yili o'z xohishiga ko'ra minglab odamlar hayotdan ko'z

yummoqda. O'z joniga qasd qilish darajasi va miqdori (aholining har 100 mingi hisobidan) jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va axloqiy holatining indikatorini bo'lib xizmat qiladi. Demakki, suitsidal xulq xavfini tadqiq etish zaruriyati, birinchidan, zamonaviy jamiyatning turli sohalarida tutgan o'rni va hissasini ortishi bilan; ikkinchidan, jamiyat o'zgaruvi shart-sharoitlarida mazkur muammoning yetarlicha o'rganilmaganligi bilan; uchinchidan, insonning ham jismoniy, ham ijtimoiy salomatligini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga doir jamiyat va davlat ehtiyojlari bilan belgilanadi.

O'smirlarning jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog'lik muammolar ularning jismoniy shikastlanishlar va ruhiy tushkunliklar natijasida kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lib, bu ularning shaxslararo munosabatlariga salbiy ta'sir etadi. Xulq-atvordagi og'ishlarning ham ma'nan, ham jismonan tanazzuli ular turmush tarzining nosog'lom kechishiga, ularni turli zararli illatlar sari yetaklaydi. Biz o'zini o'zi mahkum qiluvchi xulq-atvor deganda, nafaqat organizmning jismonan nosog'lomligi, balki o'smir shaxsi rivojida axloqsizlik, ma'naviy qashshoqlik, turli darajadagi dezadaptatsiyaga olib keluvchi shaxs disfunktsiyalarini tushunamiz. O'smir shaxsida disfunktsiyalar kechishi patologik va nopatologik ko'rinishga ega.

Muammoning tahlili. O'smirlarda o'zini o'zi mahkum qiluvchi xulq-atvor va uning tasniflari quyidagicha ifodalanishi mumkin.

I. O'smir shaxsi buzilish darajasi: a) old patologik; b) nopsixotik; v) psixotik.

II. Mahkum qiluvchi xulq-atvor tiplari: a) hayotiy talofat; b) jismoniy ziyon; v) ma'naviy-axloqiy kamolotga ziyon; g) ijtimoiy mavqega ziyon.

III. Ijtimoiylashuv adaptatsiya bosqichlari:

a) barqaror adaptatsiya;

b) parial adaptatsiya;

v) beqaror adaptatsiya;

g) dezadaptatsiya. [9; 26]

O'smir shaxsidagi buzilish darajalarini quyidagi misol orqali yaqqol ifodalash mumkin. Masalan, alkogolga nisbatan moyillikni olaylik. Har zamonda ichib turish, ya'ni alkogolga epizodik xususiyatli moyillik, bayramlarda, do'stlar davrasida, vaqtni qiziqarli, maroqli o'tkazish bilan bog'liq holatlar garchi ushbu holat ham o'smir shaxsi shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir qilsada, albatta patologiya emas. Alkogolni tez-tez qabul qilish oqibatida unga bog'lanib qolish esa patologiya, lekin psixotik daraja emas.

Agar alkogolga yoki narkotik moddalarga ruju qo'yish xaqiqiy kasallik simptomi darajasiga yetganda, ular bilan bog'liq chuqur o'zgarishlar («lomka») ro'y bersa, bu psixotik daraja xisoblanadi.

Mahkum qiluvchi xulq-atvor tiplari psixologiyada quyidagilarga ajratiladi: a) shunday hatti-harakat va xulq-atvor mavjudki, bu individum uchun zararli xisoblanib, u o'zini o'zi o'ldirish (suitsidal holat) bilan tugashi mumkin. Lekin tavakkalchilik bilan bog'liq sport turlari, jumladan, avto va moto poygalar, alpinizm, boks yoinki, xayot uchun xavfli kasbkor; o't o'chiruvchi, kaskador, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni saqlash bo'linmalari ba'zi vakillarining faoliyati (garchi ular nimaga ketayotganlarini chuqur anglagan taqdirda ham, ba'zan o'z hatti-harakatlarining oxiri o'lim bilan tugasada), albatta bundan mustasno. Chunki bunday mas'uliyatli kasb egalarida o'ziga ishonch, har qanday vaziyatda o'zini sinab ko'rish va g'alaba nashidasi ustivorlik qiladi; b) o'z organizmiga jismonan zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lgan, depressiv holat (ruxiy azoblanish) natijasida o'ziga o'zi tajovuz qilishi bilan kechadi; v) mahkum qiluvchi xulq-atvorning tipi jamiyat tomonidan qabul qilingan umuminsoniy me'yorlarga zid bo'lgan delikvent xulq-atvor xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bunda nafaqat umumbashariy me'yorlar, balki umuminsoniy qadriyatlar, diniy me'yorlarni saqlash nazarda tutiladi. Aks holda insoniyat o'zining ibtidoiy ajdodlaridan farq qilmay qolar edi. Garchi inson davr o'tishi bilan biologik tuzilishi nuqtayi nazaridan chuqur o'zgarishlarga uchramagan bo'lsada, lekin o'zining milliy an'anasiga, milliy madaniyatiga, milliy ahloq me'yorlariga qarshi tutar ekan, u ma'naviy qashshoqdir. Zero, to'rt muchchasi sog'lom o'smirning assotsial (aksilijtimoiy) guruxlardagi ishtirokini, axloq tuzatish muassasalariga tushib qolishini, turli ekstremistik guruxlardagi faoliyatini, o'zining hayotini barbod qilishini faqat uning o'zini o'zi

mahkum qiluvchi xulq.-atvoridangina izlash mumkin; g) mahkum qiluvchi xulq-atvorning keyingi tipini ijtimoiy mavqega ziyon-zahmat yetkazish, deb atash mumkin. Oddiy bir misol, o'smir o'z ota-onasiga ko'ngilsiz tashvish keltirish maqsadida o'qishni tashlaydi. Bu bilan u o'zini o'zi tasdiqlashga urinida va hokazo. Qayd etilgan holatlarning barchasida ijtimoiy dezadaptatsiyaning u yoki bu darajalari izohlanadi.[7; 55]

Shunday qilib, o'smir hayotining kechishida ba'zan «ko'z ilg'amas o'zgarishlar», ba'zan esa favquloddagi «yangiliklar», «yorqinliklar» umumiy ta'sirida uning taqdirini o'zgartiruvchi ma'naviy tushkunliklar ham ro'y beradi. Shulardan biri — o'smirning o'z joniga qasd qilishi bilan bog'liq hatti-harakatidir.

Sir emaski, o'z joniga suiqasd qilish jamiyatga hamda oilaga ma'naviy va moddiy jixatdan juda katta zarar keltiradi. Chunki o'z joniga qasd qilgan o'smir: a) ma'lum muddat o'qishga (ishga) yaroqsiz bo'lib qolishlari; b) surunkali davom etuvchi og'riqdar sabab turli asabiy zo'riqishlarning ortishi; v) ham jismoniy, ham ruhiy majruhlik, nogironlik; g) o'z joniga qasd qilishga urinishning yanada kuchayishi holatlarini boshidan kechiradilar.

O'z joniga qasd qilish genezisida oilaning, oila a'zolari, ular orasidagi shaxslararo munosabatning o'rni beqiyos. Oiladagi nosog'lom psixologik muhit shaxs rivojlanishida ijtimoiy-psixologik deformatsiya omili sifatida yuzaga chiqadi va uni o'z joniga qasd qilishga undaydi.

O'z joniga qasd qilish va o'z joniga qasd qilishga urinish muammolari bilan shug'ullangan bir qator olimlar M.G. Davletshin, R.B. Shoumarov, S.A. Oxunjonova, A.G. Ambrumova, L.I. Pustayalovalarning fikricha, ushbu holat sodir etilishidagi oilaviy omillar o'rini quyidagilar bilan izohlash mumkin: [5; 173]

- ilk bolalik davrida oilada otaning yoqligi;
- oilada farzandga ona mexrining yetishmasligi;
- oilada ota-onalik nufuzining yetarli darajada emasligi;
- oilada matriarxal uslub munosabatlarning yetakchiligi;
- oilaviy munosabatlarda o'z o'rini topa bilmagan katta yoshli oila a'zolarining «o'zligini» tasdiqlash maqsadidagi turli xil urinishlari: a) emotsional «portlash», b) bolaga jazo usullarini qo'llash, v) bolaga tan jarohat yetkazish;
- ajrashgan oilalar;
- oilada yoki oila shajarasida o'z joniga qasd qilgan va qasd qilishga uringan kimsaning mavjudligi va xokazolar.

Xulosa. Demakki, suitsidal xulq xavfini tadqiq etish zaruriyati, birinchidan, zamonaviy jamiyatning turli sohalarida tutgan o'rni va hissasini ortishi bilan; ikkinchidan, jamiyat o'zgaruvi shart-sharoitlarida mazkur muammoning yetarlicha o'rganilmaganligi bilan; uchinchidan, insonning ham jismoniy, ham ijtimoiy salomatligini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga doir jamiyat va davlat ehtiyojlari bilan belgilanadi. O'smir shaxsini o'rganishga qaratilgan barcha yondashuvlarga, tamoyillarga zamon ruhi orqali nazar tashlash talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan psixik buzilishning paydo bo'lishi va namoyon bo'lish jarayoni, uni tashkil qiluvchi xususiyatlari hamda kechishini chuqur tahlil qilish mahkum qiluvchi xulq-atvor rivojlanishining nazariy jihatlarini tahlil qilish, so'ngra shakllantiruvchi tajriba majmuasini yaratish orqali psixokorreksion tuzatish va tarbiyaviy ta'sirlar tizimining asosi bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

Бандура А, Уолтерс Р. (2000). Подростковая агрессия: изучение влияния воспитания и семейных отношений. – М.: Эксмопресс. 2000. -15 с.

Michael P. Nichols, Ph.D. Richard C Schwartz, Ph.D. (2001) Family therapy. Concepts and methods. Fifth Edition. Allyn & Bacon Pearson Education, Inc.

Семенюк Л.М. (1996). Психологические особенности агрессивного поведения подростков и условия эго коррекции. Москва.: – Воронеж, 1996. – 49 с.

Смирнова Т. П. (2004). Психологическая коррекция агрессивного поведения детей. Серия «психологический практикум». — Ростов н/д: «Феникс», 2004. – 55-56 с.

Черников А. (2001) Системная семейная терапия (Интегративная модель диагностики) Москва. Независимая фирма “Класс”. - 66 с.

Rasulova, F. F. (2016). Characteristics of principal ways and methods of correction of aggressive behavior among teenagers. *Theoretical & Applied Science*, (9), 173-176.

Расулова Ф. Ф. Агрессивное поведение и агрессивность личности //Путь науки. – 2016. – №. 7. – С. 29.

Расулова Ф. Ф. Психологическая помощь практического психолога в работе с агрессивным ребенком //Молодой ученый. – 2020. – №. 16. – С. 43-45.

Расулова Ф. Ф. ОСОБЕННОСТИ ДИАГНОСТИКИ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ //Science Time. – 2021. – №. 11 (95). – С. 19-22.

Расулова, Ф. Ф. (2020). Дифференциально-психологические особенности агрессивности у подростков. *Наука и мир*, 2(4), 87.

SOG‘LOM TURMUSH TARZI TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA ILMIIY-NAZARIY O‘RGANILISHI

Saidov Azamat Ismoilovich

Samarqand davlat chet tillar instituti “Magistratura bo‘limi boshlig‘i”, Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Annotatsiya: Maqolada sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarning ilmiy-nazariy asoslari, sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada sog‘lom turmush tarzi va ular haqidagi tasavvurlarning diniy-psixologik masalalari to‘g‘risida qarashlar qamrab olinadi.

Kalit so‘zlar: Sog‘lom turmush tarzi, tasavvurlar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy tasavvurlar, kommunikativ, interaktiv, jamoaviy tasavvurlar, ijtimoiy tasavvurlar tuzilmasi.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL RESEARCH OF THE FORMATION OF IDEAS ABOUT A HEALTHY LIFESTYLE IN THE LITERATURE ON PSYCHOLOGY

Saidov Azamat Ismoilovich

Samarqand State Institute of Foreign Languages “Head of the Department of Master’s Degree”, Doctor of Psychology (DSc), Professor.

Annotation: The article analyzes the scientific and theoretical foundations of the concept of a healthy lifestyle, social and psychological features of the concept of a healthy lifestyle. And also, the article discusses views on religious and psychological problems of a healthy lifestyle and ideas about them.

Keywords: Healthy lifestyle, perceptions, socio-psychological characteristics, social perceptions, communicative, interactive, collective perceptions, the structure of social perception.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ЗДОРОВОМ ОБРАЗЕ ЖИЗНИ В ЛИТЕРАТУРАХ ПО ПСИХОЛОГИИ

Саидов Азамат Исмоилович

Самаркандский государственный институт иностранных языков «начальник отдела Магистратуры», доктор психологических наук (DSc), профессор.

Аннотация: В статье анализируются научно-теоретические основы концепции здорового образа жизни, социально-психологические особенности концепции здорового образа жизни. А также, в статье рассматриваются взгляды на религиозные и психологические проблемы здорового образа жизни и представления о них.

Ключевые слова: Здоровый образ жизни, восприятия, социально-психологические характеристики, социальные восприятия, коммуникативные, интерактивные, коллективные восприятия, структура социального восприятия.

Sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarni tushunib yetish uchun tasavvurlar psixologiyasi to‘g‘risidagi g‘oya va qarashlarga murojaat etishga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra, quyida tasavvurlarning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari haqida tuxtalib o‘tishga harakat qilamiz.

Ijtimoiy tasavvurlarni o‘rganish dolzarb vazifadir, chunki ularning dinamikasi va transformatsiyasi madaniyatdagi o‘zgarishlarni tushunish imkonini beradi. Ijtimoiy tasavvurlar o‘z navbatida u yoki bu guruh a‘zolarining muloqoti jarayonida shakllanadi.

Ijtimoiy tasavvurlar nazariyasiga ko‘ra, tasavvurlar ob‘ekti turli darajadagi diskurslar (shaxslararo, ommaviy axborot vositalari, madaniy kommunikatsiya) predmeti bo‘lgan

sotsiokognitiv “burtib” chiqqan ob’ektdir.

Shunga ko‘ra, ijtimoiy tasavvurlarni timsol tarzida tahlil etuvchi interaksionizm ko‘proq sotsiologiyaga tortsa, ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi esa bir qator ijtimoiy fenomenlar: g‘oya, jamoaviy tasavvurlar va xotiralar, individual va jamoaviy “Men”ning ijtimoiy madaniy konstruksiyasi kabilarga murojaat etuvchi psixologik statusga davorgarlik qila oladi.

Ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi va ijtimoiy bilimlar modeli ularning tuzilishi, kommunikativ, interaktiv jarayonlarda namoyon bo‘lishi va taqsimlanishini ishlab chiqadi, ijtimoiy amaliyotdagi bilimlar va tajribalarning funksiyalarni tavsiflaydi.

Ijtimoiy tasavvur tushunchasini fanga Serj Moskvisi tomonidan o‘tgan asrning 60-yillarida Fransiya aholisi o‘rtasida psixoanaliz g‘oyalarining ommalashishiga nisbatan munosabatiga bag‘ishlangan ishida o‘rtaga tashlanadi va u keng ko‘lamda qo‘llanila boshlanadi. Dastlab bu yo‘nalish ilmiy bilimning ijtimoiy ko‘rinishlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan edi. Ammo, keyinroq ushbu nazariyaning tushuntiruvchi doirasi kengaydi va hozirgi kunda u ijtimoiy tajriba haqidagi ta‘limot, uning tuzilishi, va ijtimoiy amaliyotda to‘liq dinamikasi va rolini o‘rganuvchi soha sifatida idrok etilmoqda.

Tarixan bu nazariya Emil Dyurkgeym sotsiologiyasida ijtimoiy va jamoaviy tasavvurlarni chegaralashdan kelib chiqadi [1]. U birinchilardan bo‘lib, bizning tilimiz, an‘analarimiz va institutlarimiz tuzilmasida jamoaviy tasavvurlarning muhim rolga va ushbu tasavvurlar to‘plamining qanchalik individual fikrda ijtimoiy fikrning qo‘shimcha ravishda tarkib topishiga e‘tiborini qaratgan.

XIX asrning 1960 - yillaridan buyon ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi Fransiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya va Lotin Amerikasida yetakchi paradigma bo‘lib kelmoqda. 80-yillarning o‘rtalarida esa bu yo‘nalishga qiziqish Britaniya orollarida, keyinroq esa Fransiya, AQSh, Kanada, Avstraliyada ham yuzaga keldi va shu masala yuzasidan akademik diskussiyalar avj oldi.

Ijtimoiy tasavvurlar tuzilmasini ajratishda esa tadqiqotchilar J.K.Abrikning ijtimoiy tasavvurlar guruh tasavvurlari barqarorligini ta‘minlovchi (yadro) qismi hamda guruhning dunyodagi o‘zgarishlarga moslashuviga olib keluvchi doimiy o‘zgaruvchi periferik qismidan tashkil topadi. Tasavvurlar tuzilmasi attityudning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lib, yadro barqaror bo‘lib qoladi, periferik qism esa o‘zgaradi [2].

Hozirgi zamon sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi qarashlar rivojiga nazar tashlaydigan bo‘lsak tarixiy ma‘lumotlar 1832 yilga - Amerikalik tibbiyotchi Silvester Grexemga (1794-1851) borib taqaladi. Silvester Grexem xristianlikka kuchli e‘tiqodi bo‘lganligi uchun Angliyadan Amerikaga ko‘chib borgan xristianlarga vegetarianlik bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qiydi. Sababi, xristianlikning ba‘zi udumlariga ko‘ra, hayvonlar go‘shini, jumladan, tuxumni ham iste‘mol qilish gunoh hisoblanar edi. O‘sha davrda Amerikaning Filadelfiya shtatida vabo kasalligi keng tarqalib, ko‘pchilik bu kasallikdan o‘lib ketayotgan edi. Grexem kuzatib ko‘radiki, uning maslahati bilan vegeterianlikka rioya etayotganlardan hech kim vabo bilan og‘rimaydi. Shunda u vegeteriancha ovqatlanish organizmning himoya kuchlarini oshiradi, degan qarorga keladi va bu fikrni keng targ‘ibot, tashviqot qilishni davom ettiradi [3].

Shu zaylda sog‘lik masalasida noan‘anaviy fikrlovchi kishilar, aniqrog‘i, tibbiyotchilar ko‘payib, ular ichida sog‘lom turmush tarzi sohasida jahonshumul ishlar qilgan fidoyilar va olimlar yetishib chiqadilar. Amerikada - Govard Xey, Djennings, Trol, Tilden, Djekson, Gerbert Shelton, Pol Bregg, Alisa Cheyz, Yaponiyada - Kotsudzo Nishi, Jorj Ozava, Imamura Motoo, Germaniyada - Maks Gerzon, Isroilda - Mixael Goren, Rossiyada - Yuriy Nikolaev, Aleksandr Mikulin, A.N.Kokosov, Nadejda Semenova va boshqalar shular jumlasidandir.

Shuni ham ta‘kidlash lozimki, sog‘lom turmush tarziga o‘tgan kishilarning ko‘pchiligi o‘zlari og‘ir dardlarga duchor bo‘lib, ularning ayrimlari rasmiy tabobat tomonidan davolab bo‘lmazligi tan olingan kishilar bo‘lganlar. Lekin, ular dard oldida tiz cho‘kib o‘tirmasdan, o‘zlarining hayotlari uchun o‘zlari kurashganlar. Masalan, Govard Xey - buyrak shamollashi, Pol Bregg - o‘pka sili, Kotsudzo Nishi - ichak sili, Maks Gerzon - migren, Mixael Goren - buyrak sili, Aleksandr Mikulin - yurak infarkti, Nadejda Semenova - poliartrit, Luiza Xey - bachadon raki bilan og‘rib, faqatgina turmush tarzlarini sog‘lomlashtirishlari hisobiga og‘ir dardlardan halos bo‘lganlar.

Sogʻlom turmush tarzining bu fidoyilari fikr va qarashlarini rasmiy tabobatning eng nomdor vakillari, akademiklar Yuriy Lisitsin, Nikolay Amosov, Fedr Uglov, Evgeniy Chazov, G. I. Saregorodsev, Galina Shatalova va shular singari koʻpgina olimlar koʻllab-quvvatlaganlar hamda ularning takliflarini oʻz turmushlarida qoʻllaganlar.

Akademik Yu. Lisitsin uzoq yillardagi ilmiy izlanishlar hamda bu sohadagi mavjud fikr va mulohazalarni umumlashtirib, kishilar sogʻligi 50-55% ularning turmush tarziga, 20-25% irsiy omillarga, 15-20% atrof-muhitga bogʻliq, tibbiy xizmat esa kishilar sogʻligini atigi 8-10% gina taʼminlay olishi mumkin, degan qarorga keladi [4].

Sogʻlom turmush haqidagi dastlabki qarashlar yurtimizda Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoga borib taqaladi. Zardushtiylik dinidagi eng asosiy gʻoya “ezgu amal, ezgu soʻz va ezgu fikr” hozirgi kunda ham shaxs kamolotida, sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda muhim maʼnaviy asos boʻlmoqda.

Zardushtiylik dinidagi marosimlarda axloqiy va jismoniy tarbiya ham birga berilgan, shuningdek ezgulik, bunyodkorlik, yaxshilik kabi sogʻlom gʻoyalarni oʻzida mujassam etishga harakat qilgan. Jamiyatda ezgu gʻoyalar ulugʻlangan, mehribonlik, vatanparvarlik, maʼrifatparvarlik kabilar gʻoyalar egasi xalq ichida ham yaxshi eʼtiborga sazovor boʻlgan, insonlarga isnod keltiruvchi oʻgʻirlik, talonchilik, oʻzgalar moliga koʻz olaytirish kabi boshqa illatlar qoralangan.

Sogʻlom turmush haqidagi qarashlar keyingi davrlarda islom dinidagi gʻoyalar bilan yanada boyib borishini koʻrishimiz mumkin. Ezgulik gʻoyalarini islom dinida dunyo va diniy ishlarni biri ikkinchisidan ustun qoʻyilmaydi. Bu esa sogʻlom muhitni rivojlanishiga olib keladi. Bohovuddin Naqshband nomi bilan bogʻliq: “Dil ba yoru dast ba kor” – jumlasining manosi shuki, diling Allohda boʻlsin qoʻling mehnatda, bunda “inson iymonli pok boʻlishga oʻz mehnati bilan halol luqma asosida kun kechirishga undaydi. Bunday ezgu gʻoyalar hozirgi kungacha oʻz qiymatini yoʻqotgani yoʻq.

Ilmiy tajribalarning koʻrsatishicha, faylasuflar, etnograflar, tarixchilar, sotsiologlar, psixologlar va pedagoglar tomonidan sogʻlom turmush tarzi muammosining falsafiy jihatlari, sogʻlom turmush tarzining ijtimoiy munosabatlardagi oʻrni, jamiyatga tarbiyaviy taʼsiri, aholi oʻrtasida, ayniqsa yoshlarda sogʻlom turmush tarzi toʻgʻrisidagi tasavvurlarni shakllantirish masalalariga bagʻishlangan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ularga koʻra, turmush tarzi tarixan tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy omillar bilan belgilanadigan kundalik hayot tarzi boʻlib, shu asosda shakllangan munosabatlar, anʼanalar va urf-odatlardan iboratdir deyiladi.

Gʻarb davlatlari olimlaridan R.Banton, S.Germann, G.Makdonald, A.Skrivenlarning soʻnggi oʻn yillikdagi tadqiqotlari inson salomatligini muhofaza qilish psixologiyasini targʻib qilish, uning targʻibotini nazariy-amaliy xulosalar va bilimlar asosiga qurilishini taʼminlash, shuningdek, mavjud sogʻlikii saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan.

Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi mamlakatlari olimlaridan A.F.Georgievskiy, P.L.Dribinskiy, A.D.Dubachay, T.V.Kamenskaya, A.D.Karabasheva, Ye.A.Mensh, G.P.Novikova, Ye.A.Pipko, G.M.Populo, O.A.Plaskina va boshqalar tomonidan yoshlarni sogʻlom turmush tarzi asosida tarbiyalash, ularda sogʻlom turmush tarzi toʻgʻrisidagi tasavvurlarni shakllantirish masalalari ilmiy psixologik-pedagogik jihatdan asoslangan.

Ayrimbirrus olimlari masalan, T.F.Akbashev, B.A.Klassov insonning maʼnaviy salomatligini uch omil birligida yaʼni ijtimoiy, intellektual va reproduktiv sogʻlik bilan toʻldiradilar.

Ularning fikricha, intellektual sogʻlik fikrlash, axborotlarni qabul qilish va uni yetkazishda oʻz aksini topsa, ijtimoiy sogʻlik, insonni ijtimoiy faolligida jamiyatda oʻz oʻrnini topishi, kasbiy kamolotida oʻz ifodasini topadi. Reproductiv sogʻlik esa ota-onalar bilan boʻlgan aloqada, oilaviy munosabatlar, jinsiy madaniyat, farzand koʻrish va uni tarbiyalash bilan bogʻliq boʻlgan holatlarda namoyon boʻladi.

Salomatlik, sogʻlom turmush tarzi muammosi boʻyicha shugʻullanuvchi tadqiqotchilardan R.Ayzman ham shaxs salomatligiga taʼsir etuvchi omillarni oʻrganar ekan, uning quyidagi darajalarini ajratib koʻrsatadi:

jismoniy, yaʼni genetik, biokimyoviy, metabolik, morfologik, funksional;
 ruhiy, yaʼni missiy, aqliy, shaxsiy;

ijtimoiy-ma'naviy yoki axloqiy [5].

Shaxsning salomatlikka bo'lgan munosabatining kognitiv, xulq-atvor va hissiy tarkibiy qismlari G.S.Nikiforovning fikricha, sog'likni saqlash yoki aksincha holatlarga moyillikdan iborat shaxsiy sifat tarzida kurib chiqilishi mumkin. Ko'pchilikda, salomatlikka e'tiborli bo'lish masalasida, jiddiy qarama-qarshiliklar yashiringan. Ilmiy dalillarga murojaat qilinmagan holda ham, sog'likning qadriyat sifatida ifodalanishi ongimizda yetarli darajada yuqori. Biroq, sog'likni saqlashga (sog'lom turmush tarzi) munosabatda, ta'sirchan, xulq-atvor tarkibiy qismining jiddiyligi sog'lik to'g'risida bilim hajmiga yoki uning zaiflashishiga hissiy reaksiyalarning kuchiga mutlaqo mos kelmaydi. Aksariyat odamlarning sog'likni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan faoliyati hissiy munosabat intensivligiga mos kelmaydi. Bu nafaqat sog'lom odamlar uchun, balki allaqachon jiddiy kasalliklarga duchor bo'lganlar uchun ham xosdir [5].

Sog'lom turmush tarzini falsafiy-ma'naviy, psixologik mezonlarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

oilada, ta'lim maskanlari va jamoat joylarida yosh qizlar va ayollarning kiyinishlariga alohida e'tiborni qaratish;

oilada va jamoat joylarida yoshlarning muomala madaniyatini shakllantirishda sog'lom turmush borasidagi xalqimizning o'ziga xos an'analari va qadriyatlarini, otalar va momolar o'g'itlarini alohida sog'lom ma'naviyatli oilalar tajribasini ibrat omili sifatida keng targ'ib etish;

yoshlarni sportga, jumladan, oilaviy sportga ijobiy munosabatini shakllantirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar, oilaviy sportchilar an'alaridan foydalanish;

oila a'zolarida, birinchi navbatda yoshlar orasida hayot mohiyatini anglash, umr qadriyatini e'zozlash, hayotiy faoliyatni oqilona tashkil etish madaniyatini shakllantirish;

islom falsafasidagi orastalik va ozodalik tamoyillarini omma orasida targ'ib etish orqali suv, havo, yer va suv qadriyatlari borasida ijtimoiy fikrni shakllantirish. Umuman, salomatlik falsafasining shaklanishi sog'lom va xalqchil marosimlar, urf-odatlar va milliy doimiy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq.

Kishilarning turmush tarziga mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar ma'lum darajada sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kundalik hayot faoliyatida ularning ahloqiy-estetik qarashlari, xulqi, muomalasi, hayotiy turmush tasavvurlari, ularning ichki dunyosiga, e'tiqodiga singib ketadi va turmush tarziga, fikrlash tarziga aylanadi. Turmush tarzining eng muhim ijtimoiy tomoni jamiyat a'zolarining ijtimoiy mehnati, o'zaro munosabatlar, oila, kundalik turmushidagi faolligi, kishilarning jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhit bilan qay tarzda namoyon bo'lishidadir. Bundan tashqari oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali jamiyatimiz a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni milliy vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalariga, shu bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Manbalarda qayd etilishicha, sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlar – bu kundalik turmushni muayyan qonuniyatlar asosida tashkil etish, salomatlikni saqlash va uni mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzi bo'lib, shu turmush tarzining qanday bo'lishi, o'z hayotini qay yusunda va shaklda tashkil etishga bog'liq hisoblanadi, buning uchun esa har bir inson sog'lom turmush tarzi tushunchasi va tasavvurlariga, ma'naviyatiga, dunyoqarashiga ega bo'lishi talab etiladi. Shu o'rinda shaxsning o'z salomatligiga bo'lgan munosabati muhim komponent sifatida namoyon bo'ladi. Aytish mumkinki, mazkur masala jamiyat o'z kuchi bilan salomatlik muammolarini hal etishga ojiz ekanini anglay boshlashi natijasida vujudga keladi. Shundan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, "Xavf-xatar omillari" kasallik va o'lim bilan bog'liq bo'ladi, demakki uni o'rganish va baholash ham psixologiyaga ham tibbiyotga dahldordir.

Shu ma'noda, psixologiya aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishida inson fe'li, xulq-atvori va turli psixologik holatlari nuqtai nazaridan o'rganganda: u asosan, har birimiz g'uyoki sirdek tuyulgan ruhiyatimizning o'zimizni sog'-salomat, beshikast va tetik his qilishimizga aloqador qanday jihatlari borligini, uni boshqarish orqali o'z boyligimiz – salomatligimizni saqlash borasida qo'limizda qanday imkoniyatlar mavjudligini

va sogʻlom turmush tarzi toʻgʻrisidagi tasavvurlarning shakllanishi - har birimizga oʻz ruhiy holatimizni boshqarishda, ongu-shuurimizda roʻy berayotgan oʻzgarishlarni vaqtida ilgʻash orqali uni moʻtadil tutish, oʻzgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish yoʻllarini, profilaktikani oʻrganadigan fan hamda foydali amaliyot sifatida tobora hayotimizga kirib kelmoqda.

Yuqoridagilardan xulosaga kelish mumkinki, yoshlarda sogʻlom turmush tarzi toʻgʻrisidagi tavsavvurlarning shakllanishi boʻyicha turli fan sohalari yoʻnalishida koʻplab konsepsiyalar, nazariyalar, yoʻnalishlar, qarashlar, yondashuvlar, turli jabhalar va jihatlar mavjudligi kuzatiladi. Ammo unutmazlik lozimki, sogʻlom turmush tarzi toʻgʻrisidagi tasavvurlar shakllanishi uchun shaxsning ular haqidagi tushuncha va tasavvurlari, ularning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1.Ананьев В.А. Основы психологии здоровья. Книга 1. Концептуальные основы психологии здоровья. – СПб.: Речь, 2006. – 79 бет.

2.Ананьев В.А. Психология здоровья. - СПб., 2006. – 214 бет.

3.Березовская Р.А. Отношение к здоровью // Здоровая личность / Под ред. Г.С. Никифорова. - СПб.: Речь, 2013. – Б. 214-244.

4.Лисицын Ю.П. Общественное здоровье и здравоохранение: Учебник для вузов. - М.: ГЭОТАР-МЕД, 2002. - 160 бет.

5.Карамян М.Х. Шахснинг саломатликка қадрият сифатидаги муносабатининг ижтимоий-психологик детерминацияси. Психология фанлари доктори (dsc) диссертацияси. 2019 -76 бет.

Саидов А. оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлари шаклланишининг илмий-методологик асослари //Involta Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 58-60.

of mother-child relationships in the family.

Ismoilovich S. A. socio-psychological problems of the formation of the psychology of a healthy lifestyle of families.

Ismailovich S. A. Medical and Psychological Issues of the Formation of Young People's Ideas about A Healthy Lifestyle in the Family //Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology. – 2023. – Т. 44. – №. 4. – С. 4270-4275.

QATAG'ON QURBONLARI MEROSI ASOSIDA TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Yo'ldosheva Husnida Numonjon qizi
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, psixolog, pedagog

Annotatsiya. Jahonda har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga xos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarini qaror toptirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Barqaror taraqqiyot va yuksaklik sari intilayotgan davlatlarning tajribasi bilan tanishish orqali talabalardada fuqarolik tuyg'usini tarbiyalash, ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirish, o'z-o'zini anglash, bag'rikenglik, adolatparvarlik kabi sifatlarini qaror toptirish, fuqarolik pozitsiyasini zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirish asosida rivojlantirish zarur, degan xulosaga kelindi. Ana shu nuqtayi nazardan talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayoniga qatag'on qurbonlari merosini o'rganish, fuqarolik pozitsiyasini rivojlanganlik darajasini tashxis etish mezonlarini aniqlash va baholash metodikasini ishlab chiqish; tashkiliy-integratsion model asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: jadidlar, ma'naviy ruh, insonparvarlik, barkamol avlodni tarbiyalashda jadidlar merosining o'rni va ahamiyati, fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasi, shaxs, psixologik portret, milliy ruh, milliy mentalitet.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ ЖЕРТВ РЕПРЕССИЙ

Йўлдошева Хуснида Нумонжон қизи
Республика Узбекистан, город Ташкент, психолог, педагог

Абстрактный. Каждое государство мира определяет своей главной целью найти в своих гражданах качества, соответствующие требованиям времени и ценностям, совместимым с целями общества. Путем ознакомления с опытом стран, стремящихся к устойчивому развитию и совершенству, воспитывать у студентов гражданское чувство, формировать чувство социальной ответственности, развивать такие качества, как самосознание, толерантность, справедливость, развивать гражданскую позицию. на основе адаптации к потребностям времени и интересам общества был сделан вывод о ее необходимости. С этой точки зрения изучить наследие жертв репрессий, определить критерии диагностики уровня развития гражданской позиции у студентов и разработать методику ее оценки; Важно совершенствовать механизмы развития гражданской позиции студентов на основе организационно-интегративной модели.

Ключевые слова: джадиды, духовный дух, гуманизм, роль и значение наследия джадидов в воспитании совершенного поколения, гражданство, гражданская позиция, личность, психологический портрет, национальный дух, национальный менталитет.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE FORMATION OF STUDENTS' CITIZEN POSITION ON THE BASE OF THE HERITAGE OF THE VICTIMS OF REPRESSION

Yo'ldosheva Husnida Numonjon qizi
Republic of Uzbekistan, Tashkent city, psychologist, pedagogue

Abstract. Every state in the world defines as the main goal to find in its citizens the qualities specific to the requirements of the time and the values that are compatible with the goals of the society. By familiarizing with the experience of the countries striving for sustainable development and excellence, to educate the students' sense of citizenship, to form a sense of social responsibility, to develop such qualities as self-awareness, tolerance, justice, to develop

the citizenship position based on adaptation to the needs of the times and the interests of society. it was concluded that it is necessary. From this point of view, to study the legacy of the victims of repression, to determine the criteria for diagnosing the level of development of the citizenship position in students, and to develop a methodology for evaluating it; It is important to improve the mechanisms for the development of students' citizenship position based on the organizational-integrative model.

Key words: Jadids, spiritual spirit, humanitarianism, role and importance of Jadids' heritage in raising a perfect generation, citizenship, civic position, personality, psychological portrait, national spirit, national mentality.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvida demokratik islohotlarni amalga oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, sog'lom e'tiqodli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazish, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyat boshqaruvida fuqarolar va jamoat tashkilotlari ishtirokini ta'minlash hamda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh va yuksak kasbiy madaniyatga ega mutaxassislarni tayirlash muhim vazifa sifatida belgilandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi darajasiga ko'tarish, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga, ya'ni pirovard natijada malakali kadr tayyorlashga bog'liq. Chunki jamiyat taraqqiyotining asosini uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganligi bilan bir qatorda shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma'naviy salohiyati ham belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda har bir davlatning istiqboli, uning ta'lim-tarbiya tizimi qay darajada ekanligi bilan belgilanadi.

Maqolaning dolzarbligi; Jahonda har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga xos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Barqaror taraqqiyot va yuksaklik sari intilayotgan davlatlarning tajribasi bilan tanishish orqali talabalardada fuqarolik tuyg'usini tarbiyalash, ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirish, o'z-o'zini anglash, bag'rikenglik, adolatparvarlik kabi sifatarni qaror toptirish, fuqarolik pozitsiyasini zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirish asosida rivojlantirish zarur, degan xulosaga kelindi. Ana shu nuqtayi nazardan talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayoniga qatag'on qurbonlari merosini o'rganish, fuqarolik pozitsiyasini rivojlanganlik darajasini tashxis etish mezonlarini aniqlash va baholash metodikasini ishlab chiqish; tashkiliy-integratsion model asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi; Qatag'on qurbonlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishga qaratilgan metodikalar tavsifini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti; Tadqiqot ishimiz qatag'on qurbonlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari bo'lganligi uchun tadqiqotning obyekti sifatida talaba yoshlar tanlab olindi

Maqolaning ilmiy yangiligi; Qatag'on qurbonlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarining o'ziga xosligi tadqiq etildi. Barkamol avlodni tarbiyalashda tarixiy, madaniy va ma'naviy merosning ahamiyati qanchalar muhim ekanligi ilmiy asoslandi. Qatag'on qurbonlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy, amaliy va metodologik bilimlar uyg'unligi o'rganildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, analitik obzor, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, anketa, savol-javob, suhbat, ekspert baholash, pedagogik eksperiment, matematik statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon

hayotini ta'minlash yo'lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o'rganish hamda targ'ib qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmogda. Mana shu jihatdan olib qarasaq har bir yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda qatag'on qurbonlarini na'muna qilib, o'rnak qilib ko'rsatsak arziydi.

Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi g'oyani esga oling. Unga ko'ra, jamiyatning har bir fuqarosi – mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar FOZIL kishi. Fozil kishi o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi.

Talabalarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish va fuqarolik tarbiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari L.Amanbayeva, N.Kritskaya, Ye.Belyaeva, M.Bogomaz, I.Gulyaeva, M.Erxova, T.Juravleva, V.Zolotov, S.Karpushkin, L.Kovalenko, L.Kuznetsovalar tomonidan tadqiq etilgan.

O.Musurmonova, M.Zaripov, S.Nosirxo'jayev, L.Koxonovich, D.Ro'ziyeva, T.A.Suxareva, E.Yusupov, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonovalarning ilmiy ishlarida talabalarni ijtimoiylashtirish omili sifatida o'z- o'zini anglash, ma'naviy madaniyat, ijtimoiy-siësiy etuklik, vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, fuqarolik faolligi va mas'uliyati kabi fuqarolik pozitsiyasi negizida aks etuvchi sifatlarning mazmun- mohiyati yoritib berilgan.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlarimizning ma'naviyati, madaniyatini oshirish, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

Qatag'on qurbonlari merosi asosida asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga oid jahonda aynan shu mavzuda tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsada, lekin fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan va olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: talabalarni ijtimoiylashtirish omili sifatida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Kolumbiya universiteti); fuqarolik madaniyatini rivojlan- tirishning tashkiliy-tuzilmali modeli yaratilgan (Sorbonna univer- siteti); fuqarolik tarbiyasi va global ta'limni uyg'unlashtirishning amaliy-texnologik tizimi ishlab chiqilgan (Frayburg universiteti); Yevropa davlatlarining integratsiyasi jarayonida fuqarolik tarbiyasini ijtimoiy ahamiyati aniqlashtirilgan (Ta'lim tadqiqotlari Milliy fondi); guruhiybirdamlik («aydagarasyugi») ni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Japan Institute of International Affairs); milliy omil ustuvorligi asosida fuqarolik pozitsiyasi va mafkuraning uyg'unligini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirilgan (Seoul of National University); fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga doir qadriyatlar tizimi ishlab chiqilgan (Chinese Academy of Social Sciences); shaxsiy-insonparvarlik yondashuvi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning kollaborativ texnologiyalari ishlab chiqilgan (Moskva davlat universiteti); milliy g'oya asosida ozod va erkin fuqaro shaxsini shakllantirishning tashkiliy-texnologik tizimi takomillashtirilgan (Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy Markazi).

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jadid so'zi (arabcha "jadid"-yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasini, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasini sifatida shakllandi.

XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyilar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar.

Fuqarolik pozitsiyasi – har bir insonning jamiyat hayotidagi o'z ishtirokini anglashidir. Fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs xususiy hamda umumiy tarzda atrof-muhitga

nisbatan o'z munosabatini namoyon qiladi. Bunday fuqarolar ijtimoiy qadriyatlarini amalga tatbiq etishga yo'naltirilgan faoliyat tarzini egallab, o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtira oladilar. Bunday ko'nikmalarga ega bo'lgan yosh mutaxassislar, ayniqsa, talabalar jamiyatda munosib o'rin egallab, O'zbekiston fuqarosi, degan sharaffli nomga loyiq bo'la oladilar. Buning uchun har bir talaba fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi kerak.

Shaxs pozitsiyasi – inson ma'naviyati, uning hayotdagi mavqeini aniqlashiga ko'ra shaxsning o'z hayotiy nuqtai nazarini belgilashi uning madaniyati bilan bog'liq bo'lsa, fuqarolik pozitsiyasi uning o'z fuqarolik nuqtai nazarini aniqlashi uchun zarur hisoblanadi. Ushbu nisbatan tor tushuncha doirasida ijtimoiy hamda psixologik-pedagogik mohiyat ma'nosi ham uyg'unlashgan. Mazkur birlikda quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish maqsadga muvofiq: shaxsiy yo'nalganlik; davlat va jamoatchilikka yo'nalganlik; ijtimoiy foydali faoliyatga yo'nalganlik.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimi oldiga yangicha kasbiy sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. Chunki o'qituvchi har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida yondashish, ularning individual imkoniyatlarini aniq hisobga olish va rivojlantirish tajribasini egallashi lozim. Ma'lumki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga insoniy munosabatda bo'lish ustuvor o'rin egallaydi. Buning uchun professor-o'qituvchilar ham, talabalar ham faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Tadqiqotlar natijasida talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga doir quyidagi kompetentsiyalar tizimi aniqlashtirildi: intellektual, madaniy, ma'naviy, jismoniy, kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lish; tarixiy meros va madaniy an'analarga nisbatan hurmat-ehtiromda bo'lishi, ijtimoiy va madaniy o'ziga xosliklarni bag'rikenglik bilan qabul qilish; tarixiy jarayonni harakatga keltiruvchi omillar va qonuniyatlarni tushunish, jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida inson omilining o'rnini anglash; milliy va umumbashariy ahamiyatga ega masalalarni tushunishi, tahlil qilishi hamda axloqiy-huquqiy me'yorlar va majburiyatlarni hisobga olgan holda maqsadga erishishda qat'iyat ko'rsatish; kasbiy faoliyat sohasida chuqur nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish hamda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mustaqil yangi bilim, amaliy ko'nikmalar va ulardan amaliy foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lish; yangi g'oyalarni yaratish, ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini mustaqil olib borish qobiliyatiga hamda ilmiy jamoada ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish; faoliyati bo'yicha muloqot vositasi sifatida xorijiy tillardan birini erkin so'zlashuv darajasida bilish, nutq madaniyatini egallash, og'zaki va yozma nutqini asoslangan tarzda aniq bayon qila olish qobiliyatiga ega bo'lish; jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib borayotgan axborot texnologiyalari mohiyati va ahamiyatini tushunish, bu jarayonda vujudga keladigan xavf va tahdidlarni anglash, informatsion xavfsizlik, ya'ni davlat sirini himoya qilish talablariga rioya qilish malakasiga ega bo'lish kabilar tashkil etadi.

Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni o'zini-o'zi anglash, ijtimoiy-g'oyaviy etuklik, vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, fuqarolik faolligi, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati, fidoyilik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yo'naltirilishi lozim. Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni talabaga hurmat bilan yondashish, qiziqish, ehtiyojini inobatga olish, hamkorlik, tanlash, ishonch va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, sub'ektivlik, individual yondashuv printsiplari asosida tanlanishi kerak.

Tadqiqot natijalariga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va rivojlantirishda quyidagi yo'llardan foydalanish samarali hisoblanadi: talabalar bilan birga darsdan tashqari vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik mavzularidagi tadbirlarni uyushtirish; talaba-yoshlarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir jahon mamlakatlari tajribasi bilan tanishtirish; etuk fuqaroni shakllantirish maqsadida turli uchrashuv, tanlov, ko'rik, festival, forum, bahs-munozara va davra suhbatlarini tashkil etish kerak bo'ladi.

Bir qancha mezonlar asosida respondent-talabalarda qatag'on qurbonlari merosi asosida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan jarayon samaradorligini bir necha darajalar bo'yicha baholash ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri deb topildi hamda samaradorlik ko'rsatkichlari: yuqori, o'rta, past darajalar bo'yicha baholandi.

Talabalarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik darajasi samaradorligi

1-jadval

Mezonlar	Tajriba guruhi n ₁ =300 nafar talabalarda (%)			Nazorat guruhi n ₂ =320 nafar talabalarda (%)		
	Yuqori	O' rta	Past	Yuqori	O' rta	Past
Fuqarolik pozitsiyasi tushunchasining mohiyatini anglash	18/28	24/45	58/23	20/27	29/44	51/29
Fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushunish	16/26	22/40	62/34	18/21	32/36	50/43
Fuqarolik pozitsiyasiga doir fazilatlardan xabardorlik	22/32	28/45	50/23	24/33	36/39	40/28
Fuqarolik majburiyati va jamoat topshiriqlarini masu'liyat bilan bajarish	16/24	27/40	57/36	18/20	28/32	54/48
Vatan mustaqilligi, yurt ozodligi, millatlararo totuvlik va tinchlikni asrab-avaylashda jonbozlik ko'rsatish	33/40	40/45	27/15	24/32	33/38	43/30
Vatanparvarlik, baynalminallik, mehnatsevarlik, fidoiylilik, e'tiqodlilik, adolatparvarlik, do'stlik, vijdonlilik, insonparvarlik tuyg'ulariga egalik	28/35	32/45	40/20	22/27	34/47	44/26
Bag'rikenglik, mas'uliyatlilik, intizomlilik sifatlariga egalik	25/37	35/41	40/22	26/28	28/31	46/44


Talabalarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik darajasi samaradorligi natijalari

2-jadval

Tajriba-sinov o'tkazilgan vaqt	Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish darajasi		
			Yuqori	O'rta	Past
Tajriba boshida	Tajriba	300	58	81	161
	Nazorat	320	62	98	160
Tajriba yakunida	Tajriba	300	131	116	53
	Nazorat	320	72	103	145

Bu ko'rsatkichlarga mos diagrammalar quyidagicha ko'rinish oldi:

1-rasm



Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil o'tkazilib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Studentning tanlanma mezoni, Student mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik kriteriysi va ishonchli chetlanishlar aniqlandi.

3-jadval

		S^2	S^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	X^2	\square_x	\square_y
X	Y	X	Y					n,m		
2,25	1,78	0,5474	0,6316	2	3	7,71	601,67	60,7	0,08	0,09

Natijalarni tajriba va nazorat guruhi uchun Neyman g'oyasi asosida ishonchli intervallari topildi.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori.

Demak, talabalarda qatag'on qurbonlari merosi asosida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari 24,4% ga samaradorligi oshganligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra talabalarda fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va rivojlantirishda quyidagi yo'llardan foydalanish samarali hisoblanadi: talabalar bilan birga darsdan tashqari vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik mavzularidagi tadbirlarni uyushtirish; talaba-eshlarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir jahon mamlakatlari tajribasi bilan tanishtirish; etuk fuqaroni shakllantirish maqsadida turli uchrashuv, tanlov, ko'rik, festival, forum, bahs-munozara va davra suhbatlarini tashkil etish.

Tajriba-sinov ishlarining ilmiy-pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga erishish maqsadida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga oid maxsus dastur va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yaxlit pedagogik jarayonning asosini tashkil etib, mazkur jarayonda shaxsning qiziqishlari, ehtiyojlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirish talab etiladi.

Qatag'on qurbonlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Tajriba-sinov ishlari davrida tashkil etilgan amaliy faoliyat asosida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasi negizida aks etadigan mustaqil fikrlash, shaxsiy mulohazalarni erkin bayon etish, bildirilgan fikrni dalillar bilan asoslash, kongruentlik, liderlik kabi sifatlarni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga egaligini tasdiqladi.

Adabiyotlar.

Bo'riyev M.R. Ajdodlarimiz milliy-ma'naviy taraqqiyot va demokratik rivojlanishi haqida. Maqola. T: 2016. B 2.

Y.Jumanazarov "Yosh davrlar psixologiyasi" Namangan 2013. – B.75.;

Ahmedov S. Mustaqillik yillarida tarixiy adolatning tiklanishi. Toshkent 2012. B 81.

Musurmonova.O. Yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fan.dok. ...diss. – T.,1993. – 364 b.

Nabiyev M.J. Demokratik jamiyat rivojida ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarining o'rni. Toshkent-2016. B-369.

Koxonovich L.I, Ryabov L. Gumanizm – nraivstvennaya osnova formirovaniya lichnosti studenta // J. Sistema vospitaniya v visshey shkole. Vip. 7. – M.: 1993. – S. 28; /

Zaxarova Ye. Didakticheskiye materialy k kursu — Chelovek i obshestvo. – M., 1998.



Shodmonova Sh. Oliy o'quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (Kasb ta'limi yo'nalishi misolida) Ped.fan.dok diss. – T.,2010. – 340 b.

Старшина И. В. Феномен подростковой тревожности // Преподаватель XXI. 2007. № 1. . – В.113.;

Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb., 2002. – В.68-78.

Saidmurodov.Sh, Azizov.S Jadidlar faoliyatida ma'rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari. Maqola.B 2-3.

Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari.- T.: O'qituvchi, 1996. – В. 187.

ESHITISH QOBILIYATI ZAIF MAKTAB O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI

Ravshanova Xanifa Akmaljonovna

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya"
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy rivojlanishiga tashxis qo'yishda nafaqat bolalarning ularga taklif qilingan ko'rsatmalarni tushunish xususiyatlarini, balki nutqning tartibga solish funksiyasini rivojlantirishning yuqoridagi xususiyatlarini, shu jumladan nutqning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni ham hisobga olish kerakligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: eshitish qobiliyati zaif bolalar, kar bolalar, eshitish buzilishi, nutq buzilishi va og'zaki-mantiqiy fikrlash, vizual-majoziy fikrlash.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость учитывать при диагностике психического расстройства не только особенности понимания детьми предлагаемых им инструкций, но и указанные выше особенности развития регуляторной функции речи, в том числе трудности в развитии речи развитие детей с нарушением слуха.

Ключевые слова: слабослышащие дети, глухие дети, нарушения слуха, нарушения речи и словесно-логического мышления, наглядно-образного мышления.

Annotation. The article examines the need to take into account not only the characteristics of children's understanding of the instructions offered to them, but also the above characteristics of the development of the regulatory function of speech, including difficulties in the development of speech, when diagnosing the mental development of children with hearing impairment.

Key words: hearing-impaired children, deaf children, hearing impairment, speech impairment and verbal-logical thinking, visual-figurative thinking

Intelлектни o'rganish muammosi va uni tashxislash usullari psixologiyaning asosiy muammolaridan biridir. Intelлектни o'rganish shaxsning aqliy rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini to'liqroq ochib berishga, umumiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishidagi individual farqlarning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Yosh avlodning intellektual salohiyati zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan shaxslarning, shu jumladan eshitish qobiliyatining buzilishi tufayli yuzaga kelgan, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklarini oldindan belgilab beradigan aql-idrokni o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Mahalliy va xorijiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, eshitish qobiliyati zaif odamlar soni ortib bormoqda. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, dunyo aholisining 4-6 foizida eshitish qobiliyati zaif bo'lib, ijtimoiy muloqotni qiyinlashtiradi. Ijtimoiy va shaxsiy oqibatlarining ahamiyati tufayli, bolalik davridagi aql-zakovatni o'rganish jarayonida uning rivojlangan davrida o'rganish nafaqat ushbu toifadagi bolalar bilan ishlaydigan psixologlarni, balki o'qituvchilar va ota-onalarni ham hayajonlantiradi.

Zamonaviy karlar psixologiyasida eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning kognitiv faolligini va birinchi navbatda, nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lgan markaziy jarayon sifatida tafakkurni o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda kar bolalarning tafakkuriga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy psixologlarning ko'plab asarlari nashr etilgan (V.Fron, 1951; M.Templin, 1950, 1954; G.Revesz, 1954; H.R.Myklebust, 1960; E.Levine, 1960; J.Rozenshteyn, 1960; D. Shou, 1961; HMerlo, 1961; R. Faramt, 1964; A. MakKenna, 1964; H. G. Furt, 1961, 1966, 1973; J. Snijders, N.O16men; .Konrad, 1970; P. Oleron, 1951, 1957, 1964, 1977; K. Meadou, 1980; M. I. Ushakova, 1956; A. I. Lipkina, 1961; E. M. Kudryavtseva, M., 1961., 1961., N.I. 1941, 1968; I. M. Solovyov,

1940, 1960, 1962, 1966, 1971; T. A. Grigoryeva, 1973; F. F. Rau, 1985; N. VLshkova, 1966.

Shu bilan birga, eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning muhim qismi eshitish qobiliyati zaif bolalar bo'lib, eshitish qobiliyatining yo'qolishi katta yoki kamroqdir. Va zamonaviy karlar psixologiyasida eshitish qobiliyati zaif bolalar va o'smirlarning kognitiv faoliyatining xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan juda cheklangan miqdordagi ishlar mavjud (E.I. Andreeva, 1973; I.L. Nikolskaya, 1979; R.M. Boskis, 1963.1968; G.L., Zaitseva. 1981; I.M.Gilevich, 1973, 1980, 1981, 1982, 1986; K. G. Korovin, 1976, 1982; L. V. Nikolaeva, 1981; L. I. Tigranova, 1961, 1969, 1969, Asam12, 1969, 1969, Asam111; boshqa mualliflar). Shunday qilib, eshitish qobiliyati zaif bolalar va birinchi navbatda eshitish qobiliyati zaif bolalarning fikrlash xususiyatlarini o'rganish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning fikrlashning o'ziga xosligi hali ham muhokama mavzusi. Ushbu muammoni talqin qilishdagi farqlar, asosan, turli tadqiqotchilarning fikrlash jarayonida og'zaki nutqning rolini qanday tushunishlari bilan bog'liq.

Ba'zi xorijiy mualliflar (Frohn, 1951; Myklebust 1960; Furth 1966, 1973) eshitish nuqsonlari bo'lgan bolalarning aqliy faoliyatida og'zaki nutqning rolini etarlicha baholamaslik, nutq va fikrlashning o'zaro ta'sirini rivojlanish aspektidan tashqarida hisobga olish bilan tavsiflanadi. va bolani o'qitish jarayonida ularning munosabatlaridagi o'zgarishlar.

P. Oleron (1977) fikrlash va nutqning ichki birligi haqidagi mahalliy tadqiqotchilarning pozitsiyasini baham ko'radi, lekin tilning fikrlash quroli sifatidagi ahamiyatini pasaytiradi, tafakkur va nutq o'rtasidagi munosabatlardagi o'zgarishlarni hisobga olmaydi. o'rganishning ta'siri.

Mahalliy karlar psixologiyasi L.S.Vigotskiyning fikrlash va nutq o'rtasidagi munosabat haqidagi g'oyalari ta'sirida rivojlangan va mahalliy olimlarning fikrlash va nutq o'rtasidagi bog'liqlikni ushbu jarayonlarning ichki birligi sifatida tushunishlari ushbu birlikning ko'p qirralarini ochib berishga imkon berdi. ichki nutqni aqliy faoliyat mexanizmi sifatida tavsiflash.

T.G.Bogdanova (2002) og'zaki nutqni eshitishdan ko'ra kechroq va boshqa sensorli asosda o'zlashtirgan kar bolalarda tafakkur rivojlanishiga qaraganda sezilarli darajada o'ziga xos xususiyatlar mavjudligiga e'tibor qaratadi. boshqa kognitiv jarayonlar. Bu xususiyatlar genetik jihatdan tafakkur rivojlanishining dastlabki bosqichlarida allaqachon namoyon bo'ladi[2].

Vizual-samarali fikrlashni rivojlantirishda kar bolalarning ba'zi kechikishlari 20-asrning o'rtalarida xorijiy psixologlar tomonidan tasvirlangan (P. Oleron, 1953; J. Snijders, N. Snijders-Oomen, 1966). Keyinchalik, N. VLshkova (1988) o'z tadqiqotida eshitish qobiliyati zaif bolalar eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarga qaraganda kechroq vizual-samarali vazifalarni hal qilish qobiliyatini o'zlashtirganligini ta'kidlaydi. 9-10 yoshli karlar uchun kichik yoshdagi bolalarga xos bo'lgan harakat usullarini qo'llash odatiy holdir: taqlid qilish, nusxalash. Ular oddiy amaliy muammolarni hal qilish uchun umumlashtirilgan harakat uslubiga ega emaslar.

Keyingi bosqichga o'tishda - vizual-majoziy fikrlash - o'zaro bog'liq ikkita shart muhim rol o'ynaydi. Birinchi shart - bolalarda haqiqiy ob'ektlarning rejasini va ushbu ob'ektlarni aks ettiruvchi tasvirlar va modellar rejasini farqlash qobiliyatini shakllantirishdir. Ikkinchi shart - nutqning rivojlanishi. Ob'ektlarning belgilarini, ularning atributlarini, munosabatlarini o'zlashtirib, bola ob'ektlarning tasvirlari bilan aqliy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Kar bolalarning vizual-majoziy fikrlash xususiyatlari R.M.Boskis tomonidan o'rganilgan, 1963; J.I.Shif, 1968 yil; I.M.Solovyov, 1962, 1966; T.V.Rozanova, 1966, 1978, 1985, 1997; N.Vyashkova, 1966,1968,1988 va boshqa mualliflar.

N. V.Yashkova (1988) ta'kidlashicha, kar bolalarning aqliy faoliyatidagi ba'zi qiyinchiliklar nisbatan oddiy vizual vazifalarni hal qilishda ham paydo bo'ladi. Kar bolalarda vizual fikrlash faoliyatining asosiy kamchiligi shundaki, ular intellektual operatsiyalarning ob'ekt faol shakllaridan aqliy shakllariga o'tishda juda uzoq vaqt davomida qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Bu muammo nutqning rivojlanmaganligi og'zaki muloqot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kar bolalarda amaliy tajribani shakllantirishga to'sqinlik qilishidan kelib chiqadi.

Kar bolaning og'zaki-mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda uning eshitish bolalarida rivojlanishi bilan solishtirganda yanada o'ziga xoslik kuzatiladi. Og'zaki-mantiqiy tafakkur lingvistik vositalar asosida shakllanadigan va faoliyat ko'rsatadigan tushunchalar, mantiqiy tuzilmalardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Binobarin, tafakkur va nutq o'rtasidagi munosabat masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda kar bolalarning og'zaki-mantiqiy tafakkurini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud. Bular R.M.Boskis, A.P.Gozova, L.V.Zankov, N.G.Morozova, I.M.Solovyov, L.I.K.G.Korovina, J.I.Shif, G.M.Dulneva, E.M.Kudryavtseva.

So'nggi yillarda neyrofiziologik darajada eshitish buzilishi, nutq buzilishi va og'zaki-mantiqiy fikrlash o'rtasidagi yaqin bog'liqlikni isbotlovchi ilmiy tadqiqotlar paydo bo'ldi. Shunday qilib, M.N.Fishman ta'kidlashicha, «eshitish analizatoridagi nuqson bilan, birinchi navbatda, chap yarim sharning nutq zonalari azoblanadi ... Bu holda nutq rivojlanishining buzilishi ham chapning funktsiyalarini tavsiflovchi mavhum-mantiqiy fikrlashda o'ziga xos o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. yarim shar».

Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan kar bola tafakkurining rivojlanish faktlari va qonuniyatlari u yoki bu darajada eshitish qobiliyati zaif, turli darajadagi eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalarga ham xosdir, deb taxmin qilish mumkin.

L.I.Tigranovanning ta'kidlashicha, eshitish qobiliyati zaif bolalarning nutqining rivojlanish darajasi bo'yicha juda xilma-xil bo'lganligi sababli - individual buzilgan so'zlardan iborat nutqdan tortib, kichik kamchiliklari bo'lgan kengaytirilgan nutqgacha - ularning fikrlash rivojlanish darajasida sezilarli xilma-xillikni kutish kerak. «Eshitish qobiliyati past o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini psixologik o'rganish maxsus korreksion ta'lim masalalarini hal qilishga olib kelishi, ushbu toifadagi bolalarga ularning intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda yanada tabaqalashtirilgan yondashuv uchun asos bo'lishi kerak.

Aqliy rivojlanishni o'rganish bolaning haqiqiy imkoniyatlariga, uning individual xususiyatlariga, umumiy rivojlanish darajasiga mos keladigan eng qulay ta'lim sharoitlarini yaratish uchun zarurdir (L.I. Tigranova, 1978, 3-bet).

Eshitish qobiliyati zaif bolalarning fikrlash xususiyatlarini o'rganish muammosi hozirgi vaqtda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu muammoga bag'ishlangan asarlar ko'p emas. Nazariy bazaning etishmasligi ushbu toifadagi bolalar bilan ishlashning uslubiy va uslubiy darajasiga ta'sir qiladi. Amaliyotchilar ilmiy va uslubiy adabiyotlarning etishmasligini, eshitish qobiliyatini qisman yo'qotgan bolalarda fikrlash muammosiga bag'ishlangan davriy nashrlarda yangi maqolalar, uni tashxislash va tuzatish usullarini ta'kidlaydilar. Hozirda bu yo'nalishda deyarli hech qanday ish yo'q.

20-asrda E.I.Andreeva, I.L.Nikolskaya, R.M.Boskis, I.M.Gilevich, K.G.Korovin, L.V.Nikolaeva, L.I.Tigranova, A.Bassam va boshqa bir qancha mualliflar. 2003 yilda T.V.Rozanova eshitish qobiliyatini qisman yo'qotgan maktab o'quvchilarining kognitiv sohasi bo'yicha bir nechta tadqiqotlar natijalarini jamladi.

T.V.Rozanovanning ta'kidlashicha, eshitish qobiliyati zaif bolada kognitiv faoliyatning vizual shakllarining rivojlanishi nutq va og'zaki-mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdan ko'ra muvaffaqiyatliroq davom etadi. Ammo vizual vazifalarning murakkablashishi bilan, maktabda o'qish jarayonida bola ularni hal qilishda tobora ko'proq qiyinchiliklarga duch kela boshlaydi va maktabda ortda qoladi. Masalan, vizual topshiriqlarda rasmlarni o'ziga xosligiga ko'ra tanlashda, Raven matritsalarini, birinchi sinf o'quvchilari eshitishlari qiyin bo'lganlar bilan birga, bu vazifalarni bajaradilar.

Ular markaziy simmetriya printsipiga ko'ra rasmni bir butunga to'ldirishda eshitadiganlarga qaraganda ko'proq qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Ammo aksenel simmetriya printsipidan foydalanganda va, ayniqsa, o'xshashlik printsipi bo'yicha rasm qismlari o'rtasidagi

munosabatlarni oʻrnatish asosida butunga qoʻshilganda, 7-8 yoshli eshitish qobiliyati zaif bolalar bolalarga qaraganda koʻproq qiyinchiliklarga duch kelishadi. normal eshitish bilan. Buning sababi shundaki, ushbu muammolarni hal qilish uchun barcha xususiyatlarni batafsil tahlil qilish va ularni bir-biri bilan taqqoslash kerak. Bu aqliy faoliyat ogʻzaki ichki nutq unga kiritilganda yanada muvaffaqiyatli amalga oshiriladi

A. Bassam (1992)ning fikricha, oʻsmirlik davrida yuqoridagi vazifalarni hal qilish eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun qulayroq boʻladi. Bu ularning vizual-majoziy tafakkurining rivojlanishi va muammolarni hal qilishda nutqning qoʻshilishidan dalolat beradi.

L.I.Fomicheva (1979) koʻrish qobiliyatiga ega boʻlgan kichik maktab oʻquvchilari uchun vizual muammolarni hal qilishda sezilarli qiyinchiliklar paydo boʻlishini aniqladi, bunda vizual vaziyatni qisqacha ogʻzaki tavsifdan foydalangan holda, qayta yaratuvchi tasavvur yordamida tasvirlash talab etiladi. Maʼlum boʻlishicha, oʻquvchi uchun juda qulay va tushunarli boʻlgan, xonaning turli joylarida bir nechta obʼektlarning holatini tavsiflovchi oddiy matn uning mazmunini aniq ichki ifodalashga olib kelmaydi.

Kichik maktab oʻquvchilari hali ham ogʻzaki tavsif asosida kosmosdagi obʼektlar oʻrtasidagi munosabatni tasavvur qila olmaydilar. Eshitish qobiliyati zaif bolalarning rekreativ tasavvurlarini rivojlantirishda vizual kognitiv faollik va ogʻzaki nutq oʻrtasida chambarchas bogʻliqlik mavjud.

T.V.Rozanova (2003) taʼkidlaydiki, agar eshitish qobiliyati zaif bolalarda boshlangʻich maktab yoshidan boshlab, maxsus taʼlim sharoitida ogʻzaki nutqning har tomonlama rivojlanishi va ularning birligidagi barcha kognitiv jarayonlar amalga oshirilsa, asta-sekin oʻrta va hatto. koʻproq katta maktab yoshida ularning aqliy rivojlanishi odatiy holga yaqinlashadi.

L.I.Tigranovanning boshlangʻich maktab yoshidagi eshitish va eshitish qobiliyati zaif bolalarning aqliy rivojlanishini qiyosiy oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotida «eshitish qobiliyati zaif bolalar individual xususiyatlar va xususiyatlarni ajratib koʻrsatishda eshitish tengdoshlaridan qolishmaydi. obʼektlarda. Rang, shakl, oʻlchamdagi malaka muvaffaqiyatiga faqat vazifaning obʼektiv murakkabligi taʼsir qiladi.

Eshitish qobiliyati zaif bolalar ikkita mezon boʻyicha tasniflashda eshitish bolalariga nisbatan katta qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Tahlil shakllarini oʻzgartirish, uning shartlarini murakkablashtirish (tahlil doirasini kengaytirish, uning chuqurligini oʻzgartirish va boshqalar) umumlashtirish jarayonlarining pastroq darajada sodir boʻlishiga olib keladi”.

Eshitish va eshitish qobiliyati past kichik maktab oʻquvchilari oʻrtasidagi sezilarli farqlar obʼektlarni tasniflash shakllarining murakkablashishi bilan kuzatiladi. Bu koʻp jihatdan ularning aqliy faoliyati jarayonida nutqning turli roli bilan belgilanadi. Eshituvchi bolalarda koʻp hollarda nutq shaklidagi aqliy harakatlar uni tasniflash, rejalashtirish va boshqarishning amaliy harakatlaridan oldinda. Eshitish qobiliyati zaif bolalar tomonidan topshiriqni bajarish usulini nutqda umumlashtirishdagi qiyinchiliklar vazifani bajarishda qoʻshimcha tashqi tayanchlarga ehtiyoj tugʻdiradi (L.I.Tigranova, 1978).

Eshitish va eshitish qobiliyati zaif birinchi sinf oʻquvchilarining aqliy faoliyatining xususiyatlarini taqqoslash asosida L.I.Tigranova eshitish qobiliyati zaif birinchi sinf oʻquvchilarining intellektual imkoniyatlarini baholashning quyidagi mezonlarini belgilab berdi:

1. Eshitish qobiliyati zaif birinchi sinf oʻquvchilari mustaqil ravishda yoki koʻrgazma asosida obʼektlarni umumlashtirish uchun uchtadan koʻp boʻlmagan hollarda individual belgilari (rangi, shakli, oʻlchami) boʻyicha tasniflashlari mumkin. Umumlashtirish uchun asos boʻlgan obʼektlar sonining kamayishi bilan eshitish qobiliyati zaif bolalar bitta tushuntirish asosida umumiy xususiyatni ajratib turadilar.

2. Eshitish qobiliyati zaif bolalar mustaqil ravishda yoki qoʻshimcha namoyishdan soʻng obʼektlarning (kiyim-kechak, idish-tovoq, odamlar, transport vositalari) kontseptual tasnifini

bajaradilar. Agar tasniflash tushuntirish asosida amalga oshirilsa, unda talabalar qatorlardan birini tasniflash mezonini ajratishga yordam berishlari kifoya. Binobarin, ular o'rganilgan tamoyilni yangi materialga keng o'tkazishga ega, bu esa o'quvchining o'rganish qobiliyati va salohiyatini ochib beradi. Kontseptual tasnifni og'zaki umumlashtirish, hatto tasniflash tamoyilini tushuntirgandan keyin ham barcha eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalar uchun mavjud emas.

3. Ob'ektlarni ikki xususiyatning kombinatsiyasiga ko'ra tasniflashda eshitish qobiliyati zaif bolalar ko'rgazma yoki bitta tushuntirishdan keyin tasniflash tamoyilini o'rganadilar, buning natijasida ular yangi materialga oson o'tadilar. Ikkinchi bo'limning eshitish qobiliyati zaif bolalarida ikkita belgining kombinatsiyasiga asoslangan tasniflash mezonlarining og'zaki umumlashmalari bo'lishi mumkin emas.

Bir qator syujetli rasmlarni joylashtirishda eshitish qobiliyati past bolalar mustaqil ravishda yoki birinchi rasmni ko'rsatish asosida uchdan to'rttagacha bo'lgan hikoyalar tuzishlari mumkin. Agar ketma-ket rasmlardagi havolalar soni ko'paysa, eshitish qobiliyati zaif bolalar birinchi yoki birinchi va ikkinchi rasmlarni bitta tushuntirish bilan vazifani engishadi (L.I.Tigranova, 1978).

K.G.Korovin (1982), L.I.Tigranova (1991)larning tadqiqotlari eshitish qobiliyati zaif bolalarning mantiqiy fikrlash xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan[1].

